

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX KAFEDRASI

**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK
fanidan**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	200000 – San’at va gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	220000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo’nalishi:	60220300 – Tarix (mamlakatlar va yo’nalishlar bo’yicha)

NAMANGAN – 2023

Ushbu o'quv-uslubiy majmua Vazirlikning 2013 yil 2 avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy adabiyotlar bilan ta'minlashni takomillishtirish to'g'risida"gi 278-sonli buyrug'i, uning to'rtinchi ilovasi, ya'ni: "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarining DTS asosida fanlar bo'yicha o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish Tartibi"ning 2-ilovasi 2-shaklini inobatga olgan holda "Manbashunoslik va tarixshunoslik" fani bo'yicha bakalavr bosqichidagi talabalarning zaruriy tayyorgarlik darajalari va bilimlari mazmuniga qo'yiladigan talablar asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: B. Qurbonov – NamDU "Tarix" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Taqrizchi: J. Yuldashev- Namangan davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi PhD.

O'quv-uslubiy majmua Namangan davlat universitetining Kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan.
2023 yil " " avgustdagi "1"-sonli majlis bayoni.

MUNDARIJA

O'quv materiallari

a) Ma'ruzalar bo'yicha o'quv materiallari4-32

b) Seminar mashg'ulotlari bo'yicha o'quv materiallari 32-58

Mustaqil ta'lim mashg'ulotlari 58-64

Glossariy 64-86

Ilovalar

a) Fan dasturi86-94

b) Ishchi fan dasturi94-118

c) Tarqatma materiallar119-136

d) Testlar 136-150

e) Baholash mezonni 151-154

1. MAVZU: KIRISH. TARIXSHUNOSLIK FANI VA UNING VAZIFASI. O‘ZBEKISTONDA QADIMGI DAVR TARIXINING O‘RGANILISHI.



O‘quv maqsadi: Talabalarda “Tarixshunoslik” fani va uning predmeti haqida tushuncha hosil qilish, talabalarga tarixshunoslikning maqsad hamda vazifalari, tarixiy bilimlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishini tushuntirish.

“Avesto” haqidagi ilmiy tadqiqotlar, olib borilayotgan ishlar haqida ma’lumot berish. Ahamoniylar, yunon-makedon bosqini va ularga qarshi kurash tarixi haqida ma’lumot beruvchi Eron va yunon manbalari haqida tushuncha berish va bu davrdagi adabiyotlarini sharhlash. Markaziy Osiyoning qadimgi davlatlari haqida tushuncha berish, qadimgi davlatlar haqidagi manbalar va tarixshunoslik tadqiqotlari mohiyatini ochib berish, Qang‘ davlati tarixshunosligini tushuntirish.

Tayanch so‘z va iboralar: tarix, tarixshunoslik, epik asarlar, tarixiy usul, tahliliy usul, tarixni o‘rganishning ahamiyati.

Zardushtiylik, “Avesto”, Behistun yozuvlari, Arrian, Qang‘ davlati, “Behistun bitiklari”, “Maxabxarata”, Gerodotning “Tarix”, Diodorning “Tarixiy kutubxona”, Strabonning “Geografiya”, Arrian Flaviyning “Iskandarning yurishlari”, Kvint Kursiy Rufning “Buyuk Iskandar tarixi”, Pompey Trogning “Filipp tarixi”, Polibiyning “Umumiy tarix”, Ptolomey Klavdiyning “Geografiya”, Yustinning “Pompey Trog yepitomi” asarlari, xitoy yilnomalari, So‘g‘d tilida bitilgan yodgorliklar, “Xvaday namak”, Al-Xorazmiyning “Kitob at-tarix” va “Kitob surat ul-arz” asarlari, “Hudud ul-alam”, Sharqiy Turkiston va Tibet xalqining qadimgi davr tarixi tarixshunosligi.



Tarixshunoslik haqida tushuncha


Tarixshunoslik tarix fanlari tizimida o‘ziga xos mustaqil o‘ringa ega bo‘lib, uning o‘zining manbalari va tadqiqot usullari mavjud. Tarixshunoslikning ob’ekti tarixiy jarayonning o‘zigina bo‘lib qolmay, balki tarixiy tafakkur, uni o‘rganish va tarix haqidagi fan hisoblanadi. Masalan, Markaziy Osiyo hududidagi ilk o‘rta asrlar davri tarixi mintaqada mavjud davlatlar, arablar istilosi, islom dinining yoyilishi, markazlashgan davlatlarning paydo bo‘lishi va hokazolarni o‘rganadi. Ilk o‘rta asrlar Markaziy Osiyo tarixshunosligi esa bu davr tarixi o‘rta asrlarda, yangi davrda va bizning kunlarda qanday tadqiq etilganligini o‘rganadi.

Tarixshunoslik ijtimoiy-tarixiy tafakkur haqidagi fan bo‘lib, u yoki bu davrning g‘oyalarini o‘zida aks ettiradi. Ushbu fan manbashunoslik bilan juda yaqin aloqada bo‘lib, har bir davr manbalarining tuzilishi, ularga tanqidiy yondashuv va foydalanish usullari, tarixiy tafakkur va bilimlarning darajasi hamda saviyasini belgilaydi.

Tarixshunoslikning rivojlanishida manbalar doirasining kengligi va o'sha davrdagi tarixiy tadqiqot usuli asosiy omil hisoblanadi. Tarixiy tadqiqot usullarining takomillashuvi (masalan, tanqidiy yondashuv, tarixiy taqqoslash va boshqalar), yangi (epigrafik, arxeologik, numizmatik) manbalarning paydo bo'lishi tarix fanining saviyasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Mazkur fan tarmog'i manbashunoslik, arxeologiya, etnografiya, numizmatika va lingvistika bilan chambarchas bog'liq.

Jahon tarixi tarixshunosligi insoniyat sivilizatsiyasi va tarixiy tafakkur darajasi xarakteriga qarab bir necha bo'limlarga bo'linadi. Bular: qadimgi, o'rta asrlar (medievistika), yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligidir.

Xususan, O'zbekiston tarixi tarixshunosligini ham shartli ravishda davrlar, tarixiy tafakkur hamda tadqiqot usullaridan kelib chiqib davrlarga bo'lish mumkin. Bular: O'zbekistonning qadimgi, o'rta asrlar, Rossiya mustamlakachiligi, sovet davri va mustaqillik davri tarixshunosligidir.



Markaziy Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligi deganda, ushbu mintaqada yashagan qadimgi xalqlarining eng qadimgi zamonlardan hozirgacha bo'lgan tarixiga asosiy manba bo'lib xizmat qiluvchi tarixshunoslikka oid asarlar tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining yarim asrlik faoliyati davomida tarixshunoslik sohasi muhim rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Bu esa O'zbekistonda tarix fani rivojida tarixshunoslikning muhim o'ringa ekanligining yaqqol tasdig'idir. Aynan tarixshunoslik tarixni (tor ma'noda emas, balki tarix fanining tarixini yoritish sifatida) chuqur va har tomonlama o'rganish, ob'ektiv, tarixiy fikrning rivojlanish bosqichini uning muayyan bosqichlarida bilish, turli oqimlarda tahliliy ravishda ko'rib chiqish, amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish, vazifalarni belgilash va keyingi tadqiqot yo'nalishlarini asosli shaklda tarixchilarga tavsiya qilishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tarixchilar tomonidan eng diqqatga sazovor tarixiy asarlar mualliflarining hayoti, faoliyati va erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi, jamoat muhitini

turli bosqichlarda qayta tiklash bo'yicha keyingi tadqiqotlar yo'nalishlarini aniqlash, yosh olimlar ishini yengillashtirishda, ya'ni muayyan ilmiy muammo ustida adabiyotlar bilan tanishishga imkon beradi.

Ma'lumki, tarixshunoslik tadqiqotlari tahliliy fikr erkinligi, taqiqlangan mavzular va nomlarning yo'qligi, chuqur bilimlar hamda adabiyot masalalarini tanqidiy idrok etishda o'zining afzalliklari va kamchiliklari bilan tarixiy olimlarning turli qarashlari, tushunchalarini hisobga olish, taqqoslash hamda aniqlab olish qobiliyatlarini talab qiladi. Ular eng muhim va haqqoniy, asosga ega bo'lib, o'rganilayotgan muammoning to'g'ri yoritilishiga xizmat qiladi.

Tarix fan sifatida qachon va qanday paydo bo'lgan? Ushbu savolga javob olish uchun antik, ya'ni qadimgi manbalarga murojaat qilinadi. Yozuv vujudga kelgunga qadar epik asarlar ("epos" – grekcha so'z bo'lib, "doston", "rivoyat" va "afsona" ma'nolarini anglatadi) tarixni o'rganish uchun yagona manba hisoblangan (masalan, Gomerning "Iliada" va "Odisseya", Markaziy Osiyo xalqlarining "Alpomish", "Manas" va "Go'ro'g'li" dostonlari bilan birga rus bahodirlari haqidagi Vladimir, Muromli Ilya, Dobrinya Nikitich, Alyosha Popovich kabi xalq eposlari yoki "Igor polki jangnomasi").

Yozuv ixtiro qilinganidan so'ng tosh yoki binolardagi bitiklar va yilnomalar eng qadimgi yozma tarix manbalari hisoblanadi. O'sha davrlardagi voqealarning guvohlari yoki zamondoshlari yozib qoldirgan manbalar, keyinchalik xattot va shoirlar tomonidan qayta-qayta ko'chirilgan yoki og'izdan-og'izga ko'chib, bizgacha yetib kelgan asarlar qadimiy manba hisoblanadi. Chamasi, o'z yozuviga ega bo'lgan barcha xalqlarda bitiklar va yilnomalar uchraydi. Masalan, yunon olimi Gerodotning mashhur "Tarix" kitobi bizgacha yetib kelgan eng qadimgi tarixiy manbadir. Gerodot Kichik Osiyo (hozirgi Turkiya hududi) sohilidagi Galikarnas shahrida tug'ilgani uchun, unga Sharq ta'siri o'tganligi tabiiydir. Hatto Sitseron zamondoshlari Gerodotni "tarixning otasi" deb ataganlar. Aslida, Gerodotning ushbu asari oxiriga yetkazilmagan (miloddan avvalgi 470 yilgacha bo'lgan voqealar bilan tugallanadi) va uni hozirgi ma'noda ilmiy tadqiqot deb bo'lmaydi. Shunga qaramay, mazkur kitob voqealar va dalillar ko'lami hamda badiiy qimmatini jihatidan o'zidan avvalgi safdoshlaridan anchagina baland turadi. Masalan, Gerodot o'z asarida Kaspiy dengiziga chegaradosh bo'lgan hududlarda yashagan xalqlarni tasvirlagan, shundan so'ng Kaspiyortida yastangan vohalar, ularda yashagan masoxatlar (massagetlar) haqida ma'lumotlar beradi. Gerodot birinchi bo'lib Kaspiy dengizi Kaspiy xalqlari nomidan olganligini ta'kidlaydi. Muarrixning buyuk shaxs ekanligini uning quyidagi xolis fikrlaridan ham bilish mumkin: "Men o'zim eshitgan narsalarni hikoya qilyapman, ammo ularning hammasiga ishonishim shart emas. Mayli, bu xulosa mening yangi asarimga ham taalluqli bo'lsin".

Miloddan avvalgi V–IV asrlarda yashagan yunon tarixchisi Fukididning Pelopennes urushlari haqidagi asarlari dunyodagi birinchi ilmiy tarix deb e'tirof etiladi. Ushbu asar o'z davri tarixiy voqealarining ishonchli va haqqoniy tasvirlanganligi bilan ajralib turadi. Gerodotni kitobiga nisbatan Fukididning asari olg'a tashlangan qadam edi.

Ushbu kitobda hayot voqealariga Olimp xudolarining aralashuvini ko'rmaymiz. Fukididning asarida tarixiy tahlilning asosiy talablari – voqea guvohlarining fikrlarini taqqoslash va bevosita o'sha voqea qatnashchilarining hikoyalaridan foydalanish kabi usullarni ko'rish mumkin. To'g'ri, Fukidid ham asotirlar va miflardan foydalanadi va bunda asosiy e'tiborni tarixiy taraqqiyot hamda iqtisodiy omillarning ta'siriga qaratadi. Tarixiy dalillarni aniq bayon qilish va haqiqatni aniqlashga intilish Fukidid asarining asosiy yutug'idir.

Tarixiy voqealarni haqiqatga yaqin qilib ilmiy bayon etgan muarrixlardan yana biri – miloddan avvalgi XI asrda yashagan Polibiydir. U o'zining “Umumjahon tarixi” asarida miloddan avvalgi 220–146 yillardagi voqealarni ellinlar nuqtai nazaridan tasvirlaydi. Bu O'rta Yer dengizi atrofidagi barcha davlatlarning tarixini o'zaro bog'liqlikda tasvirlagan birinchi asardir.

Muarrixning xulosasiga ko'ra, har bir davlat tirik vujud kabi tabiat qonuniyatiga asosan o'sadi, rivojlanadi va inqirozga uchraydi. Polibiyda birinchi marta “pragmatik tarix” degan ibora uchraydi. O'z asarining ikkinchi qismini muarrix pragmatik usulda quradi: u voqealar nima sababdan, qanday maqsadda yuz berganligini aniqlaydi, ya'ni muayyan voqealar kelib chiqish sabablarining davomiyligi va oqibatlarini bayon qiladi.

Fukidid va Polibiyning asarlari antik davr tarixshunosligining cho'qqisini tashkil etadi. Keyingi yunon muarrixlarining deyarli barchasi ularning izidan bordilar.

Tarixshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari

Mustaqillik tufayli yurtimizda qadimgi davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'naviy hayotni atroflicha tahlil hamda tatbiq etish imkoniyati vujudga keldi. Bugungi kunda o'zbek xalqining haqqoniy tarixini yaratish tarixshunoslar oldida turgan dolzarb masaladir.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitilayotgan “Tarixshunoslik” fani O'zbekiston tarixiga doir hozirgi davr tarixshunosligi yutuqlarini ko'zda tutib, uning vujudga kelishi va rivojlanishining asosiy vositalari, davrlarni aniqlash hamda ushbu fan taraqqiyotining kelajagi haqida bahs yuritadi.

Tarixiy asarlar mafkuradan xoli, ob'ektiv va haqqoniy yozilishi kerak. Ammo, har doim ham bunday bo'lmagan. Ushbu turdagi asarlarni tarixshunoslik nuqtai nazardan tadqiq etish tarixni o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimiz tarixiga oid juda ko'p tadqiqot va asarlar mavjud bo'lib, ularni o'rganish, yozilish uslubi, ilgari surilgan muammolari va xarakterli xususiyatlaridan xabardor bo'lish foydadan holi emas. Tarixshunoslikni o'rganish orqali yoshlarda Vatanga muhabbat, o'zlikni anglash, moddiy va ma'naviy madaniyatni ko'z qorachig'iday asrash hissi uyg'onadi. Tarixshunoslik Vatan tarixini o'rganishda tarixiy muammolar ustida bahs yuritish va ijodkorlikka ilhomlantiradi. Tarix – ajdodlar o'giti, tajribasi, bir bor qilingan xatoni takrorlamaslik haqidagi saboq va kelajak so'qmoqlarini yorituvchi chiroq vazifasini o'taydi.

Тарихшunosликнинг асосий вазифаси

тарих фани ривожини чуқур ва ҳар томонлама ҳолисона англашдан, муайян тараққиёт даврида тўпланган тарихий билимларни таҳлилий тадқиқ этишдан, амалга оширилган ишларнинг натижасини чиқаришдан ҳамда шу асосда тадқиқ этилган долзарб муаммоларни аниқлаб, келгуси тадқиқотларнинг йўналишларини белгилашдан, тарихчиларни муайян тарихий илмий муаммо доирасидаги адабиётларга йўналтиришдан иборат.

Tarixshunoslik o‘tmishda kechgan va bugungi kunda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning odamlar ongida qanday aks etishi, tarixiy adabiyotlar orqali ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayoni, shuningdek, jamiyat tarixiy rivojining turli bosqichlarida tarixiy bilimlarning o‘tib borish jarayonini kuzatish imkonini beradi. Boshqacha aytganda, ma‘lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi bilan bog‘liqlikda ifodalaydi, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy muhitning tarix faniga ta‘siri, u yoki bu yo‘nalishdagi rivojlanish va tanazzulga yuz tutish sabablarini aniqlaydi. Tarixshunoslik shuningdek, fan taraqqiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan ilmiy tadqiqot markazlari tarixi, unda faoliyat ko‘rsatgan ilmiy kadrlarning salohiyati, ularning fan rivojiga qo‘shgan hissalarini o‘rganish kabi vazifalarni ham bajaradi.

Tarixshunoslik tadqiqotlarining bir qancha **tahlil usullari** mavjud:

1. **Qiyosiy tarixiy usul** – turli tarixiy davrlarda tarixiy ma‘lumotlar qanday paydo bo‘lganligi, harakatlanish darajasi, o‘zgarish va rivojlanish sabablari, jamiyat taraqqiyotida tarixiy fikrlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonlarini aniqlashda qo‘llaniladi.

2. Aniq tahliliy usul – olib borilgan tarixshunoslik tadqiqoti voqea-hodisalar tafsilotining kelib chiqish sabablari, rivojlanish jarayonini nazariy va faktik materiallarning o‘zaro aloqadorligini tahlil qilish va ularning fanda qanday yoritilganligini o‘rganadi.

3. **Mantiqiy tahliliy usul** tarixshunoslikda katta imkoniyatlarga ega bo‘lib, tarixiy muammoning o‘ziga xos xususiyatlari, tuzilishi, boshqa tarixiy hodisalar bilan bog‘liqligini o‘rganishda qo‘llaniladi. Boshqacha aytgana, ma‘lum bosqich yoki davrda tarix fanining rivojini jamiyat taraqqiyotining asosiy yo‘nalishi bilan bog‘liqlikda ifodalaydi.

4. **Xronologik usul** voqea-hodisalar haqida turli bosqich yoki davrda to‘plangan tarixiy faktlarni o‘zaro bog‘liklikda o‘rganishda qo‘llaniladi. Bu esa turli zamonda ilmiy

fikrlarning harakati, muammoga yondashuvda konsepsiyalar, qarashlar va g'oyalarning o'zgarib borishining takroriy yoki xilma-xil jihatlarini xronologik tartibda ochib beradi.

Tarixshunoslik tadqiqotlarida tadqiqotchining vazifasi o'zidan avvalgi bosqichlarda yaratilgan ilmiy asarlarni zamonaviy bilimlar nuqtai nazaridan o'rganish, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilishdan iborat.

Ma'lumki, tarixshunoslik tarix faniga nisbatan yangi fan hisoblanadi. O'rta asrlarda yaratilgan ba'zi tarixiy asarlar, jumladan, Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston", Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Muhammad Yusufbek Bayoniyning "Xorazm tarixi", "Shajarayi Xorazmshohiy", Ahmad Donishning "Buxoro amirlarining tarjimai hollari" va boshqalarda muayyan ma'lumotlarni umumlashtirish, fakt va tarixiy jarayonlar bayonida tahliliy yondashuvga bo'lgan harakatlar kuzatiladi.

Ўзбекистонда тарихшunoslik тарих фанининг махсус соҳаси ва алоҳида тадқиқот предмети сифатида XX асрнинг иккинчи ярмида шаклланди.

Aynan ushbu atmosferada, o'tgan asrning 40-yillari gumanitar fanlar uchun noqulay bo'lgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Tarix instituti tashkil etilgan vaqt), olimlar tarixshunoslikning tarix fanini rivojlantirish va takomillashtirishdagi tutgan o'rni hamda ahamiyatini anglagan holda harakat qilishlari kerak edi. Shuni hisobga olgan holda mamlakatda tarixshunoslikni barcha ilmiy-tadqiqot ishlarning organik tarkibiy qismga aylanishi uchun barcha ishlar qilindi.

Institut o'z faoliyatini boshlaganidan ko'p o'tmay, unda tarixshunoslik sohasiga qiziqishlari bor bir guruh tarixchilar aniqlandi. Jumladan, ushbu davrda V. Ya. Nepomninning "Osnovnye problemy istoricheskoy nauki v Uzbekistane" (1947), "O nekotorykh voprosax istorii Uzbekistana v dorevoluyusionnyy period" (1953) kabi asarlari, R. N. Nabievning "O nekotorykh itogax razvitiya istoricheskoy nauki v Uzbekistane" (1949), I. K. Dodonovning "Ob izuchenii istorii narodov Sredney Azii i Kazaxstana v sovetskiy period. Zametki istorika" (1951) maqolalari nashr etildi.

L. M. Landa ham tarixshunoslik sohasida samarali ishlarni amalga oshirgan. Uning ilmiy qiziqishlari doirasi umumiy mavzular (Oktyabr inqilobi tarixshunosligi, fuqarolar urushi, bosmachilar harakati va boshqalar) bilan bir qatorda, O'zbekistonda tarixiy institutlarning shakllanishi va rivojlanishini o'z ichiga olgan. Ushbu muallifning qalamiga mansub bir qator asarlar, jumladan, "Nekotorye voprosy istoriograficheskoy raboty v Uzbekistane" (1964), "Nekotorye voprosy istoriografii profsoyuznogo dvizheniya v Uzbekistane. Nachalo 1920 – seredina 1940 gg." (1964), "Sovetskaya istoriografiya natsionalno-gosudarstvennogo razmejevaniya Sredney Azii" (1964),

“Sovetskaya istoriografiya Xorezmskoy revolyusii 1920 goda” (1972) va boshqalar chop etildi.

Ayni paytda institut xodimi B. V. Luninning tarixshunoslikka bag‘ishlagan kitoblari: “Iz istorii russkogo vostokovedeniya i arxeologii (Turkestanskiy krujok lyubiteley arxeologii). 1895 – 1917 gg.” (1958), “Научные общества Туркестана и их прогрессивная деятельность. Конес XIX – начало XX vv.” (1962), “Srednyaya Aziya v dorevolusionnom i sovetskom vostokovedenii” (1965) va boshqa asarlari nashrdan chiqdi. Shuningdek, Ya. G‘. G‘ulomov, R. N. Nabiev va V. Ya. Nepomninnlarning “Ocherki istorii istoricheskoy nauki v SSSR” (M., 1955, 1958) asarining I va II jildlaridagi O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan qismlari mualliflari edi.

X. Sh. Inoyatov ham ushbu davrda bir qator tarixiy asarlarni nashr etdi. Jumladan, “Izuchenie istorii Oktyabrskoy revolyusii v Respublikax Sredney Azii” (1962), “Sovetskaya istoriografiya Oktyabrskoy revolyusii v Sredney Azii” (1966), “Izuchenie istorii grajdanskoy voyny v Sredney Azii” (1972), “Istoriografiya v Uzbekistane” (1973), “Kratkaya istoriografiya grajdanskoy voyny v Sredney Azii» (1974) va boshqa asarlar mazkur olimning qalamiga mansubdir.

O‘z davrida ilmiy va keng jamoatchilik tomonidan institut xodimlari yaratgan tarixshunoslik yo‘nalishidagi asarlar ma‘qullandi va ularga keng e‘tibor qaratildi. 1968 yilda Respublika Fanlar Akademiyasi Prezidiumining Qarori va akademik I. M. Mo‘minovning tavsiyasi bilan Tarix institutining tarixshunoslik sektori (keyinchalik bo‘limi)ga asos solindi. Mazkur bo‘limni tashkil etilgan paytidan 1988 yilgacha tarix fanlari doktori B. V. Lunin, 1988–1992 yillarda tarix fanlari nomzodi V. A. Germanov boshqardi. 1992 yildan hozirgi paytgacha ushbu bo‘limga tarix fanlari doktori, professor D. A. Alimova rahbarlik qilib kelmoqda.

Tarixshunoslik bo‘limining doimiy xodimlar bilan tashkil etilishi tarixshunoslikning institutning asosiy ilmiy yo‘nalishlaridan biri sifatida doimiy ravishda rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Bo‘lim xodimlari tomonidan tarixshunoslik ishlari orasida umumiy xarakterga ega bo‘lgan qator muhim asarlar yaratildi. Jumladan, M. A. Oxunova va B. V. Lunin hammuallifligidagi “Istoriya istoricheskoy nauki v Uzbekistane. Kratkiy ocherk” (1970), P. X. Aminova, M. A. Oxunova va B. V. Luninning birgalikdagi “Istoricheskaya nauka v Uzbekistane ot XXIV k XXVII s‘ezdu KPSS. Istoriograficheskiy ocherk” (1987) monografiyalari nashr etildi.

Shuningdek, 1974 yilda nashr etilgan “Nauka v Uzbekistane” asarining ikkinchi jildidan R. H. Aminova, M. A. Oxunova va B. V. Lunin, A. A. Asqarov hamda S. Mirhosilovlarning tarix, arxeologiya, etnografiya fanlariga bag‘ishlangan qismlari o‘rin olgan. Mazkur davrda B. V. Lunin taniqli sharqshunoslar – N. I. Veselovskiy (1979) va V. V. Bartold (1981)larning hayoti hamda ijodiga bag‘ishlangan monografiyalar, shuningdek, “Istoriografiya obshchestvennykh nauk v Uzbekistane” (1974), ikki jildli “Biobibliograficheskie ocherki o deyatelyax obshchestvennykh nauk v Uzbekistane” (1976–

1977) va “Istoriya Uzbekistana v istochnikax” (1984, 1988, 1990 y.) asarlarini e’lon qildi.

D. A. Alimova 1917 yildan to hozirgi kungacha O‘zbekistonda ayollar muammosi va gender masalasi tarixshunosligini o‘rganish hamda rivojlantirishga katta hissa qo‘shdi. Olimaning ushbu mavzudagi bir qator maqola va ocherklari qatoriga “K istoriografii resheniya jenskogo voprosa v Uzbekistane” (1977), “Literatura ob uchastii jennin Uzbekistana v obshchestvennom proizvodstve” (1984), “O‘zbekiston xotin-qizlar hayoti adabiyotlarda” (1984), “Literatura i pechat v reshenii jenskogo voprosa v Uzbekistane” (1987), “Xudjum v literature 20–30-x godov i zadachi obshchestvovedov v osvechenii jenskogo voprosa v Uzbekistane” (1988), “Kollektivizatsiya i jenskiy vopros v Respublikax Sredney Azii (po materialam publikatsiy 30-x godov)” (1989), “Jenskiy vopros v sovetskoy istoriografii Sredney Azii 20-x godov” (1989), “Izuchenie jenskogo voprosa v Uzbekistane: itogi i dalneyshie zadachi” (1989), “Sovremennoe sostoyanie jenskogo voprosa v Uzbekistane i zadachi obshchestvovedov” (1990) singari ko‘plab ilmiy ishlari kiradi. Uning uzoq muddatli ilmiy izlanishlari natijasida “Reshenie jenskogo voprosa v Uzbekistane (1917–1941 gg.): kratkiy istoriograficheskiy ocherk” (1987) va “Jenskiy vopros v Sredney Azii: istoriya izucheniya i sovremennyye problemy” (1991) kabi tadqiqotlari yaratildi.

Bo‘limda faoliyat olib borgan yana bir olim – V. A. Germanov esa O‘zbekistondagi yoshlar harakati tarixshunosligi, tarix fanining ilmiy va tashkiliy jihatdan shakllanish hamda rivojlanish jarayonlarini o‘rganish bilan shug‘ullandi. Uning “Znachenie istoricheskogo opyta raboty komissii Istmola na sovremennom etape” (1987), “O nekotoryx spornyx momentax v istoriografii komsomola Uzbekistana” (1989), “Poslanie Gorkogo molodeji Sredney Azii i izuchenie istorii komsomola” (1986), “Zabyt li professor Galuzo?” (1990), “Delo professora Yaroskogo” (1991), “K voprosu o postanovke voenno-istoricheskoy raboty v Turkestanskoy ASSR” (1991), “Tragediya uzbekskogo istorika Pulata Salieva” (1993) kabi asarlari shular jumlasidandir.

XX asrning 20–30- yillarida O‘zbekistondagi agrar o‘zgarishlar tarixshunosligi institut ilmiy xodimi L. S. Ivanovanning “K voprosu ob istoriografii agrarnoy politiki Sovetskoy vlasti v Turkestane. 1917– 1920 gg.” (1965), “Iz ranney istoriografii zemelno-vodnoy reformy 1925 – 1927 godov v Uzbekistane” (1970), “Istoriko-agrarnaya literatura Sredney Azii 20-x godov v otsenke sovremennoy istoriografii” (1984), “Nachalnyy etap resheniya agrarnogo voprosa v Turkestanskoy ASSR i yego otsenka v periodike 1918–1920 godov” (1985) kabi asarlarida aks etgan.

1989 yilda Tarix institutining “Tarixshunoslik” bo‘limida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston Respublikalari tarixshunoslari ishtirokida birinchi mintaqalararo “Tarixshunoslik o‘qishlari” (“Istoriograficheskie chteniya”) bo‘lib o‘tdi va unda tarixshunoslikning holati va vazifalari to‘g‘risida ma‘ruzalar tinglandi. Anjuman ishtirokchilarining bir qator chiqishlari tarixshunoslik tadqiqotlarning individual

muammolari va savollariga bag'ishlandi. Forum ishtirokchilari orasida ilmiy muassasalar xodimlaridan tashqari oliy o'quv yurtlari, arxiv va muzeylar vakillari ham bor edi.

Anjuman ishtirokchilari Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda ijobiy tendensiyalar bilan bir qatorda, tarixiy tadqiqot mavzusida ko'plab bo'shliqlarning mavjudligi, shuningdek, ularning ba'zilar yuzaki ko'rib chiqilganligi va muvofiqlashtirilmaganligini ochiq-oydin qayd etdilar. Ushbu anjumanda ilk bor olib borilayotgan ilmiy izlanishlarga dadil tanqidiy baho berildi, shuningdek, tarix fani muammolarini yoritishda yangi yondashuvlarni ishlab chiqish va amalga oshirish zarurati paydo bo'lganligi ta'kidlandi.

Shundan so'ng institutda tarixshunoslik, manbashunoslik va arxeografiya bo'limi, tarixiy bibliografiya sohasida salmoqli ishlar qilindi. B. V. Lunin muharrirligida Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi va O'zRFA Asosiy kutubxonasi tomonidan "Istoriya Uzbekistana: ukazateli sovetzkoy literatury. 1917–1984 gg." hamda Toshkent tarixiga oid adabiyotlar ko'rgazmasi ro'yxati tuzildi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, Samarqand davlat universiteti tarixiga oid va boshqa mavzulardagi asarlar ham nashr etildi. O'rta Osiyo va Qozog'iston xalqlarining etnogenezi hamda etnik tarixi bo'yicha Rossiya imperiyasi va sovet davri adabiyotlari asosiy ko'rsatkichi tayyorlandi.

1993 yilda bo'lim xodimlari "Ocherki istorii istoricheskoy nauki v Uzbekistane. Pervaya tret XX veka" asari bo'yicha ishlarni yakunladilar. "Ocherklar" keng qamrovli muammolar va masalalarni qamrab oladi. Xususan, "XX asrning uchdan birinchi qismida O'zbekistondagi tarixshunoslik jarayonlari", "O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy tarixi bo'yicha tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari", "O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy tarixi muammolarining rivojlanishi", "O'zbekiston madaniyati muammolarini o'rganish tarixi", "O'zbekistonda tarixiy sharqshunoslik tadqiqotlarning holati va rivojlanishi", "O'zbekiston olimlari asarlarida etnografiya", "XX asrning uchdan birinchi qismida O'zbekistonning arxeologik aloqalarini o'rganish" va boshqa qimslarda muhim jarayonlar o'z aksini topdi. Mazkur monografiya 1994 yilda ikki jildda nashr etilgan. Ushbu davrda shuningdek, B. V. Lunin "Timur i Ulugbek: lichnost, istoriya, epoxa" kitobi uchun muammoning tarixshunoslik qismini nashrga tayyorladi.

Ta'kidlash joizki, Respublikada tarixiy mavzularda himoya qilingan dissertatsiyalar sonining ko'payishi tarixshunoslik ishini jonlantirish hamda rivojlantirishning yorqin va ishonchli namunalaridan biridir (1993 yilga oid ma'lumotlariga ko'ra, bu borada oltita doktorlik va 20 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan).

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 50 yilligi (1993 yil) munosabati bilan "O'zbekiston mustaqillikka erishgan davr tarixshunosligi" mavzusida ikkinchi mintaqaviy "Tarixshunoslik o'qishlari" («Istoriograficheskie chteniya») bo'lib o'tdi. Anjumanning asosiy maqsadi, tarixshunoslik sohasini tadqiq qilishning eng muhim muammolari va vazifalarini jamoa bo'lib muhokama qilishdan iborat edi. Ushbu

tadbirning yana bir dolzarbligi shunda ediki, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi e‘lon qilinganligi nafaqat O‘zbekiston xalqlari, balki O‘rta Osiyoning boshqa Respublikalari, shuningdek, yaqin va uzoq davlatlar keng jamoatchiligi orasida uning tarixiy o‘tmishiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirgan edi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida O‘zbekistonda tarix fani va uning ba‘zi sohalari rivoji dinamikasini yorituvchi asarlar M. A. Oxunova va B. V. Lunin, D. A. Alimova va L. S. Ivanova, B. V. Lunin, T. S. Saidqulov, A. X. Doniyorovlar tomonidan yaratildi.

Respublika fan arboblarning faoliyati B. V. Luninning “Biobibliograficheskie ocherki o deyatelyax obshchestvennykh nauk Uzbekistana” asarida, mustamlaka totalitar tuzum sharoitida O‘zbekiston tarix fani sohasida xizmat qilgan tarixchilarning hayoti va faoliyati D. A. Alimova va D. Rashidovalarning “Mahmudxo‘ja Behbudiy va uning tarixiy tafakkuri”, siyosiy qatag‘on qurbonlari bo‘lgan olimlar taqdiri V. A. Germanovning “Istoriki Turkestana v usloviyax politicheskogo terrora 20–30-x godov”, “Professor Pulat Saliev i yego vremya” asarlarida aks etgan.

Shuningdek, xotin-qizlar muammosi tarixshunosligi D. A. Alimovaning “Jenskiy vopros v Sredney Azii: istoriya izucheniya i sovremennye problemy (20–80 gg)” nomli asarida aks etgan bo‘lsa, milliy ozodlik harakatlari, ularning xorijda o‘rganilishi D. H. Ziyoevaning “Turkistonda milliy ozodlik harakati” nomli izlanishlarida o‘z ifodasini topdi.

Ko‘rib o‘tilayotgan yillarda tarix fanining ko‘plab muammolari nashr etilgan ilmiy maqolalarda o‘zining tarixshunoslik tahlilini topdi. Tarixshunoslik bo‘limi xodimlari tomonidan o‘tkazish an‘anaga aylangan “Tarixshunoslik o‘qishlari” anjumani O‘zbekistonda tarix fani sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni sarhisob qilib boradi. Shuni alohida qayd etish kerakki, ushbu davrda O‘zbekistonda tarixshunoslik fani ilmiy maktablariga B. V. Lunin, G. I. Jeltova, F. H. Qosimov, R. Rajapova va D. A. Alimova kabi olimlar tomonidan asos solindi.

Tarixshunoslik tadqiqotlari mustaqillik yillarida ancha kengayib, dastlabki davrlarda 5 ta darslik yaratildi, 20 dan ortiq nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Bundan tashqari, dunyoning turli mamlakatlari (AQSh, Koreya, Turkiya, Rossiya, Buyuk Britaniya va Germaniya)dagi xorijiy tadqiqotchilar O‘zbekiston tarixshunoslari bilan yaqin ilmiy-amaliy aloqalar o‘rnatib, O‘zbekiston tarixshunosligining muhim muammolarini o‘rganishda davom etmoqda.

Shunday qilib, tarixshunoslik va manbashunoslik tarix fanining muhim yo‘nalishlaridan biri, uning nazariy asosi hisoblanadi. Biz VIII asrdan XX asr boshlarigacha bo‘lgan Markaziy Osiyo tarixshunosligiga doir nodir qo‘lyozma asarlarga egamiz.

Bugungi kunda o‘tmishni o‘rganishda tarixshunoslik fani o‘zining uslubiy va texnik doirasidan chiqqan. Muammo tarixshunosligini bilish tarixchi-tadqiqotchining metodologiyasini aniqlab bersa, muammoga oid manbalardan xabardorlik uning

adabiyotlarni qiyosiy solishtirgan holda xolis (ob'ektiv) xulosalar chiqarishiga imkon beradi.

O'tgan yillar mobaynida tadqiqotlarning metodologik bazasi ham yangilandi, tarix fani bilan arxeologiya, etnologiya, san'atshunoslik, sotsiologiya kabi yondash fanlar o'rtasida o'zaro metodologik tajriba almashinuvi yuz berdi.

“Avesto” – dastlabki yozma tarixiy asar

Zardushtiylik – insoniyat madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan dunyodagi eng qadimgi dinlardan biridir. Ayni vaqtda, zardushtiylik eng murakkab, o'z navbatida tushunish qiyin bo'lgan dinlardan hisoblanadi. Bundan 2700 yil muqaddam Osiyo dashtlarida vujudga kelgan ushbu din Erondagi uch qudratli (Kayoniylar, Ahamoniylar va Sosoniylar) davlatlarda uzoq asrlar hukm surgan din bo'lishi bilan birga, u juda ko'p Sharq mamlakatlari, xususan, Markaziy Osiyoda ham tarqalgan edi.

Yevropada Zardushtiylik ta'limoti antik davr – qadimgi zamonlardayoq katta qiziqish uyg'otgan, Zardusht va uning ta'limoti haqida ko'pchilik yunon va rimlik yozuvchilar, faylasuflar va tarixchilar ilmiy asarlar yozganlar. Sosoniylar davrida, ya'ni III–VII asrlarda zardushtiylikning muqaddas kitobi – “Avesto” matnlari o'rta forsiy tilga ko'chirila boshlagan vaqtlardayoq mazkur din tarixshunosligi tug'ila boshlagan edi.

Shuni ta'kidlash mumkinki, miloddan avvalgi I asrda yaratilgan “Shahrihoiy Eron”, “Denkard”, “Bundahishn” va “Ardavirafnoma” kabi pahlaviy tilida bitilgan kitoblar hamda sharhlar avestoshunoslikning muqaddimasidir.

Avestoshunoslikning keyingi tadrijiy taraqqiyoti islom davriga to'g'ri keladi. Xususan, ulug' vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kitobida “Avesto” haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Beruniy davri (973–1048)da “Avesto”ni bilganlar, shubhasiz, hozirgiga nisbatan ancha ko'p bo'lgan va ulug' alloma Hindistonga qilgan safari hamda Xorazm Ma'mun akademiyasidagi faoliyati davomida “Avesto” tilini o'rgangan.

Bundan tashqari, Beruniy davrida xorazmiy tili tamoman o'lik tilga aylanmagan edi. Ba'zi tadqiqotchilar, xususan, professor Jalil Do'stxoh Beruniyning ba'zi fikrlariga asoslanib, “Avesto”ning bizga noma'lum qismlari yoki o'sha qismlar mazmuni bilan tanish bo'lgan bo'lsa kerak”, degan fikrni bildiradi.

“Avesto” haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan asarlardan yana biri Ma'sudiy (vafoti 995) qalamiga mansub “Muruj az-zihab” (“Oltin vodi”)dir. Mas'udiyning yozishicha, Iskandar Zulqarnayn Istaxr shahrini o'z tasarrufiga kiritgach, “Avesto”dagi tibbiyot, falsafa, riyoziyot va nujum ilmiga doir matnlarni yunon tiliga tarjima qilib, o'zini yoqib yuborishni buyurgan.

Eron, Afg'oniston va O'rta Osiyo xalqlari tarixini o'rganishda “Avesto” muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Chunki, “Avesto” faqatgina zardushtiylik dinining urf-odat va e'tiqodlari jamlangan muqaddas kitob bo'libgina qolmay, unda O'rta Osiyo va

Eronning qadimgi tarixi, madaniyati va siyosiy tuzumi ham aks etgan. Yer yuzidagi eng qadimgi dinlar, jumladan, zardushtiylik haqida ham ilmiy-tadqiqotlar vujudga kelgan.

Америкалик олим Р. Фрай, француз олими Э. Бенвенист, бельгиялик олим Ж. Дюшен-Гюймен, швед олимлари Х. Ю. Нюберг, Г. Виденгран, даниялик К. Барр, немис олими Б. Хинс ва совет олимлари И. Алиев, В. И. Абаева, М. А. Дандамаев, И. М. Дьяконов, В. А. Лившиц, Б. Гафуров ва бошқаларнинг асарларини кўрсатиш мумкин.

edi. Shuningdek, Okstord universiteti professori Tomas Xayd qadimgi Eron adabiyoti tarixini tadqiq etish jarayonida “Avesto”ni o‘rgangan. Tomas Xayd zardushtiylik to‘g‘risidagi eroniy, yunoniy, rumiy va arab manbalarini o‘rganib, 1700 yilda lotin tilida “Qadimiy forslar, portlar (parfiyaliklar) va modliklar dini tarixi” nomli asarini chop etadi. Tomas Xaydning ushbu kitobida zardushtiylik (mazdaparastlik)ni monoteistik, ya‘ni yakkaخدolilik dini sifatida talqin qilish yunonlar o‘zlarining politeistik nuqtai nazaridan qaraganlari bois yuzaga kelganligini isbotlaydi. O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, XVIII asr Yevropa avestoshunosligining shakllanishi va taraqqiyoti bosqichi hisoblanadi.

Anketil Dyuperron faoliyati Yevropa avestoshunosligini yangi bosqichga ko‘tardi. U Bodlean kutubxonasidagi “Avesto” qo‘lyozmalarini o‘qish maqsadida hech kimdan yo‘llanma va mablag‘ olmasdan Hindiston safariga otlanadi. Ko‘p azoblarni boshdan kechirib, Pondisher shahriga yetib boradi. Dyuperron Hindistonda olti yil yashab, Dorobi Porsiy ismli muallimdan “Avesto” tilini o‘rganadi. Shu davr mobaynida 180 ta noyob nusxalarni qo‘lga kiritadi, so‘ngra Parijga kelib, butun vaqtini “Avesto”ni o‘rganish, izoh va sharhlar yozishga sarflaydi. Uch jilddan iborat Parijda e‘lon qilingan (1771) “Zend-Avesto” uning ko‘p yillik (1754–1771) mehnatlari samarasi edi. Natijada, G‘arbiy Yevropada “Avesto”ga qiziqish yanada kuchayadi, “Avestoshunoslik” yo‘nalishi paydo bo‘ladi. Garchi Dyuperron tadqiqoti va tarjimasini atrofida ko‘p munozaralar-u bahslar bo‘lsa-da, oxir-oqibatda uni avestoshunoslikning “kashshofi” sifatida tan oladilar.

Ana shu tarjimadan keyin G‘arb sharqshunoslari “Avesto”ni o‘rganishga jiddiy kiradilar. Birin-ketin nemis, ingliz hamda fransuz tillarida ushbu yodgorlik xususida diniy, falsafiy, tarixiy mohiyatidagi kitoblar chop etila boshlandi. Ular orasida I. Meymersning “Zardushtning hayot yo‘li, nizomi, da‘vatlari hamda asarlari” (1778–1784) kitobi alohida mohiyatga ega. Zero, kitobda muallif zardushtiylikning tub mohiyati, uning brahmanlik bilan umumiy jihatlarini to‘g‘ri aniqlagan va ishonarli dalillar asosida tushuntirib bergan. Hatto muallif islom dini bilan zardushtiylik orasida umumiy jihatlar ham mavjudligiga olimlar diqqatini jalb etgan. Endilikda deyarli barcha avestoshunoslar Dyuperron mehnatini e‘tirof etib, uning matniga suyanadilar. Jumladan, Silvestr De Sasi, Tixsen, Uilyam Jone va boshqalar Zardushtni insoniyat beshigidagi birinchi shoir, voiz va filosof sifatida baholaydilar va uni ilm olamiga tanishtirishda Dyuperronning xizmati katta ekanligini alohida qayd etadilar. Masalan, Silvestr De Sasi Sosoniylar davri qoya

katibalari tilini o‘rganib, “Avesto”ning pahlaviy tilidagi sharhlari bilan tanishgach, Dyuperron mehnatiga yuqori baho beradi.

Nemis olimi I. Klauker Dyuperronning “Zend Avesto” kitobini nemis tiliga tarjima qilib, 1775–1777 yillarda Rigada nashr ettiradi. Ko‘p o‘tmay, Yevropa ilmiy jamoatchiligida “Avesto”ga qiziqishi keskin ortadi, har tomonlama ilmiy tadqiqotlar izchil davom ettiriladi.

XIX asrning boshlariga kelib ana shu tarjima asosida qadimgi Baqtriya, Midiya va forslar dini tarixi, “Avesto” tiliga doir bir necha ilmiy tadqiqotlar vujudga keladi. 1820 yilda nashr etilgan I. Rodening “Baqtriyaliklar, midiyaliklar va forslar yoki zend xalqlari” nomli kitobida “Avesto”ning bir qismi hisoblangan Vedavdot haqida qisqa ma’lumotlar uchraydi. A. Lelekovning fikricha, ushbu asar unchalik ilmiy qiymatga ega bo‘lmasa-da, ammo o‘z davri uchun muhim asar edi.

Ammo, ushbu kitobda bir tomondan, zardushtiylik dinining katta mintaqani qamrab olgani, haqiqatdan ham yakkaxudolikka asoslangan e’tiqod ekanligi keng tahlil etilsa, ikkinchi tomondan, yodgorlik tilining grammatik xususiyatlari ilk bor ilmiy jihatdan xiyla puxta tekshiriladi. Keyinchalik tilshunoslardan Bopp, Jolli, Garda va Jakinalarning turli hajmdagi kitoblari nashr etildiki, ularda “Avesto” tilining fonetik, leksik va morfologik jihatlari u yoki bu darajada o‘rganilgan.

XIX asrda “Avesto” G‘arb filosoflarining diqqatini o‘ziga jalb etadi. Jumladan, G. Ritterning 12 jildlik “Filosofiya tarixi”, Kechelning bir qator maqola va nutqlarida “Avesto”dagi diniy va falsafiy aqidalarini keng sharhlagan, ular mazmun hamda mundarija jihatidan qadimgi yunon mifologiyasidagi qarashlardan birmuncha boyligini alohida ta’kidlashgan. “Bu, – deydi Hegel, – chinakam ziyo va yaxshilik dinidir. Unda ziyo zulmatga, yaxshilik zulmga qarama-qarshi qo‘yiladi”. Hegel zardushtiylik dinining faol, yaratuvchi, kurashchan, elni farovon, yurtni obod qiluvchi dindorning tomondori ekanligini alohida uqtiradi va Zardushtni bu sohada “reformer” deb ataydi.

Avestoshunoslik tarixida fransuz tilshunos olimi A. Byurnufning “Yasnaga sharh”lar kitobi yangi bir bosqich bo‘ladi. U Dyuperron ishini davom ettirib, “Avesto” tilining leksik va grammatik xususiyatlarini hiyla puxta o‘rganadi hamda Behistun va Persepol bitiklarida yozilgan til bilan qadimgi hind Vedalarini qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qiladi. Natijada, ushbu olim yodgorlik leksik qatlamini aniqlashda yangi bir bosqichni boshlab beradi. Shuningdek, S. Vendeshman o‘zining mashhur “Zardushtiylik tajribalari” nomli tadqiqotida Mitra va Ardvissura Anahita haqidagi miflarni hind eposi bilan solishtirar ekan, Byurnufning qiyosiy-tipologik usuli naqadar ilmiy asoslanganligini yana bir bor ta’kidlagan.

Shunday qilib, G‘arbiy Yevropa sharqshunosligida “Avesto”ning mohiyati xususidagi fikrlarda ikki yo‘nalish paydo bo‘ladi: ayrim olimlar “Avesto” bilan “Veda”larning ildizi bir, ulardagi miflarning o‘xshashligi shunday xulosa chiqarish huquqini beradi, deyishsa, ikkinchi guruh olimlari bunga qarshi fikr bildirib, har ikki yodgorlik boshqa-boshqa zaminda vujudga kelgan, ularning mohiyatida jiddiy tafovut

bor, deb hisoblaydilar. Shuning uchun ular “Veda”ni ham, “Avesto”ni ham o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib o‘rganish va baholash kerak, degan fikrni ilgari suradilar.

“Avesto”ning keyingi to‘laroq tarjimalari va ular asosidagi tadqiqotlar ikkinchi yo‘nalish tomondorlari fikrlarini tasdiqlaydi. Shu yillari nemis bastakori Rixard Shtraus uch qismdan iborat “Zaratushtra so‘zlaydi” degan simfoniya yaratgan edi. Asar bir qator gotlar asosida yozilgan. XIX asr o‘rtalarida Ye. Byurnuf va M. Xauga gotlar hamda “Avesto”ning matnini tadqiq etib, tizimlashtirishga harakat qilgan. Ayniqsa, M. Xauning “Avesto”ni tanqidiy matnlari ustida olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.

1870 yilda J. de-Rial ham ushbu masalani hind-eronshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq qilgan bo‘lsa, uning vatandoshi L. Fe esa zardushtiylik tarixini puxta o‘rganishga kirishib, uning bibliografiyasi haqida qiziqarli ma’lumotlar to‘plagan.

G‘arbiy Yevropada “Avesto”ni o‘rganish va uning tarqalishiga eng katta hissa qo‘shgan olimlardan yana biri Maks Myullerdir. Oksford universitetining professori M. Myuller (1823–1900) tarix, qiyosiy mifologiya va qiyosiy tilshunoslik, dinshunoslik hamda hind adabiyoti bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarning muallifi. Xususan, ushbu tadqiqotchi “oriylar”ning kelib chiqishi, dunyo bo‘yicha ko‘chishi va tarqalishi tarixi bo‘yicha yagona mutaxassisdir. 1874–1904 yillarda Myullerning tashabbusi hamda shaxsiy ishtiroki bilan ingliz tilida 49 tomlik “Sharqning muqaddas kitoblari” nashr qilindi. Shu silsilaning 1, 5, 23, 31-jildlari “Avesto” matnlari hisoblanadi. Ulardan “Vendidod”, “Zend Avesto”ning bir qismini (1-tom, 1880; 33-tom, 1883) Jem Darmsteter tarjima qilgan.

“Avesto”ni o‘rganishning keyingi bosqichi Djem Darmsteter nomi bilan bog‘liq. U “Avesto”ni ingliz tiliga tarjima qilgan bo‘lsa, “Zend Avesto”ning 3-qismi hamda Yasht, Got, Visparadni L. G. Mils tarjima qilgan (31 tom, 1884) edi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Darmsteter “Avesto”ning mavjud kitoblari tanqidiy matnini tuzish, ingliz va fransuz tillariga tarjima qilishdan tashqari, yodgorlikning adabiy qiymati xususidagi bir qancha tadqiqotlar muallifi hamdir.

London universiteti professori Meri Boys Eron tarixi va madaniyatiga oid asarlar bilan zardushtiylikning o‘rta asrlar hamda yangi davrdagi tarixini o‘rganishga katta hissa qo‘shdi. Meri Boys 1963–1964 yillarda Yazd vodiysining shimolida olib borgan dala-qazilma ishlari vaqtida zardushtiylikning e‘tiqodlari va rasm-rusumlarini o‘rgandi. Yuqoridagi ishlari natijasida olim 4 jilddan iborat “Zardushtiylik tarixi” nomli yirik ilmiy asarini tayyorladi va qisman nashr etdi. Shuningdek, Meri Boysning zardushtiylikning vujudga kelish davri haqida fikrlari ham munozaralidir.

Miloddan avvalgi V asr oxirida yashagan lidiyalik Ksanor Zardusht nomini tilga olgan bo‘lsa, Ktesiy esa o‘z asarida Zardushtni ossuriyaliklardan yengilgan Baqtriya podshosi sifatida qayd etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, Ktesiyning asari ancha oldin qayta ishlangan bo‘lib, keyinchalik olimlar ana shu qayta ishlangan nusxadan foydalanganlar. Ammo, Ksenofontning “Kiropediya” va “Anabasis” asarlarida Zardusht haqida ma’lumot uchramaydi. Holbuki, Ksenofont Ahamoniylar davlatining ichki va tashqi ahvoli, xalq

urf-odatlari hamda marosimlari bilan yaxshi tanish edi. Gerodot, Ktesiy va Ksenofont asarlarida keltirilgan ma'lumotlarni umumlashtirib shuni qayd etish mumkinki, Ahamoniylar davrida hali Zardushtni hukmron din asoschisi, deb hisoblamaganlar. Zardushtiylik dini tadqiqotchilari Ye. Benvenist, A. K. Kristensen, X. Nyuberg, V. Struve va boshqalar ham shu fikrdalar.

Rossiyada ham avestoshunoslik o'zining boy an'alariga ega. Rossiyada "Avesto"ni o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi va ularning eng birinchisi Kossovichning ilmiy izlanishlaridir. XX asr boshlarida V. V. Bartold, K. G. Zameman, A. L. Pogodin, K. A. Inostransevlar "Avesto"ni o'rganishga katta e'tibor bergan. Bu borada B. N. To'raev, A. A. Freyman, Ye. E. Bertels, I. M. Dyakonov, B. G'. G'ofurov, I. G. Aliev va V. V. Struve kabi olimlarning tadqiqotlari, shuningdek, mashhur olim I. M. Steblin-Kamenskiy tarjimasidagi "Avesto" ana shu ilmiy an'ana va tajribalar natijasidir.

Tarixdan ma'lumki, Aleksandr Makedonskiyning O'rta Osiyoga yurishlari davrida bu yerda yuksak sivilizatsiya mavjud edi va ushbu taraqqiyot turli bosqichlar oqibatida ming yillarga to'xtatib qo'yilgan edi. Haqiqatda, "Avesto"ga qarshi hujum Aleksandr Makedonskiy davridayoq boshlangan edi. Abu Rayhon Beruniy bu haqda shunday yozadi: "Podshoh Doro ibn Doro xazinasida "Abisto (Avesto)"ning o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat yetuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtdan beri Abistonning beshdan uchi yo'qolib ketdi. Abisto o'ttiz "nask" edi, majusiylar qo'lida o'n ikki nask chamasi qoldi. Biz Qur'on bo'laklarini haftiyak deganimizdek, nask "Abisto" bo'laklaridan har bitta bo'lakning nomidir".

Eramizning VII–VIII asrlarida ro'y bergan arablar bosqini O'rta Osiyo xalqlari boshiga misli ko'rilmagan talofatlar olib kelgani ham ma'lum. Abu Rayhon Beruniy bu haqda: "Qutayba Xorazm xatini yaxshi biladigan, ularning xabar va rivoyatlarini o'rgangan va bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, butkul yo'q qilib yuborgan edi. Shuning uchun u (xabar va rivoyatlar) islom davridan keyin, haqiqatni bilib bo'lmaydigan darajada yashirin qoldi... Keyin Qutayba ibn Muslim al-Bohiliy xorazmliklarning kitoblarini halok etib, bilimdonlarini o'ldirib, kitob va daftarlarini kuydirgani sababli ular savodsiz qolib, o'z ehtiyojlarida yodlash quvvatiga suyanadigan bo'ldilar. Uzoq zamon shunday bo'lgach, ular ixtilofli narsalarini unutib kelishib qolganlarini yodda saqlab qoldilar", – deb qayd etgan edi.

Qadimgi Xorazm tarixining chuqur bilimdoni S. P. Tolstovning arxeologik dalillarga suyanib ma'lumot berishicha, islomgacha bo'lgan sivilizatsiyaning nodir yodgorliklari, adabiyot va ma'naviyat durdonalari yondirilib, kulga aylantirilgan edi. Binobarin, zardushtiylik ta'limoti va uning muqaddas "Avesto" kitobi ham yondirilib, yo'q qilib yuborilgan. Uzoq tariximiz va ma'naviy merosimizning ushbu noyob yodgorligi keyingi asrlarda pahlaviy va fors tillaridagi talqini asosidagina bizgacha yetib kelgan, xolos.

Zardushtiylik dini paydo bo'lgan zamin haqidagi bahs uzoq asrlardan buyon davom etib kelmoqda. G'arb olimlaridan A. Meye va P. Tedeskolar zardushtiylikning vatani Parfiya (hozirgi Turkmaniston), Daristetir va Jeksonlar zardushtiylik Antropatenda, Xarsfeld esa Midiyada paydo bo'lgan, deb qayd etadi. Shuningdek, I. Markvart, B. A. To'raev, X. Nyuberg, E. Benvenist, Ye. E. Bertels, Gayger, Bartold va Shpigellar fikricha, zardushtiylik Baqtriyada paydo bo'lgan.

Qolaversa, Ye. Gersveld o'zining dastlabki arxeologik qazilmalariga asoslanib, V. V. Struve, K. V. Trever, Yu. A. Rapoport, S. F. Oldenburg, V. M. Lukonin va B. I. Avdiev singari olimlarning fikricha, zardushtiylik Turonzamin (Xorazm, Baqtriya, So'g'd va Farg'ona)da paydo bo'lib, so'ngra Eron hamda boshqa mamlakatlarga tarqalgan.

Zardushtiylik dini haqida fundamental tadqiqotlar muallifi Meri Boys uning bundan 3500 yillar oldin Osiyo cho'llari zaminida paydo bo'lgani va boshqa dinlarning shakllanishi hamda rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siridan tashqari, oliyjanob din ekanligi, asrlar mobaynida quvg'inlikka uchrasa-da, unga e'tiqod qo'yganlar sa'y-harakati tufayli bizgacha yetib kelganligi va uning muqaddas kitobi "Avesto" qadimgi Xorazm vohasida paydo bo'lganini qayd etadi.

**Зардуштийлик таълимоти ва
“Авесто”нинг Хоразмда пайдо
бўлганлиги ҳақидаги фаразлар**

Б. Гофуров, Н. Маллаев, Ҳ. Ҳомидов, А. Қаюмов, Й. Жумабоев, М. Исҳоқов, Н. Раҳмонов, Ф. Сулаймонова, И. Жабборов, Г. Дресвянская, Й. Хўжамуродов, А. Ирисов, М. Қодиров ва С. Ҳасановларнинг мақола ва тадқиқотларида ҳам ўз аксини топган.

aydo bo'lganligi xususida ham arxeologik qazishmalar davomida ajoyib natijalarga erishgan S. P. Tolstovning fikriga qaraganda, ushbu dalillar zardushtiylik dini va uning payg'ambari Zaratushturaning Xorazmda tug'ilganligini isbotlaydi. "Avesto" ham boshqa ko'plab muqaddas kitoblar singari murakkab va ko'p qatlamlidir. Biroq, unda shubhasiz, O'rta Osiyo tarixining arxaik davriga borib taqaluvchi ma'lumotlar ustunlik qiladi, hozir bizning qo'limizda bor materiallarga asoslanib, bu davrni yangi eradan avvalgi 1 ming yillikning birinchi yarmiga mansub, deb hisoblash mumkin.

Shu tariqa, butun dunyoda zardushtiylik dini tarixiga oid ko'plab maqola va asarlar yaratilgan bo'lsa-da, ammo mamlakatimiz xalqlari tarixida zardushtiylikning o'rni hamda ahamiyati haqida jiddiy, umumlashma asarlar yaratilmagan edi.

"Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto" yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti, – degan edi O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov

tarixchi olimlar bilan uchrashuvda, – bu nodir kitob bundan o‘ttiz asr muqaddam ikki daryo oralig‘ida, mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma’naviy va tarixiy merosidir. “Avesto” ayni zamonda bu qadim o‘lkada buyuk davlat, buyuk ma’naviyat, buyuk madaniyat bo‘lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi”.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida o‘zbek olimlari “Avesto” o‘rganishga jiddiy e’tibor bera boshladi. Akademik Aziz Qayumov, Tilab Mahmudov, Mirsodiq Is’hoqov, akademik Ahmadali Asqarov, Hamidjon Homidov, Abdusodiq Irisov va Muhsin Qodirov kabi olimlarning ilmiy hamda ilmiy-ommabop maqolalari katta qiziqish bilan mutolaa qilinadi. Xulosa qilib aytganda, Muhsin Umarzoda yozganidek: “Avesto” haqida dunyoda nashr etilgan ilmiy asarlar ro‘yxati bir katta kitob bo‘ladi. Butun dunyo “Avesto” haqida so‘z yuritadi... “Avesto” butun jahon ahlining mushtarak madaniy merosidir”.

Eron Ahamoniylari, yunon-makedon bosqini va ularga qarshi kurashning tarixiy adabiyotlarda yoritilishi

Ahamoniylar shohi Kir II mil. avv. 530 yilda Araks daryosidan o‘tib, massagetlar hududiga bostirib kirganligi haqida V asr yunon tarixchisi Gerodot ma’lumot beradi. Shuningdek, Ahamoniylar shohi Doro I ning saklar ustiga yurishi haqida Behistun qoyatosh yozuvlarida yozib qoldirilgan. Doro I ning saklarga yurishi va unga qarshi kurashgan xalq qahramoni Shiroq haqidagi ma’lumotlar yunon tarixchisi Polienning “Harbiy hiylalar” asarida keltirilgan.

Miloddan avvalgi 329 yilda makedoniyalik Iskandar qo‘shinlari Oks (Amudaryo)dan o‘tib, yurtimiz hududiga bostirib kiradilar. Iskandarning ushbu harbiy yurishlari uning istagiga muvofiq shohni kuzatib kelayotgan ba’zi adib va muarrixlar tomonidan yozib borilishi ko‘zda tutilgan edi. Makedoniyalik lashkarboshilardan Aristobul, Ptolomey Lag va dengizchi Darg‘a Nearx ana shunday dastlabki tarix yozuvchilar edi. Ushbu adiblarning xotiralari keyinroq o‘tgan Arrian, Strabon va boshqa muarrixlarning asarlarida keltirilgan. Ammo, yozma xotiralarning ko‘pchiligi bizgacha yetib kelmagan. Iskandarning Sharqqa harbiy yurishlari vaqtida qanday voqealar yuz berganligi undan 300–400 yil keyin yashagan 5 ta tarixchining asarlarida tasvirlangan. Ular o‘z asarlarida Iskandar zamondoshlarining asarlari va esdaliklardan foydalangan.

Iskandarning O‘rta Osiyoga yurishlari tavsifi yunon tarixchisi Arrian (mil.avv. II asr) va Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf (milodning I asri) asarlarida saqlanib qolgan. Ularda Iskandarning yurishlari mufassal yoritilgan. Plutarx (I–II asrlar) bilan Yustin (II asr) esa uning O‘rta Osiyoga qilgan yurishlari haqida deyarli og‘iz ochmaydilar. Sitsiliyalik Diodorning “Tarixiy kutubxona” asari (mil.avv. I asr)da ko‘p o‘rinlar yo‘qolgan. Mazkur asar 17 ta kitobdan iborat bo‘lib, Iskandarning Amudaryo ortiga yurishi tasvirlangan boblarning faqat sarlavhalarigina saqlanib qolgan, xolos.

Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf asarlariga nisbatan Arrianning asari O'rta Osiyo voqealari bayonida ancha ishonchli manba hisoblanadi. Arrianning o'zi Osiyodagi janglarda qatnashgan. Uning asari aslida harbiy san'atga bag'ishlansa-da, u Iskandar zamondoshlari Aristobul va Ptolemey Lag esdaliklaridan foydalangan, ba'zi o'rinlarda esa ulardan ko'chirmalar keltirgan. Aristobul bilan Ptolemey Lag asarlarida faqat o'zlari qatnashgan voqealarni bayon etganliklari uchun Arrian ularda bo'lmagan voqealarning yetishmagan o'rinlarini Kursiy Ruf kitobidagi hikoyalar bilan to'ldiradi.

Makedoniyalik Iskandar va uning davriga bag'ishlangan juda ko'p adabiyotlar bo'lishga qaramay, ushbu fotihning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqida juda kam mualliflar yozganlar. Tarixiy manbalardan So'g'diyona poytaxti Maroqanda qanday qilib makedoniyaliklar qo'liga o'tib qolganligini tasavvur etish qiyin.

Kvint Kursiy Rufning yozishicha, Iskandar shaharda qo'shin qoldirib, atrofdagi qishloqlarga o't qo'ygan. Kursiy Rufning guvohligiga ko'ra, Marokanda qal'asi devorining uzunligi 70 stadiy bo'lib, shahar ichkarisida yana bir devor bo'lgan. Tarixchi I. Sh. Shifman Maroqand shahri jangsiz taslim bo'lgan, degan taxmini bildiradi. Iskandar qo'shinlari Maroqandani egallagach, Yaksart tomonga yuradilar. Ushbu yurish vaqtida Iskandar qo'shinlariga qo'zg'olonchi so'g'dliklar hujum qiladilar. 30 ming qo'zg'olonchi Mug' tog'idagi mustahkam istehkomlarga o'rnashgan edilar. Makedoniyaliklar juda katta talofatlar evaziga qal'ani egallaydi. Mudofaachilar qirilib ketadi, 8 ming yarador, ayollar va bolalar asirlikka olinadi. Oradan ko'p o'tmay, So'g'diyonada yana 7 ta shahar aholisi istilochilarga qarshi qo'zg'olon ko'taradi. Diodorning ma'lumotlariga qaraganda, Iskandar qo'zg'olonchilardan 120 mingini o'limga hukm etadi. Ushbu raqam mubolag'ali bo'lib ko'rinsa-da, qo'zg'olon qanchalik keng tus olganligini ko'rsatadi. Strabonning yozishicha, Iskandar O'rta Osiyoda yangi shaharlar barpo eta boshlaydi. Chekka Aleksandriya shahri Xo'jand yaqinida qurilgan makedoniyaliklar uchun tayanch istehkomlaridan biri hisoblanar edi.

Miloddan avvalgi 329–327 yillarda Iskandar o'ziga qarshi bosh ko'targan So'g'diyonani uch marta qaytadan zabt etishga majbur bo'ldi. Ayniqsa, O'rta Osiyo qabilalarining milliy qahramoni Spitamen boshchiligidagi vatanparvar kuchlarning istilochilarga qarshi ozodlik kurashi makedoniyaliklar uchun katta xavf tug'dirgan edi. O'ziga qarshi xalq harakatlarini bostirish uchun Iskandar juda ko'p harbiy va moddiy kuchlarni sarflashdan tashqari, mahalliy zodagonlar bilan "do'stona" aloqalar o'rnatishga harakat qildi. Iskandar mahalliy zodagonlarning siyosiy ta'siri va yer-mulklarini kengaytirdi. U mahalliy zodagonlarga saxovat bilan mol-dunyo, qul va cho'rilar sovg'a qilishdan tashqari, So'g'diyonaning boy va ta'sirli mansabdori Oksiartning qizi Ravshanak (yunon manbalarida – Roksana)ga uylandi.

Iskandar ushbu siyosat bilan O'rta Osiyoni batamom o'ziga bo'ysundirishga erishdi. Mahalliy zodagonlarning makedoniyaliklar tomoniga o'tishi Iskandarning O'rta Osiyodagi dehqonlar va chorvador jamoalari qarshiligini yengishi hamda O'rta Osiyoni o'zining juda katta monarxiyasi qatoriga qo'shib olishiga yordam berdi. Makedoniyalik

istilochilarga ittifoqchi bo‘lib olgan mahalliy zodagonlar O‘rta Osiyo xalqlari ijtimoiy hayotining barcha sohalarida hukmron siyosiy va iqtisodiy kuchga aylandi. Keyinchalik Iskandar va uning vorislari (Salavkiylar va boshqa) O‘rta Osiyo xalqlari hayotida tarixan tarkib topgan bu vaziyat bilan hisoblashishga majbur bo‘lgan edi. Xullas, Iskandar istilosidan so‘ng O‘rta Osiyo xalqlarining xalqaro iqtisodiy, savdo aloqalar kuchayib bordi. Ayniqsa O‘rta Osiyoliklarning Iskandar qo‘shinlari fath etgan Hindiston bilan yaqin aloqalar o‘rnatishi muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. So‘g‘diyona va Baqtriyada ham yangi-yangi shaharlar qad ko‘tardi. Tarixiy manbalarda Iskandar va uning lashkarboshilari tomonidan O‘rta Osiyoda 12 ta shahar bunyod etganligi aytiladi. Shu bilan birga, I. Sh. Shifman Iskandar qo‘shinlarining So‘g‘diyondagi vayronagarchiliklarini Chingizxon istilosiga o‘xshatadi. Ushbu vayronagarchiliklar oqibatida mamlakat aholisining soni keskin kamayib ketdi. So‘g‘d aholisi vatanlarini tark etib, boshqa yurtlarga ko‘chib ketishga majbur bo‘ldi.

Yunon-makedonlar Baqtriya, So‘g‘diyona va Markaziy Osiyoning qolgan hududlarini ham mustamlakalariga aylantirdi. Iskandarning istilochilik siyosatini uning vorislari (Salavkiylar) davom ettirdi. Iskandar vafotidan 75 yil o‘tgach, Baqtriya satrapi Diodot o‘zini mustaqil hukmdor deb e‘lon qildi. Pompey Trogning mubolag‘a qilib yozishicha, minglab shaharlar Diodot qo‘l ostiga o‘tdi. “Qadimgi avtorlar O‘rta Osiyo haqida” to‘plami (ushbu kitob 1941 yil Bajenov tahriri ostida Toshkentda nashr etilgan edi) mualliflarining yozishicha, O‘rta Osiyoda mustaqil davlatlar tashkil topadi. O‘zbekistonda nashrga tayyorlangan ushbu xrestomatiyada O‘rta Osiyo xalqlarining miloddan avvalgi VI asrdan milodning III asriga qadar bo‘lgan tarixi, jo‘g‘rofiyasi va tabiiy boyliklari haqida qimmatli ma‘lumotlar mavjud.

Markaziy Osiyo xalqlari ba‘zi davrlarda Hindiston va Xitoy bilan bir davlat bo‘lib yashagan. Miloddan avvalgi II asrda yashagan Xan saroyi elchisi Chjan-Syan asarlari, epigrafik yodgorliklar va arxeologik qazishmalar bunga guvohlik beradi. Ayniqsa, arxeologlarning olib borgan qazuv va kuzatuv ishlari tufayli qadimiy tariximizning juda ko‘p noma‘lum sahifalari ochildi. Ushbu ishlar o‘sha zamonlardagi madaniy hayot muammolari, ishlab chiqarish kuchlari, tarixiy toponimikasi, tarixiy jo‘g‘rofiya, iqtisodiy aloqalar va xalqimiz etnogenezi to‘g‘risida muhim ma‘lumotlar beradi.

O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlar tarixi tarixshunosligi

Markaziy Osiyo insoniyatining qadimiy madaniy markazlaridan biri hisoblanadi. Jez davrida boshlangan ijtimoiy tabaqalanish er.avv. I ming yillikning o‘rtalarida ilk sinfiy jamiyat – quldorlikning vujudga kelishiga olib keldi. O‘rta Osiyoda quldorlik jamiyatining xronologik doirasiga haligacha aniqlik kiritilmagan. Tarixiy asarlarda ushbu davr turlicha: mil.avv. VIII–VII asrlardan milodiy V asrgacha yoki mil.avv. VI asrdan milodiy IV asrgacha, hattoki mil.avv. IV asrdan milodiy III asrgacha bo‘lgan davr

sifatida ko'rsatiladi. Mazkur davrning boshlarida O'rta Osiyodagi eng qadimgi davlatlar – Xorazm va Baqtriya vujudga kelgan. Ushbu davlatlar haqida "Avesto"da ma'lumot berilgan. Mazkur ma'lumotlar arxeologik tadqiqotlar natijasida tasdiqlandi. Arxeologlar Afrosiyob (Samarqand), Yerqo'rg'on va Uzunqir (Qashqadaryo), Ko'zaliqir (Xorazm) va Qiziltepa (Surxondaryo) kabi qadimiy shaharlarni topib o'rgandilar.

Mil.avv. I ming yillikning ikkinchi yarmida yurtimiz hududida Xorazm, Qang' va Dovon kabi davlatlar vujudga keladi. Sirdaryoning o'rta oqimlarida yashovchi sak qabilalari makedoniyalik Iskandar qo'shinlari va salavkiylar tajovuziga qarshi uzluksiz kurash olib bordilar. Ana shu kurashlar borayotgan bir paytda mil.avv. III asr boshlarida yarim o'troq Qang' davlati vujudga keladi. Ushbu davlat Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi tub yerli aholini, bir qancha yarim ko'chmanchi qabilalarni va o'lkalarni birlashtiradi. Mazkur davlat mil.avv. II–I asrlarda Markaziy Osiyoda yirik va kuchli davlatga aylanadi. Shu davrga kelib Qang' siyosiy birlashmasi So'g'diyona va Xorazmga o'z hukmronligini o'tkazadi.

Ushbu davlatning asosiy markazi Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi xalqlar haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi manba "Avesto" hisoblanadi. Uning ilk qismlari (Yasht va Gotlar)da "tur" yoki "danay turlari" deb ataluvchi etnonimlar eslatiladi. V. V. Bartold turlarni Markaziy Osiyoda yashovchi Eron tilida so'zlovchi xalqlar, deb izoh beradi. V. I. Abaev "Avesto"da tilga olingan turlarni Markaziy Osiyo saklari bilan, Danay turlarini esa Sirdaryo bo'ylarida yashovchi saklar bilan tenglashtiradi. "Avesto"da Qanqa, Qang'a yoki Qang'dez toponimlari ham qayd etiladi. Qadimgi Eron tilida yozilgan manbalarda "sak" va "skif" etnik nomlari uchraydi. Sirdaryoning o'rta oqimi va uning shimolidagi hududlarda yashovchi saklar antik davrning tarixchi va geograflariga ham ma'lum bo'lgan. Ana shu saklar haqida ba'zi ma'lumotlar qadimgi yunon tarixchisi Ptolemey (mil.avv. 204–122 yy.), yunon geografi va tarixchi Strabon (mil.avv. 64–24 yy.) Plutarx (milodiy 45–127 yy.), yirik astronom va geograf Ptolemey yozuvchi va tarixchi Arrian (95–175 yy.), Rim tarixchisi Kvint Kursiy Ruf (milodiy I asr) asarlarida aks ettirgan.

Toshkent vohasi va janubiy Qozog'iston cho'llarida yashagan xalq hamda davlat Xitoy solnomalarida Qang'uy (Kangyuy) deb atalgan. Solnomalardagi qang'uylar haqidagi dastlabki ma'lumot Xitoy tarixining otasi Sima Syan (mil.avv. 145–86 yillar)ning xotiralarida uchraydi. Sima Syan o'z asarida qang'uylarning joylashuvi, harbiy kuchi, urf-odati, ularga qarashli yashovchi xalqlar haqida qisqacha ma'lumot beradi. Qang'uylar haqida batafsil ma'lumotlar To'ng'ich Xan sulolasining tarixi (mil.avv. 206 – milodiy 25 yillar)ni o'zida aks ettirgan "Syan Xanshu" (96- bobi) Xitoy tarixchisi Ban-Gu tomonidan yozilgan. Ushbu tarixiy asarda qang'yuylarning joylashgan yerlari va harbiy kuchlaridan tashqari ularning soni, markaziy shahri, chorva mollari, ular tobeligidagi 5 ta viloyat (susi, fumu, yuni, gi, yuechyan) hamda qo'shni xalqlar va davlatlar bilan bo'lgan munosabatlar haqida ma'lumotlar berilgan. Toshkent vohasida va janubiy Qozog'istonda olib borilgan arxeologik izlanishlar natijasida juda boy materiallar

qo‘lga kiritilgan. Ushbu materiallarning ko‘pchiligi qang‘lar davri (mil.avv. III – milodiy V asr o‘rtalari)ga oid bo‘lib, bunda B. A. Litvinskiyning ishlari alohida e‘tiborga loyiq. Qang‘ davlati va xalqining muammosi S. P. Tolstovning ilmiy ishlaridan ham keng o‘rin olgan.

G‘arbiy yevropalik olimlardan V. Tomashek, F. Xirt, I. Markvort, E. Shavani, E. V. Breshneyder va boshqalarning ishlarida qadimgi yunon, fors va xitoy manbalarida eslatilgan “Qang‘” va “qang‘uy” so‘zlariga to‘xtalib, ushbu nomlarning “Qang‘ (Qanqa)” toponimi “Qang‘ar” hamda “Qang‘uy” etnonimiga qanchalik aloqador ekanligi haqida gap ketadi. Mazkur tadqiqotchilarning fikr-mulohazalari qo‘yilgan masalani to‘g‘ri tushunib olishga katta yordam beradi.

Rus sharqshunos olimlari V. R. Radlov va N. A. Aristovlarning ishlarida qang‘lilar haqida ba‘zi muhim fikrlar va kerakli ma‘lumotlar berilgan. Qang‘li va Qang‘ davlatiga bag‘ishlangan yirik tadqiqot o‘zbek olimi K. Shoniyozovga tegishlidir. Ushbu muallifga tegishli asarda Qang‘ davlati, uning aholisi, qo‘shni davlatlar bilan aloqasi, iqtisodiy va madaniy hayoti batafsil yoritilgan. O‘zbekiston hududidagi qadimgi davlatlarning siyosiy tarixi ma‘lumotlar yetarli bo‘lmaganligi uchun yaxshi o‘rganilmagan. Bu esa tarixshunosligdagi muhim muammolardan biri hisoblanib, kelgusida mazkur sohada chuqur tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

Markaziy Osiyo tarixiga oid qadimgi manba va yodgorliklar

Behistun bitiklari. Bunday yozuvlar Ahamoniylarning qadimgi poytaxti Persepol, shuningdek, Suza va Ekbatana (hozirgi Hamadon) shaharlari hamda uning atrofida topilgan. Masalan, pishiq sopol taxtachaga o‘yib yozilgan bir katibada Doro I (mil. avv. 522–486 yillar) hukmronligining dastlabki davri (mil. avv. 494–490 yillar)da Suzada bunyod etilgan saroyning qurilish tafsiloti, aniqrog‘i, qurilishga ketgan materiallarning qaysi mamlakatdan keltirilganligi aks etgan. Ushbu taxtachada yozilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, oltin Lidiya bilan Baqtriyadan, qimmatbaho toshlar, lazurit va serdolik (qizil va qizg‘ish rangli tosh) So‘g‘diyondan, feruza Xorazmdan olib kelingan. Persepol (Sherozning shimoliy tomonida, undan taxminan 50 km masofada joylashgan 520–450 yillarda qurilgan shahar)dan topilgan yozuvlar va tasviriy suratlar – releflar katta ilmiy qiymatga ega. Ularning ayrim namunalari XVII–XVIII asrlarda (1621 y.) italiyalik sayyoh Pedro Della Valle va daniyalik olim K. Niburning nomi bilan bog‘liq. XX asrning 30- va undan keyingi yillarda nemis olimi E. Xersfeld, amerikalik E. Shmidt, fransuz olimi A. Godar hamda eronlik tadqiqotchilar M. Mustafoviy va A. Somiyalar tomonidan o‘tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Persepolda juda ko‘p noyob yodgorliklar ochildi.

Ular orasida Apadana zinalari ustiga ishlangan tasviriy suratlar alohida ahamiyat kasb etadi. Suratlarida Ahamoniylarga tobe bo‘lgan 23 ta satraplik (qaram o‘lka)dan o‘lpon olib kelgan kishilar qiyofasi tasvirlangan. Bular orasida baqtriyaliklar turli

idishlar, teri, mo'yna va tuya, so'g'dliklar mato, teri va qo'ylar, saklar ot va chakmonlar, parfiyaliklar idishlar va tuya bilan hamda xorazmliklar ot va qurol-aslaha bilan tasvirlangan. Persepoldan qariyb 5 km masofada, uning shimol tomonida Husaynkuh qoyalarida Doro I va Ksereks I (mil.avv 486–465 yillar), Artakserks I (mil.avv. 465–424 yillar) hamda Doro II (mil.avv 424–404 yillar)ning maqbaralari hamda ularga kiraverishda o'yib yozilgan katibalar bor. Mazkur yodgorlik sasoniy sarkardalardan Rustam (636 yilda arablar bilan bo'lgan jangda halok bo'lgan) nomi bilan ham bog'liq bo'lib, tarixda ko'pincha “Naqshi Rustam” deb ataladi.

Ayniqsa, Doro I surati ostiga yozilgan katibada uning davlati ko'klarga ko'tarib maqталadi, u tomonidan bosib olingan xalqlar esa itoatkorlikka va halol mehnat qilishga chaqiriladi, bo'ysunmaganlar hamdap shu sababdan jazoga mahkum etilganlarning nomlari qayd etilgan. Muhimi shundaki, katibada Ahamoniylarga tobe bo'lgan 23 ta satraplik va xalqlarning to'la ro'yxati yozilgan. Bular orasida parfiyaliklar, baqtriyaliklar, so'g'diyonaliklar hamda xorazmliklar ham mavjud.

Ushbu davrga oid tarixiy yodgorliklar orasida muhimlaridan yana biri – mashhur Behistun yozuvlaridir. Ushbu yozuvlarning uzunligi 22 m, umumiy balandligi 7,8 m bo'lib, ular Shimoliy Eronda, Kirmonshohdan 30 km masofada, daryo bo'ylab o'tgan qadimgi karvon yo'li yoqasida, uning chap tomonida, Zagros nomli tik qoyaga, taxminan 105 metr balandlikda Doro I ning amri bilan yozilgan g'alaba yodgorligidir. Mazkur yozuv elam, babil va qadimgi Eron tillarida bitilgan hamda mil.avv. 523–522 yillarda Ahamoniylar saltanatini larzaga keltirgan Gaumata (522 yil 29 sentabrda halok bo'lgan), Frada – marg'iyonalik (522 yil 10 dekabrda asirga olingan), Skunxa – hozirgi Qozog'iston va O'zbekiston hududida istiqomat qilgan sak qabilalarining yetakchisi rahbarligidagi xalq harakatlari haqida hikoya qiladi.

“Maxabxarata”. Saklar, massagetlar, toxarlar va qadimgi Qanxa xalqi, ularning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqidagi qimmatli ma'lumotlarni hindlarning epik dostoni “Maxabxarata”da ham uchratish mumkin. “Maxabxarata” (“Bxarata avlodlari jangnomasi”) sanskrit tilida yozilgan bo'lib, 100 ming baytni o'z ichiga olgan 18 kitobdan iborat. Asar mil.avv. X–VIII asrlarda yaratilgan bo'lib, unda afsonaviy shoh Bxarataning ikki toifa avlodlari – kavravlar va nandavlarning o'zaro adovatlari hamda urushlari bayon etiladi. Asarda, jumladan, uzoq Hindistonga, fikrimizcha, savdo-sotiq ishlari bilan borgan saklar, toxarlar va qanxaliklar haqida ushbu muhim ma'lumot keltirilgan: “Uning (podshoh Yudxishtira) eshigi oldida boshqa xalqlar bilan birga saklar, toxarlar va qanxaliklar ham navbat kutib turardilar. Paxmoq soqol, peshonalari shoxlar bilan bezatilgan, qo'llarida turli-tuman sovg'alar – jun, rangu, ipak va patta (oq qayinning bir turi) daraxti tolasidan, shuningdek, kamyob matolar, paxtadan to'kilgan gazlamalar, mayin, nafis terilar, uzun va o'tkir qilichlar, shamshirlar, temir nayzalar, har xil boltalar, ichimliklar, xushbo'y narsalar, turli-tuman qimmatbaho toshlar”.

Qadimgi yunon tarixchilarining asarlarida O'rta Osiyoning chorvador xalqlari haqida batafsil ma'lumotlar uchraydi. Ushbu xalqlar tarixini yozish Gomer va Esxil kabi

adiblar tomonidan boshlangan. Lekin, skif (sak va massaget)lar haqida keng va aniq ma'lumotlarni birinchi bo'lib miloddan avvalgi V asrda yashagan yunon tarixchisi Gerodot beradi. Kvint Kursiy Ruf (milodiy I asr), Plutarx (milodiy I asr), Arrian (milodiy II asr), Pompey Trog (miloddan avvalgi I asr), Yustin (miloddan avvalgi II–I asrlar) kabi muarrixlar ham O'rta Osiyo ko'chmanchi qabilalarining turmush tarzi, urf-odatlari va mashg'ulotlari to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Antik tarixchilardan Strabon (mil.avv. I asr) birinchi bo'lib O'rta Osiyo ko'chmanchi xalqlarini umumiy bitta (skif) nomi bilan emas alohida hududiy joylashishiga qarab, mayda guruhlarini ham sanab ko'rsatadi. Uning yozishicha: "Skiflarning katta qismi Kaspiydan boshlab sharqqa tomon daxlar deyiladi. Ulardan sharqdagilar sak va massaget deyiladi". Miloddan avvalgi VI–IV asrlarga oid manbalarda hudud aholisi asosan chorvador ko'chmanchilar ekanligi ta'kidlansa, keyingi manbalarda (miloddan avvalgi IV-II asrlar) saklarning statsionar manzilgohlari, oddiy uylari borligi haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Gerodotning "Tarix" asari. Gerodot – miloddan avvalgi V asrda yashagan yunon tarixchisi bo'lib, garchi o'zi bayon qilayotgan voqealar ustida chuqur mulohaza yuritmasa ham, ularni to'g'ri ifodalashi, o'zga xalqlar va mamlakatlar tarixiga hurmat nuqtai nazaridan qarashi bilan ba'zi tarixchilardan ajralib turadi. Gerodotning asarida Markaziy Osiyoning qadimiy xalqlari bo'lmish agrippiyalar, issedonlar, massagetlar, skiflar, daylar va saklar haqida, ularning turmushi, urf-odatlari hamda qo'shni mamlakatlar bilan aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Yunon muarrixlari bergan ma'lumotlarga qaraganda, skiflar dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan. Gerodot: "Ular bug'doy, piyoz, sarimsoq va mosh iste'mol qilganlar. Ular bug'doyni faqat o'zlari uchungina ekib qolmasdan, balki savdo-sotiq uchun ham ekardilar", – deb yozgan edi.

Gerodot skiflarning chorvachilik ishlariga ham qiziqib qaraydi. Uning qayd etishicha, ko'chmanchi skiflar ko'chganda qulay bo'lishi uchun namatdan g'ildirakli arava – uy yasab olar edilar. Yuk tashishda ular otlardan tashqari mollardan ham foydalanganlar. Gerodotning fikricha, skiflar kuchli davlatga ega edi.

"Tarix" asarining Shteyn tomonidan tayyorlangan tanqidiy matni 1869–1871 yillarda chop etilgan. Asar ingliz (Roulinson, London, 1856–1860 yillar) hamda rus (F. G. Mishchenko, Moskva, 1858–1860 yillar) tillariga tarjima qilingan. 1982 yilda asarning mamlakatimiz tarixiga oid qismlari zarur izohlar bilan A. I. Dovatur, D. P. Kallistov va I. A. Shishova tomonidan yangidan nashr etilgan.

Diodorning "Tarixiy kutubxona" asari. Diodor (mil.avv. 90–21 yillar) yirik tarixchi olim bo'lib, Sitsiliyaga qarashli Argiriya shahrida tug'ilgan. U "Tarixiy kutubxona" nomli 40 ta kitobdan iborat asar yozib qoldirgan. Umumiy tarix yo'nalishida yozilgan ushbu asar asosan, Yunoniston va Rimning qadim zamonlardan to milodning I asr o'rtalarigacha bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Unda Sharq xalqlari, shuningdek,

skiflar, saklar, massagetlar, baqtriyaliklar, yurtimizning Eron bilan bo‘lgan munosabatlari haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Diodorning mazkur asari ko‘p jihatlari bilan ko‘chirma-kompilyatsiya hisoblanadi. Muallif Yefor va Polibiy asarlaridan keng foydalangan. Bundan tashqari, ko‘p hollarda bayon etilayotgan voqealar uzviy bog‘lanmay qolgan. Shunga qaramay, ushbu asar dalillarga boy va katta ilmiy ahamiyatga ega. Diodorning ushbu asari to‘la holda hozirgi kungacha yetib kelmagan. Uning faqat 15 ta – qadimgi Sharq xalqlarining tarixi va afsonalari haqida hikoya qiluvchi 1–5 kitoblari, Yunoniston hamda Rimning Yunon-Eron urushlari (mil.avv 500–449 yillar)dan to mil.avv. 301 yilgacha bo‘lgan tarixini o‘z ichiga olgan 11–20- kitoblarigina saqlanib qolgan, xolos. Ushbu asar 1774–1775- yillarda rus tarixchisi I. Alekseev tomonidan olti qismli va 1874–1875- yillarda F. G. Mishchenko tomonidan ikki qismli qilib nashr etilgan.

Strabonning “Geografiya” asari. Strabon (mil. avv. 63– milodning 23 y.) qadimgi Yunonistonning atoqli geograf olimlaridan biri bo‘lib, asli amosiyalik (Pont podshohlarining qarorgohi), nufuzli va badavlat oiladan chiqqan, mashhur yunon faylasufi Aristotel (mil.avv. 384–322 yy.)ning shogirdi, qariyb 80 yil umr ko‘rgan. Strabonni dunyoga tanitgan, 17 ta kitobdan iborat “Geografiya” asaridir.

Ushbu asarda Girkaniya, Parfiya, Baqtriya va Marg‘iyonaning tabiiy holati, shaharlari, qisman ularga borish yo‘llari, Oxa (Xarrirud), Oks va Yaksart daryolari, saklar, massagetlar, daylar, atasiyalar, toxarlar hamda xorazmliklar va ularning kelib chiqishi, ushbu xalqlarning turmush tarzi, urf-odat va e‘tiqodlari, shuningdek, Parfiya va Baqtriyaning mil.avv III asrning birinchi choragidagi ichki ahvoli va o‘zaro munosabatlari haqida muhim hamda qimmatli ma’lumotlar mavjud. Masalan, sak qabilalari makedoniyalik Aleksandr istilosigacha Sirdaryoning quyi oqimida yashagan bo‘lsa, keyinchalik Karki, Kalif va Shimoliy Afg‘oniston yerlariga ko‘chib o‘tgan, Strabon ularni “dax” va “day” nomlari bilan ataydi. Strabonning bergan ma’lumotlariga qaraganda, Baqtriya, So‘g‘diyona, Midiya va Eron aholisi so‘zlashadigan til bir-biriga yaqin bo‘lgan.

Topilgan ashyolar qadimgi ajdodlarimiz kulolchilikda antik olamda tengi yo‘q ustalar bo‘lganligidan dalolat beradi. Baqtriya, Marg‘iyona va So‘g‘diyoning kulol ustalari yasagan sopol idishlar o‘ziga xos san’at asarlari darajasiga ko‘tarilgan. Bundan tashqari, shohona saroylar, ibodatxonalar, mudofaa inshootlari va uy-joylar qurishda o‘lkamiz xalqlari antik davr olamida tengsiz darajaga ko‘tarilgan.

Strabonning “Geografiya” asari 1844 va 1848 yillarda nemis olimlari Kramer hamda Myuller tomonidan maxsus xarita va sharhlar bilan qo‘shib nashr qilingan. Uning nemischa (Grosskurd, Berlin, 1831–1834) hamda ruscha (F. G. Mishchenko, Moskva, 1879; G. A. Stratanovich, Moskva, 1964) tarjimalari ham mavjud.

Arrian Flaviyning “Iskandarning yurishlari” asari. Arrian Flaviy (taxminan 95–175 yillar) yirik yunon yozuvchisi, tarixchisi va geograf olimi bo‘lib, asli Kichik

Osiyoning Nikomadiya shahrida tug‘ilgan. U “Iskandar haqida”, “Parfiyaliklar haqida”, “Hindiston” va 7 jildlik “Iskandarning yurishlari” nomli kitoblar muallifidir.

O‘rta Osiyo va Eronning qadimiy tarixini o‘rganishda Arrianning “Iskandarning yurishlari” nomli asari muhim ahamiyat kasb etadi. Unda fotihning O‘zbekiston, Eron hududlari va boshqa mamlakatlarga istilochilik yurishlari tarixi batafsil bayon qilingan. Asar panegrizm-maddohlik ruhida yozilgan – muallif Iskandar Zulqarnayn va uning faoliyatini ko‘klarga ko‘tarib ulug‘laydi. Shunga qaramay, u ko‘pgina qo‘lyozma manbalar va rasmiy hujjatlar asosida yozilganligi sababli mavzu bo‘yicha muhim manbalardan hisoblanadi.

Spitamening o‘limi haqida Arrian quyidagi rivoyatni keltiradi. “Skif-massagetlar yengilganlaridan so‘ng o‘zlari bilan birga ittifoq bo‘lib, dushmanga qarshi jang qilgan baqtriyaliklar va so‘g‘dlar yuklarini talaydilar hamda qochadilar. Spitamen ham ular bilan birga ketadi. Ularga “Aleksandr dashtga hujum boshlar emish”, degan xabar kelgach, Spitamening boshini tanasidan judo qilib shohga yuboradilar va shu yo‘sinda Aleksandr hujumining oldini olmoqchi bo‘ladilar”. Ushbu asar nemis (Myuller, Leypsig, 1886 y.) hamda rus (Korenkov, T., 1912. va M. Ye. Sergeenko, M–L., 1962 y.) tillarida nashr etilgan.

Kvint Kursiy Rufning “Buyuk Iskandar tarixi” asari. Kvint Kursiy Ruf (milodning I asri) – mashhur Rim tarixchisi bo‘lib, Iskandar Zulqarnaynning Eron, Turon va boshqa mamlakatlarga qilgan harbiy yurishlari haqida 10 kitobdan iborat “Buyuk Iskandar tarixi” asarini yozgan. Kvint Kursiy Ruf Baqtriyani tabiati turli-tuman va go‘zal, unumdor yerlari ko‘p, sersuv, ekinzorlarga boy mamlakat, deb ta’riflaydi. Uning yozishicha, o‘lkaning aholisi ko‘p, ular bug‘doy va arpani ko‘p ekadilar, uzumzorlari bepoyon. O‘lkada mevalarning barcha turlari o‘sadi. Chorva mollarini boqishga qulay, yilqisi ko‘p, chopar otlarga boy mamlakat. Ayni paytda o‘lka hududida qumloq va ekin bitmaydigan yerlar ham anchagina. Kvint Kursiy Rufning qayd qilishicha, “skiflarning hatto nutqi ham jozibador edi. O‘zining go‘zal nutqi va madaniyatiga ega bo‘lgan skiflarning o‘sha davrlarda o‘ziga xos adabiyoti ham bo‘lgan”.

Kvint Kursiy Ruf “Aleksandr Makedonskiy tarixi” asarida skiflarning jasurligi va mardligini ta’riflaydi. Uning yozishicha, Aleksandr skiflarning katta bir guruhini asir oladi. “Jismoniy jihatdan baquvvat bo‘lgan skiflardan 30 kishini o‘limga mahkum etganda, ular o‘limdan ham qo‘rqmasdan, xalq qo‘shiqlarini baralla aytib, xursand bo‘lib borardilar”, – deydi u. Skiflarning mardligiga qoyil qolgan Aleksandr asirlarni o‘limdan saqlab qolib, hibsdan ozod qiladi.

Asarda massagetlarning jasoratlari haqida ham yorqin satrlar bor. “Massagetlar 800 nafar otliq jangchilarini qishloq yaqinidagi o‘rmonga yashirib qo‘yadilar. Bir necha kishi poda haydab, o‘rmonga qarab bemalol ketaveradi. Tayyor o‘ljani qo‘ldan chiqarmaslik uchun Attin o‘zining 300 otliq jangchisi bilan hech shubha qilmasdan o‘rmonga kirib boradi. Massagetlar Attin qo‘shiniga qo‘qqisdan hujum qilib, ularning hammasini qirib tashlaydilar”.

Kvint Kursiy Rufning asarida Spitamen jismonan baquvvat, jasur, mard va tadbirkor bir kimsa suratida tasvirlanadi. Uning yozishicha, dastlabki paytda Aleksandr Spitamenga katta-katta va'dalar beradi, hatto So'g'diyona hokimligini in'om etmoqchi bo'ladi. Spitamen esa vatanfurushlik qilgandan ko'ra o'limni afzal biladi.

Ushbu asarda Spitamen fojiasiga sabab bo'lgan xoinlar, qo'rqqoq va sotqinlarga nafrat o'tini sochuvchi yorqin satrlar ham anchagina. Ana shunday sotqinlardan biri Spitamenning xotini. Horib-charchagan Spitamen shirin taom va sharob ta'sirida qattiq uyquda yotardi. Xotini pinhona kelib, qilichini sug'urib oldida, Spitamenning boshini kesib tashladi. Qonga belangan erining kallasini bu jinoyatdan ogoh bo'lgan qulga keltirib beradi. So'ngra makedon qo'shinlari joylashgan lagerga kelib, Aleksandrga xabar qilishni, muhim xabar olib kelganligini, bu xabarni shohga shaxsan o'zi yetkazishi lozimligini aytadi. Aleksandr bu mudhish voqeadan ogoh bo'lib, g'azablanadi. Kvint Kursiy Rufning asarida O'zbekiston hududining Iskandar Zulqarnayn qo'shinlari tomonidan istilo qilinishi, xalqlarning chet el bosqinchilariga qarshi kurashi, xususan, Spitamen boshliq qo'zgon keng yoritib berilgan. "Buyuk Iskandar tarixi" 1841 yilda Myutsel, 1867 yilda T. Nyoldeke va 1885 yilda esa Fogel tomonidan nemis tilida nashr etilgan. Ruscha yangi tarjimasi 1963 yilda Moskvada V. S. Sokolov tahriri ostida chop etilgan.

Pompey Trogning "Filipp tarixi" asari. Pompey Trog (mil.avv. I – milodning I asrlari o'rtalari) – "Filipp tarixi" asari bilan mashhur bo'lgan Rim tarixchisi. 44 ta kitobdan iborat ushbu asar afsonaviy Assuariya podsholari zamonidan to Rim imperatori Avgust (mil. avv. 63 – milodiy 14 yil) davrigacha bunyoda bo'lib o'tgan voqealarni bayon qiladi, lekin asosiy e'tibor Yunonistonning makedoniyalik Filipp II (mil.avv. 359–336 yillar) va Iskandar Zulqarnayn davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etishga qaratilgan. Mazkur asarning qimmatini shundaki, u bir talay noma'lum kitoblarga suyanib yozilgan, Rim, Yunoniston kabi yirik davlatlarning paydo bo'lishi va tarixini keng yoritib bergan. Muhimi shundaki, muallif bunday davlatlarning oxir-oqibatda inqirozga uchrashini aytadi. Pompey Trog tarixni harakatga keltiruvchi kuch bu – urf-odat va taqdir, deb hisoblagan.

Pompey Trog skiflarni dunyodagi eng qadimiy xalqlardan biri deb hisoblaydi, qadimiylikda ular misliklar bilan bahslashadilar. "Skif" atamasi xalqning aniq nomi emas, balki ularning turmushini sifatlovchi ma'noni anglatgan. Yunon muarrixlarining ma'lumotlariga qaraganda, skiflar qadimda g'arbda Dnepr daryosidan tortib sharqda Tyanshan tog'larigacha cho'zilgan dasht va sahrolarda yashaganlar. Ularning qabilalari massaget, dax, sak (shak) va derbik kabi nomlar bilan atalgan.

"Filipp tarixi" asarida skiflar Baqtriya, Iskandar Zulqarnayn davrida Baqtriya va So'g'dda qurilgan shahar va katta imoratlar, Iskandar Zulkarnayn vafotidan keyin yuz bergan voqealar, parfiyaliklarning kelib chiqishi, ularning urf-odatlarini, Parfiya podshohligining tashkil topishi, Baqtriya, Parfiya va Midiyaning o'zaro munosabatlariga oid muhim ma'lumotlar mavjud. Pompey Trog skiflar (saklar) haqida to'xtalib, "Ular

Parfiya va Baqtriyaga asos solganlar”, deb qayd etadi. U yana Parfiya xususida to‘xtalib: “Rimliklar bilan butun dunyoni o‘zaro bo‘lib olgan parfiyaliklar hozirda butun Sharq uzra hukmdordirlar va ular (aslida) qachonlardir skiflar orasidan badarg‘a qilinganlardandirlar, ularning nomi (ya’ni Parfiya) bunga ishora, zero, skiflar tilida “Parfi” badarg‘a qilinganlarni anglatadi”, – deb yozgan edi.

Polibiyning “Umumiy tarixi” asari. Polibiyning “Umumiy tarixi” daliliy ma’lumotlarga boyligi va voqealarning nisbatan xolisona yoritilishi bilan alohida ahamiyatga egadir. Unda Oks (Amudaryo) va Yaksart (Sirdaryo) haqida, Antiox I ning Baqtriya podshohi Eftidemga qarshi harbiy yurishi haqida muhim ma’lumotlar bor. “Umumiy tarix” asarining matni 1889–1905 yillarda to‘rt jildda Leypsigda chop etilgan. Uning inglizcha (V. R. Paton, London, 1922–1927; ikkinchi nashri, London, 1957–1960) va ruscha (F. G. Mishchenko, 1–3 jildlari. Moskva, 1890–1899) tarjimalari mavjud.

Ptolomey Klavdiyning “Geografiya” asari. Ptolomey Klavdiy (taxminan 90–160 yy.) – mashhur qomusiy olim, Aleksandriyada yashab ijod qilgan. U astronomiya, geometriya, fizika (optika, mexanika) hamda geografiyaga oid asarlar yozib qoldirgan. Jahonga mashhur “Almagest” – “Al-majastiy” (18 ta kitobdan iborat, astronomiya va trigonometriya ilmlarini o‘z ichiga oladi), “Optika” (5 ta kitobdan iborat), “Germanlar haqida tushuncha” (3 ta kitobdan iborat) va nihoyat, “Geografiya” shular jumlasidandir. Lekin, olimga shuhrat keltirgan asarlari “Almagest” va “Geografiya”dir. “Geografiya”ning (8 ta kitobdan iborat) birinchi kitobi, aniqrog‘i uning 24- bobi jahon mamlakatlarini tavsiflashga bag‘ishlangan va katta ilmiy qiymatga ega.

Shunisi muhimki, asarda shaharlar, mamlakatlar va ularning koordinatlari keltirilgan hamda unga 27 ta xarita ilova qilingan. Ptolomeyning “Geografiya”sida Girkaniya, Marg‘iyona, Baqtriya, So‘g‘diyona hamda skiflar mamlakatining geografik holati, Baqtriya va So‘g‘diyoning mashhur shaharlari, ushbu mamlakatlar, ular bilan tutash o‘lkalar hamda ularning aholisi haqida asl va qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Yustinning “Pompey Trog epitomi” asari. Yustin “Pompey Trog epitomi” asarida Aleksandr Baqtriya va So‘g‘diyona 7 ta shahar qurdirganligini yozadi. Shulardan biri Sirdaryo sohilida 17 kunda qurib bitkazilgan “Aleksandriya Esxata”, ya’ni olisdagi Aleksandriya edi. Ushbu shahar Xo‘jand bilan Bekobod oralig‘i (taxminan Farhod GESi)da joylashgan edi. Aleksandr mazkur shaharlarda yunon-makedon qo‘shinlarini joylashtirib, kelgusi joylarni zabt etishda ushbu shaharlardan plasdarm sifatida foydalangan edi. Shu sababdan Aleksandr “Aleksandriya Esxata”ni tezda barpo etib, bu yerdan saklar ustiga yurish boshlagan edi.

Bundan tashqari, Aleksandrning O‘rta Osiyoda olib borgan yaratuvchilik faoliyatiga qaraganda, uning vayronagarchilik va buzg‘unchilik faoliyati o‘n chandon ortiqroq bo‘lgan, behisob shahar hamda qishloqlarni vayron etgan. Pompey Trogning ushbu asari Yustin (II–III asr) tomonidan qisqartirilib, qayta ishlangan shaklda hozirgi kungacha yetib kelgan va Ruxl tomonidan 1935 yilda chop qilingan. Uning ruscha

tarjimasi A. A. Dekonskiy va M. M. Rijskiy tomonidan “Vestnik drevney istorii” jurnalining 1954 yil 2–4 va 1955 yil 1- sonlarida nashr etilgan.

Umuman olganda, Oʻrta Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti masalasida XIX asrning 80- yillaridan buyon qator tadqiqotchilar tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida, koʻchmanchilar jamiyati tuzilishida kuchli ijtimoiy-iqtisodiy differentsiya mavjud boʻlib, ularning jamiyati urugʻ qabila tuzumining yuqori choʻqqisi – harbiy demokratiya koʻrinishida boʻlganligi, quldorlik tuzumi miloddan avvalgi V asrdan boshlangani, keyingi davrdagi jamiyat tuzilishi harbiy demokratiya yoki ilk feodal-patriarxal koʻrinishida boʻlganligi kabi xulosalar chiqarilgan. Biroq, hanz ushbu masalalarda yagona, oʻz tasdigʻini toʻliq topgan ilmiy fikrga kelinmagan.

B. A. Litvinskiy koʻpgina sak qabilalari sinfiylik belgilari mavjud boʻlgan jamiyatda yashaganligini taʼkidlagan. G. E. Markov esa Oʻrta Osiyo jamiyatida mulkiy tabaqalanish mavjud boʻlsa-da, tabaqaviy va sinfiy differentsiyaning sust rivojlanganligi, chorvaga nisbatan xususiy mulkchilik saqlangan holda yer – yaylovlar umumjamo, qabilaga tegishli boʻlgani, boy chorvadorlarning yollanma mehnatdan foydalangani, bir nechta qabilalarning harbiy ittifoqlarga birlashib, ularning oʻz qoʻshini mavjudligi, dashtning maʼlum qismini nazoratda tutadigan qabilaviy tashkilot faoliyati, jamiyatning asosi esa urugʻchilik anʼanalariga tayanishi kabi qator xususiyatlarni sanab koʻrsatadi. Ularga asoslanib, muallif Oʻrta Osiyo aholisida kuchli mulkiy va ijtimoiy differentsiya jarayoni va sinflar tashkil topishi, yaʼni sinfiylik jamiyati mukammal tugallanmagan koʻrinishda boʻlgan, degan xulosaga keladi.

S. P. Tolstov Xorazm bilan kuchli aloqada boʻlgan massaget qabilalarida asta-sekinlik bilan davlatchilik shakllanganligini taʼkidlagan. Biroq, keyinchalik, ushbu fikrni tasdiqlaydigan materiallarning kamligi tufayli unga turlicha eʼtirozlar bildirilgan.

Gerodot skiflarning oʻz podshosi borligi, Plutarx ularning podsholaridan Idanfirs, Ateya haqida, Strabon esa koʻchmanchi skiflar podshosi Sirm haqida maʼlumot berib, ularning oddiy odamlar ekanligini taʼkidlaydi. Sak va usunlarning oʻtroq hayot tarzi bilan bogʻliqligi haqidagi maʼlumotlar ularda ijtimoiy munosabatlar rivojlanganligini koʻrsatadi.

Eramizdan avvalgi I ming yillik boshlariga kelib dastlabki davlat konfederatsiyalariga asos solinadi. “Avesto”da ular “turlar” deb nomlanadi. Antik manbalarda Sirdaryo havzasi sak qabilalari konfederatsiyasi tashkil topgan hududlardan biri boʻlib, bu saklarning kamonda jang qiluvchi va undan bexato otuvchi, mergan Yaksart saklari – saka-xaumavarkalar ekanligi taʼkidlanadi. K. A. Abdullaev baʼzi tadqiqotlarda saka-xaumovarkalarni saka amyurgiyalar bilan chalkashtirish hanz davom etayotganligini uqtirib, koʻplab yozma manbalar tahlili asosida, “xaoma isteʼmol qiluvchi xaumovarkalarning yashash joyi Sirdaryo oʻrta oqimida boʻlgan”, – deb taʼkidlagan edi.

Markaziy Osiyodagi davlatlar vaqtinchalik ahamiyat kasb etuvchi qabila ittifoqlari tarzida mavjud boʻlgan. Ushbu qabila ittifoqlari ayrim vaqtlarda tarqalgan va yana vaziyatga qarab qaytadan tashkil etilavergan. Mazkur siyosiy birlashmalarda xalq

yig'ini muhim rol o'ynagan. Xalq yig'inida barcha qurolli aholi qatnashib, unda urush yoki sulh masalalari hal qilingan.

Yunon manbalarida O'rta Osiyo ko'chmanchi chorvador xalqlarining xo'jalik hayoti, turmush tarzi va urf-udumlari haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. O'rta Osiyo xalqlarida do'stlik, vafo va sadoqat juda qadrlangan. Bolalar hali go'dakligidayoq do'st tutishga o'rgatilgan. O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy hayoti, dini ularning tasavvurlarida ham aks etgan. Ularning dinini ibtidoiy deb bo'lmaydi. Qang'ular, jumladan, O'rta Sirdaryobo'yi xalqlari zardushtiylik dinidagi xudolardan bo'lgan Farn ilohiga sig'inishgan. Ushbu iloh hukmdorlarning panohi va qo'riqlovchisi, shuningdek, uy, oila va sog'liqni saqlovchi xudo hisoblangan. Bu xudo qo'y ko'rinishida, deb qabul qilingan. Qovunchi madaniyati sohiblarida mashhur hind eposi "Maxabxarata"da ta'kidlangan ho'kiz (qoramol)ga sig'inish bilan bog'liq odatlar ham mavjud bo'lgan. Xitoy yilnomasi "Veyshu"da turklar diniga xos bir nechta aqidalar ko'rsatilgan .

Манбаларда Марказий Осиёликларнинг қуёшга, аجدодлар арвоҳига, бутун халққа тегишли бўлган кўк руҳи (тангри)га сиғиниш ва тоғлар, сув манбалари (дарё ва кўллар)га топиниш каби диний маросимлари қайд этилади.

Chorvadorlarning adabi va marosimlari haqida mavjud bo'lgan asarlarning "Devonu lug'atut turk" asarida ham ko'p ma'lumotlar berilgan. Unda "tun kun topun tangriga buyinmag'il korkun angar iymani o'ynamag'il", ya'ni "kecha-kunduz ulug' tangriga ibodat qil, yo'ldan ozib adashma, xudodan qo'rq, undan uyal", degan jummalarni o'qish mumkin. Bunda xudo sifatida Ko'k Tangriga e'tiqod ta'kidlanmoqda. Ko'k Tangriga sig'inish O'rxun bitiklarida ham qayd etilgan: "Avval yuqorida moviy osmon, quyida qora yer bo'lgan. Ular o'rtasida inson bolalari paydo bo'ldi". Osmon ruhi deganida aynan Ko'k Tangrini anglaganlar. Ko'kka qurbonlik keltirish odati turkiy xalqlarda, hatto XIX asr oxirlarida ham mavjud bo'lgan.

Atoqli rus olimi A. B. Ditmar qadimgi skiflar haqida bir qator yirik tadqiqotlar olib boradi va ularning kelib chiqish tarixi haqida o'zining qimmatli fikrlarini bildiradi va: "Skiflar O'rta Osiyodan tarqalgan edi", - deb qayd etadi. A. B. Ditmar o'zining "Skifiyadan Yelefatingacha" nomli tadqiqotida ular (skiflar)ning tili shimoliy Eron tillari gruppasiga kiradi, shuningdek, ular O'rta Osiyoda yashagan sak va massaget qabilalari bilan urug'dosh edi, - degan fikrlarni bildiradi.

Gerodotning yozishicha, skiflarning shimol tomonida melianxlenlar qabilasi yashar edi. Ular hamma vaqt qora tusda kiyinib yurar edilar. Urf-odatlari skiflarnikiga yaqin turardi. Ushbu qabilalarning tillari ham nevrov qabilalari singari eski slavyan tillari guruhiga kirar edi. Shimol tomonda juda sovuq bo'lgan keng yalangliklar joylashgan edi. Tanais daryosi bilan Meotida - Azov dengizi o'rtasida sarmat qabilalari yashar edi. Ular shimol tomonga cho'zilgan o'n besh kunlik keng o'lkada yovvoyi va xonaki daraxtlar ichida yashardi. Ular skiflar tilida gaplashardi, biroq ularning tillari qadimdan

shakllangan edi. Sarmatlarning urf-odatlarini skiflarnikiga sira ham o'xshamas edi. Sarmatlar (sara-matlar) skif qabilalariga qarindosh edi.

Strabonning "Geografiya" asarida Markaziy Osiyoda yashovchi sak, so'g'd, skif, massaget qabilalari o'tmishi alohida qayd qilib o'tiladi. Asarning XII–XIV boblarida Kichik Osiyo tarixi yoritilgan bo'lsa, XV bobdan esa Eron va Hindiston haqida qimmatli ma'lumotlar olish mumkin. Asarning XVI bobi Sharqiy Osiyo mamlakatlari, Assiriya, Vaviloniya, Mesopotamiya, Suriya, Finikiya va Arab mamlakatlaridan hikoya qilsa, XVII bob esa Misr, Efiopiya va Liviya o'lkalariga bag'ishlangan.

Strabon Kaspiy dengizining sharqiy qismida yashovchi massagetlar hayotiga to'xtalar ekan, ushbu qabilalar haqida o'zidan oldin yashagan muarrixlar qariyb hech narsa yozmaganligini qayd etadi. Muallif Qora dengizning shimoliy qismida yashovchi skif, sarmat qabilalari haqida to'xtalar ekan, ushbu joylarni "varvarlarning yerlari" deb ataydi.

Xitoy yilnomalari. Sima Syan "Shi Szi" ("Tarixiy esdaliklar") asarining muallifi bo'lib, taxminan mil.avv. 145 yoki 135–86 yillarda yashagan. Sima Syan "Shi Szi" ("Tarixiy esdaliklar") nomli 130 bobdan iborat yirik tarixiy asar yozib qoldirgan. Asar Xitoyning qadimiy zamonlardan to miloddan avvalgi I asr boshlariga qadar bo'lgan tarixini o'z ichiga oladi. Asarda O'rta Osiyo, uning 123- bobida, xususan, Farg'ona vodiysi va uning qadimiy aholisi haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Ban Gu "Syan Xan shu" ("Avvalgi Xan sulolasining tarixi") asari (39–92 yy.). Ban Guning "Syan Xan shu" asarida, xususan, uning 95- bobida Markaziy Osiyo (ayniqsa, qang'li, yuechji va usunlar haqida) va Sharqiy Turkistonning qadimiy tarixi, aholisi va uning kundalik hayoti haqida muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Fan Xua "Xou-Xan shu" ("Keyingi Xan sulolasi tarixi") (398–445 yy.). Fan Xua Xitoyning avvalgi Xan sulolasi davridagi tarixini o'z ichiga olgan "Xou-Xan shu" nomli katta asar (130 bobdan iborat) muallifi. Asarda Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston va Jung'oriyaning tarixi hamda aholisi haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar mavjud.

So'g'd tilida bitilgan yodgorliklar. So'g'd tilidagi manbalar asosan, miloddan avvalgi IV – milodiy X asrlarga oid bo'lib, turli mazmundagi huquqiy hujjatlar: ahdnomalar, nikoh shartnomalari, oldi-sotti hujjatlari, tilxatlar, So'g'd, Shosh, Turk va Farg'ona hukmdorlari o'rtasidagi yozishmalar, xo'jalik hujjatlari hamda farmonlardan iborat. Ushbu hujjatlar So'g'diyona, Mug' qal'asi, Afrosiyob, Qirg'iziston va Sharqiy Turkiston hududlaridan topilgan. Bular orasida Mug' qal'asi xarobalaridan 1932 yilda topilgan hujjatlar alohida ahamiyatga ega. Hujjatlar 1932 yilning bahorida Tojikistonning Varziminoir (hozirgi Zaxmatobod) tumaniga qarashli Xayrobod qishlog'ida yashagan A. Po'lotiy tomonidan ochilgan. Hujjatlar soni 79 ta bo'lib, bulardan 74 tasi qadimgi so'g'd, 1 tasi arab, 3 tasi xitoy va yana biri turk tilidadir. Ular har xil materiallar: charm, taxta va qog'ozga yozilgan. Hujjatlar so'g'd dehqoni, katta yer egasi va mahalliy hukmdor Devashtich (708–722 yy.) va yirik mansabdorlar – framandar, shuningdek, Xoxsar hamda Kshut dehqonlarining shaxsiy arxiviga tegishli bo'lib, So'g'dning VIII asrning birinchi

choragidagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Mug' qal'asidan topilgan hujjatlar A. A. Freyman, A. V. Vasilev, I. Yu. Krachkovskiy, M. N. Bogolyubov, V. A. Livshis, M. Is'hoqov, U. N. Mansurov hamda O. I. Smirnovalar tomonidan batafsil o'rganilgan.

Mug' qal'asi hujjatlarining topilishi tarixi va ular haqidagi dastlabki ma'lumotlar 1934 yilda Leningradda maxsus to'plam shaklida "Cogdiyskiy sbornik"da e'lon qilindi. Ayrim hujjatlarning tarjimasi I. Yu. Krachkovskiy va A. A. Freyman tomonidan 1930-yillarda e'lon qilindi. Huquqiy hujjatlar va maktublar tarjimasi, zarur izoh va tadqiqotlar bilan V. A. Livshis tomonidan chop qilindi. 1961 va 1965 yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti xodimlari ilmiy safar chog'ida Samarqandning Afrosiyobida V–VI asrlarga oid saroy xarobalarini ochdilar. Saroy mehmonxonasining devorlari turli mazmundagi rasmlar bilan bezatilgan bo'lib, ular orasida oq kiyim kiygan Chag'oniyon elchisining surati ham bor. Uning etagiga so'g'd tilida o'n olti satrdan iborat ishonch yorlig'i yozilgan edi. Ushbu yozuvlar VII asr o'rtalaridagi xalqaro munosabatlar tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Samarqandda topilgan yozuvlar IX asrga oid uchta: so'g'd, qadimgi turk va xitoy tillarida yozilgan turk xoqonining qabr toshidagi bitiklar hisoblanadi. Bunday hujjatlar so'g'diylarning Qozog'iston, Qirg'iziston hamda Sharqiy Turkistondagi savdo koloniyalaridan ham topilgan. Bular orasida ayniqsa A. Steyn (1862–1943) tomonidan 1907 yilda Dunxuan (Xitoyning Gansu viloyati) va Turfon (Sharqiy Turkiston)dan topilgan hujjatlar, Talas daryosining o'ng sohilida, hozirgi Talas shahridan 7 km shimolda joylashgan Kulonsoy hamda Teraksoy daralarida qoyatoshlarga o'yib bitilgan yozuvlar alohida e'tiborga molik.

Mazkur yozuvlar IV–XI asrlarda So'g'd koloniyalarining ijtimoiy ahvoli haqida, ayniqsa O'rta Osiyo va Uzoq Sharq mamlakatlari o'rtasidagi savdo aloqalari va bunda so'g'diylarning roli haqida qimmatli ma'lumot beradi. Dunxuan va Xo'tan hujjatlari A. Steyn, Talasdan topilgan yozuvlar esa V. A. Kallaur, M. Ye. Masson, D. F. Vinnik, A. A. Asanaliyev, K. Ashiraliyev va U. Jumagulovlar tomonidan o'rganilgan.

“Xvaday namak” (“Podshohnoma”). “Xvaday namak” (“Podshohnoma”) qadimgi Eronning 627 yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan ma'lumot beruvchi tarixiy asar bo'lib, pahlaviy tilida yozilgan. Sosoniylar podshosi Yazdigard III (632–651 yy.)ga yaqin kishi tomonidan 632–637 yillar oralig'ida yozib tugallangan. Asar ayniqsa, Ahamoniylar, Ashkoniylar va Sosoniylar tarixi bo'yicha muhim manbalardan biri hisoblanadi. “Xvaday namak”ning o'zi ham, mashhur shoir, olim va tarjimon Abdulloh ibn Mukaffa (721–757 yillar) tomonidan qilingan tarjima (“Siyar al-muluk” deb atalgan) ham bizgacha yetib kelmagan. Lekin, uning ayrim parchalari Yaqubiy (897 yoki 905 yilda vafot etgan), ibn Qutayba (828–889 yillar), Tabariy, ibn al-Asir, shuningdek, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma”sida saqlanib qolgan.

Al-Xorazmiyning “Kitob at-tarix” va “Kitob surat ul-arz” asari. Xorazmiyning “Kitob at-tarix”, ya'ni “Tarix kitobi”da Xuroson, Kichik Osiyo va

Movarounnahrning VIII–IX asrlardagi tarixiga oid qisqa va aniq ma'lumotlar o'z ifodasini topgan.

“Kitob al-surat al-arz”. Mazkur asar ham al Xorazmiy tomonidan yozilgan bo'lib, yunon olimi Ptolemeyning jo'g'rofiyaga oid kitobini arab tiliga tarjima qilgan va uni o'zining yangi ma'lumotlari bilan boyitgan. “Kitobi surat al-arz” (“Er tasviri kitobi”) asarida Kaspiy dengizi yoki Xorazm dengizi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Ushbu tarixiy jo'g'rofiyaga oid asardagi Markaziy Osiyoga oid ma'lumotlar katta ilmiy ahamiyatga ega. Kitobning 937 milodiy, hijriy 428 yilda ko'chirilgan mo'tabar qo'lyozmasi bizgacha yetib kelgan bo'lib, unga turli xaritalar chizib, ilova qilingan. Ushbu qo'lyozma matni 1926 yilda sharqshunos X. M. Mjik tomonidan Leypsigda nemis tilida nashr qilingan. Kitobni o'zbek tiliga Ashraf Ahmedov tarjima qilib, ilmiy sharhlar bilan 1983 yili chop etgan.

“Hudud ul-olam”. “Hudud ul-olam” fors tilida yozilgan (982 y.) birinchi jo'g'rofiy xarakterdagi asardir. Kitobning to'la nomi “Hudud al-olam min-Mashriq ilal-Mag'rib” (“Sharqdan G'arbga qarab joylashgan mamlakatlarning chegaralari”)dir. Asarning muallifi noma'lum bo'lib, u Guznono (Afg'onistonning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan qadimiy viloyat) hokimlari (Faruginiylar)dan biriga atab yozilgan. Kitobning yagona qo'lyozma nusxasi sharqshunos A. G. Tumanskiy (1861–1920 yillar) tomonidan 1892 yilda Buxoroda topilgan.

“Hudud ul-olam” asari muqaddima va 59 ta bobdan iborat. Uning 1–7 boblarida yerning tuzilishi, dengizlar, orollar, tog'lar, daryolar, cho'lu biyobonlar hamda dunyoning inson yashaydigan to'rtdan bir qismi – rub'i maskun va unda istiqomat qiluvchi xalqlar, rub'i maskunning mamlakat hamda viloyatlariga taqsimlanishi haqida umumiy mulohaza yuritiladi. 59-bobida sharqdan g'arbga qarab joylashgan mamlakatlar, ularning xalqi, o'sha mamlakatlarda ishlab chiqariladigan asosiy matolar, ayrim o'rinlarda esa savdo-sotiqning umumiy ahvoli xususida so'z boradi. “Hudud ul-olam” asarida Markaziy Osiyo, xususan, uning shaharlari, aholisi va ularning mashg'ulotlari haqida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. 1983 yilda asarning tojikcha varianti nashr etilgan. Ushbu kitob fors tilidagi ilk tarixiy-jo'g'rofiy manba sifatida juda qimmatli asar hisoblanadi.

Sharqiy Turkiston va Tibet xalqining qadimgi davr tarixi tarixshunosligi. Sharqiy Turkiston va Tibet xalqining qadimgi asrlarga oid tarixini o'rganishda B. V. Yusovning “Tibet” asari muhimdir. Unda Tibet haqida umumiy tushuncha berilgan, shuningdek, ushbu o'lkaning geografik o'rni qisqacha bayon etilgan. 1951 yil 23 may Tibet xalqining hayotida tarixiy kun hisoblanadi. Manbalardan birida aytilganidek: “Shu kuni Tibet xalqi tarixida uzoq vaqt davom etgan zulmatli tunlardan keyin porloq kun boshlandi”. Xitoy Markaziy xalq hukumati bilan Tibet mahalliy hukumati tomonidan Pekinda imzolangan bitim natijasida Tibetni tinch yo'l bilan ozod etish masalasi hal qilindi. Ushbu bitim Tibetda imperialistik jabr-zulmni uzil-kesil yo'q qildi va Tibet xalqining Xitoy Xalq Respublikasiga qayta birlashishiga imkon berdi. Bunday

birodarlarcha birlashishga Xitoy xalqi imperialistik hukmronlik, mayda millatlarni ezish va Xitoydagi xalqlar o'rtasida parokandalik siyosatini amalga oshirib kelgan sotqin Chan Kay-shi to'dasi hukmronligi ag'darib tashlangandan keyingina erishildi. Asarda Tibet davlati tarixi haqida qisqa va lo'nda ma'lumotlar berilgan.

Mullo Muhammad Ibrohim Fanahiyning "Sharqiy Turkiston tarixi" asarida Sharqiy Turkiston tarixi, jumladan, turli hukmdorlar, ular yuritgan ichki va tashqi siyosat masalalari umumiy tarzda o'z ifodasini topgan. Shu bilan birga, ushbu asarda qisqa tarzda bo'lsa-da, Sharqiy Turkistonning siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalariga oid ayrim ma'lumotlar mavjud. Asarda Sharqiy Turkistonning aloqalari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Ablat Xo'jaevning "Sinskaya imperiya i Vostochnyy Turkestan v XVIII v" asarida XVIII asrda Sharqiy Turkistonning ijtimoiy, iqtisodiy ahvoli yoritib beriladi. Sharqiy Turkiston – Qo'qon xonligi (1709–1876)ning sharqidagi, O'rta Osiyo bilan Xitoy o'rtasida joylashgan o'lka bo'lib, 1755–1759 yillarda Sharqiy Turkiston Xitoy imperiyasi qo'shinlari tomonidan bosib olingach, Sinszyan (ya'ni, xitoycha "Yangi chegara") deb yuritila boshlangan. Tyanshan tog'i ushbu o'lkani geografik jihatdan ikki hududga ajratib turadi. Tyanshan tog'ining janubi qismini Qashqariya – Oltishahar yoki yetti shahar deb atalgan. XIX asrning II yarmigacha G'arbiy Yevropa va rus manbalarida "Malaya Buxara" ("Kichik Buxoro") deb yuritilgan. Tyanshan tog'ining shimoliy qismi jung'or qabilalari yashaganligi uchun Jung'oriya deb atalib, aholining asosiy qismi uyg'ur va dunganlardan iborat. Asosiy shaharlari Qashg'ar, Yorkend, Xo'ton, Uchturfon, G'ulja, Urumchi va boshqalar. Hozirda XXRning Sinszyan – Uyg'ur avtonom tumani deb yuritiladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Tarixshunoslik fanining o'rganish ob'ekti nima?
2. Dastlabki tarixiy bilimlar haqida nima bilasiz?
3. Gerodotning tarixni bayon qilish usuli haqida gapirib bering.
4. Polibiyning tarixshunoslikka qo'shgan hissasi qanday baholaysiz?
5. Tarixshunoslik fani haqida batafsil ma'lumot bering.
6. Tarixshunoslik fanining predmeti nima?
7. Tarixshunoslik fanining maqsad va vazifasi nimalardan iborat.
8. "Avesto" haqida qanday tushunchaga egasiz?
9. "Avesto" kitobi haqida kim birinchi bo'lib ilmiy tadqiqot olib borgan?
10. "Avesto" kitobi tarixshunoslikda qanday ahamiyat kasb etadi?
11. "Avesto"ning xalqimiz ma'naviy hayotida tutgan o'rnini qanday baholaysiz?
12. Kir II ning massagetlar yeriga hujumi qachon bo'ldi, massagetlar hukmdori va bu haqda ma'lumot bergan tarixchini toping?
13. Aleksandr Makedonskiy bosqiniga bag'ishlangan asarlarni tavsiflab bering.

14. “Qadimgi avtorlar O‘rta Osiyo haqida” nomli to‘plamdagi asarlarning yurtimiz tarixi tarixshunosligidagi o‘rniga baho bering.
15. Qadimgi Xorazm va Baqtriya haqida qaysi yozma manbalar ma’lumot beradi?
16. Qang‘ davlati tarixshunosligi bo‘yicha tadqiqot olib borgan olimlar haqida gapirib bering.
17. Qang‘ davlati Xitoy manbalarida qanday nomlanadi?

**MAVZU: O‘ZBEKISTONDA O‘RTA ASRLAR TARIXINING O‘RGANILISHI.
AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI.**



***O‘quv maqsadi:** Eftalitlar tarixiga oid manbalar haqida tushuncha hosil qilish, ushbu manbalarda qarama-qarshiliklar mavjudligini aniqlash. Turk xoqonligini o‘rganishda turkshunoslarning hissasini o‘rgatish, Arab tarixshunosligi bilan tanishtirish, at-Tabariyning “Tavorixi Tabariy”, Narshaxiyning “Buxoro tarixi” va Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” kabi asarlarni sharhlash, ushbu asarlarning Vatanimiz tarixining ilk o‘rta asrlar davriga oid muhim manba ekanligini tushuntirish.*

Talabalarga Amir Temur davlati haqida yaratilgan tarixiy adabiyotlar, Vatanimiz tarixini o‘rganishda ularning ahamiyati hamda mazkur asarlarning o‘rganilishi to‘g‘risida ma’lumot berish. Mavjud adabiyotlarni davrlashtirish, tarixiy adabiyotlarga izoh berish, ularning mohiyatini tahlil qilish asosida Temur davlati va shaxsi xususiyatlarini, Temuriylar davri tarixiga oid manbalar va Ulug‘bek davridagi madaniy hayot tarixshunosligini tushuntirish.

***Tayanch so‘z va iboralar:** Eftalitlar tarixi, Turk xoqonligi, moddiy va ma’naviy madaniyat, sharqshunoslik, Jome’ as-Sahih, at-Tabariy, al-Beruniy, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Xronologiya”, Musulmon uyg‘onish davri, “renessanizm”, Xristianlik, Adam Mes, “Osor ul-boqiya”.*

Ibn Xaldun, Nizomiddin Shomiy, Sharafuddin Ali Yazdiy, "Zafarnoma", Ibn Arabshoh, I. Umnyakov, Klavixov, Ulug‘bek davri, Samariya, Temuriylar madaniyati.




**Tarixiy adabiyotlarda Eftalitlar davri va Turk xoqonligi
tarixining yoritilishi**

V asr o‘rtalarida Eftalitlar davlati shakllanishi oxiriga yetdi. Eftalitlar davri bo‘yicha asosiy manbalar rimlik tarixchi Ammian Marselin (IV asr), vizantiyalik tarixchi Prisk Paniyskiy, Prokopiy Kesariyskiy va Feofan Vizantiyskiy asarlaridir. Suriyalik

yozuvchi Zenob Glakning yunon tilida yozilgan “Eftalit podshohlari tarixi” asari ham asosiy manba hisoblanadi.

Eftalitlar tarixi bilan shugʻullanuvchilar koʻpchilikni tashkil etsada, ularning etnik tarkibi, tabiati haqida nuqtai nazar mavjud emas. Eftalitlar turli tillarda turlicha nomlanadi: kitoblarda ye-da yoki i-da, armanlarda xeptal, idal, tetal, arablarda – xaytal, yaftal, yunonlarda – adel, eftalit, suriya manbalarida – abdel, eftalit, oʻrta fors tilidagi manbalarda – yeftal, xeftal, tojik-fors tilidagi manbalarda – xetal, xaytal.

Xitoy manbalarda eftalitlarning kelib chiqishi haqida juda koʻp taxminlar bor, lekin ular bir-biriga qarama-qarshidir.



Yuqoridagilardan koʻrinib turibdiki maʼnosi toʻgʻrisida tarixchilar oʻrtasida yago

VI asr oʻrtalariga kelib Markaziy Osiyoda yirik koʻchmanchilar davlati – Turk xoqonligi tarkib topdi. Ushbu davrga oid maʼlumotlar yetarli, biroq ular bir-biriga qarama-qarshi va aniq maʼlumotlar bermaydi. Mazkur davrga oid voqealar Tabariyning “Tarix ar-rasul va-l mulk” va Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asrida ham bayon etilgan.

Turk xoqonligi bilan bogʻliq baʼzi masalalar I. Bichurin, V. V. Bartold, A. Yakubovskiy, A. Bernshtam va boshqa olimlarning asarlarida bayon qilingan. “Turk” atamasi etnik mazmuni anglatmay, bir necha qabila va xalq birlashuvini bildiruvchi siyosiy atama sanalgan. S. P. Tolstovning fikricha, “Turk” soʻzi “yosh, uylanmagan jangchi” maʼnosini anglatadi. Ushbu soʻz qabila anʼanalari va nihoyat siyosiy jihatdan birlashgan xalqlarning umumiy nomiga aylangan.

Yozuv insoniyat tarixida muhim ahamiyat kasb etgan. Yozma yodgorliklar ham insoniyat tarixida oʻziga xos oʻrin tutadi. Turkiy xalqlar tarixini oʻrganishda yozma manbalar, ular orasida Oʻrxun daryosi qirgʻoqlaridan topilgan yozuvlar muhim manba vazifasini oʻtaydi. Ushbu bitiklarni oʻqish daniyalik olim Vilgelm Tomson va rossiyalik olim V. V. Radlovlar zimmasiga tushdi.

1893 yilning oxirida V. Tomson Oʻrxun daryosi qirgʻoqlaridan topilgan yozuvlarni oʻqiganligi haqida Daniya qirolligi FA yigʻilishida axborot berdi. Tomsondan keyin Radlov ham 1894 yil 19 yanvarda Rossiya FA yigʻilishida Kulteginga

bag‘ishlangan bitiktoshni o‘qiganligi haqida ma‘lumot berdi. V. Tomson va V. Radlovlardan keyin bitiktoshlarni turli tillarga tarjima qilish hamda nashr etish ishlari bilan M. P. Melioranskiy, S. Ye. Malov va I. V. Stebleva shug‘ullandilar. Bu borada o‘zbek olimlaridan A. Fitrat, O. Sharofiddinov, A. Qayumov, T. Salimov, G‘. Abdurahmonov va A. Rustamovlarning xizmati katta.

Yurtimiz tarixini o‘rganishda Xitoy manbalarining ham ahamiyati katta. Miloddan avvalgi II asrda yashagan xitoy tarixchisi Sima Syan o‘tgan davr davomida bitilgan va saqlanib qolgan xotiralarni jamlash hamda o‘rganish asosida o‘zining mashhur “Tarixiy xotiralar” nomli asarini yozgan edi. Shundan so‘ng Xitoyda tarixiy asarlarni yozish tez rivojlandi. Milodiy 319 yildan boshlab tarixshunoslikka oid asarlar ham vujudga kelgan. Xitoyda yaratilgan “Ershi sishi” (24 tarix) asari 3,5 ming yillik tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. 24 ta tarixiy asar xoqonlar nazorati ostida bitilganligi uchun uning o‘ziga xos kamchiliklari mavjud. Masalan, ayrim voqealarni bayon etish va ularga baho berishda hukmron sulola manfaati ustun qo‘yilgan, o‘zgalarning nuqtai nazari hamda manfaati hisobga olinmagan. Ushbu manbalarning Turkiston tarixi uchun benihoya ahamiyati – bulardan boshqa manbalarda uchramaydigan ma‘lumotlarning mavjudligidir.

Turkiston tarixi bilan bog‘liq xitoy manbalarini o‘rganishda va tarjima qilishda Rossiya olimlari ichida N. Ya. Bichurinning xizmati benihoya katta. O‘zbekistonda Xitoy manbalarini o‘rganish bo‘yicha Ablat Xo‘jaevning tadqiqodlari muhim ahamiyatga ega. Turk xoqonligi tarixi rus olimi L. N. Gumilyovning tadqiqotlarida ham o‘z aksini topgan. Ayniqsa, uning “Qadimgi turklar” asari bu borada yirik tadqiqot hisoblanadi. O‘zbek olimi Nasimxon Rahmon “Turk xoqonligi” asarida turklar tarixi, yozuvlari va afsonalari haqida qimmatli ma‘lumotlar beradi.

Arablar bosqini va Markaziy Osiyo xalqlarining istilochilarga qarshi kurashi tarixshunosligi

Moddiy madaniyat qurollarining paydo bo‘lishi insonlar hayotiga qanchalik katta ta’sir ko‘rsatgan bo‘lsa, qo‘lyozma va bosma kitoblarning paydo bo‘lishi ham insoniyat madaniyati taraqqiyotiga shunchalar katta ta’sir ko‘rsatdi. Markaziy Osiyo xalqlarining Arab xalifaligi tarkibiga kirishi arafasi va undan keyingi ahvoli haqida gap borganda, so‘zsiz arabcha, forscha va qadimgi turkiy-runiy yozuvlariga murojaat qilish mumkin. Tarixda uch joydan Markaziy Osiyo tarixiga oid hujjatlar arxivi topilgan. Hozirgi Turkmanistonning Niso shahrida – Parfiya davlati (mil.avv. I asr), Tuproqqal’a (III asr) – Xorazm davlati, Mug‘ tog‘i (Samarqand)da esa So‘g‘diyona hujjatlari (VII asr) topilgan.

Markaziy Osiyo tarixidan daliliy ashyolarga boy ma‘lumotlarni o‘rta asrlar yashagan muarrix Tabariy asarlari, shu asarning Bal’amiy tuzgan forscha-tojikcha nusxasi va jahonshumul qomusiy olim Beruniy asarlaridan topish mumkin. VII asr boshlarida yirik arab davlati tashkil topdi va ushbu davlat bosqinchilik yurishlari natijasida juda katta hudud, jumladan, Movarounnahr va Xorazmni bosib oldi. Arablar

bosqini va hukmronligiga oid adabiyotlarning katta qismini arab tarixshunosligi tashkil etadi.

Arab tarixshunosligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri folklor (xalq ijodi) va adabiy an‘analari, shuningdek, ilohiyot – Qur‘on an‘analari bilan uzviy bog‘liq.

Tabariy va Narshaxiy asarlarini tarixshunoslik yuzasidan tahlil qilishdan avval islom diniga oid bir masala ustida to‘xtalish kerak. Jumladan, sharqshunoslar – I. Xoliqov, B. Shamsuddinov va A. Irisovlarning fikricha, imom Ismoil Buxoriy, Abu Iso at-Termiziy, Abu Dovud Sijistoni, Ahmad an-Nasaviy, ibn Madj al-Qazviniy va boshqa muhaddislar to‘plagan hadislar bir yarim millionga yetadi. Bulardan Imom Ismoil al Buxoriyning “Sahih” to‘plami qimmatligi jihatidan “Qur‘on”dan keyingi, ya‘ni ikkinchi o‘rinda turadi.

Gap shundaki, al-Buxoriy jahonga tanilgan buyuk muhaddis bo‘libgina qolmay, o‘z zamonasining atoqli tarixchisi ham edi. Uning “Jome at-tavorix” asari kichik tarix, o‘rtacha va katta tarix deb nomlanuvchi uch qismdan iborat. Ismoil Buxoriyning 1974 yilda topilgan “Kichik tarix” va “O‘rtacha tarix” kitoblari Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universitetining Sharq qo‘lyozmalari fondida saqlanmoqda. Ammo ushbu asar ham tadqiqotchilarga unchalik ma‘lum emas. Markaziy Osiyoning X–XI asrlardagi tarixi tarixshunosligi V. V. Bartold, V. I. Belyaev, Ye. A. Belyaev, A. A. Romaskevich, I. Yu. Krachkovskiy, B. G‘ofurov va ayniqsa, K. Brokkelman va S. A. Stou asarlarida keng yoritilgan.

Tabariyning mashhur asari “Tarixi ar-rasul-val-muluk” (“Payg‘ambarlar va mamlakatlar tarixi”) yoki “Tavorixi Tabariy” deb ataladi. 963 yilda ushbu asarni Bal‘amiy qayta ishlab, fors tiliga tarjima qilgan edi. Mazkur asarning tarjimasi ko‘p nusxada ko‘chirilganligi uning shuhrat topganligini ko‘rsatadi.

At-Tabariy o‘z asarini yozishda o‘zidan avval o‘tgan Abdul-Hasan Ali ibn Muhammad al-Madoiniy (V. V. Bartoldning yozishicha, hijriy 215–225, milodiy 830–840- yillarda vafot etgan)ning asaridan keng foydalangan. Asar kompilyativ (avvalgi tarixchilarning asarlariga suyanish) xususiyatiga ega. Ammo, Al-Madoiniy o‘z hikoyatlarini boshqa arab tarixchilaridan farqli ravishda, tarixiy asarlardan ko‘ra epik xalq dostonlariga o‘xshatib yozgan. O‘rta asr arab prozasi uchun bunday hol tabiiy edi. At-Tabariy arab tarixchilaridan birinchi bo‘lib, tarixiy voqealarni aniq tarixiy dalillar asosida yoza boshlagan. Arab tarixshunosligining ilk davri At-Tabariyning “Tarixi ar-rasul va-l mulk” asari bilan yakunlanadi. Mazkur asar tarixiy obidalar, hikoyalar, folklor va afsonalarni o‘z ichiga olgan islom olami tarixiga doir eng mo‘tabar majmuadir.

Arab tarixshunosligida, shuningdek, ayrim mintaq, iqlim-davlatlar, mamlakatlar, shaharlarning tarixiga oid o‘ziga xos ayrim tarixiy-qomusiy asarlar ham vujudga keldi. Ana shunday asarlardan biri Narshaxiyning “Buxoro tarixi”dir. Ushbu asarda VIII–XII asrlarda yuz bergan tarixiy voqealarni bayon qilinar ekan, musulmon tarixshunosligi nuqtai nazaridan kelib chiqib, islom asoslari va fiqhni himoya qiladi. Shu tufayli xalqning ahvoli va arab bosqinchilariga qarshi harakat (masalan, Muqanna

boshchiligidagi xalq harakati) qoralanadi. Mahalliy zodagonlarning unga qarshi harakati ma'qullanadi. Ammo, shunga qaramay, VII–X asrlar tarixiy voqealarining xolisona bayoni uni qimmatli manba darajasiga ko'taradi. Busiz Markaziy Osiyo xalqlarining arablar hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy ahvoliga, keng xalq ommasining bosqinchilarga qarshi kurashiga baho berish mushkul. Ushbu asarning forsiy matni 1892, 1894, 1904 va 1939 yillarda Parij, Buxoro va Tehronda chop etilgan. Kitob rus, ingliz va o'zbek tillariga (1897, 1954, 1966 yillar) tarjima qilingan. "Buxoro tarixi"ning hozirgi tarixshunoslik uchun qimmatli manba ekanligi shubhasizdir.

Musulmon uyg'onish davrida O'rta Osiyo xalqlari tarixi tarixshunosligi

Musulmon uyg'onish davri haqidagi tarixiy adabiyotlar va uning Markaziy Osiyoga ta'siri arablar tarixshunosligining kelib chiqishi va g'oyaviy-nazariy asoslariga ko'ra, eng avvalo, folklor – adabiy an'nalar va ilohiy Qur'on kompleksi bilan bog'liq. Yuqorida qayd etilganidek, tarixga bag'ishlangan risolalar islom jamoasining siyosiy va intellektual jihatdan faol qismi ifodalanadigan faoliyati tarixi mavzusi bilan bog'liq. IX asrning ikkinchi yarmiga kelib, At-Tabariyning "Tarix ar-rasul va-l-mulk" ("Payg'ambarlar va shohlar tarixi") asari bilan tugallangan tarixshunoslikning ilk davri shakllangan edi.

- **Тарихга бағишланган рисолалар ислом жамоасининг сиёсий ва интеллектуал жиҳатдан фаол қисми ифодаланадиган фаолият тарихи мавзуси билан боғлиқ.**
- **Бунга исломгача бўлган араб ривоятлари, қадимги пайғамбарлар, Марказий Осиё, форс ва бошқа Шарқ подшо ҳамда ҳокимларининг афсонавий тарихи ҳам кўшилди.**
- **Умуман, ўрта аср араб мусулмон жамияти учун тарихан ўз-ўзини англашнинг тугалланган шакллари, ой тақвими бўйича йилни аниқ ҳисоблаш, тарихшунослик анъаналарининг авлоддан-авлодга ўтиши хос эди.**

IX asrning ikkinchi yarmila arab tarixshunosligida yagona yoki takrorlanuvchi o'ziga xos asarlar ham vujudga keldi. Ular jumlasiga ibn Qutayba (889 yilda vafot etgan)ning tarixiy qomusi va ash-Shabusariyning (998 yillar atrofida vafot etgan) xristian monastirlari tarixiy toponimik ma'lumotlarini kiritish mumkin. Odatda, bir-ikki jildga

jamlangan juda muhim asarlar, asosan, IX–XI asrlarda yaratilgan. Ushbu kitoblar “Mashhur arab jo‘g‘roflari kutubxonasi”ni tashkil etgan.

Mazkur davrdagi sayohatnoma, ma‘muriy-jo‘g‘rofiy ma‘lumotnoma va jo‘g‘rofiy asarlarda juda boy tarixiy-toponimik ma‘lumotlar mavjud. IX-XI asrlarda yaratilgan asarlar “mashhur arab jo‘g‘roflari kutubxonasi”ni tashkil etgan. Ibn Xurdodbeh (846–847 yillar)ning umumjahon miqyosidagi jo‘g‘rofiy asari, Ibn al-Faqihning jo‘g‘rofiy asari, Ibn Rusta, ibn Fudlan, Mas‘udiy, Istaxriy, ibn Havqal va Maqdisiylar asarlari juda muhimdir. Shuningdek, noma‘lum muallifning “Hudud al-alam” jo‘g‘rofiy asari va Bayramning “Jahonnoma” asari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Arab jo‘g‘rofiy adabiyoti va uning ahamiyati haqida I. Yu. Krachkovskiy bunday deb yozgan edi: “Ispaniyadan Turkistongacha bo‘lgan mamlakatlar va Hind tog‘i etaklaridagi aholi maskanlarini aniq sanab, cho‘l va madaniy joylarini tavsiflab, madaniy ekinlarning tarqalish ko‘lami, foydali qazilmalar o‘rnini ko‘rsatgan holda, fizik-jo‘g‘rofiy va ob-havo sharoitini, xalq turmushi, sanoati, madaniyati, tili, diniy ilmlarini ko‘rsatgan holda (ma‘lumotlar xalifalik viloyatlari hududi bilan chegaralanib qolmasdan, balki greklarga tanish dunyodan ancha chetga chiqdi) u shunday keng, tugal ma‘lumot beradiki, unga o‘xshashini bu davrda hech qaerda topib bo‘lmas edi”.

Mashhur sharqshunos Ye. Bertels Uyg‘onish davrining rivoji va uning Markaziy Osiyoga ta‘sirini eng avvalo, xalq ommasining arablarga qarshi tinimsiz kurashi va ularning arab hukmronligiga qarshi olib borgan ijtimoiy-siyosiy kurashi natijasi bilan bog‘laydi.

XIX asr ikkinchi yarmida tarixchi L. Ranke tarixiy tahlilning va ilmiy tadqiqotning yangi uslublarini taklif qildi. U tarixchining shiori “Orqaga – manbalarga!” bo‘lishi kerak, degan xulosaga keldi. Biroq, uning g‘oyalari milliy jihatdan chegaralanganligi va yevrotsentrizm ruhi bilan sug‘orilganligi o‘zining shogirdi Ya. Bukxard tomonidan tanqid qilindi. Jumladan, Ya. Bukxard insoniyatning moddiy va ma‘naviy madaniyati tarixini yoritishni birinchi o‘ringa qo‘yishni talab qildi.

Uning Italiya uyg‘onish davri haqidagi asarlari mashhur bo‘lib, u “renessansizm” oqimiga asos soldi. Oqimning ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri yirik sharqshunos olim, Musulmon Uyg‘onish davrini o‘rganishga ko‘p umrini bag‘ishlagan Adam Mes (1869–1917) dir. A. Mes 1917 yil dekabrda “Musulmon Uyg‘onish davri” asarini tugatishga ulgurmay vafot etdi. Uning shogirdi Rekendorf ushbu kitob ustida tinimsiz ishlab, 1922 yilda chop etishga muvaffaq bo‘ldi. A. Mesning mazkur asari 1973 yilda rus tilida ham nashr etildi. Kitobning sarlavhasi yo‘q bo‘lib, uni Musulmon Uyg‘onish davri tarixi sifatida qabul qilib kelindi. Ushbu kitobning arabcha tarjimasi musulmon olamida katta shov-shuvga sabab bo‘ldi. Adam Mes musulmon davlati madaniy hayotidagi chuqur o‘zgarishlar, uning hayoti va qadim zamon madaniyatiga vorislik belgilarini tahlil qilgan edi. Bu haqda V. Bartoldning fikricha, Yevropa uyg‘onishi va Musulmon madaniyati

ravnaqi tushunchalari asosan, bir-biriga o'xshash va mos tushunchalardir. Shu bois ham kitobni "Islom dunyosidagi Uyg'onish" deb atash to'g'ri bo'ladi.

Musulmon tarixshunosligi bevosita shariat va islom aqidalari bilan bog'liqdir. Musulmon olimlari tarixiy voqealarni islom aqidalari, Allohning qudrati va qazoi taqdir bilan bog'laylilar. Qur'oni Karimda yozilishicha, inson tirik ekan, u Allohning irodasi bilan ish ko'radi. Tarixchi esa jamiyatda yuz beradigan voqealarning sabablarini shariat qoidalari bilan uyg'unlashtirishi zarur edi. Chunki har qanday mantiqiy fikrlash voqealarning sababini aniqashni taqozo etadi.

Хусусан, Махмуд Кошғарийнинг “Девони луғотит турк”, Ал-Утбий ва унинг “Тарихи Яминий”, Абдулфараж Қудам “Китоб ул-хирож ва санъат ал-китоба”, Байҳақийнинг “Тарихи Масъудий”, “Ибн ал-Асир Ал-комил фи-т-тарих”, Истахрийнинг “Китоб масолик вал-мамолик” каби асарларда диний муҳит ҳам қисман акс этган.

buyuk qomusiy olim bo'lib, yoshlik chog'larida xalq tilidagi so'z va iboralar, hikmatli so'z va maqollarni astoydil o'rgandi, ularni qunt bilan yozib bordi. Har bir so'z va iborani sharhlash hamda ma'nosini aniqlashga intildi. Ana shu qiziqish tufayli Mahmud Koshg'ariy turkiy xalqlar tarixi, tili, madaniyati va urf-odatlarini puxta o'rganish maqsadida butun Markaziy Osiyoni kezib chiqdi. O'zi to'plagan boy dalillar asosida xalqimizning buyuk olimi "Javohirun nahv fi lug'ati turk" ("Turkiy tillarning sintaksisi durdonalari") va "Devonu lug'otit turk" ("Turk tilining lug'ati") asarini yozdi.

Uning birinchi yozgan asari bizgacha yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo'q. Olimning ikkinchi "Devonu lug'otit turk" asari 1074–1075 yillarda yozilgan. Bu haqda asarning o'zida quyidagi fikrlar bayon etiladi: "Bu kitobni yozgan yilimiz to'rt yuz oltmish oltinchi yilning muharram oyida ilon yili kirgan edi". Ushbu asar muqaddima va lug'at qismdan iborat bo'lib, Markaziy Osiyo xalqlari madaniy hayotida alohida o'rinni egallaydi. Chunki, olim asarga dunyo xaritasini ham ilova qiladi va Kichik Osiyodan to Xitoy hududlarigacha cho'zilib ketgan hududlarda yashagan turkiy xalqlar tarixi, geografiyasi, etnogenezi, urf-odatlari, turmush tarzi va madaniyati to'g'risida g'oyatda qimmatli ma'lumotlarni beradi. Asarda turkiy qavm-urug'lar: qipchoq, o'g'uz, yamak, boshqirt, basmil, qay, yaboku, tatar, qirg'iz, chigil, yag'mo, tuxsi, igroq, jaru, jambil, uyg'ur, tangut, tabg'ochlardan tashqari fors, arab, xitoy va rus xalqlari haqida ham ma'lumotlar bor. Shunisi muhimki, shaharlarda so'g'd-turk ikki tilliligi rasmiy holat bo'lganligi Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ham qayd etilgan.

Ushbu nodir qo'lyozma asar hozir Istanbulda saqlanmoqda. Asarda turkiy xalqlar og'zaki ijodi va yozma adabiyotiga doir 300 dan ortiq she'riy parchalar, maqollar, hikmatli so'zlar va lavhalar berilgan. Olim o'z asarida turkiy tillarga oid juda ko'plab so'z birikmalari, iboralar va talaffuz qoidalari asoslab beradi. Bu jihatdan mazkur asarni oddiy lug'at deb emas, balki mukammal ishlangan grammatik qo'llanma sifatida baholash kerak bo'ladi.

“Девону луғотит турк” асарида туркий қавм-уруғлар:

қипчоқ, ўғуз, ямак, бошқирт, басмил, қай, ябоку, татар, қирғиз, чигил, яғмо, тухси, игроқ, жару, жамил, ұйғур, тангут, табғош парлан ташқари
яна *форс, араб, хитой, рус* халқлари ҳақида ҳам маълумотлар бор.

Turkmanlar haqida dastlab Abu Rayhon Beruniy o‘zining qimmatbaho toshlarni o‘rganishga bag‘ishlangan “Minerologiya” asarida ma’lumot bergan va “turkman” nomining etimologiyasi haqida yozgan. Xususan, uning fikricha, o‘g‘uzlarning bir qismi mahalliy aholi bilan qo‘shilib ketib, islomni qabul qiladi va shundan keyin “turkman” deb atala boshlanadi.

Al-Utbiy va uning “Tarixi Yaminiy” asari. Abu Nasr al-Utbiy asarining qo‘lyozma nusxalari ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, asar bir necha bor nashr etilgan. Ayniqsa, “Tarixi Yaminiy”ga bo‘lgan qiziqish XIX asr o‘rtalarida yana kuchayib, mazkur davrda asarning arabcha nusxasi qayta-qayta nashr etiladi. Jumladan, asarning Mavlaviy Mamluk al-Ali va nemis olimi A. Shprenger tomonidan tayyorlangan dastlabki nashri 1847 yilda Dehlida chop etildi. 1870 (hijriy 1286) yilda Qohirada al-Utbiy asarining to‘liq matni Shayx Ahmad al-Maniniy tomonidan tayyorlangan tarixiy-filologik sharhi bilan birgalikda (hoshiyasida) nashr qilindi. Shuningdek, “Tarixi Yaminiy” to‘lig‘icha 1290 (1874) yilda tarixchi Ibn Al-Asirning “Komil fi-t-tarix” asari X–XI jildlarining hoshiyasida Qohirada, nihoyat, al-Utbiy asarining olim Hamiduddin tomonidan tayyorlangan nashri 1883 yilda Lohurda chop etilgan.

“Tarixi Yaminiy” boshidan oxirigacha nasriy “saj” uslubida yozilgan bo‘lib, shu tarzda yaratilgan dastlabki tarixiy-biografik asarlardan hisoblanadi. Ushbu asar muqaddima va qirq besh bob (zikk)dan iborat. Asarda voqealar jarayoni aksariyat o‘rinlarda X asrning oxiri – XI asrning birinchi choragida Movarounnahr va Xuroson tarixiga ma’lum darajada aloqador bo‘lgan shaxslarga bog‘lab hikoya qilinadi.

Abdulfaraj Qudamaning “Kitob ul-xiroj va san’at al-kitoba” asari. Mazkur asar Arab xalifaligining ma’muriy bo‘linishi, unga tobe bo‘lgan mamlakatlar o‘rtasidagi aloqa xizmati, soliq va moliya tizimining umumiy ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar beradi. Asarda Movarounnahrning geografik holati va uning turkiyzabon aholisi haqida ham muhim dalil ma’lumotlarni uchratish mumkin.

Abulfazl Bayhaqiyning “Tarixi Mas’udiy” asari. An’anaviy tarixiy asarlardan yaqqol ajralib turadigan “Tarixi Mas’udiy” (“Mas’ud tarixi”) asarining muallifi Abulfazl Muhammad ibn al-Husayn al-kotib al-Bayhaqidir (995–1077). Abulfazl Bayhaqiyning “Ziyinat ul-kitob” (“Kitoblar ziynati”), “Tarixi oli Mahmud” (“Mahmud xonadonining

tarixi”) yoki “Jomi’ fi tarixi oli Sabuqtegin” (“Sabuqtegin xonadoni tarixidan hikoyalar majmuasi”) nomli asarlari bilan mashhur.

“Tarixi Bayhaq” (“Bayhaq viloyati tarixi”) asari muallifi Abulhasan Ali Bayhaqiy XII asrning ikkinchi yarmida oʻtgan va koʻpincha ibn Funduq nomi bilan mashhur boʻlgan olimning maʼlumotiga qaraganda, Abulfazl Bayhaqiyning “Tarixi oli Mahmud” (“Mahmud xonadonining Tarixi”) asari 30 jilddan iborat boʻlgan. Lekin, ushbu ulkan asarning faqat oltinchi jildining ikkinchi qismi 7, 8, 9-jildlari hamda 10-jildning bir qismi yetib kelgan, xolos. Mazkur qismlar Sulton Masʼud (1030–1041) davri tarixini oʻz ichiga oladi va “Tarixi Masʼudiy” nomi bilan maʼlum va mashhur.

“Tarixi Masʼudiy” asarida boshqa tarixiy kitoblardan farqli oʻlaroq, muallif oʻzi koʻrgan va ishonchli kishilardan aniqlagan maʼlumotlarni keltirgan, shuningdek, hukumat mahkamalarida saqlangan rasmiy hujjatlar asosida hamda maishiy tafsilotlarga ham alohida eʼtibor berilgan. Asarning daliliy maʼlumotlarga boyligi, voqealarning keng va atroflicha bayon etilishi, zoʻr badiiy mahorat bilan yozilganligi uni boshqa tarixiy asarlardan ajratib turadi. Kitobda asosan, Sulton Masʼud davrida Gʻaznaviylar saltanatining ijtimoiy-siyosiy ahvoriga keng oʻrin berilgan. Bundan tashqari, asarda Safforiylar, Somoniylar va Saljuqiylar tarixiga oid muhim maʼlumotlar ham mavjud. Ayniqsa, gʻaznaviylar bilan Xorazm, Saljuqiylar hamda Qoraxoniylar davlati oʻrtasida boʻlgan siyosiy munosabatlar toʻgʻrisida qimmatli maʼlumotlar koʻp.

“Tarixi Masʼudiy” asarining forsiy matnini ingliz olimi Uilyam Morley 1861 yilda Kalkuttada, Ahmad Peshavoriy esa 1886 yilda Tehronda, Said Nafisiy 1941–1954 yillarda, Gʻani va Fayoz 1945 yilda chop etgan. Uning arabcha tarjimasini Qohirada Yahyo Qashshob va Sodiq Nishot tomonidan nashr etilgan.

“Tarixi Masʼudiy” asarining ruscha tarjimasini tadqiqot va zarur izohlar bilan manbashunos olim A. K. Arends tomonidan 1962 yilda Toshkentda va 1969 yilda Moskvada chop etildi. Kitobning X–XI asrlar tarixini oʻrganuvchilar uchun manba sifatidagi ahamiyati juda katta.

Ibn al-Asir va uning “Al-komil fi-t-tarix” asari. Ushbu asarning muallifi arab tarixchisi Izzuddin Abulhasan Ali ibn Muhammad (1160–1234) boʻlib, u koʻpincha Ibn al-Asir nomi bilan mashhur. Asar 12 jilddan iborat boʻlib, unda dunyoning yaratilishidan to 1231 yilga qadar Sharq mamlakatlarida boʻlib oʻtgan ijtimoiy-siyosiy voqealar yilmayil, xronologik, yaʼni davr tartibida bayon etib beriladi. Asarning VII–XII jildlari mustaqil, alohida ahamiyatga ega boʻlib, 924–1231 yillar orasida Sharq mamlakatlari, shuningdek, Movarounnahrda boʻlib oʻtgan voqealarni oʻz ichiga oladi. Ushbu kitob asosan, qoʻlyozma manbalar, shuningdek, tarixni yaxshi bilgan kishilar bergan axborotlar hamda muallifning shaxsiy kuzatishlari davomida toʻplangan boy va faktik material asosida yozilgan. Asar Xivada toʻliq holda oʻzbek tiliga Muhammad Rahim soniy davrida Nurillo Muftiy, Muhammad Sharif Oxund tomonidan tarjima qilingan boʻlib, Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti xazinasida uning 13 ta qoʻlyozmasi saqlanmoqda.

Istaxriyning “Kitob masolik val-mamolik” asari. “Kitob masolik ul-mamolik” 20 ta bobdan iborat geografik asardir. Unda musulmon mamlakatlari (Arabiston, Mag‘rib, Misr, Suriya, Iroq, Eron, Movorounnahr), shuningdek, Hindistonning chegaralari, iqlimi, ma‘muriy bo‘linishi, mashhur shaharlari, ularga olib boradigan yo‘llar, aholisi va uning mashg‘uloti, mashhur kishilari, savdo-sotiq va boshqa masalalar bayon etilgan.

Musulmon tarixchilari ushbu murakkab vaziyatda o‘ziga xos yo‘l topdilar. Ular voqealarning kelib chiqish sabablarini bayon etib, mazkur sabablar ham Allohning irodasi ekanligini e‘tirof etdilar. Alloh-taolo lozim topsa, shu voqealarni boshqa izga burib yuborishi ham mumkin. Musulmon tarixchilari ko‘p o‘rinlarda “Qur‘oni Karim” suralari va oyatlarga asoslanadi. O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, islom ta‘limoti Arabistondan tashqari mamlakatlarga yoyilgan paytdan boshlab tarix fani sezilarli darajada rivojlandi.

Abu Rayhon Beruniy tarixiy asarlarining musulmon tarixshunosligidagi o‘rni

O‘rta asrlarning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Beruniy tarix, falsafa, falakiyot, ma‘dashunoslik va boshqa fanlar bo‘yicha 152 dan ortiq ilmiy asar muallifidir. Arablar istilosidan keyin Markaziy Osiyo xalqlarining qadimiy madaniyati inqirozga uchradi, zavol topdi, ammo yangi sharoitlarda ushbu xalqlar yanada yuksak ilm-fan va madaniyatni yaratdilar.

Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ijodi uchun murakkab bo‘lgan sharoitni Markaziy Osiyoda hukm surgan feodalizm sharoitidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hayot murakkabliklaridan ajralgan holda o‘rganish mumkin emas. Sarson-sargoardonlik qomuschi olimning qismatiga aylangan edi. Yosh Beruniy 998 yilda Kaspiy dengizining janubiy sohilidagi Jurjon hokimi Qobus ibn Vushmagir o‘z huzuriga taklif qiladi. Beruniy Vushmagir huzuridagi qaytgandan so‘ng o‘zining tarixiy asarlaridan biri – “Osorul-boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”) asarini hokimga bag‘ishlaydi.

Tarixshunoslik fani Abu Rayhon Beruniyning tarixiy dunyoqarashiga doir ma‘lumotga ega emas. Bizning tahlilimiz shu masalaga bag‘ishlanadi. Beruniyning ko‘pdan-ko‘p ilmiy ishlari orasida “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” nomli tarixiy asari alohda o‘rin tutadi. U 5 yildan ortiq Jurjonda yashaydi. Qobus saroyida yashab turgan G‘ilon va Tabariston hokimi Marzubon ibn Rustamning taklifi bilan tarix fanida qisqa “Xronologiya” nomi bilan mashhur bo‘lgan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” risolasini yozadi. Asar muqaddimasi kun va tun nima, ularning majmui va boshlanishi, oy, yil va milodlarning mohiyati, bu masalada xalqlarning tafovutlari, xalqlarning podsho va hokimlarga munosabati, Zulqarnayn degan shoh haqida, milodiy va hijriy yil hisoblari, xronologik turkumlar, soxta payg‘ambarlar va adashgan xalqlar, fors, so‘g‘d hamda xorazmliklarning bayramlari, yahudiylar, suryoniyalar va nasoroniyalar

xalqlari, qadimgi sehrgarlik, sabiyalar, arablar, shuningdek, islomga e'tiqod qiluvchi xalqlar, arablarning johiliyat davridagi bayramlari hamda musulmonlarning nishonlaydigan kunlari haqida fikr yuritiladi.

Археолог олим С. П. Толстов ҳаққоний таъкидлаганидек, Беруний манбаларни ўрганишида вазминлик ва билимдонлик билан, танқидий ақл-мулоҳаза услуби асосида иш кўради. Манбаларга танқидий муносабат, шубҳасиз, унинг салафлари ҳам бор эди, аммо Берунийда манбаларни танқидий таҳлил қилиш тадқиқотнинг асоси шартига айланади. Ўзи тарихчиларни огоҳлантирган бир ёқламалик, тахмин ва ақиданарсликдан Берунийнинг ўзи ҳам халос бўлмаслиги табиий, аммо ушбу соҳада у ўзининг барча салафлари ва замондошларидан баланд туради.

ko'pchiligiga manzur bo'lmasligi mumkin edi. Beruniyning "Xronologiya" va "Osor ul-boqiya" risolasi an'anaviy islom dunyosi tarixshunosligida odat bo'lgan shohlar va qahramonlar faoliyati, siyosiy voqealar o'rniga xalqlar madaniyati tarixi, ularning urf-odati va fe'l-atvori masalalarini yoritishga e'tibor beradi. Shuning uchun tarixchilar "Yodgorliklar"ga tarixiy-etnografik tadqiqot sifatida ham qaraydilar.

Abu Rayhon Beruniy 27 yoshida yozgan ushbu asarda alloma o'zining hayotiy kuzatuvlari asosida yunon, rim, fors, so'g'd, xorazm, yahudiy, arab va boshqa xalqlarning yilnoma (kalendar) tizimlarini bir-biriga taqqoslab, ularning kelib chiqish tarixini tahlil qiladi. Mazkur asarda yana Turonzamin xalqlarining tarixi, urf-odatlar va madaniyatiga oid masalalar ham o'z ifodasini topgan.

Beruniyning "Osor ul-boqiya" asari tarixchilar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilgan. Asarni 1957 yilda arabshunos olim M. A. Sale birinchi marta rus tiliga tarjima qilgan edi. Tarjima jarayonida V. Zaxau nashr etgan arabcha va inglizcha nusxasi, Leningrad va qisman Istanbul qo'lyozmalaridan foydalangan.

Shuni ham qayd etish kerakki, rus tiliga qilingan tarjima ayrim nuqson va kamchiliklardan xoli emas. Ayrim o'rinlarda butun jumlar tushib qolgan, ba'zan esa chalkashtirib yuborilgan. Tarjimon qo'lida Istanbul qo'lyozmasining fotonusxasi mavjud bo'lishiga qaramay, undan to'la foydalanmagan. Ruscha tarjima S. P. Tolstov va V. P. Sheglovlarning so'z boshisi bilan boshlanadi. Tarjimaga M. A. Sale tuzgan ilmiy izohlar ham ilova qilingan.

Rossiyada ushbu noyob asar bilan o'z vaqtida akademik I. Yu. Krachkovskiy ham qiziqqan edi. U o'zining "Arab qo'lyozmalari ustida" nomli mashhur asarida 1910 yillarda Petrogradning Osiyo muzeyida sotib olingan XIII asrga oid qo'lyozma bilan qiziqqani, bundan Zaxau nusxasini to'ldiradigan o'rinlarini ko'chirib olgani va ularni nashrga tayyorlashni mo'ljal qilib qo'yganini eslatib o'tadi. Lekin, I. Yu. Krachkovskiy buni amalga oshirolmaydi. U o'zining "al-Beruniy va Sharqning XI asrdagi geograflari"

nomli asarida “Yodgorliklar”ga juda yuksak baho beradi va ushbu kitob haqida qimmatli fikrlarni aytib o‘tadi.

Beruniyning tarixiy tadqiqot usuli, uning islom madaniyatidagi o‘rni, Qur’oni Karim va Hadisi sharifdagi asoslari, qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixiy tadqiqot usullaridan keskin farq qiladi. Allomaning ilmiy-tarixiy tadqiqot usullaridagi o‘ziga xos tizim va yangiliklar Ahmad Zakiy Validiy To‘g‘onning “Tarixte usul” kitobida ilk marotaba 1950 yillarda o‘rganilgan. G‘arbdagi tarixni talqin etish va metodologik yoritishning tarixi bo‘lganidek, Sharqda ham tarixni talqin etishning o‘z tarixi mavjud.

Ilk musulmonlarning tarixni tushunish va talqin etishlari asosan, ilohiyot ta’sirida shakllangan va shuning uchun bu ilmiy tarix emas, asosan, ertak, afsona, rivoyat, doston, juda nari borsa, xronologik bayon va sulolalarning qahramonlik ishqiy sarguzashtlari doirasida qolavergan edi. Hadis va rivoyatlarning tanqidiy tahlil qilish usuli Tabariy kabi olimlarning rivoyatchilik tizimidan ta’sirlanishlariga olib keldi. Hozirda o‘zbek olimlari ham Imom al-Buxoriy yaratgan hadis ilmidagi tanqidiy usul tarixda ilmiy usulining shakllanishiga sabab bo‘lganligi to‘g‘risidagi xulosani aytmoqdalar. Beruniy tarix falsafasi muammolarini yoritishda go‘yo pozitivistlar va iqtisodiy omillarga urg‘u qiluvchi materialistlarga yaqin ko‘rinsa-da, uning tarixga yondashishi, birinchi navbatda, insoniylik ta’sirining kuchayib borishini hal qiluvchi sabab deb biluvchi yondashishdan iborat. Ikkinchidan, Beruniy o‘rta asr diniy, ilohiyot, tarix falsafasidagi nuqtai nazarlardan emas, balki inson aql-zakovatiga to‘la ishonch nuqtai nazaridan tarixga optimistik yondashgan.

Uchinchidan, F. Nisshe, A. Shopengauer, O. Shpengler va boshqa G‘arb tarixchi hamda mutafakkirlaridan farqli o‘laroq, Beruniy tarix insoniyatning kelajagini faqat taqdiri azaldan bog‘lab qo‘yilmagan, balki insoniyatning istiqboliga umid bilan qaragan, tarixiy taraqqiyotning ilg‘or yo‘li, buning qonun va qonuniyatlarini e’tirof etgan.

Beruniy, ayniqsa, ibn Xaldunning “Tarix falsafasi usuli va prinsiplari” asari, hozirgi G‘arb tarixchi olimlari, jumladan, A. Toynbi kabi zabardast tarixchilarga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Beruniyning o‘z zamonasi ijtimoiy taraqqiyoti va ilm-fani darajasidan ilgari ketganligining boisi shundaki, tarix ilmini oddiy xronologik qaydlar tarixidagi qiziqarli siyosiy-harbiy, jangu-jadal, suronli voqealar haqidagi maroqli va ibratli fan, pand-nasihat manbasi emas, balki muttasil yuksalib boradigan jamiyat hayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy va ma’naviy-axloqiy jihatlari hamda qonuniyatlari mavjudligini ochib beruvchi jiddiy ilm-fan sohasi sifatida tushunishga erisha olganligini ko‘rish mumkin. Bu jihatdan uning tarixiy tafakkur va tadqiqot usullari XIX–XX asrlardagi “Tarix falsafasi”ning turli maktablari, ayniqsa, O. Kontning pozitivlik istoriosofiyasi, E. Dyurkegeymning istoriosofik sotsiologiyasi, “Annalar” maktabi tarixiy tafakkur va tadqiqot usullari bilan hamohangdir.

MO‘G‘ULLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXSHUNOSLIGI



***O‘quv maqsadi:** Xorazmshohlar davlati tarixi tarixshunosligi haqida talabalarda tushuncha hosil qilish, mo‘g‘ullar istilosi va davlati haqida ma‘lumot berish, mo‘g‘ullar istilosiga qarshi milliy-ozodlik kurashi haqida ma‘lumot beruvchi asarlar bilan tanishtirish.*

***Tayanch so‘z va iboralar:** Ziyo Bunyodov, Chan-Chun, Juvayniy, V. V. Bartold, Rashiddinning “Jome’ at-tavorix” asari, “Yozishmalar”, “To‘rt ulus tarixi”, Chig‘atoy ulusi.*



Xorazmshohlar davlati tarixining adabiyotlarda yoritilishi

Qadim zamonlardan sivilizatsiya o‘choqlaridan bo‘lgan Xorazm tarixi bilan nafaqat mamlakatimiz, balki dunyo tarixchilari shug‘ullanib kelgan hamda bir qator yirik ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin, o‘z o‘rnida shuni ta‘kidlash joizki, o‘rta asrlar Xorazm tarixi fanda juda kam o‘rganilgan. Vaholanki, Xorazm, umuman, Markaziy Osiyo hududida o‘rta asrlarda dunyo ahamiyatiga molik bo‘lgan buyuk voqealar ro‘y bergan va ular ko‘plab manbalarda aks ettirilganiga qaramay, ushbu asarlar hozirgi kunda o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan, tahlil qilinmagan va to‘liq o‘rganilmagan. Ana shunday kam tadqiq etilgan muammolardan biri bu – Xorazmshohlar davlati tarixidir.

Ziyo Bunyodov o‘zining “Anushtegin - Xorazmshohlar davlati (1097–1231)” nomli asarida Xorazmshohlar davlatining shakllanishi, taxt uchun kurashlar, mazkur davlatning yuksalishi, harbiy tuzilishi, davlat va saroydagi lavozimlar, tanga-pul muomalasi hamda madaniy hayoti to‘g‘risidagi keng ko‘lamli ma‘lumotlar beradi.

Muhammad bin Muayyad Bag‘dodiyning “Kitob at-tavassul ila tarassul” asarida 1182–1184- yillarga tegishli Xorazmshoh Takash hukmronligi davri hujjatlari jamlangan. Ularning orasida Tekeshning 1183 yilda G‘iyosiddin G‘uriyga yuborgan maktubi ham mavjud. V. V. Bartold asarlarini hisobga olmaganida, to 1962 yilgacha “Tarixi Bayhaqiy” to‘liq Yevropa tillariga o‘girilmagan. A. K. Arends uni rus tiliga tarjima qilishda G‘ani va Fayozning 1945 yildagi nashri matniga asoslandi. Ikkinchi nashrda o‘zgarishlar mavjud bo‘lib, unda kirish qismiga qo‘shimchalar kiritildi, ba‘zi joylar, ayniqsa, iboralar tarjimasini aniqlashtirildi. Qo‘shimchalarda yo‘qolgan jildlarga tegishli qismlarning yangi topilmalari ham bor. Bundan tashqari, Bayhaqiyning asarida tasvirlangan tarixiy voqealarga aloqador “Maqomati xoja Abu Nasri Mishkan” asaridan ham ushbu voqealarni to‘ldiruvchi ayrim parchalar ikkinchi nashrga kiritildi.

Mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga hujumi tarixshunosligi

Mo‘g‘ullar bosqini Markaziy Osiyo xalqlariga cheksiz kulfat va fojialar olib keldi. Movarounnahrning shahar va qishloqlari xarobaga aylantirildi, hunarmandchilik hamda savdo-sotiq inqirozga uchradi, dala-yu vodiylar huvillab qoldi. Sharqning eng yirik va qadimiy o‘chog‘i bo‘lgan Samarqand mo‘g‘ullar bosqiniga qadar juda katta shahar edi. Samarqand orqali Chingizxon huzuriga borgan Xitoy rohibi Chan-Chunning so‘zlariga qaraganda, mo‘g‘ullar bosqinidan so‘ng shaharda 25 ming oila – oldingi aholining chorak qismi qolgan edi, xolos. Demak, ilgari bu yerda 100 ming oila, ya’ni taxminan 400 mingdan ortiq kishi yashagan. 30 ming hunarmand Mo‘g‘ulistonga olib ketilib, mahalliy shahzodalarga tarqatilgan edi.

Muammoning tarixshunoslik jihatiga qaytamiz. Xitoy rohibi Chan-chunning hikoyasiga sharqshunoslardan birinchi bo‘lib, V. V. Bartold e‘tibor qaratdi. Uning “Turkiston o‘lkasi XIII asrda” (Xitoy sayohatchisining hikoyasi asosida) maqolasi “Turkestantanskoe vostokovedenie” jurnalining 1894 yil 43–44 sonlarida e‘lon qilindi. Ushbu maqoladan sayohat yo‘nalishini aniqlash mumkin edi. U quyidagicha: Chu va Talas daryolari, Sayram, Sirdaryo, Mirzacho‘l, Zarafshon, Samarqand (1221yil dekabr – 1222 yil aprelning oxiri), Kesh va Amudaryo orqali o‘tib, Chingizxon qarorgohiga yetib borgan. Qaytishda Chan-Chun Chingizxon ortidan ketgan. V. V. Bartold “X asrdan to XIII asr (Chan-Chun)gacha bo‘lgan davrga tegishli Turkiston hayotini mufassal yorituvchi bironta ma’lumotga ega emas edik. Chan-Chunning ma’lumotlari shu jihatdan mamlakatni o‘rganish uchun qimmatlidir”, – deb yozgan edi.

V. V. Bartoldning muhim tarixiy asarlaridan biri hisoblangan “Turkiston mo‘g‘ullar bosqini davrida” doktorlik dissertatsiyasiga ham to‘xtalish zarur. Asarning kirish qismida muallif kitobining nomi mazmuniga to‘liq kelmasligini yozadi. V. V. Bartold maxsus tadqiqot uchun Markaziy Osiyo tarixining muhim bosqichi – mo‘g‘ullar bosqini davrini tanlagan. U Markaziy Osiyoning qadimgi va ilk o‘rta asrlar tarixiga esa o‘zining maqsadi uchun zarur bo‘lgani qadar murojaat qilmoqchi edi. Biroq, mavzuga oid adabiyotlar bilan tanishuv muallifga o‘zigacha bo‘lgan tadqiqotchilarning manbalar bo‘yicha xulosalar qilmaganliklarini ko‘rsatdi. Ularsiz esa mo‘g‘ullar kelganda Markaziy Osiyo qay ahvolda ekanligini aniqlash mushkul edi.

Muallifning fikricha, ushbu kitob ilk bor Markaziy Osiyo tarixini manbalar asosida, ijtimoiy va maishiy sharoitlarga e‘tibor berilgan holda yoritadi. Asar kirish, to‘rtta bob va ilovadan iborat. Asarning kirish qismi tarixshunoslikka oid bo‘lib, u arab tarixchi va jo‘g‘roflaridan tortib, to Temuriylar davrigacha bo‘lgan, Markaziy Osiyo tarixiga bag‘ishlangan manbalarga bergan tanqidiy sharhiga bag‘ishlangan.

XIII asr oxiri – XIV asr boshlarida chingiziylar saroyida yashagan yirik tarixchi olim va siyosiy arbob Rashididdinning hayoti va ijodi mo‘g‘ullarning Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridagi hukmronligi davri bilan bog‘liqdir. Fazlulloh Abul-Xayr

Rashididdin Hamadoniy 1420–1447 yillar oralig‘ida Hamadonda unchalik mashhur bo‘lmagan tabib oilasida dunyoga kelgan. U Abakaxon hukmronligi (1265–1282) davrida davlat xizmatiga kiradi va G‘ozonxon (1295–1296) hukmronligi davrida saroy tabibi vazifasini bajaradi.

Rashididdin ma‘rifatli kishi bo‘lib, ko‘p tillarni o‘rgangan, adabiyot va she‘riyat nafosatini tushunar, tarixiy asarlarni yaxshi bilar, tibbiyot, xandasa hamda falakiyot ilmlaridan yaxshi xabardor edi. U ayniqsa, ilohiyot bilimdoni sifatida mashhur edi, Fazlulloh 1298 yilda vazir etib tayinlanadi. U Xulagu davlatining boshqa vazirlaridan farqli o‘laroq, kuchli markaziy hokimiyatning zaruriyatini chuqur his qilgan hukmdor sifatida aniq siyosiy yo‘nalishda ish olib bordi.

Rashididdin 19 yil hokimiyat tepasida bo‘lib, o‘zi mansub bo‘lgan tabaqaning tub an‘analariga sodiq qoldi. U feodal jamiyatning markazlashgan davlat hokimiyati uchun izchil kurashdi. Ammo, afsuski, uning umri fojiali tugadi. “Markazlashtirish siyosati” jamiyatning feodal ravnaqi yo‘nalishida eski vaqtlardagidek tayanch topa olmadi. Hukmdor madadidan mahrum bo‘lgan Rashididdin 1317 yilda iste‘fo berdi, bir yildan so‘ng esa dushmanlari uyushtirgan fitna qurboni bo‘ldi. U sulton O‘ljaytuni zaharlashda ayblanib, o‘g‘li, sulton soqiysi Ibrohim bilan 1318 yilning 18 iyulida qiynab o‘ldirish va mol-mulki musodara qilinishiga hukm qilinadi. Tabrizda ular qurgan, asosan hunarmandlar, muqovachilar, xattotlar va yozuv qurollari yasovchi ustalar yashaydigan Rashididdin mahallasi buzib tashlandi. Ammo, tasodifgina uni qatl etilishdan saqlab qoldi. 10 yil o‘tgach, Rashididdin oqlandi, oilasiga mol-mulkinging bir qismini qaytarildi. O‘g‘li G‘iyosiddin vazir lavozimini egalladi va otasining siyosiy yo‘lini davom ettirishga urinib ko‘rdi. Rashididdin esa Xulagu naslidan bo‘lgan G‘ozonxonning buyrug‘i va taqdir taqozosi bilan tarixchiga aylandi. Keyinchalik “shunday asarlar yaratdiki, bu asarlar uning nomini asrlar osha saqlab qoldi”.

“Jome’ at-tavorix” bugungi kunda haqli ravishda ko‘p mamlakatlarda uzoq hukmronlik qilgan ko‘chmanchi mo‘g‘ullarning maishiy hayoti va ijtimoiy-siyosiy tarixi bo‘yicha eng muhim manbalardan biri hisoblanadi. Fors tilidagi manbalar orasida bunga teng asarlar yo‘q. “Jome’ at-tavorix”da boy ma‘lumotlar asosida mo‘g‘ullarning ko‘chmanchi turmush tarzi, marosimlari, urf-odatlar va qonun-qoidalari haqida yorqin hikoya qilinadi. Rashididdinning ushbu shoh asarida o‘troq xalqlar hayoti, xo‘jalik-iqtisodiy ahvoli, ko‘chmanchi va o‘troq turmush tarzi o‘rtasidagi ziddiyatlar ham o‘z ifodasini topgan. “Jome’ at-tavorix”da ko‘chmanchi feodallar hukmronligi ostida qolgan, “asosan, o‘troq aholi ko‘p mamlakatlarning iqtisodiy, xo‘jalik va siyosiy tarixiga oid ancha mufassal ma‘lumotlar keltiriladi”.

Rus olimi I. N. Berezin tarixshunoslik jihatidan Rashididdinning asarini chuqur o‘rgangan. Ushbu sharqshunos olim butun umrini Rashididdin merosini o‘rganishga bag‘ishladi. I. N. Berezin fors tilidagi nashrlarning asosiy noshiridir. U “Jome’ at-tavorix”ning birinchi jildi (Chingizxon hukmdorlik davri tarixi), shuningdek, “Turkiy va mo‘g‘ul ko‘chmanchi qabilalari” tarixini o‘z ichiga olgan qismlarining tarjimonidir.

Biroq, I. N. Berezin hayotligi davrida asar qo‘lyozmasining eng yaxshi, ya’ni Toshkent va Istanbul nusxalari ma’lum emas edi. Shu bois ismlar, turkiy mo‘g‘ul iboralari, jo‘g‘rofiy va tarixiy-toponomik iboralar aniqlashtirishni talab qilar edi.

I. N. Berezinning forscha matni va ruschaga tarjimasini hozirda ham bibliografik jihatdan nodir hisoblanadi. Buning ustiga uning nashri to‘liq emas edi. Shu bois 1936 yilda SSSR Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti “Jome’ at-tavorix”ning forscha matni va ruscha tarjimasining qayta ko‘rib chiqilgan nashrini bosmaga tayyorlay boshladi. 1–139 betlarni prof. A. Romaskevich, 140–231 betlarni filologiya fanlari nomzodi L. Xechaturov va nihoyat, 232 betdan iborat asarning oxirigacha bo‘lgan qismini yetuk sharqshunos, professor A. Alizoda nashrga tayyorladi. Yana shuni ham ta’kidlash kerakki, tanqidiy matnni birinchi jildining 1 va 11 qismlari hamda ruscha tarjima matni 1941 yilda professor A. A. Romaskevich tomonidan oldindan tahrir qilingan edi.

Rashididdinning “Jome’ at-tavorix” asari elxonlarga bo‘ysunuvchi mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga oid juda ko‘p ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Bu sohada bironta ham tarixiy asari u bilan tenglasholmaydi. Asarda dehqonchilik, yerdan foydalanish tartibi, soliqlar va ularni undirish usullari hamda mamlakatning iqtisodiy ahvoli xususida qiziqarli ma’lumotlar berilgan. Rashididdinning ushbu asari V. V. Bartoldning iborasi bilan ifodalaganda, o‘rta asrlar fors tarixshunosligining “so‘nggi so‘zi”dir. Mana, 150 yildirki, asar tadqiqotchilarni o‘ziga tortib keladi, u to‘g‘risida ko‘plab asarlar bitiladi. Mazkur asarni o‘rganish va nashr etish bilan bugun ham butun jahon shug‘ullanmoqda.

“Yilnomalar majmuasi” bilan bir qatorda Rashididdinning “Yozishmalar”i ham Yaqin, O‘rta Sharq va Markaziy Osiyoning XIII–XIV asr boshlari tarixini o‘rganishda muhim manbadir. Ushbu manba tarixshunosligi unchalik chuqur va mukammal emas. Gap shundaki, “Yozishmalar” muallif vafot etgach, 1327–1336 yillar oralig‘ida uning o‘g‘li G‘iyosiddin Muhammad Rashidiyning urinishlari natijasida kitobga aylangan. Vazirning topshirig‘iga ko‘ra, Rashididdin sobiq shogirdi Muhammad Abarko‘hiy ushbu to‘plamni tuzishga kirishdi. Rashididdin maktublari Sharqda keng tarqaldi. Ingliz tadqiqotchisi E. Braunning shaxsiy kolleksiyasidan shu narsa anglashiladiki, ushbu xat (yozishma)lar XIV–XV asrlar chegaralarida va keyingi asrlarda ham qayta ko‘chirib olingan. Sovet tarixchisi I. Petrushevskiyning guvohlik berishicha, “Yozishmalar” “Yilnomalar majmuasi”ga o‘xshab ketadi va ularda o‘sha davr rasmiy hujjatlari uchun xos bo‘lgan iboralar bir xil shaklda uchraydi. Xullas, hozir Rashididdin “Yozishmalar”ining 13 ta nusxasi ma’lum va Ulardan 8 tasi ro‘yxatga olingan. “Jome’ at-tavorix” asari 1301–1311 yillar oralig‘ida G‘ozonxonning topshirig‘i bilan yozilgan.

Rashididdinning “Jome’ at-tavorix” asari Sharq va G‘arb olimlarining e’tiborini ko‘pdan beri jalb etib kelmoqda. XV asrda Eronning yirik tarixchilaridan biri Hofizi Abru “Jome’ at-tavorix”ning davomini yozib, Eronning 1371 yilgacha bo‘lgan tarixini yoritib bergan. Hofizi Abruning ushbu asari “Zayli jome’ at-tavorix” (“Jome’ at-

tavorix”ga qo‘shimcha) nomi bilan mashhur. Asar 1937–1938 yillarda professor Xonbobo Bayoniy tomonidan Tehronda nashr etilgan. Asarning birinchi qismi, ya’ni “Tarixi G‘ozoniy” fransuz sharqshunos olimlari M. Kartmer (1836), E. Bloshe (1911) va chex tadqiqotchisi K. Yan (1941) tomonidan chop etilgan.

Shuningdek, rus sharqshunosi I. N. Berezin “Tarixi G‘ozoniy”ni izchil o‘rgandi va uning forscha matni bilan ruscha tarjimasini nashr ettirdi (1858, 1868, 1888). “Jome’ at-tavorix” rus sharqshunoslari A. A. Romaskevich va Y. Ye. Arendslar tomonidan ruscha izohi bilan 1968 yilda Moskvada nashr qilindi. Asar uch qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda mo‘g‘ullar va ular asos solgan davlatlar Ulug‘ yurt, ya’ni Mo‘g‘uliston, elxoniyalar davlati hamda mo‘g‘ullar asoratiga tushib qolgan mamlakatlar, Shimoliy Xitoy, O‘rta Osiyo va Yaqin hamda O‘rta Sharq mamlakatlari xalqlarining mo‘g‘ul istilosigacha bo‘lgan qisqacha tarixi yoritilgan.

Ikkinchi qismda Sharq mamlakatlari xalqlarining islomdan avvalgi tarixi, Arab xalifaligi va uning tarkibida tashkil topgan G‘aznaviyalar imperiyasi, Saljuqiylar va Xorazmshohlar davlatlari tarixi; Xitoy, qadimgi yahudiylar, franklar, Rim imperiyasi va Hindiston tarixi aks etgan bo‘lsa, uchinchi qismda esa Yer kurrasi hamda yetti iqlim mamlakatlarining geografik holati yoritilgan. Afsuski, asarning so‘nggi, uchinchi qismi saqlanmagan. Qo‘lyozma 1318 yilda – Rashididinning shaxsiy kutubxonasi talon-taroj qilingan vaqtlarda yo‘qolgan bo‘lishi mumkin.

Asarning turk-mo‘g‘ul xalqlari tarixini o‘z ichiga olgan qismi Markaziy Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega. Kitobning O‘rta Osiyo, Eron va Kavkazorti xalqlarining XIII asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid qismlari ham benihoya qimmatlidir.

Birinchi qism ayni paytda islom hukmdori O‘ljaytu sultonning ukasi G‘ozonxon nomiga atab yozdirilgan. Ushbu jildda turk-mo‘g‘ul xalqlarining Chingizxonigacha bo‘lgan tarixi, Chingizxon tuzgan yirik feodal davlat, uning yurishlari va mo‘g‘ullarga qaram bo‘lgan mamlakatlar tarixi, XII–XIII asrlarda shimoliy-sharqiy Osiyoda ko‘chib yurgan turk va mo‘g‘ul qabilalarining kelib chiqishi hamda ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o‘rni keng sharhlanib, G‘ozonxon (1295–1304) o‘tkazgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi islohotlar batafsil yoritilgan.

Asarning ikkinchi qismi O‘ljoytu Sulton (1304–1317)ning topshirig‘i bilan elxoniyalar saroyida yashagan chet ellik olimlar (kashmirlik baxshi Kamalashri, xitoylik olim Li Da-chji, fransiyalik bir monax, ikkita fors olimi va boshqalar) ishtirokida yozilgan. Asarda mo‘g‘ul istilosiga qadar musulmon olami, shuningdek, yahudiylar, Yevropa, Vizantiya, Rim, Xitoy va Hindiston tarixi bayon etilgan.

Mazkur asarning uchinchi qismi jo‘g‘rofiy xarakterga ega bo‘lib, “Etti iqlim”, ya’ni olamning insonlar yashaydigan to‘rtidan bir qismi tavsifiga bag‘ishlangan bo‘lib, bizgacha yetib kelmagan. Ushbu qismning birinchi bobi tarix sahnasida turk xalqlarining paydo bo‘lishi va ularning shajaralari, har bir xalq ajdodlarining hayoti haqida batafsil ma’lumot beradi. O‘z navbatida, ushbu bob debocha (kirish) va to‘rt fasldan iborat.

Ikkinchi bobda mo'g'ul va turk xoqonlari hamda boshqa xalqlar haqida ma'lumotlar bayon qilinib, ushbu bob ham ikki fasldan tashkil topgan. Ikkinchi jild O'ljaytu sultonning buyrug'i bilan uning muqaddas noibiga bag'ishlab yozilgan. Ushbu jild ikki bobdan iborat bo'lib, birinchi bobi O'ljaytu Sultonning tavalludidan to mazkur kitob yozilgan vaqtgacha davrni o'z ichiga oladi. Bu esa hijriy 700- yilga to'g'ri keladi.

Ikkinchi bob ikki qism va o'z navbatida birinchi qism ham ikki fasldan iborat. Ikkinchi qism esa O'ljatuxonning tarixiga tegishli bo'lib, xoqonning so'nggi kunlarigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Ikkinchi jild asosan, geografik va topografik chizgilar hamda ma'lumotlarga bag'ishlangan. Unda turli davlatlarga olib boradigan yo'llar va mamlakatlar orasidagi masofalar nisbiy darajada bo'lsa ham muxtasar tarzda bayon qilingan.

Мўғулларнинг Марказий
Осиё, Яқин, Ўрта Шарқ ва
унга туташ
мамлакатлардаги
хукмронлик даври манба ва
тарихшуносликка жуда
бой.

Бу даврда жуда кўп йирик
асарлар яратилди. **Вардан
Кироқаци, Насавий,
Жувайний, Ибн Асир,
Ҳамдуллоҳ Қазвиний,
Васифийлар** номи жуда
машҳур эди.

A'loiddin Muhammad Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy" asarida ham mo'g'ullar bosqini batafsil bayon qilingan. Tarixchi A'loiddin Muhammad Juvayniy Temur Malikning ko'rsatgan qahramonligiga quyidagicha baho bergan edi: "Temur Malik shunday jasoratli sarkarda ediki, agar pahlavon Rustam tirik bo'lganida, uning otiga jilovdorlikka yarardi, xolos".

Juvayniyning ma'lumotlariga qaraganda, Xo'jandni qamal qilishda 20 ming mo'g'ul askarlaridan tashqari, 50 ming nafar asirlar ham qatnashgan. Kuchlar nisbatining teng bo'lmaganligini hisobga olib va tinch aholini qirg'in bo'lishdan saqlab qolish maqsadida Temur Malik o'zining 1000 ta saralangan jangchi suvoriylari bilan jang qilib, mo'g'ullar safini yorib o'tadi va Sayhun daryosi o'rtasidagi orollardan biriga joylashib oladi. Mo'g'ullarning kamon o'qlari va palaxmon toshlari uzoqqa yetib bora olmas edi. Mo'g'ullar daryoga toshlarni tashlab vatanparvarlar tomon o'tishga qaror qiladi va askarlarga 3 farsax (18–24 km) uzoqlikdan toshlarni olib kelib, daryoga tashlab, to'g'on (damba)lar hosil qilmoqchi bo'ladilar.

Temur Malik esa o'zining jasur yigitlari bilan tunda qayiqlarda suzib kelib, kuni bilan hosil qilingan to'g'on (damba)larni buzib ketar edi. Temur Malikning buyrug'iga ko'ra, 12 ta maxsus qayiq qurilgan. Dushman otgan o'qlar qayiqlarni teshib o'tmasligi, olovli o'qlar ularni yondirib yubormasligi chorasi sifatida qayiqlarning usti namat bilan qoplanadi, ustidan esa sirkali loy suvaladi. Bunday kemalarda Temur Malik bemalol, qo'rqmasdan daryo sohillari tomon suzib borib, mo'g'ullarga qiron keltirar edi. Ammo, kuchli dushman bilan bunday usulda uzoq vaqt jang qilishning iloji yo'q edi. Shuning

uchun Temur Malik 70 ta kema, ya'ni qayiq qurdirib, daryoning quyi qismi orqali mash'allar yoqib suzib borib, Xorazm (Orol) dengizi va Jayhun orqali Urganchga yetib olishga qaror qiladi.

Daryoning har ikki qirg'ogidan esa mo'g'ullarning otliq suvoriylari Temur Malik kuchlari ustiga tinimsiz kamon o'qlarini yog'dirar edilar. Qattiq jang, olovli mash'allar bilan Temur Malik sarbozlari Jand tomon dadil suzib boradi. Barchig'likent va Jand yaqinida daryoning har ikkala sohili bo'ylab sarhang Ulus Idi boshliq dushman kuchlari daryo ustiga zanjir tortib, mustahkam to'siq quradilar. Ammo, Temur Malik ushbu to'siqni buzib o'tib, Jand shahrida qirg'oqqa chiqishga muvaffaq bo'ladi. Qirg'oqda Temur Malik bahodirlari bilan mo'g'ullar o'rtasida mislsiz va shiddatli jang bo'ladi. Ushbu jangda Temur Malik o'z qo'shini va safdoshlaridan deyarli batamom ayriladi.

Faqat kichik bir guruh yigitlar bilan qolgan Xo'jand arsloni mo'g'ullarning butun boshli qo'shiniga qarshi jang maydonida ot suradi. Juvayniyning yozishicha: "Orqadan ta'qib etib kelayotgan dushmanni yo'l-yo'lakay chopib, kamondan o'qqa tutib parokanda etdi, mo'g'ul sardorlaridan birining ko'zini ko'r qildi. "Yana ikki o'q-yoyim bor, ikkovingga ham yetadi. Yaxshisi, orqaga qaytinglar!" deb xitob qiladi Temur Malik. Vahimaga tushgan mo'g'ullar otlari jilovini orqaga tortib qaytib ketdilar".

Ana shu tariqa Temur Malik qattiq mashaqqat va qahramonliklar evaziga Xorazmshohlar davlatining poytaxti Urganchga yetib boradi va Jaloliddin Manguberdi kuchlariga qo'shiladi. U Xorazm bahodiri bilan mo'g'ullarga qarshi olib borilgan juda ko'p janglarda qatnashadi. Jo'jiga qarshi muvaffaqiyatli yurishlarni amalga oshiradi va hatto undan Sirdaryoning quyi oqimidagi Yangikent shahrini qaytarib ham oladi. Ularning hammasi yoritilayotgan voqealarning nafaqat guvohi, balki qatnashchilaridir, shu boisdan ular yaratgan asarlar o'sha davrning muhim tarixiy hujjatlari bo'la oladi.

Mo'g'ullarga qarshi milliy-ozodlik kurashning tarixchilar tomonidan o'rganilishi

Mo'g'ullar bosqini Markaziy Osiyo xalqlariga cheksiz kulfat va fojealar olib keldi. Movarounnahr shaharlari xarobaga aylandi, hunarmandchilik va savdo inqirozga uchradi, dala va vodiylar huvillab qoldi. O'zbekiston tarixining eng fojiali sahifalaridan mo'g'ullar bosqini va ularning 150 yillik hukmronlik tarixi Yoqut Hamaviy, Shahobiddin Muhammad an-Nasaviy, Jamol Qarshiy va boshqa tarixchilar asarlarida keng yoritilgan.

Мўғуллар босқини ва ҳукмронлиги
тўғрисидаги муҳим манбалар

Мирзо Улуғбекнинг “Тўрт улус
тарихи”

Умуман олганда,
мўғуллар босқини ва
ҳукмронлиги тарихи

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo‘lga kiritgach, tarixiy manbalarni o‘rganish uchun keng yo‘l ochildi. Jumladan, Mirzo Ulug‘bekning “Tarix-i arba’ ulus” (To‘rt ulus tarixi) asari 1994 yilda Bo‘riboy Ahmedov, Naim Norqulov va Mahmud Hasaniylar tarjimasida Toshkentda “Cho‘lpon” nashriyotida chop etildi. Ushbu asar 1425 yilda Ulug‘bek tomonidan yozib tugallangan.

Shu o‘rinda asar haqida rus olimi V. Bartold tomonidan bildirilgan ayrim fikrlarni qayd etish maqsadga muvofiqdir. Avvalombor, shuni ta’kidlash kerakki, olim o‘zining bir qator ilmiy risolalari (“Turkiston mo‘g‘ullar bosqini davrida”, “Ulug‘bek va uning davri” hamda boshqalar)da Ulug‘bekning mazkur asaridan manba sifatida foydalangan. Lekin, noma’lum sabablarga ko‘ra, uni muhim tarixiy manbalar qatoriga qo‘shmaydi, to‘g‘rirog‘i, asarning qimmatini bir qadar pasaytirmoqchi bo‘ladi. Chunonchi, u bu haqda shunday yozadi: “Shohruhning o‘g‘li va taxt vorisi Ulug‘bek (1449 yilda o‘ldirilgan) “To‘rt ulus tarixi”ni bitgan. Asar o‘z nomiga ko‘ra, Mo‘g‘ullar imperiyasining to‘liq tarixini o‘z ichiga oladi. Ulug‘bekning bu asari bizgacha yetib kelmagan, lekin ba’zi manbalar, xususan, Xondamirning “Habib us-siyar”ida undan olingan parchalar uchraydi. Ushbu parchalardan ko‘rinib turibdiki, mo‘g‘ullar davlati tarixi muallif yashagan davrgacha bayon qilingan. Ammo, muallif o‘sha podsholiklar haqida to‘la ma’lumot bermaydi, aksincha, xonlarning nomini qayd etish bilangina kifoyalangan, xolos. Shu sababdan ham ushbu asarning bizgacha yetib kelmaganidan ortiqcha qayg‘urib o‘tirishga asos yo‘q, desa ham bo‘ladi”.

“To‘rt ulus tarixi” asarining uchinchi bobida yurtimiz tarixiga oid muhim ma’lumotlar uchraydi. Bular: Xorazmshoh Alouddin Muhammadning mo‘g‘ullar istilosi arafasida Samarqandni mustahkamlash borasida olib borgan ishlari, Balx shahrining mo‘g‘ullar tomonidan qamal qilinishi va mo‘g‘ul armiyasi tarkibida Chingizxonning boshqa mamlakatlarni bosib olishda faol ishtirok etgan turk qo‘shinlari hamda ularning sardorlari haqidagi ma’lumotlardir. Birinchi misol, “Tarix-i arba’ ulus”da keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, mo‘g‘ullar hujumi arafasida Xorazmshohning farmoni bilan 300 ming odam Samarqand devorlari, qal’asi va boshqa mudofaa istehkomlarini mustahkamlashga safarbar qilingan, o‘shanda haqiqatdan ham shaharni mustahkamlash, uni qamalga hozirlash borasida katta ishlar olib borilgan ekan. Asarda keltirilgan ushbu

ma'lumot 1960 yilda Afrosiyobda olib borilgan arxeologik kuzatish va qazish ishlarining natijalari bilan ham ta'kidlandi.

Ikkinchi misol. Ma'lumki, 1221 yilning bahorida mo'g'ullar Xurosonning qadimgi iqtisodiy-siyosiy va madaniy markazlaridan biri bo'lmish Balx shahrini ishg'ol qilib, uni vayronaga aylantirdilar. Ibn al-Asir (1160–1233)ning guvohlik berishicha, shahar o'z ixtiyori bilan dushmanga taslim bo'lgan. Shuning uchun ham Chingizxon Balx xalqiga mehr-shafqat ko'rsatgan hamda shahar va uning xalqini omon qoldirgan. Boshqa bir tarixchi – Alouddin Juvayniy (1226–1283)ning so'zlariga qaraganda, Chingizxon avval shahar va uning xalqiga omonlik va'da qilgan, lekin so'zida turmay, shaharni vayron qilgan. Mirzo Ulug'bek bu haqda tamoman boshqa ma'lumot keltiradi. Uning so'zlariga qaraganda, Chingizxon balxliklar so'nggi Xorazmshoh Jaloliddin (1198–1231)ning odamlariga boshpana berganliklari uchun shahar va uning xalqini jazolagan. Chingizxonning amri bilan Balxob daryosiga qurilgan Bandi Amir to'g'onini buzib tashlangan, o'shanda Balx va uning tumanlari olti oy mobaynida suv ostida qolib ketgan.

Asarning eng muhim qismi – uning yettinchi bobidir. Unda Chig'atoy ulusining Chingizxon zamonidan to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishigacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi. Ma'lumki, Chig'atoy ulusining qariyb 250 yillik tarixi o'rganilmagan. Buning asosiy sababi, bu haqda qo'lyozma manbalarda yetarli ma'lumotlar yo'qligidir.

Asar “Ulus-a arba'-yi Chingiziy” (“Chingiziylarning to'rt ulusi”) va “Tarix-i arba' ulus” (“To'rt ulus tarixi”) nomlari bilan mashhur. Lekin, Yevropa sharqshunoslari orasida ushbu asarni birinchilar qatorida o'rgangan va uning qisqartirilgan inglizcha tarjimasini e'lon qilgan polkovnik Mayls yetarli asosi bo'lmagani holda bu kitobni “Shajarat ul-atrok” (“Turk (xoqon)larining shajarasi”) deb ataydi. Chuqur va atroflicha o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, asarning faqat Yofas o'g'lon va uning o'g'li Turkxon hamda farzandlari tatar-mo'g'ul bilan turk tabaqalari, shuningdek, ularning podsholarigina “Shajarat ul-atrok” asosida yozilgan, xolos.

Asarning Chingizxonning ulug' ajdodi Buzunjor qoondan boshlab Movarounnahrni XIII–XIV asrning birinchi yarmida idora qilgan Chig'atoyxon avlodi tarixini o'z ichiga olgan qismi “Ulus-i arba'-yi Chingiziy” yoki “Tarix-i arb'a ulus” deb ataladi. Rus sharqshunosi V. V. Bartold, yuqorida ta'kidlanganidek, ushbu asar haqida ko'plab tanqidiy fikrlar bildirgan. Olimning bir qator ilmiy risolalari, xususan, “Turkiston mo'g'ul bosqinchiligi davrida” va “Ulug'bek va uning davri” asarlarida Ulug'bekning mazkur asaridan manba sifatida foydalanilgan. Lekin, olim uni muhim tarixiy manbalar qatoriga qo'shmaydi. U bunday deb yozadi: “Shohruhning o'g'li va taxt vorisi Ulug'bek “To'rt ulus tarixi”ni yozgan. Asar o'z nomiga ko'ra, mo'g'ullar imperiyasining to'liq tarixini o'z ichiga oladi. Ulug'bekning ushbu asari bizgacha yetib kelmagan, lekin ba'zi manbalar, xususan, Xondamirning “Habib us-siyar”ida undan olingan parchalar uchraydi. Ushbu parchalardan ko'rinib turibdiki, mo'g'ullar davlati tarixi Xondamir yashagan davrgacha bayon qilingan.

Olimning boshqa bir asarida esa mana shu ma'lumotlarni o'qish mumkin: "Ulug'bek qalamiga taalluqli deb hisoblangan tarixiy asar ehtimol, adabiy manba va tarixni tanqidiy o'rganish uchun material sifatida birmuncha qiziqish uyg'otishi mumkin, lekin mazkur asar nusxasi topilganda ham mo'g'ullar imperiyasi yoki uning inqirozidan so'ng tashkil topgan davlatlar tarixiga oid bo'lgan mavjud ma'lumotlarni boyitadi, deb aytish qiyin". Tarixchi B. Ahmedov Bartoldning "Tarix-i arba' ulus"ga bunday munosabatda bo'lishining ikkita sababi borligini qayd etadi. Birinchidan, jahon kutubxonalarida mazkur asar to'liq nusxasining saqlanmaganligi va ikkinchidan, XV–XVII asrlarga oid tarixiy qo'lyozma asarlarning hozir ham qoniqarli darajada o'rganilmayotganligidir. Lekin, haqiqat faqat ma'lum mavzuga bag'ishlangan asarlarni bir-biriga qiyoslab o'rganish va ular keltirgan ma'lumotlarni diqqat bilan tekshirish orqaligina aniqlanadi.

Asarni yozishda muallif ko'plab tarixiy va jo'g'rofiy asarlardan foydalangan. Ulug'bek ko'p hollarda o'z manbalarini aniq ko'rsatmaydi va "aytishlaricha", "qissa va tarix kitoblarda yozilishicha", "Chig'atoy ulusi ulamolarining kitoblarida keltirilishicha", "bir guruh odil, haqiqatgo'y tarix arboblarning aytishicha" kabi umumiy iboralar bilan cheklanadi. Lekin, ayrim o'rinlarda o'zi foydalangan ba'zi asarlar va ularning mualliflari nomini ham tilga oladi. Bular orasida mashhur astronom Abu Ma'shar Balxiy, yirik olim, shoir hamda sayyoh Rashiduddin Votvot, mashhur tarixchi-yu, davlat arboblari Alouddin Otamalik Juvayniy, Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniy, Hamidulloh Mustovfiy Kazviniy va boshqalarning nomlari tilga olinadi. Olim hadis kitoblar va rivoyatlardan foydalanganligini ham qayd etadi. Asarda Rashiduddin Votvot, Xo'jandiy va Nizomiydan olingan she'riy parchalar ham uchraydi. Bundan ma'lum bo'lishicha, Ulug'bek mazkur asarini yozishda juda ko'p va mazmun jihatdan xilma-xil kitoblardan keng foydalangan.

Endi bevosita asarning tarkibiy qismi haqida to'xtaladigan bo'lsak, asar muqaddima va yetti bobdan iborat.

Muqaddimada, o'rta asrlarda tarix fanida hukm surgan an'anaga ko'ra, Tangri taolo, uning elchisi, payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vassallam va avlodlari sha'niga aytilgan maqto'vlar, Odam Atoning yaratilishi hamda islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar (Shis, Kaynon, Mahloyil va boshqalar), Nuh alayhissalom va uning farzandlari tarixi qisqacha bayon qilinadi.

Birinchi bobda Turkxon ibn Yofas hamda uning Turkiston zaminda podsholik qilgan avlodi, tatar-mo'g'ul va turk qavmlari hamda hukmdorlari tarixi bayon etilgan.

Ikkinchi bob turk-mo'g'ul xalqlarining afsonaviy onasi Alanquva va undan tarqalgan avlod, ya'ni podsholar (Buzunyor qoon, Buqoxon, Dutuminxon, Qobulxon, Boysung'urxon, Barton bahodir, Yasugay bahodir) tarixi, VIII asrda jaloyir qavmi boshliqlarining kuchayib ketishi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Uchinchi bobda buyuk jahongir Chingizxon tarixi bayon etilgan. Ushbu bobda keltirilgan ma'lumotlar ichida asosiylaridan mo'g'ul qo'shinlarining tuzilishi,

Chingizxonning oq rangdagi to‘qqiz poyali tug‘i, uning saroyida amalda bo‘lgan tartib-qoidalar haqidagi ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Yana shuni ham qayd etish kerakki, Chingizxon zamonida turk-mo‘g‘ul qavmlari daha (o‘nlik), sada (yuzlik), hazora (minglik) va tumon (o‘n minglik)larga bo‘lingan. Chingizxon zamonida “hech kim, – deb aytiladi “To‘rt ulus tarixi”da, – o‘z dahasi, sadasi va hazorasidan boshqa joyga keta olmagay va boshqaning panohiga o‘ta olmagay... bunga xilof ish tutganlarni xalq oldida qatl etadilar, toki boshqalarga ibrat bo‘lsin”.

Asarning **to‘rtinchi bobi** Chingizxonning Ulug‘ yurt, ya’ni Mo‘g‘uliston bilan Shimoliy Xitoyni idora qilgan vorislari tarixiga bag‘ishlanadi. Ushbu bobda Chingizxon vafotidan keyin to Amir Temur zamonigacha Mo‘g‘ulistonda hukmronlik qilgan 21 ta hukmdordan 17 tasining tarixi qisqacha bayon etilgan. Rashiddin esa bulardan faqat beshtasini, “Zafarnoma” asari muallifi Sharafuddin Ali Yazdiy esa 14 tasining nomini keltirgan.

Beshinchi bobida Chingizxonning to‘ng‘ich o‘g‘li Jo‘jixon naslidan bo‘lgan 33 xon zamonida Dashti Qipchoq (hozirgi Qozog‘iston, G‘arbiy Sibir va Volgabo‘yi yerlari)ning tarixi bayon qilinadi.

Mazkur bobda keltirilgan “o‘zbek” etnonimining kelib chiqishiga oid muhim ma’lumotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, o‘zbek xalqining kelib chiqish masalasi hanuzgacha ilmiy jihatdan to‘la hal qilinmagan bir muammo bo‘lib turibdi. Ilm-fanda ushbu masalaga har xil yondashuv va qarashlar mavjud. Masalan, N. A. Aristov, A. Yu. Yakubovskiy va boshqa chet ellik olimlarning fikricha, “o‘zbek” etnonimi Oltin o‘rda xoni O‘zbekxonning nomi bilan bog‘liq bo‘lsa, V. V. Grigorev va A. A. Semyonovlar esa Dashti Qipchoqning sharqiy qismida istiqomat qilgan turk-mo‘g‘ul qavmlarini o‘zbeklar, deb ataydilar. G. Vamberi, G. Xovors va Pellolarning fikricha, Dashti Qipchoqda ko‘chib yurgan turk-mo‘g‘ul qabilalari o‘zlarini erkin tutganliklari tufayli o‘zbeklar, ya’ni o‘z-o‘ziga beklar, deb atalgan bo‘lishlari mumkin.

Asarning **oltinchi bobida** Eron bilan Ozarboyjon ustidan qariyb bir asr mobaynida (1256–1353) hukmronlik qilgan elxoniyalar davlati, ularning ichki ahvoli va tashqi siyosatiga oid bir talay qimmatli ma’lumotlar bor. Bundan tashqari, elxoniyalar davlatining Misr, Shom, Suriya, Oltin O‘rda hamda Chig‘atoy ulusi bilan bo‘lgan siyosiy munosabati haqida ham e’tiborga molik ma’lumotlar uchraydi.

Asarning eng muhim qismi uning **yettinchi bobidir**. Unda Chig‘atoy ulusining Chingizxon zamonidan (1227 y.) to Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi (1370 y.) gacha bo‘lgan tarixi hikoya qilinadi.

Ma’lumki, Chig‘atoy ulusining qariyb 150 yillik (1227–1370) tarixi o‘rganilmagan. Buning asosiy sababi, muammoga oid yozma manbalarning yetarli emasligidir. To‘g‘ri, Chig‘atoy ulusida hukmronlik qilgan xonlar haqida juda qisqa ma’lumotlar Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” va Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror” asarlarida ham keltirilgan. Lekin, “Tarix-i arba’ ulus” ularga nisbatan bir qadar to‘laroq. Unda ulusda hukmronlik qilgan Chig‘atoy va O‘qtoy xoqon naslidan (Ali

sulton, Donishmandchaxon, Suyurg‘atmishxon va Sulton Mahmudxon) bo‘lgan 33 nafar xonning tarixi qisqa tarzda bayon etilgan.

Chingizxon vafoti (1227 y.)dan oldin o‘z tasarrufidagi mamlakatlarni o‘g‘illariga taqsimlaganda, ikkinchi o‘g‘li Chig‘atoyga Sharqiy Turkiston, Yettisuv va Movarounnahrni Xorazmning bir qismini in‘om qilgani, hozirgi Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston yerlari esa Chig‘atoylar tasarrufiga keyinchalik o‘tganligi haqida aytiladi. “To‘rt ulus tarixi”da keltirilishicha, Afg‘oniston va Shimoliy Hindiston hududlari ham Chingizxonning hayotligidayoq Chig‘atoyga berilgan. Bu haqda asarda quyidagilarni o‘qishimiz mumkin: “Chingizxon Turonzamin mamlakati hokimligini Koshg‘ar sarhadlaridan uyg‘urlar yeri chegarasigacha; Jayhun daryosi adog‘igacha yastangan yerlar: Eron bilan Turon oralig‘idagi Balx, Badaxshon, Qobul, G‘aznin, Sind daryosigacha bo‘lgan yerlarning ko‘p qismini shu suyukli farzandi Chig‘atoyxonga berdi”.

Asardagi Chig‘atoy qo‘shinining tuzilishi, ayniqsa, harbiy bo‘linmalar nomi haqidagi ma‘lumotlar o‘ta muhimdir. Masalan, qo‘shinning qorovul qismi o‘sha vaqtlarda bulung‘or, irovul (ilg‘or qism orqasidan boruvchi bo‘linma) - burung‘or, maymana (o‘ng qanot) - avang‘or, soqa (ar‘ergard) - o‘kchung‘or deb atalgan.

Asarning to‘liq nusxasi hali topilmagan. Bugungi kunda uning qisqartirilgan to‘rtta nusxasi saqlangan bo‘lib, uning ikkitasi Angliyada, bir nusxasi Hindistonning Bankipur shahri kutubxonasida, to‘rtinchi nusxasi esa AQShning Garvard universitetida saqlanadi. Asarning mazkur o‘zbekcha nashri asarning Britaniya muzeyi (Angliya)da saqlanayotgan ADD 26190 raqamlik qo‘lyozmasi asosida 1994 yilda B. Ahmedov, N. Norqulov va M. Hasaniylar tomonidan amalga oshirilgan. Mazkur ish asarga qiziquvchilar safini kengaytiradi, deb hisoblash mumkin. Ushbu asarning tarjimai, shubhasiz, uni o‘zbek tilida o‘qiy olish imkonini beradi.

Shunday qilib, fan va madaniyat tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkir Mirzo Ulug‘bek tarix fani sohasida ham samarali faoliyat olib borgan. Buning natijasini “To‘rt ulus tarixi”da ko‘rish mumkin. Ko‘p bora tanqidlarga uchragan ushbu asar o‘zining ilmiy ahamiyati va o‘quvchisini yo‘qotmagan, undagi ma‘lumotlar o‘z ahamiyatini saqlab qolgan. “To‘rt ulus tarixi” Markaziy Osiyoning XIII–XIV asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘rganishda muhim o‘rin egallashi shubhasizdir.

Mo‘g‘ullar bosqinining Markaziy Osiyo xalqlariga cheksiz kulfat va fojea keltirganligi Shihobiddin an-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi” asarida ham to‘liq yoritilgan.

Bizga ma‘lumki, mustaqillik yillarida O‘zbekiston tarixining ko‘pgina jabhalarida ulkan o‘zgarishlar yuz berdi. Ayniqsa, uzoq asrlar davomida o‘zbek xalqining qalbida saqlanib kelgan milliy qahramonlarining nomi tiklandi va chuqur tadqiq qilina boshlandi. Shunday qahramonlardan biri “XIII asr vabosi” deb nom olgan mo‘g‘ullarga qarshi 14 marta duch kelib, 13 martasida g‘olib kelgan, ko‘plab jasoratlar ko‘rsatgan,

keyinchalik dunyoning katta qismida ulkan davlatga asos solgan o‘zbek xalqining faxri – Jaloliddin Manguberdidir. Jaloliddin Manguberding jo‘shqin, mazmunli hayoti va faoliyatida intilishga loyiq namuna, ayni paytda hech qachon o‘z dolzarbligini yo‘qotmaydigan ulkan saboq bor. Jaloliddin Manguberding hayoti va faoliyati haqida ko‘plab asarlar yaratilgan. U haqdagi XIII asrdan to hozirgacha yaratilgan asarlar soni salkam 500 jildga yaqin kitobni tashkil etadi.

Shularning orasida eng ishonchli, asosiy tarixiy manba Shihobiddin Muhammad an-Nasafiyning “Sirat as-sulton Jaloliddin Mankburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining tafsiloti”) asaridir. Ushbu manbani o‘rganish buyuk sarkardaning hayoti haqida aniqroq va chuqurroq tushuncha olishga imkon berib, ozodlik va erk uchun kurash azaldan xalqimizning qon-qoniga singib ketgan tushuncha ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilish, bugungi yoshlarning vatanga bo‘lgan muhabbatlarini yanada oshirish, ular buyuk ajdodlarning avlodi ekanligini tarixiy manba asosida bayon qilish imkonini beradi.

Shihobiddin Muhammad an-Nasaviyning “Sulton Jaloliddin Manguberdi hayotining tafsiloti” asari arab tilida yozilgan. Asarning ikkita to‘liq bo‘lmagan qo‘lyozmasi bugungi kungacha yetib kelgan. Ulardan biri 1260 yilda yozilgan qo‘lyozmasi Parij Milliy kutubxonasida, ikkinchisi Britaniya muzeyida saqlanadi. Mazkur asar haqida g‘arb tarixiga ilk ma‘lumotni XIX asr o‘rtalarida K. Douson olib kiradi. Uning 1852 yilda Amsterdamda nashr etilgan “Mo‘g‘ullarning Chingizxondan Amir Temurgacha bo‘lgan tarixi” deb nomlangan asarida bu haqda mufassal ma‘lumot berilgan. Keyinchalik sharqshunos olim Oktav Udas asarni fransuz tiliga tarjima qiladi va nashr ettiradi. Ushbu asarning jahon tarixidagi o‘rni haqida bir qancha maqolalar yozadi.

Shundan keyin g‘arb tarixida A. Myuller, J. Boyl, V. Fishsl, V. Allen, X. Xorst, Kl. Kaen, G. Gotshalk va B. Shpuler kabi olimlarning Jaloliddin to‘g‘risidagi ilmiy tadqiqotlari paydo bo‘ladi. Ular Nasaviy asari bilan birgalikda Jaloliddin Manguberding tarixdagi o‘rniga ham munosib baho beradilar.

O. Udas tarjimasida Nasaviyning ushbu asarini 1914–1916 yillarda Yu. Ziyov va A. Tavhid turk tiliga o‘girib, nashr qiladilar. 1934 yilda mazkur asar Najib Asim tarjimasida yana bir bor turk tilida nashr qildiriladi. Bunda avvalgi tarjimada yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar to‘ldiriladi va asar mukammallashtiriladi. Keyinchalik O. Udas tarjimasidagi asar Qohirada nashr etiladi. 1945 yilda ushbu asar Muhammad Ali Nasix tomonidan fors tiliga ham o‘giriladi. 1953 yilda Hofiz Ahmad Hamdiy uni O. Udas tarjimasida arab tiliga tarjima qilib, chop etadi. Keyinchalik Nasaviyning ushbu asari boshqa tillarga ham tarjima qilindi.

“Sirat” rus tiliga 1850 yildan – 1900 yilgacha qisqartirilgan holda bir necha bor tarjima etilgan. Uning Rossiyada o‘rganilishida Peterburg universitetining professori, shayx Muhammad Tantaviyning xizmatlari kattadir. Avvalo, shayx Tantaviy Parij Milliy kutubxonasidagi Nasaviy asari qo‘lyozmasini qaytadan ko‘chirib oladi. Uning yo‘qolgan sahifalari va o‘chib ketgan joylaridagi so‘zlarni asar ruhidan kelib chiqqan holda

to'ldiradi. Ba'zi joylariga aniqlik kiritadi. Shu tariqa, an-Nasaviy asarining shayx Tantaviy tayyorlagan nusxasi O. Udas nashr ettirgan nusxasidan ko'ra to'laroq va mukammalroq chiqadi.

Ushbu asar ustidagi ishni keyinchalik ozarboyjonlik tarixchi, sharqshunos olim Ziyo Bunyodov davom ettiradi. U an-Nasaviy asarining arab, fransuz va fors tillaridagi hamda shayx Tantaviyning nusxalari asosida uning tanqidiy matnini tayyorladi. Ammo, bu ish 1960- yillardan beri nashr qilinmasdan qolib kelmoqda. Ayni paytda, olim asarning to'liq nusxasini tanqidiy matn asosida rus tiliga tarjima qilib, 1973 yilda Bokuda nashr ettirgan. Afsuski, an-Nasaviyning Jaloliddin Manguberdi haqidagi eng ishonchli manba bo'lgan ushbu asari ham, uni tadqiq qilish asosida xorijlik qadimshunoslar tomonidan yaratilgan boshqa o'nlab asar va maqolalar ham o'zbek tiliga tarjima qilinmagan.

Jaloliddin Manguberdi haqida yozilgan asarlardan yana biri Nuriddin Zaydariyning fors tilidagi "Nafsat al-masdur fi fugur zaman as-sudur va zaman as-sudur al-futur" yilnomasidir. Nuriddin Zaydariy ham Jaloliddinning munshiysi, ya'ni kotibi bo'lgan. Tarixchilarning ma'lum qismi Zaydariyning ushbu asarini an-Nasaviyning "Sirat"idan tarjima deb baholasalar, ba'zilar esa alohida mustaqil asar, deb qaraydilar. Ziyo Bunyodov ikkala asar – "Sirat" va "Nafsat al-masdur"ni ham o'rganib, bir shaxs, bir voqea-hodisalar, bir tarix haqidagi ikki asar deb yozadi. Qanday bo'lmasin, ushbu asarning mavjudligi va unda Jaloliddin Manguberdi haqida ma'lumotlarning berilganligi tarixni o'rganish uchun muhim katta ahamiyatga ega.

Jaloliddin Xorazmshoh hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumotlar beruvchi manbalardan biri Izziddin ibn al-Asirning o'n ikki jilddan iborat "al-Komil fit-tarix" ("Mukammal tarix") asaridir. Jahon tarixiga oid voqealar xronologik tarzda qayd etilgan bu asarda Xorazmshohlar davlati faoliyatiga alohida o'rin berilgan. Asar muallifi kitobida keltirgan voqealarni ko'rmagan, shohidi bo'lmagan bo'lsa ham, eshitganlari asosida yaratgan. Shihobiddin an-Nasaviy Ibn al-Asirning ushbu kitobiga yuqori baho berib, bunday deb yozadi: "U asarida ba'zi o'rinlarda haqiqatdan bir oz chekingan bo'lsa-da, eng muhim va asosiy voqealardan birortasini e'tibordan chetda qoldirmagan". Shuningdek, Nasaviy uning bu kitobidan ta'sirlangani va o'z asarini yaratishda undan foydalanganini ham eslatadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, Ibn al-Asirning ushbu asari Nasaviy asaridan o'n yillar ilgari yozib tugallangan. O'tmish tariximiz to'g'risida boy manbalarga ega bo'lgan, jahonning ko'plab tillariga o'girilgan ushbu asar ham o'zbekchaga tarjima qilinmagan.

Shuningdek, Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy", Rashiddinning "Jami at-tavorix" va Juzjoniyning "Tabaqati Nosiriy" asarlarida ham Jaloliddin Manguberdi xususida ma'lumotlar berilgan. Mo'g'ul xonlari xizmatida bo'lgan ushbu tarixchilar sulton hayoti va faoliyatini rahnamolari talabi bilan bir yoqlama yoritishga majbur bo'lgan. Shunga qaramay, ular ham sultonning mardliklari, qahramonliklaridan ko'z yumolmaydilar – u haqdagi tarixiy haqiqatni e'tirof etadilar. Bunday e'tiroflar mo'g'ullar

tarixi – “Muqaddas bitiklar” va Chingiz xizmatida bo‘lgan xitoylik tarixchilar Yetyuy Chu-Say va Sun Szi-Chjen asarlarida ham uchraydi. Ularda Xorazmshohlarning davlati, qo‘shinlari va aholining hayoti haqidagi ma’lumotlar keltiriladi, shuningdek, Jaloliddinning qahramonliklari va kurash yo‘llari to‘g‘risida so‘z boradi.

Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti masalasida XIX asrning 80-yillaridan buyon qator tadqiqotchilar tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan. Qoraqalpoq xalqining XVI–XIX asrlardagi tarixini bayon etar ekanmiz, XVI asrning ikkinchi yarmida No‘g‘ay xonligi uch qismga: “Olti ul” o‘rdasi, Kichik o‘rda va Katta o‘rdaga bo‘linib ketadi. XVI asrning boshlarida no‘g‘aylar Volga va Yoyiq daryolari bo‘ylariga bostirib kelgan jung‘orlar (qalmoqlar) tomonidan tor-mor etiladi. Yaylovlaridan ajralgan no‘g‘aylar g‘arbga, ya’ni Qrim tomonga ko‘chib ketishga majbur bo‘ladi. No‘g‘aylarning “Olti ul” ulusi tarkibiga kiruvchi qoraqalpoqlar esa Orol va Sirdaryo bo‘ylariga kelib o‘rnashadilar. Bu davrda qoraqalpoqlar goh Buxoro, goh Qozoq xonliklariga tobe bo‘lgan.

XVI asr boshlariga kelib Sirdaryo bo‘ylarida yashovchi qoraqalpoqlar birlashishga harakat qilgan. Ularning birlashish jarayonida Sig‘noq singari qadimiy qo‘rg‘on shaharlar tayanch bo‘lib, ularning birlashuvida Kuchukxon, Tabirchak va G‘oyib sultonlar muhim rol o‘ynagan. Buning natijasida 1714 yilda Sirdaryobo‘yi qoraqalpoqlari yetakchilari Eshmuhammad (Eshimxon) boshchiligida o‘z davlati – Qoraqalpoq xonligiga asos solgan. Ushbu davlat Sirdaryoning quyi oqimi, Volga bo‘ylari jung‘orlari, Boshqird ulusi va Kichik juz qozoq xonliklari bilan chegaradosh edi. Jung‘orlar davlati kuchayib, g‘arbga qarab yurish qiladi. 1723 yilda Jung‘or qalmoqlari Sirdaryoning o‘rta qismini egallagach, qoraqalpoqlar ko‘chishga majbur bo‘ladi. Ularning bir guruhi Sirdaryoning quyi oqimi va Orol tomonga, ikkinchi bo‘lagi Sirdaryo bo‘ylab yuqoriga, ya’ni Toshkent atrofiga siljishga majbur bo‘ladi. Shu tariqa, qoraqalpoqlar shartli ravishda “yuqori qoraqalpoqlar” va “quyi qoraqalpoqlar”ga bo‘linib ketadi. Quyi qoraqalpoqlar Sirdaryo bilan Amudaryo o‘rtasidagi bo‘sh yotgan yerlarni o‘zlashtirib, Quvondaryodan suv haydab kelib, dehqonchilik bilan shug‘ullanadi. Qoraqalpoqlar Orolbo‘yi o‘zbeklari (qo‘ng‘irotlar) bilan yaqinlasha boshlaydi.

Xondamirning “Ma’osir ul-muluk” (“Hamasr podshohlarining tarixi”), “Dastur al-vuzaro”, “Habib us-siyar” asarlarida ham mo‘g‘ullar bosqini, ushbu davrdagi ijtimoiy-siyosiy hayot keng yoritilgan.

“Ma’osir ul-muluk” (“Hamasr podshohlarining tarixi”). Tarixchi olim Xondamir o‘zining 63 yillik umri davomida taxminan o‘n uchta asar yozgan bo‘lib, ulardan bizgacha sakkiztasi yetib kelgan. U “Ma’osir ul-muluk” asarini Alisher Navoiyning iltimosiga ko‘ra va unga minnatdorchilik tariqasida 904 (1498–1499) yilda yozgan. Ushbu asar podshoh hamda qadimgi donishmandlarning xayrli ishlari haqida aytilgan hikmatlarini o‘z ichiga oladi. U, jumladan, Qayumarsdan Anushiravongacha, Odam Atodan Buzurgmehrgacha bo‘lgan hamda Muhammad Payg‘ambar va imomlar haqida bitilgan naqllardan iborat. So‘ngra muallif ummaviylar, abbosiylar, somoniylar,

g‘aznaviylar va boshqa sulolalarga tegishli hukmdorlar tarixi va shular qatorida Qurd podshohlari hamda turk xoqonlari tarixini yoritgan. Asarning oxirgi qismida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyga zamondosh bo‘lgan hukmdorlar, olimlar va donishmandlar haqida ma’lumotlar aks etgan.

“Dastur al-vuzaro” (“Vazirlar uchun qo‘llanma”) Alisher Navoiyning iltimosiga muvofiq, 906 (1500–1501) yilda yozilgan, Husayn Boyqaro va uning vaziri Amir Kamoliddin Mahmudga bag‘ishlangan asar. Oradan to‘qqiz yil o‘tgach, qayta ishlangan va kengaytirilgan. Unda Sharq mamlakatlarining VII–XVI asrlardagi tarixi, jumladan, Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar sulolasi inqiroziga qadar o‘tgan vazirlar, Chingizxonning vaziri, keyinroq mo‘g‘ullarning Xitoydagi noibi, xorazmlik Mahmud Yalavoch hamda uning o‘g‘li Chig‘atoy xonlarining Movarounnahrdagi vaziri Mas‘udbek to‘g‘risida ma’lumotlar bor. Xondamirning hayoti va ijodi haqida o‘zbek olimlaridan B. Ahmedov va D. Yusupovalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

“Habib us-siyar” asari. Xondamirning eng yirik asari «Habib us-siyar fi axbor afrod ul-bashar» (Inson zoti xabarlar va do‘stning tarjimai holi)dir. Ushbu asar 927 (1520–1521) – 930 (1523–1524) yillarda yozilgan va vazir Karimuddin Xoja Habibulloh Sovajiyga bag‘ishlangan. Ushbu asarda qadim zamonlardan to 1524 yilga qadar Sharq mamlakatlari, jumladan, Eron, Afg‘oniston, Iroq va Markaziy Osiyo davlatlarida sodir bo‘lgan voqealar hikoya qilingan. Asar muallif Hindistonda bo‘lgan yillari (1528–1535)da yana ikki marta qayta tahrirdan chiqarilgan. Shuning uchun ham ushbu asarni shu yillar orasida tugal tamomlagan, deb hisoblash mumkin.

Xondamir ushbu asarini yuqorida nomi zikr etib o‘tilgan vazir Xoja Habibullo Sovajiyga atagan, chunki u Xondamirga o‘z vaqtida ko‘p marhamat va iltifotlar ko‘rsatgan edi. Asarda qadim zamonlardan to XVI asrning 30-yillariga qadar musulmon sharqida, xususan, Eron, Afg‘oniston, Iroq va Markaziy Osiyoda sodir bo‘lgan voqealar talqin etiladi.

“Habib us-siyar” muqaddima, xotima va uchta bobdan iborat. Har bob o‘z navbatida to‘rt qismga bo‘linadi. Birinchi bobda islomdan ilgari o‘tgan payg‘ambarlar, Arab va Ajam mamlakatlarining Arab xalifaligigacha bo‘lgan umumiy siyosiy ahvoli, Muhammad payg‘ambar (s.a.v), shuningdek, xalifa Abubakr (632–634), Umar (634–644), Usmon (644–656) va Ali (656–661) zamonida yuz bergan voqealar bayon qilinadi.

Asarning ikkinchi bobida shia imomlari, Ummaviylar (661–750) va Abbosiylar sulolasi (750–1258) davrida Arab xalifaligi va uning bosqinchilik urushlari, Tohiriylar (820–873), Safforiylar (868–903) va Somoniylar (874–999) sulolalari haqida hikoya qilinadi. Uchinchi bob Chingizxon va uning avlod-ajdodlari, Chingizxon bilan zamondosh bo‘lgan boshqa sulolalar (Qoraxitoylar, Xorazmshohlar, sarbadorlar va boshqalar), Temuriylarga bag‘ishlangan. Bundan tashqari, ushbu bobda Movarounnahr, so‘ngra Xurosonning Muhammad Shayboniyxon yetakchiligida ko‘chmanchi o‘zbeklar tomonidan bosib olinishi va Ismoil Safaviy davrida Eron, Afg‘oniston va Iroqning siyosiy ahvoli hikoya qilinadi. “Habib us-siyar”ning muqaddimasida olamning paydo

bo‘lishi, xotimada esa jahonning ajoyibot va g‘aroyibotlari (iqlimlar, mashhur daryo, dengiz va ko‘llar, sahro va tog‘lar) xususida gap boradi.

Xondamirning yana bir asari “Humoyunnoma”dir. Ushbu asar “Qonuni Humoyun” nomi bilan ham mashhur bo‘lib, Hindiston podshohi, Boburning o‘g‘li Humoyunga bag‘ishlangan. “Humoyunnoma” 941 (1534–1535) yilda yozib tugallangan. Asarda Humoyun davrida Hindistonda joriy etilgan yangiliklar, aholining uch tabaqa, hokimiyatning esa to‘rt idora usuliga bo‘linishi va Humoyun tomonidan amalga oshirilgan me‘morchilik ishlariga oid ma’lumotlar o‘rin olgan.

Xondamirning boshqa beshta asarining faqat nomlarigina ma’lum, xolos. Bular: “Osor ul-muluk val-anbiyo” (“Podshoh va payg‘ambarlar haqida hikoyalar”), “Axbor ul-axyor” (“Yaxshi insonlar haqida xabarlar”), “Muntahibi tarixi vassof” (“Vassof tarixidan saylanma”), “Javohir ul-axbor” (“Xabarlar gavharlari”) va “G‘aroyib ul- asror” (“Qiziqarli sirlar”)dir.

Shuni alohida qayd etish joizki, Xondamir o‘z zamonasining yetuk vakillaridan biri bo‘lgan. Uning nafaqat mashhur tarixshunos olim bo‘lganligi, ayni zamonda “Noqiy” taxallusi bilan yaxshigina she‘rlar ham yozganligini Alisher Navoiy alohida ta’kidlagan edi.

Shu tariqa, “Tarix-i arba’ ulus”, “Shajarayi turk”, “Sulton Jaloliddin Manguberdi” va Xondamirning tarixiy asarlarini o‘rganish Markaziy Osiyoning mo‘g‘ullar istilosi davridagi tarixini o‘rganishga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, mo‘g‘ullar istibdodi va unga qarshi kurashlar tarixini o‘rganishda birinchi darajali manbalar qatoriga Abu Umar Minhojiddin Juzjoniyning “Taboqoti Nosiriy”, Alouddin Otamalik Juvayniyning “Tarixi jahonkushoy” va Fazlulloh Rashiduddin “Jome’ at-tavorix” asarlari kiradi.

So‘nggi yillarda yurtimizda Jaloliddin Manguberding 800-yillik yubileyi munosabati bilan ma’lum ishlar amalga oshirildi. Xususan, Urganchda Jaloliddin Manguberdi haykali o‘rnatildi, Muhammad an-Nasafiyning Sulton Jaloliddin Manguberding hayotiga oid asari nashr etildi, old tomoniga Jaloliddin Manguberdi timsoli tushirilgan 25 so‘mlik tanga zarb etildi. Shu bilan birga, hozirgi kunning muhim muammolardan biri, ammo tariximizning muhim qismi bo‘lgan, juda kam ma’lumotlar saqlanib qolgan mo‘g‘ullar istibdodi davrini o‘rganish yuzasidan tadqiqotlar olib borishdir.

Amir Temur davri tarixi tarixshunosligi davrlari va ularning xususiyatlari

Amir Temur shaxsi va davlati tarixi ko‘p o‘rganilgan hamda o‘rganilayotgan mavzulardan biridir. Lekin, Temur shaxsi va faoliyatiga hamisha bir xil baho berilmagan. Amir Temur tarixi tarixshunosligi u hokimiyat tepasida turgan vaqtdanoq boshlangan. Ana shu katta hajmdagi tarixshunoslikni uch davrga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiqdir:

1. Temur davridan to XX asrning 30- yillarigacha.
2. XX asrning 30- yillari oxiri – 80- yillarning ikkinchi yarmi.

3. Mustaqillik davri.

Birinchi davrda Amir Temur davlati tarixi butun dunyoda keng ko‘lamli o‘rganilgan bo‘lsa, ikkinchi davrda esa tarixiy voqealarning barchasi, jumladan, Amir Temur tarixi ham kommunistik mafkura nuqtai nazaridan va sinfiylik tamoyillari asosida tadqiq qilindi. Natijada, Amir Temur shaxsiga nisbatan “qonxo‘r”, “kallakesar”, degan qarashlar hukmron bo‘lib qoldi.

Amir Temur shaxsi, faoliyati va Temuriylar davlati tarixini o‘rganishda mustaqillik yangi sahifa ochdi. Amir Temurning 660 yillik yubileyi O‘zbekistonda va YuNESKO tomonidan Fransiya poytaxti Parijda nishonlandi, ulug‘ sarkarda haqida ko‘plab ilmiy asarlar yaratildi. Amir Temur davriga oid manbalar chop etildi va qayta nashrlar amalga oshirildi. Ularda Temur shaxsi va faoliyati hamda davlatining haqqoniy tarixi yaratildi, bobokalonimizning o‘zbek xalqi tarixi va shuningdek, jahon tamaddunida tutgan o‘rni hamda roli ko‘rsatib berildi. Amir Temurning diplomatik munosabatlari va harbiy yurishlari tadqiq hamda tahlil qilindi.

XIV asrning o‘rtalariga kelib Movarounnahrning siyosiy hayotiga Xoja Barlos bekning jiyani Temur ham qo‘shildi. U 1336 yilda Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Xo‘jailg‘or qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi Amir Tarag‘ay barlos qabilasidan edi. Temur dastlab turli beklarning qo‘shinini boshqardi. 1360 yildan boshlab 10 yil davomida goh u, goh bu hukmdor tomonida turib kurashdi va bir vaqtning o‘zida barlos qabilasini o‘z atrofiga jiplashtirib bordi.

1361 yilda u Tug‘luq Temur tomoniga o‘tdi, biroq u Tug‘luq Temurning raqibi – Balx hukmdori amir Husayn bilan ittifoq tuzdi. Ular birgalikda mo‘g‘ullarga qarshi isyon ko‘tardilar. Biroq, mag‘lubiyatga uchragach, O‘rta Osiyoni tashlab, Seyiston (Eron)ga qochishga majbur bo‘ldilar. Seyistondagi harbiy harakatlaridan birida Temur o‘ng qo‘li hamda o‘ng oyog‘idan yaralanadi. Shundan keyin u bir umr cho‘loq bo‘lib qoldi va kelgusida ulkan davlat tuzgan ushbu shaxs “Temurlang” (Oqsoq Temur) laqabini oldi. 1360 yilda Shahrisabz va Qarshining begi bo‘lgan Amir Temur 1370 yilga kelib, ya‘ni o‘n yil ichida butun Movarounnahrning hukmdoriga aylandi.

Ibn Arabshohning ma‘lumot berishicha, Temurning otasi Amir Tarag‘ay xudojo‘y odam bo‘lgan, u olim va darveshlar, ayniqsa, shayx Shamsiddin Kulor (Kulol)ning do‘sti edi. Ushbu taqvodor zotning xoki Go‘ri Samarqanddagi Go‘ri Amir maqbarasiga qo‘yilgan. Amir Temurning yangi diniy maslahatchisi hamda homiysi Said Baraka umrining oxiriga qadar Temurning maslahatgo‘yi va ma‘naviy rahnamosi bo‘lib, Temur Xorazmga yurish qilganda ham ishtirok etadi. Mir Said Baraka va termizlik sayyidlardan so‘ng ma‘lum bir nufuz va obro‘-e‘tiborga ega bo‘lgan zotlar – samarqandlik shayxul-islom Xoja Abdul-Avval va uning jiyani Xoja Isomiddin, keshlik Xoja Afzal va keshlik shayxul-islomning o‘g‘li Abdul Homid va Abdurahmon hamda samarqandlik shayxul-islom al-Maliklar edi. Ibn Arabshohning so‘zlariga ko‘ra, Amir Temur Zohid Zoyi al-din Abu Bakr Toyobodiy (1381 yildan Xuroson ruhoniylarining yetakchisi, Xuroson yonidagi Toyobod qishlog‘idan chiqqan)ni o‘zi erishgan zafarlarda

katta xizmat qilgan Shamsiddin Kulol va Mir Said Baraka qatori homiyalaridan biri hisoblangan.

Rus sharqshunosi V. V. Bartoldning ta'kidlashicha, "Shohruh davrining tarixchilari Chingizxon qonunlari oldida islom shariati yuqori mavqega erishgan bir paytda, tabiiyki, Temurning

dinga bo'lgan jonkuyarligini bo'rttirib ko'rsatishga moyil bo'lganlar. Shubhasiz, Amir Temur ulamo ahlining homiysi bo'lgan, ular bilan tengma-teng muloqotlar olib borgan va ayniqsa, payg'ambar avlodlariga hurmat bilan qaragan: sohibqironning o'z tug'ishganlaridan tashqari, uning davlatida hayoti daxlsiz hisoblangan yakkayu-yagona odamlar sayyidlar bo'lgan, deyish mumkin.

Bundan tashqari, Hofizi Abruning yozishicha, Amir Temur islom dinini mustahkamlash uchun g'amxo'rlik qilgan, u hech qachon vaqflarning pul bilan bog'liq ishlariga aralashmas edi. V. Bartold yana bir o'rinda Temur tarixni juda yaxshi bilgan, deb yozadi. Olimning ushbu e'tirofi tarixchi ibn Xaldunning Temur bilan bo'lgan suhbat mazmuniga suyanib yozilgan.

Gap shundaki, faqat XVI asr oxirlariga kelibgina arab faylasufi ibn Xaldun (1332–1406) ilk bor musulmon dunyosida tarixni hikoya qilishdan tashqari, voqealarning sababiy bog'lanishlarini ham pragmatik bayon qilish va umumdunyo tarixining taraqqiyot qonunlarini belgilash borasida urinib ko'rdi. Ibn Xaldun tabiat va insoniyat tarixi o'rtasida dialektik aloqa mavjudligini isbotlash uchun harakat qilgan edi. Shuning uchun ham tanqidiy manbalarda ibn Xaldun quyidagi asosiy qoidalarga suyanadi: kishilik jamiyati tarixi ham tabiat hayoti kabi umumiy bo'lgan muhim qonunlarga bo'ysunadi va xalqlar hayotida ushbu qonunlarning namoyon bo'lishi tarixiy haqiqatning asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Amir Temur davlati tarixining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi

Amir Temur o'z davrida yirik imperiya tuza olgan iste'dodli davlat arbobidir. Bu haqda o'rta asr mualliflarining asarlari juda boy ma'lumot bera oladigan manba hisoblanadi. Temur o'z hukmronligining dastlabki yillarida mamlakat poytaxtini belgilashda ikkilangan edi. XIV asrning 70-yillaridan Samarqand yirik siyosiy markaz tusini oldi va shu bilan shaharning yuksalishi ko'zga tashlandi, Sharqning savdo-iqtisodiy, hunarmandchilik, ilmiy-adabiy markazga aylandi.

Hozirgi kunda bizgacha Amir Temur va temuriylar yaratgan inshootlardan oz qismigina saqlanib qolgan xolos, aksariyati yo'qotilgan, ayrimlari vayronalarga aylangan. Masalan, Samarqand qal'asi (Tepaqo'rg'on) 1371–1372- yillarda o'sha davrning obro'li kishilaridan biri bo'lgan so'fiy Nuriddin Basir yoki Qutbi Chahordoxum uchun maqbara tiklangan edi. Mazkur obida 1868 yilning mayiga qadar yaxshi saqlangan. Rossiya

Прагматик баён –
тарихдаги объектив тараққиёт қонунларини очиб бермасдан, воқеаларни фақат таиқиб боғланиши ва изчиллигига қараб тасвирлаш

imperiyasi Samarqandni bosib olgach, shu yilning iyunida fon Kaufmannning buyrug‘i bilan ushbu nodir yodgorlik durdonasining faqat tarixi va tasviri-tarixchi rassom V. V. Vereshchaginning suratlarigina saqlanib qolgan xolos. Hatto mana shu ko‘hna suratlar ham 1915 yilga kelibgina oshkor qilindi va bundan faqat Turkistondagi rus ziyolilari ogoh bo‘ldilar, xolos. Hozir loyiha tarixi va unda ko‘rsatilgan o‘lchovlar bo‘yicha xulosa qilish mumkinki, Qutbi Chahordoxum maqbarasi olti burchakli mahobatli gumbazi bo‘lgan bino ekanligini ko‘rish mumkin. Uning devorlari sirlangan g‘ishtlar bilan, peshtoqlari yozma naqshlar va gumbaz qubbalari feruza rang bilan ziynatlangan edi.


Taniqli muarrix Zayniddin Vosifiy XV asr oxiridagi voqealarni bayon qilayotib, Abdurahmon Jomiy Samarqand gazlamalarini behad xush ko‘rgan va liboslarini ham faqat shu gazlamalardan tiktirganligini eslab o‘tadi. Uning biografi Abulvosiy: “Jomiy kamtarona va sodda kiyinsa ham yilbo‘yi o‘zining odatdagi xarjlariga 100 ming dinor sarflar edi”, – deb yozgan edi. Asarda bunday dalillar juda ko‘p. Yozma hujjatlar hamda arxiv manbalaridan faqat ushbu hunar turlarining gullab-yashnagani haqidagina emas, balki usta hunarmandlar va quruvchilar, muhandislar hamda me‘morlarning ismlarini ham bilib olish mumkin.

Masalan, Sankt-Peterburgdagi Ermitajning madaniyat va san‘at tarixi kolleksiyasida 1989 yilgacha ulkan doshqozon va Temur nomi bilan bitilgan shamdon bor edi. Temurning hadyasi, ya‘ni ulkan doshqozon Turkiston shahriga qaytarilib, O‘rta Osiyo va Qozog‘istondagi ulkan me‘morchilik kompleksi – Temur amri bilan bunyod etilgan, o‘rta asrlarning buyuk shoiri va mutafakkiri Xo‘ja Ahmad Yassaviy maqbarasining asosiy xonasidagi gumbaz ostiga o‘rnatildi. Oshkoralik sharofati ila ko‘p yillar mobaynida Leningrad ermitajida saqlangan doshqozon, ya‘ni Temurning tortig‘i o‘zining tarixiy o‘rniga qaytdi. Manbada qayd etilishicha, ikki tonnali to‘y qozoni olti asrcha burun “etti xosiyatli metall quymasidan ishlangan, turli shakllar va Qur‘ondan olingan arabcha so‘zlar bilan behad nafis bezatilgan to‘y qozonining yuqori diametri ikki yarim metrni tashkil etadi. Unda bir yo‘la 1000 nafar oshxo‘rga yetarli palov damlash mumkin”.

Amir Temur harbiy yurishlar chog‘ida jamg‘argan boyligining katta qismini poytaxti Samarqandni bezash, yangi yo‘llar va savdo rastalari qurishga sarflaydi. Ibn Arabshohning guvohlik berishicha, Temur “dunyo savdogarlar sharofati bilan royishdir”, deb hisoblaydi va nafaqat ichki, balki tashqi savdoni ham rivojlantirishga urinadi: bunda u faqat Yaqin va O‘rta Sharq davlatlarinigina emas, boshqa ko‘plab mamlakatlar, jumladan, Ispaniya, Fransiya va Angliya bilan savdo aloqalarini yaxshiladi.

Shu o‘rinda Samarqandning G‘arbiy Yevropa mamlakatlari bilan tashqi savdo aloqalariga tarixiy jihatdan baho berish kerak. XIV–XV asrlar chegarasida Temur shaxsi zamondoshlarining e‘tiborini jalb qilibgina qolmasdan, balki uning diplomat sifatidagi faoliyati ham mutaxassislar nazariga tushdi. Tarixchilar Amir Temurning G‘arbiy Yevropa davlatlari rahbarlari bilan olib borgan yozishmalari haqida salmoqli dalillarga ega.

Mustaqillik yillarida Amir Temurning hayoti va faoliyati haqida batafsil gapirish hamda u haqda asar va maqolalar yozishga imkoniyat tug'ildi. O'z o'rnida shuni qayd etish kerakki, Temur davlatining Sharq va G'arb mamlakatlari bilan o'zaro ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hamda madaniy aloqalari tarixchilar tomonidan kam o'rganilgan. Bu hol, ayniqsa, XV asrning boshida Usmoniylar davlatiga qarshi uyushtirilgan G'arbiga yurish, ya'ni "etti yillik" urush (1399–1404)ga tegishlidir.



Шарафуддин Али Яздийнинг ёзишича, Темур Самарқандга хунармандчилик, меъморчилик, фан ва бошқа соҳаларда фойдаси тегиши мумкин бўлган барчани олиб келишни буюрган.

“У турли касбдаги хунармандларни йиғишга уринди”, – деб ёзган эди **Руи Гонсалес де Клавихо**.

А. Ю. Якубовскийнинг маълумотига кўра, Самарқанднинг ишлаб чиқариш қудратини ошириш мақсадида Темур бу ерга Олтин Ўрда, Хуросон, Озарбайжон, Арманистон, Форс, Месопотамия ва бошқа вилоятлардан мажбурий равишда хунармандларни кўчиради.

Тарихчилар XV асрда Самарқанд аҳолиси этник жиҳатдан ранг-баранглигини қайд этган.

XIV asr oxirida Turkiyaning harbiy qudrati osha bordi. 1389 yildan boshlab Turkiya Bolqon yarim oroli va Yevropa xalqlariga nisbatan bosqinchilik yurishlarini boshladi. U Serbiya va Bolgariyani bosib olib, Vengriya (Mojariston)ga tahdid qila boshladi. Sulton O'rxon va Yildirim Boyazid 1396 yilda G'arbiy Yevropa ritsarlari ustidan g'alaba qozonib, endi Konstantinopol (Istambul)ni bosib olishga jon-jahdi bilan tayyorlanadi. Shuning uchun Vizantiya imperatori Manuil va uning noibi Ioann Paleolog yordam so'rab, Yevropa saroylarini aylanib chiqadi. Xalqaro miqyosda ushbu davr Yevropa uchun eng murakkab davr edi. Ba'zi mamlakatlar turklar bilan sulh tuzib, o'zlarini xavfdan qutqarmoqchi bo'lsalar, boshqalari esa Rim papasi boshchiligida ittifoq tuzib, g'ayridinlarga qarshi kurashmoqchi edilar. Lekin, tezda sharoit o'zgarib qoldi. Kichik Osiyo ikki hukmdor Temur va Boyazid tomonidan mahv etilgach, Kichik Osiyolik amirlar Temur saroyida panohtopgan va unga xizmat qilib, Boyazidning yengilishini tilardi. G'arbning nasroniy davlatlari – Vizantiya regenti (monarx o'rniga vaqtinchalik hukmdor) va Genuya hukmdori Galat, Fransiya qiroli Karl VI, Sultoniya shahri (Shimoliy Eron)ning katolik dohiylari – missionerlari Temurdan ko'mak so'radilar. Temur esa, o'z navbatida Venesiya va Istambul (Konstantinopol)ning dengiz kuchlarini Usmoniylar davlatiga qarshi ishlatishdan manfaatdor edi.

Imperator Manuilning Istambul (Konstantinopol)dagi noib Ioann Paleolog Temurdan yuqoridagi taklif bitilgan maktubni oldi. Konstantinopoldan Venesiyaga

keltirilgan ushbu xat bizgacha asl nusxada emas, Italiya tarixchisi Marino Sanudo (XV–XVI asrlar) tomonidan birmuncha buzib qilingan tarjima holda yetib kelgan. Tarixchi Temur xatining tarjimasini o‘zining “Venesiya hukmdorlari hayoti” kitobiga kiritgan. Ushbu nodir hujjatning ruscha tarjimasi ilk bor taniqli sharqshunos, SamDU professori I. I. Umnyakov tomonidan amalga oshirilgan. Matnning to‘la tarjimasi 1969 yilda “Samarqand tarixi” kitobining I jildida e‘lon qilingan.

Mavjud hujjatlardan Temurning diplomatik qobiliyati xususida fikr yuritish mumkin. Qo‘shinlari Kichik Osiyoda bo‘lgan chog‘ida Temur turk sultoni Boyazid elchixonasi vakillari bilan muloqotdan kifoyalanmasdan, bir vaqtning o‘zida Fransiya qiroli Karl VI (1380–1422) va ingliz qiroli Genrix IV Lankaster bilan aloqalarni amalga oshirgan. Temurning Yevropa mamlakatlari hukmdorlari bilan olib borgan yozishmalaridan qudratli Usmoniylar imperiyasiga qarshi kurash borasida ularning qarashlari bir joydan chiqqanligi ko‘rinib turibdi.

Temurning dastlab Misr sultonini, so‘ngra 1402 yildagi Anqara jangida qudratli Usmoniylar imperiyasini tor-mor etgani, aslini olganda, G‘arbiy Yevropa xalqlarini qullikdan asrab qoldiki, bu hol G‘arbda Sharqqa nisbatan qiziqish uyg‘otdi. G‘arbliklar olis Sharqqa o‘z elchilarini yo‘llar ekanlar, o‘zlarining doimiy maqsadlarini unutmadilar, ya‘ni elchilar hamma joyda kuzatib yurishlari, ishlarning borishi, xalq ahvoli to‘g‘risida, savdo-sotiq va hunarmandchilik haqida ma‘lumotlar to‘plashi, o‘z mamlakati uchun foydali biron yumush bilan mashg‘ul bo‘lishlari kerak edi.

Elchilar doimo kundalik yuritar edilar. Qaytganlaridan so‘ng esa barcha ko‘rganlari haqida batafsil hisobot yozardilar. Buning yaqqol misoli – 1403 yilda Amir Temur saroyida bo‘lgan Ispaniya elchisi Klavixoning sayohatnomasi 1582 yilda Sevilyada “Buyuk Temurlangning hayoti va faoliyati” nomi bilan nashr etildi. Asar Madridda 1782 yilda qaytadan nashr qilindi. Ingliz sharqshunosi Strondj “Kundalik”ni Sreznevskiy nashriga suyanib, ona tiliga tarjima qildi va 1928 yilda nashr etdi. 1943 yilda Klavixo kundaligining yangi nashri F. Lopez tomonidan Madridda amalga oshirildi. Nashr asosiga u XV asr qo‘lyozmasini olsa-da, lekin asar matnini chuqur adabiy-ilmiy tekshiruvdan o‘tkazdi va kundalikni Temur davlatidagi Klavixo elchixonasi haqidagi tarixiy ma‘lumotlar bilan to‘ldirdi.

Yuqorida ta‘kidlanganidek, XV–XX asrlar tarixchi va adabiyotshunoslarining ko‘plab asarlari Temurning shaxsi hamda faoliyatiga bag‘ishlangan. V. V. Bartold to‘g‘ri ta‘kidlaganidek, Temur davri tadqiqotchisi “ma‘lumotlarning kamligidan emas, ko‘pligidan qiynaladi. Chunki, ular ko‘plab kutubxonalarga sochilib ketgan bo‘lib, dastlab tanqidiy nuqtai nazardan qarab chiqish va nashr etishni taqozo etadi. Sharqshunos olimning ushbu fikrlari hozir ham o‘z kuchini saqlab kelmoqda.

“Zafarnoma” Markaziy Osiyo xalqlarining nodir madaniy obidasi bo‘lib, u nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Sharq mamlakatlari tarixining muhim manbasi hisoblanadi. Asarning o‘ziga xosligi va to‘plangan materiallarning haqqoniyliги bilan

ko'rsatilgan davr tarixiy manbalari ichida alohida o'rin tutganligi bois hozirda ham sharqshunos tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga jalb qilmoqda.

Gap shundaki, "Zafarnoma" tuzilishiga ko'ra ikki qismga bo'linadi: Birinchi qismi muqaddima bo'lib, u Amir Temur shajarasiga bag'ishlangan, unda turk urug'lari va Chingizxonning to'rt ulusi haqida umumiy ma'lumotlar beriladi. Umuman, ushbu masalalar yuqorida qayd etilgan ayrim asarlar (masalan, Rashiddinning "Jome' at-tavorix", Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy" va boshqalar)da ham batafsil bayon qilingan.

Ikkinchi, ya'ni asosiy qismi (Temurning o'z tarixi). Muallifning so'zlaridan shular ma'lum bo'ladiki, ushbu tarixiy asar Sharafuddin Alini saroyga taklif qilib yozdirilgan. Shoh o'zining bobosi haqida maxsus kitob yaratishlarini istab, 822 (1419–1420) yilda Sohibqiron Temur to'g'risida ma'lumotlar to'plash borasida farmon berdi. Muqaddimada tasvirlanishicha, dastlab to'plangan ma'lumotlar shohidlarning og'zaki hikoyalari bilan taqqoslangan, so'ngra Sharafuddin Ali Yazdiy ushbu ma'lumotlar bilan tanishib chiqib, Ibrohim Sultonga ular haqida fikrini aytgan, shundan so'ng u "Zafarnoma" kitobini yozishga kirishgan.

Muallif to'plagan ma'lumotlarini uch guruhga bo'ladi: voqealar shohidlarining hikoyalari, ikkinchi va uchinchi o'quvchilar turi hamda fors manbalarining bilimdonlari. Barcha sanalar, jo'g'rofiy koordinatalar va ular orasidagi masofalar, Ibrohim Sulton farmoniga ko'ra, har tomonlama tekshiruvdan o'tkazilib, so'ngra Sharafuddin Ali Yazdiyga beriladi. Bunda muallifga ma'lum ko'rsatmalar berilgan. Birinchidan, kitob badiiy nafosatli hamda tushunarli tilda yozilishi, ikkinchidan, muallif hujjatga qat'iy amal qilmog'i, dastlabki bitiklardan chekinmasligi, hech narsani bo'yab-bejamasligi shart edi. Shu yo'sinda Amir Temurning keng miqyosdagi rasmiy tarixi dunyoga keldi.

"Zafarnoma" yozilgan davrning tarixiy xronologiyasi haqida shuni ta'kidlash kerakki, asarning boshlanishi (832–1419) va tugatilishi (828–1424–1425) haqida Ali Yazdiy hamda zamondoshlari tomonidan berilgan ma'lumotlar mavjud. Lekin, bizni boshqa masala qiziqtiradi – muallif asar ustida ishlashni davom ettirganmi, axir u 1454 yilgacha yashagan-ku? Ha, muallif asar ustida ishlashni davom ettirgan. Bu haqda quyidagi ma'lumot bor: Tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan qarasa, rasmiy ohangda yozilishiga qaramay, Sharafuddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"da Amir Temur faoliyati va uning ziddiyatli tomonlarini o'ziga xos tarzda ifodalaydi – mustabid shoh va Movarounnahrda markazlashgan buyuk feodal davlati bunyodkorini birmuncha odillik bilan yoritadi.

Sharafuddin Ali Yazdiyning mazkur asari qo'lyozma holida keng tarqalib ketgan, chunki asar uning zamondoshlari va keyingi asr tarixchilari uchun ham birlamchi manba bo'lib xizmat qildi. Sharafuddin Ali Yazdiyning tarixiy voqealarni bayon etish uslubi ohangi ko'p paytgacha o'lkashunoslar, tarixchilar uchun namuna bo'lib xizmat qildi. Masalan, XVI asrning mashhur tarixchilari – Mirxond ("Ravzat us-Safo"), "Safo-farog'at

bog‘i”, Xondamir (“Habib us-siyar” – “Do‘stlar atroblari”) va boshqalar ham Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”siga suyanib ish ko‘rdilar.

Markaziy Osiyo tarixshunosligining durdona asarlaridan biri bo‘lgan “Zafarnoma” jahon tarixchilarining tadqiqot manbai bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Chunonchi, 1887–1888- yillarda hind sharqshunosi Mavlaviy Ilohdorning tashabbusi bilan olti nusxa asosida “Zafarnoma”ning ikki jildi Kalkuttada nashr etildi.

1958 yilda Muhammad Abbosiy tomonidan uch qo‘lyozma va yuqorida zikr etilgan Kalkutta nashri asosida Tehronda yangi nashr paydo bo‘ldi. Abbosiy foydalangan qo‘lyozmalarning ikkitasi muallif hayotligidagi nusxalardir: biri (sanasiz) Muhammad Abbosiyning shaxsiy mulki sanalgan, ikkinchisi – Majlis kutubxonasida saqlangan (36782-son ko‘chirish sanasi hijriy 840, 1436), uchinchisi ham Majlis kutubxonasida bo‘lib, (36773-son, 1037), ya’ni 1637–1638- yillarda ko‘chirilgan.

Demak, Asomiddin O‘rinboevning haqqoniy ko‘rsatishicha, “Zafarnoma”ni fransuz va ingliz tillariga o‘girgan tarjimonlar, shu kungacha bibliografik jihatdan noyob bo‘lsa-da, asarning 1/5 qismini tashkil etgan muqaddima qismi tarjimasini tushirib qoldirganlar. Asarning Kalkutta va Tehronda nashr qilingan nusxalarida muqaddima qismi mavjud emas. Shuning uchun A. O‘rinboev tomonidan faksimile nusxa, kirish so‘zi, izoh va ko‘rsatmalar bilan tayyorlangan “Zafarnoma” matni asarning eng yaxshi nusxalarini o‘zida jamlagan, deyishga asosimiz bor. Shubhasiz, “Zafarnoma”ning mazkur nashri O‘rta Osiyo xalqlarining XIV asr oxiri – XV asr boshlaridagi hayotini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Temuriylar davri tarixshunosligi

Alisher Navoiyning “Majolis un-nafois”, Mirxondning “Ravzat us-safo”, Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkirat ush-shuaro” va Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlarida ham Mirzo Ulug‘bek to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi. Amir Temur shaxsi va faoliyati haqidagi A. Yu. Yakubovskiy hamda V. V. Bartoldning qarashlari hozirgi davrda bizda, jumladan, g‘arbdagi Temur tarixshunosligiga ham katta ta’sir ko‘rsatdi. XX asr boshlaridayoq Ulug‘bekning nomi va asarlari jahonga mashhur va manzur bo‘ldi.

Бизнинг давримизда олим ва давлат арбоби Мирзо Улуғбек тўғрисида **С. А. Акрамов, Ю. Н. Алескеров, Б. А. Аҳмедов, Т. Н. Қориниёзий, Н. И. Леонов, М. В. Массон, Г. Пугаченкова** ва бошқаларнинг асар ҳамда мақолалари эълон қилинган. Булар Улуғбекнинг ҳаёт ва фаолиятини ўрганишда ўқувчиларга катта ёрдам беради.

Temurning vafoti (1405 yil)dan so‘ng hokimiyat uchun kurash boshlanadi va Ulug‘bekning harbiy siyosati shu bilan ajralib turardiki, uning o‘zi har doim ham urush ochmas, zaruriyat tug‘ilib qolganda, jangari qo‘shnilar tomonidan xavf tug‘ilgandagina urushga kirar edi. Masalan, 1414 yilda Ulug‘bek Farg‘ona shahzodasi sulton Ahmadga qarshi muvaffaqiyatli urush olib bordi. Natijada, dastlab Farg‘ona, keyin Qoshg‘ar Movarounnahrqa qo‘shib olindi.

Mo‘g‘ulistonning kuchayib borayotgan xonlari Ulug‘bek hokimiyatiga tahdid solar edi. Avvaliga Ulug‘bek ularni itoatda tutdi, lekin tezda ular bo‘ysunmasdan qo‘ydilar. Chunonchi, 1423 yildagi yurish vaqtida Ulug‘bek Chu daryosiga yetib keldi va 1425 yilning bahorida Ketmontepa jangida uning qo‘shini Shermuhammadxon ustidan g‘olib chiqdi. Ulug‘bek boshqa boyliklar qatorida ikki bo‘lak nefrit yashma toshni ham o‘lja oldi. Ular shunchalik og‘ir ediki, Samarqandga yuborish uchun maxsus yuk ko‘targich tayyorlashga to‘g‘ri kelgan edi. Ulug‘bekning hukmiga ko‘ra, keyinchalik ulardan Temurga qabrtoshi tayyorlandi. 1425 yildagi zafarli yurish sharafiga Ulug‘bek Ilono‘tdi darasining Jalolota dovonidagi tog‘ qoyasiga bitik bitishni buyurdi. Unda, jumladan, shunday ma‘nodagi so‘zlar yozilgan edi: “Ulug‘ tangrining qo‘llab-quvvatlashi birlan ulug‘ sulton, jamiy podshohlar hukmdori, tangrining yerdagi soyasi, islom dinining tug‘dori, din homiysi Mu‘iniddin Ulug‘bek Ko‘ragon, tangri onining saltanati poydor qilsun. Jete va Mo‘g‘ulistong‘a yurish vaqtida ushbu yerdan o‘tg‘on. Hijriy, 828 yil”. Ushbu bitik hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Ma‘lum bo‘lishicha, Mirzo Ulug‘bek ichki siyosatda o‘zining bobosiga taassub qilar edi. Agar Shohruhni “Musulmonlar shohi” deb atagan bo‘lsalar, Ulug‘bek esa aksincha, ruhoniylar bilan unchalik chiqishmadi. Afsuski, rasmiy tarixshunoslik Ulug‘bekning ma‘lumoti xususida aniq dalillarga ega emas. Ma‘lumki, Ulug‘bekning birinchi tarbiyachisi uning buvisi Saroymulxonim edi. 1405–1411 yillarda u amir Shohmalik tarbiyasida bo‘ldi. “Rashohat” orqali Samarqanddagi madrasaning bosh quruvchisi Shohmalik uning tarbiyachisi ekanini bilish mumkin.

1397–1398- yillarda shoir va taniqli olim, bir turkum falsafiy-axloqiy asarlar muallifi shayx Orif Ozariy necha yil davomida Ulug‘bekning madrasasida tahsil olgan edi. Orif Ozariy Eron va Old Osiyo viloyatlariga qilgan 1399–1404 yillardagi yurishlarida Ulug‘bek Marog‘ada (Ozarbayjon) Nasriddin Tusiy rasadxonasining xarobalarini ziyorat qilgan edi. Aftidan, uni falakiyotshunos Mavlono Ahmad bilan Temur xizmatida bo‘lgan Qozizoda Rumiylar kuzatib borgan. Qozizoda Rumiylarning shahzodaga bag‘ishlangan “Matematika asoslari” kitobida guvohlik berilishicha, shu paytdan boshlab Rumiylar shahzodaning doimiy ustoziga aylandi. Shuni qayd etish joizki, ushbu kitob talabalar uchun matematikadan asosiy qo‘llanma sifatida XV–XIX asrlarda ham xizmat qilgan.

Markaziy Osiyo tarixshunoslarining yozishlaricha, Ulug‘bek madrasa mudarrisi bo‘libgina qolmasdan, eng yaxshi muallimlarni tanlashda shaxsan o‘zi qatnashgan. Madrasaning birinchi muallimi faylasuf va bilimdon olim Muhammad Havofiy edi.

Madrasaning ochilish marosimida u birinchilardan bo‘lib tinglovchilar huzurida ma’ruza qilgan edi. “Aflotuni zamon” deb nom olgan Qozizoda Rumiylar madrasada tabiiy fanlar bo‘yicha yetakchi mudarris edi.

Zayniddin Vosifiyning yozishicha, madrasa qurilishi yakuniga yetganidan so‘ng Ulug‘bekdan: “Kim madrasaning bosh mudarrisi bo‘ladi?”, – deb so‘raganlar. Ulug‘bek kim bo‘lishidan qat’iy nazar ushbu odam barcha fanlar bo‘yicha komil odam bo‘lishi kerakligini aytadi. Ulug‘bekning so‘zini eshitgan eski kiyimdagi, g‘ishtlar orasida madrasa quruvchilari bilan o‘tirgan mavlono Muhammad ushbu vazifaga o‘zining haqqi borligini aytadi. Abu Tohirxoja Samarqandiyning ma’lumotlariga ko‘ra, mavlono Muhammad madrasa qurilishida qora ishchi sifatida qatnashgan. Ulug‘bek u bilan suhbatlashib, tezda uning zukkoligiga amin bo‘lgan. Shuning uchun ham madrasa ochilishida mudarris sifatida unga birinchi bo‘lib ma’ruza qilishi huquqi beriladi. Shuni qayd etish kerakki, mazkur tadbirda 90 dan ortiq olimlar ishtirok etgan.

Keyinchalik Ulug‘bek ma’lumoti jihatidan ustozlari Qozizoda Rumiylardan o‘zib ketgan. Olim o‘z atrofiga o‘sha davrning eng ilg‘or ziyolilari – tarixchilar, adabiyotshunoslar, shoirlar, san’atshunoslar, tabiiy fan namoyondalari, jumladan, falakiyotchilarni to‘plagan edi. Mirzo Ulug‘bekning rahbarligi va ishtirokida madrasada ilmiy ishlar muvaffaqiyatli rivojlandi.

XV asr Markaziy Osiyo tarixidagi ikki dunyoqarashning ayovsiz kurashi davri hisoblanadi. Ulardan “birining vakili Amir Temurning nabirasi, Samarqandda qirq yil podshohlik qilgan Mirzo Ulug‘bek bo‘lsa, ikkinchisining vakili uning yosh zamondoshi, Naqshanbandiyulardan bo‘lgan darvesh, Mirzo Ulug‘bek vafotidan so‘ng ikki yil o‘tmayoq o‘zining ulkan diniy ta’siridan foydalanib, siyosiy hokimiyatini qo‘lga olgan va Temurning haqiqiy yoki uzoqroq avlodlari vositasida mamlakatni qariyb qirq yil boshqargan Xoja Ahror Valiy edi”. Ushbu fikrlarda mubolag‘a bor, albatta.

Shunday qilib, XV asrda Markaziy Osiyoda tarixiy bilimlar rivojlandi. Ushbu davrda Hofizi Abru, Abdurazzoq Samarqandiy va boshqa tarixchilar yashab, ijod qildilar. Ularning asarlari Markaziy Osiyo tarixshunosligining qimmatli manbalaridir. Masalan, Hofiz Abruning “Zubdat ut-tavorix” (“Yilnomalar qaymog‘i”) asarida 1427 yilgacha bo‘lgan tarixiy voqealar bayon qilinadi. Abdurazzoq Samarqandiy (1482 yilda vafot etgan) esa “Matla’ as-sa’dayn majma ul-bahrayn” (“Ikki baxtli yulduzning chiqishi va ikki daryoning qo‘shilish joyi”) asarida 1471 yilgacha bo‘lgan voqealarni tasvirlaydi. Ushbu kitob xulagular avlodidan bo‘lgan Abu Said tavalludidan to temuriylar sulolasi vakili Abu Saidgacha bo‘lgan davr (1304–1469)dagi tarixiy voqealarni o‘z ichiga oladi. Mirxondning (1498 yilda vafot etgan) “Ravzat us-safo” asari Sulton Husayn podshohligi davri tarixiga bag‘ishlanadi. 1491 yilda Isfizoriy Hirot tarixini yozgan bo‘lsa, Davlatshoh Samarqandiy esa “Tazkirat ush-shuaro” asarini Alisher Navoiyga bag‘ishladi. Ushbu asarda 100dan ortiq shoirlar to‘g‘risidagi mufassal ma’lumotlar jamlangan edi.

V. L. Vyatkin XVII asr o‘rtalariga mansub vaqf hujjatlaridan birini o‘rganayotganida, hozirgacha Obirahmat arig‘i va “Naqshi Jahon” degan joy nomlari

bilan ma'lum bo'lgan "Tole rasad"ning aniq chegaralarini topdi. Hujjat rasadxonaning o'zni haqida shu qadar aniq va tushunarli ma'lumotlar beradiki, unda aytilgan tepalikni topish hech ham qiyin emas edi. V. L. Vyatkin Ulug'bek rasadxonasidagi 1908–1909 yillardagi qazish ishlari natijalari haqida Markaziy va Sharqiy Osiyoni tarixiy, arxeologik, lingvistik hamda etnografik jihatdan o'rganish rus qo'mitasida hisobot berdi.

1909 yildagi qazish ishlarining birinchi kunlarida V. L. Vyatkin bir g'isht qalinligida, balandligi ikki metr atrofida bo'lgan aylana devor va uchta parallel joylashgan, ikkita g'isht to'siq bilan ajratilgan, keskin pastga, binoning tashqi qatlamida qazilgan chuqurga tushadigan zinalarni topdi. Zinalarni tozalash natijasida arxeolog rasadxonaning asosiy falakiyotshunoslik uskunasi – ulkan kvadrantning bir qismini topdi. Keyingi tadqiqotlar rasadxona binosining diametri 48 metr bo'lgan aylana shaklida bo'lganini ko'rsatdi, meridian bo'yi radiusi esa 40,212 metr ekanligi aniqlandi.

V. L. Vyatkinning ushbu yutug'i, shubhasiz, jahonshumul ahamiyatga ega bo'ldi. Akademik Bartoldning yozishicha, Ulug'bek shaxsi hamda uning Samarqand rasadxonasi faoliyati mavzusi sharqshunos sifatida uning e'tiborini tortdi. Ushbu qazish ishlari unga birinchi bo'lib "Ulug'bek va uning davri" asarini yozish imkonini berdi. Mazkur asar 1915 yilda yozilib, 1918 yilda e'lon qilindi. "Ulug'bek va uning davri"ni "Turkiston mo'g'ullar bosqini davrida" asarining davomi, desak yanglishmaymiz.

T. N. Qori-Niyoziyning SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'lgan "Ulug'bekning falakiyot maktabi" kitobi Temuriylar davri tarixiga oid g'oyat qimmatli asardir. Unda jumladan, V. L. Vyatkinning 1914 yilda Samarqanddagi Ulug'bek rasadxonasida qazish ishlarini boshlaganligi va mablag' yo'qligi sababli ishning to'xtab qolganligi kabi voqealar bayon qilingan.

1941 yilda Alisher Navoiy davrini o'rganish munosabati bilan Navoiy qo'mitasi a'zolari (M. Ye. Masson va boshqalar) rasadxonada qazish ishlarini davom ettirdilar. Biroq, ikkinchi jahon urushi boshlanganligi sababli ushbu ishlar to'xtatib qo'yildi. 1948 yilga kelib qazishma ishlari tadqiqotchi V. A. Shishkin boshchiligida Tarix va arxeologiya instituti xodimlari tomonidan davom ettirila boshladi.

1941 yilning iyunida Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan Temuriylarning Go'ri Amir maqbarasidagi qabrlarini o'rganish maqsadida Samarqandga T. N. Qori-Niyoziy rahbarligida ekspeditsiya uyushtiriladi. Komissiya a'zolari 1941 yilning 18 iyunida qabrni ochadilar. Qori-Niyoziyning so'zlariga ko'ra, qabr toshidagi bitikni professor A. A. Semyonov o'qishga muvaffaq bo'lgan. Unda quyidagi yozuv bitilgan edi: "Bu nur taratuvchi qabr, bu sultoni shahidning sharaflari joyi, bu muattar bog', jannatiy kishilarning, davlatpanohning so'nggi osoyishtaligi joyi, ilm-ma'rifat homiysi, tinchlik va din madadkori Sulton Ulug'bek (Alloh uning qabrini doimo yoritib tursin), 796 yilda Sultoniya davrida tavallud topgan 810 yilning zulhija oyida esa Madinat salom-Samarqandda oliy hukmdor bo'ldi. Allohning irodasiga bo'ysunib, har bir kunda o'ziga belgilangan muddat sari suzib boraveradi. Uning umri nihoyasiga yetganda, taqdir belgilangan muddat chegarasiga kelganda o'g'li unga nisbatan shafqatsizlik qildi – qilich

tig'idan o'tkazdi, oqibatda u azobli o'lim topib, hamma gunohlarini kechirguvchi egasining shafqatli dargohiga yo'l oldi. 853 hijriy yilning ramazon oyi, 10-kuni".

Ushbu komissiya Ulug'bek o'limining haqiqiy sababini ham aniqladi. Olimning o'limi, uning so'nggi daqiqalari haqida Abdullatif roziligi bilan Ulug'bekka hamroh bo'lib Makkaga yo'l olgan Xoja Muhammad Xisravning og'zidan tarixchi Mirxond yozib olgan mufassal hikoya bor.

T. N. Qori-Niyoziyning guvohlik berishicha, Ulug'bekning qabri ochib ko'rilganda, uning boshi g'arb tomonga sal surilib, tepaga qaratib qo'yilgan bo'lib, uchta bo'yin umurtqasi bosh suyagidan uzilmagan holda edi. Oxirgi umurtqada o'tkir kesuvchi qurolning aniq izlari bor edi. Suyaklarning ko'l qismi bir necha qavat mato qoldiqlari bilan qoplangan edi. T. N. Qori-Niyoziyning fikricha, bular yopilgan mato qoldiqlari bo'lgan. Xoja Muhammad Xisrav va Ulug'bekka hamroh bo'lgan boshqa kishilar uning tanasini olishganmi yoki yo'qmi, u qachon va kim tomonidan dafn etilgan, kabi savollarga hali to'la javob olinmagan. Davlatshohning so'zlariga qaraganda, Ulug'bek Siyob ("Qorasuv") bo'yida 853 yil ramazon oyining 8 kuni (25 oktyabr)da o'ldirilgan. Qori-Niyoziyning asarlari tarixchi olimlarning urushdan keyingi davrdagi ilmiy tadqiqotlarni yakunlovchi tadqiqot ishi sifatida keng jamoatchilikka taqdim etildi.

Mustaqillik yillarida tarixchilar tomonidan Amir Temur va temuriylar davriga oid ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, yosh tadqiqotchi A. Rahmatullaevaning "Amir Temur saltanati tarixnavisligi" kitobida Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid yozma manbalar hamda ilmiy tadqiqotlar tarixnavisligining qisqacha tahlili amalga oshirilgan. Amir Temur hayoti va faoliyatiga oid bibliografik ko'rsatkich tuzilib, adabiyotlar klassifikatsiya qilingan.

Akademik A. Asqarov muharrirligida 1996 yilda nashr etilgan "Temur va Ulug'bek davri tarixi" nomli kitobda o'rta asrlarga oid qo'lyozma manbalar asosida yaratilgan, shuningdek, arxivlardan axtarib topilgan aniq ma'lumotlarga tayangan holda, Amir Temur va uning nabirasi Mirzo Ulug'bek davridagi siyosiy voqea-hodisalar, iqtisodiyot masalalari, mazkur saltanatlardagi madaniyat va san'at ravnaqi yoritiladi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahardagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot "Istoriya Uzbekistana. Epoxa Amira Temura i Temuridov" deb nomlangan monografiyada ham batafsil yoritib berilgan. Temuriylar tarixi davlat muzeyida har yili o'tkazaladigan "Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari ham Amir Temur va temuriylar davrini yoritib berishga xizmat qilmoqda.

Tarix fanlar nomzodi F. Shamukaramovanning "Mirzo Ulug'bekning hayoti va ijodi XX asr tarixshunosligida" deb nomlangan monografiyasida XX asr boshlaridan to 2012 yilga qadar bo'lgan uch tarixiy davrda buyuk olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek hayoti hamda faoliyatini o'rganish dinamikasi ko'rib chiqiladi. Kitobda Mirzo Ulug'bekning astronomiyaga sohasidagi kashfiyotlari, tarix ilmiga qo'shgan hissasi,

shuningdek, u hukmronlik qilgan davr siyosiy va madaniy hayoti yoritilgan katta hajmdagi ilmiy tarixiy adabiyotlar tahlil qilinadi.

“Temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o‘rganish va targ‘ib qilishning umumbashariy ahamiyati” nomli monografiyada ham temuriylar davrida ilm-fan va madaniyat rivojini o‘rganish hamda targ‘ib qilishning umumbashariy ahamiyati mavzusiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar materiallari, ilmiy tadqiqotlar, ma’naviy-targ‘ibiy ishlar, manbalar va chop qilingan ishlar tahlil qilingan.

Mualliflar jamoasi ishtirokidagi “Amir Temur jahon tarixida” kitobida ham O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning Amir Temur haqidagi fikrlari, bu boradagi hukumat farmonlari, qaror va farmoyishlar, Amir Temur hamda temuriylar davri tarixi, uning jahon madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, Amir Temur davri tarixnavisligi masalalari keng talqin qilingan bo‘lib, asar o‘rganilayotgan mavzuga oid yirik tadqiqot hisoblanadi.

“Amir Temur saltanatiga oid yozma manbalar tadqiqi va tavsifi” deb nomlangan kitob tarixshunoslik yo‘nalishida tuzilgan bo‘lib, unda jahon miqyosida tarqalgan mazkur mavzuga oid yozma manbalarning tadqiqi va tavsifi berilgan. Kitobda dunyoning turli kutubxonalari, muzeylari va fondlaridan o‘rin olgan manbalar qamrab olingan. Ushbu asarda keltirilgan ma’lumotlar ilmiy, ma’naviy-g‘oyaviy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Eftalitlar tarixi bo‘yicha ma’lumot beruvchi manbalarni sanab bering va eftalitlar xitoy, yunon va arman manbalarida qanday atalganini aniqlang.
2. Qadimgi turk yozuviga oid yodgorliklarni ko‘rsating.
3. Sharqshunoslikda ushbu davrga oid qanday asarlar mavjud, ular haqida fikr bildiring.
4. Arablar istilosi va unga qarshi kurashlar tarixi haqida ma’lumot beruvchi asarlarni ajratib ko‘rsating.
5. Arab tarixshunosligining o‘ziga xos qanday xususiyatlari mavjud?
6. At-Tabariyning “Tavorixi Tabariy” va Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarlarining tarixshunosligida tutgan o‘rniga baho bering.
7. Muqanna boshchiligidagi arablarga qarshi ko‘tarilgan qo‘zg‘olon qaysi asarda o‘z ifodasini topgan?
8. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asariga tavsif bering.
9. Tarixiy asarlardagi ma’lumotlarni zamondosh olimlarning ilmiy tadqiqotlari asosida tahlil qiling.
10. Uyg‘onish davri deganda nimani tushunasiz?
11. Musulmon Uyg‘onish davrining asosiy omil va manbalari nimada ko‘rinadi?

12. Ma'mun akademiyasining ilm-fan taraqqiyotidagi ahamiyatini baholang.
13. Xorazmshohlar davlati tarixi tarixshunosligi muammolarini gapirib bering.
14. Xorazmshohlar tarixiga oid qanday asarlarni bilasiz?
15. Ziyo Bunyodovning "Xorazmshohlar davlati" asarini tahlil qilib bering.
16. Xorazmshohlar davlati inqirozining asosiy sabablari nimadan iborat?
17. Xorazmshohlar davlati tarixi yana kimlarning asarlarida yoritiladi?
18. Mo'g'ullar istilosiga qadar Samarqand aholisi haqida ma'lumot bergan sayyohni toping.
19. Mo'g'ullar istilosi va ungacha bo'lgan davr tarixi bilan bog'liq manbalarni o'rgangan sharqshunosni toping.
20. Rashididdinning "Jome' at-tavorix" asarini sharhlab bering.
21. Mo'g'ullar davlati va istilosiga oid qanday tarixiy hamda badiiy asarlarni bilasiz?
22. Mo'g'ullarning qabilachilik qonun-qoidalari qanday nom bilan yuritilgan?
23. Mo'g'ullarning islom diniga munosabati haqida fikrlaringiz?
24. Mahmud Torobiy boshchiligidagi qo'zg'olonning ahamiyatini so'zlab bering.
25. Mo'g'ullar istilosi va ularga qarshi kurash tarixi tarixshunosligi muammolari haqida fikringiz?
26. Amir Temur davri tarixshunosligi nechta bosqichga bo'lib o'rganiladi?
27. Amir Temur davri tarixshunosligi bosqichlarining asosiy mohiyatini taqqoslang.
28. Mustaqillik davri temurshunosligiga oid ma'lumotlarni aytib bering.
29. Amir Temur va temuriylar davriga bag'ishlangan tarixiy-badiiy asarlarni sanab bering.
30. Amir Temur davri haqida yozilgan tarixiy asarlarni sanab bering.
31. Amir Temurning G'arbiy Yevropa davlatlari bilan munosabatlariga oid manbalarni aniqlang.
32. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari Amir Temur davri haqida asosiy ma'lumot beruvchi manba ekanligini asoslab bering.
33. Amir Temur davri tarixi tarixshunosligiga baho bering.
34. Amir Temur tarixining sovet tarixshunosligiga qanday yoritilgan?
35. Ulug'bek rasadxonasini topib o'rgangan olim haqida ma'lumot bering.
36. Rasadxona qurilishi haqida ma'lumot beruvchi asarlarni sanab ko'rsating.
37. Ulug'bek haqida yozilgan qanday tarixiy-badiiy asarlarni bilasiz?
38. Mirzo Ulug'bekning tarixiy asarini nomini ayting.

**MAVZU: XVI–XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'RTA OSIYO
XONLIKLARI TARIXSHUNOSLIGI. XIX-XX ASRNING BOSHLARIDA O'RTA
OSIYO TARIXINING O'RGANILISHI. SOVET DAVRIDA O'ZBEKISTONDA
TARIX FANI. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA TARIX**

FANINING RIVOJLANISHI. O‘ZBEKISTONDA TARIXSHUNOSLIK FANINING ALOHIDA SOHA SIFATIDA RIVOJLANISHI.



O‘quv maqsadi: Mazkur davrga oid tarixiy manbalarning o‘rganilishi yuzasidan amalga oshirilgan ishlarning ko‘lami, yechimini kutayotgan muammolar haqida tushuncha berish, manbalarning ahamiyatini talabalar ongiga singdirish. Ularni XVI–XIX asr oxirlarida qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik, afg‘on, Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari tarixiga oid asarlarning hajmi va qisqacha mazmuni bilan tanishtirish.

Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishining tarixiy adabiyotlarda yoritilishi, Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyoda yuritgan mustamlakachilik siyosati, rus olimlari asarlarida mustamlakachilik g‘oyalari va ushbu siyosatning tarixiy bilimlar rivojiga ta‘siri bilan tanishtirish. Rossiyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi milliy-ozodlik kurashning tarixiy adabiyotlarda yoritilishi, tarixni o‘rganishda hukmron mafkura ta‘siri mavjudligi, shovinizm, sovet davri tarixshunosligi mohiyatini tushuntirish, Mustaqillik yillarida milliy-ozodlik harakatining mohiyati, xarakteri haqida tarixiy adabiyotlar, tarixunoslikda yangicha munosabatlar shakllanishi, milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasining ildizlari haqida tushuncha berish. Mustamlakachilik davrida qoraqalpoq, qozoq, qirg‘iz, tojik, turkman, afg‘on, Sharqiy Turkiston xalqlari tarixiga oid adabiyotlarning mazmuni bilan tanishtirish.

Sovet davrida O‘zbekistonda tarix fanining rivojlanishi, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy markazlarning tashkil etilishi, ko‘plab yetakchi olimlarning yetishib chiqishi, 1920–1930- yillarda siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotdagi soxtaliklar, voqealarga noxolis munosabat, zo‘rluk mafkurasining tarixni buzib ko‘rsatishga ta‘siri masalalarini tushuntirish. Talabalarni O‘zbekistonning Ikkinchi jahon urushi yillari va 50–80-yillaridagi tarixi tarixshunosligining o‘ziga xos xususiyatlari bilan tanishtirish.

O‘zbekistonning mustaqillik yillarida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada erishgan yutuqlari hamda ularning tariximizda ro‘y-rost o‘z aksini topayotganligi, yaratilayotgan tarixiy asarlar va ushbu davr tarixshunosligining o‘ziga xos xususiyatlarini tushuntirish. Talabalarda Qoraqalpog‘iston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalarida mustaqillik yillarida nashr etilgan adabiyotlarning mazmun-mohiyati, tadqiq etilgan asosiy yo‘nalishlar haqida tushuncha shakllantiriladi. Shuningdek, tarixni yoritishda xolis baho berish masalasiga oid qarashlar va yondashuvlar yoritiladi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda tarixshunoslik faniga alohida soha sifatida e‘tibor berilishi, uning yanada taraqqiy etishi yo‘lida amalga oshirilayotgan sa‘yi-harakatlar, bu borada erishilgan yutuqlar hamda kelgusidagi maqsad-vazifalar va rejalar to‘g‘risida talabalarga tushunchalar berish.

Tayanch so‘z va iboralar: qo‘lyozma asarlar, A. Semyonov, “Tavorixi-guzidayi nusratnoma”, “Bahr ul-asror”, “Sharafnomayi shohiy”, B. V. Lunin, B. Ahmedov, “Tuhfat ul-Xoniy”.

Shovinizm, mustamlakachilik, imperiya, mustamlaka, sovet tarixshunosligi, 1916 yil qo‘zg‘oloni, mafkuraviy yondashuv, N. I. Veselovskiy, milliy tuyg‘u, mustaqillik davri adabiyotlari.

Sovet tuzumi, kommunistik mafkura, istiqlolchilik harakati, sovetlarga qarshi qurolli kurash tarixini davrlashtirish, “Xotira” kitobi, sotsiialistik madaniyat.

O‘zbekiston, Qoraqalpog‘iston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Afg‘oniston, mustaqillik yillari.



XVI–XIX asrlarda Markaziy Osiyo haqidagi tarixiy manbalar va ularni o‘rganishning ba’zi bir masalalari

Tarixda har qanday masalani aniq tarixiy materialsiz, manbalarsiz, chuqur va atroflicha o‘rganib bo‘lmaydi. Bu borada medievistlar (o‘rta asr tarixini o‘rganuvchi mutaxassislar) ma’lum qiyinchiliklarga duch keladilar, chunki ilmiy tadqiqot olib borish uchun zarur bo‘lgan materiallar uzoq o‘tmishda turli tillarda yozilgan qo‘lyozma asarlarning varaqlarida sochilib yotibdi, ularni bitta-bittalab terib olish, bir-birlari bilan solishtirish va shundan keyingina ilmiy xulosa chiqarish kerak bo‘ladi.

Yana shunisi xarakterliki, mavjud yozma asarlarning hammasi ham ilmiy tasnif etilgan va maxsus kataloglarda chop etilgan, deb ayta olmaymiz. Sharq qo‘lyozmalarini tadqiq etish institutining tashkil etilishi (1943 yil 3 noyabr) nafaqat qo‘lyozma va toshbosma asarlarni saqlash, balki ularni chuqur ilmiy tadqiq etish ishiga yo‘l ochib berdi. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondi nafaqat mamlakat, shu bilan birga butun dunyodagi yirik fondlardan biridir. Ushbu ilmgohda sharq (arab, fors va turk) tillaridagi 18 ming jildga yaqin qo‘lyozma asarlar, 18 ming jilddan ko‘proq toshbosma asarlar hamda 3500dan ziyod akt va hujjatlar saqlanmoqda. Ming yillik tarixga ega bo‘lgan qo‘lyozma asarlar, shubhasiz, Markaziy Osiyo xalqlarining aql-zakovatini o‘zida aks ettirgan noyob durdonalardir.

XVI–XVIII asrлардаги тарихий асарлар

**Абдуллоҳ ибн
Насруллоҳийнинг “Зубдат
ул-таворих”**

**Фазлуллоҳ ибн Рузбехонинг
“Меҳмонномаи Бухоро”**

**Номаълум муаллифнинг
“Тарихи гузидаи
Нусратнома”**

**Масъуд ибн Усмон
Кўхистонийнинг «Тарихи
Абулхайрхоний»**

Хофиз Таниш Бухорийнинг “Шарафномаи Шоҳий”	Муҳаммадиёр ибн Араб Қатоғоннинг “Мусаххир ал- билад”
Маҳмуд ибн Валининг “Бахрул-асрор”	Абулғози Баҳодирхонхонинг “Шажараи турк”
Хўжақулибек Балхийнинг “Тарихий Қипчоқхоний”	Муҳаммад Ёқубнинг “Гулшан ул-мулк”
Мулла Шариф ва Мулла Ибодуллоҳнинг “Тарихи амир Хайдар”	ва бошқа асарлар диққатга сазвордир.

ademiya si otgan
qo‘lyozma kitoblarni ilmiy tavsiflash ishlari 1944 yildan boshlangan edi. 1952 yildan “O‘zSSR FA Sharq qo‘lyozmalari katalogi” nashr etib kelindi. Dastlab ushbu ezgu ish boshida sharqshunos olim A. A. Semyonov turgan edi. Mazkur davrda 9000 ga yaqin qo‘lyozma asar ilmiy tavsif etilib, 7574 ta asar haqida ma’lumotlar jamlangan 11 ta jild nashr etildi.

Markaziy Osiyo xalqlarining XVI–XIX asrlar va Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilishi tarixi nisbatan kam o‘rganilgan bo‘lib, ushbu davr manbalarini o‘rganish, tadqiq etish va kataloglashtirish ishini A. A. Semyonov boshlagan edi. Taxminan 10 yil ichida XVII–XVIII asrlarga oid bir qancha qo‘lyozma asarlar, chunonchi, “Tarixi Muqimxoniy”, “Ubaydullonoma”, va “Tarixi Abulfayzxon” asarlari olim tomonidan zarur izohlar bilan rus tilida nashr etildi. A. Semyonov tomonidan “Tarixi Amir Haydar” asari ham tarjima qilingan edi, ammo ushbu asar nashr etilmay qolgan.

“Tarixi Muqimxoniy”da Markaziy Osiyoning XVII asrdagi tarixi bayon etilgan bo‘lsa, “Ubaydullonoma”da Subhonqulixonning o‘g‘li va taxt vorisi Ubaydullaxon (1702–1711) hukmronligi davridagi siyosiy hayot tarixi bayon etiladi. “Tarixi Abulfayzxon” asarida esa Buxoroda Ashtarxoniylar sulolasining so‘nggi namoyondalaridan Abulfayzxonning oxirgi 14 yilgi hukmronligi davridagi siyosiy tarixi mukammal bayon etiladi. A. Semyonov umrining oxirida yana bir muhim asar – “Tuhfat ul-Xoniy”ning tarjimasiga kirishgan edi. Ammo, bu ish ham oxirigacha yetmay, to‘xtab qolgan edi.

Buxoroning XVI–XVIII asrlardagi tarixi, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini o‘rganishda Ubaydullaxo‘ja ibn Orif Xoja Buxoriyning “Kitob dar taxqiq aroxiy ushriya va xirojjiya” asari qimmatli manba bo‘lib hisoblanadi. Ushbu asarni A. Juvanmardiev o‘zbek tiliga tarjima qilgan, biroq ushbu asar ham nashr etilmay qolgan.

Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” asari XVI asr Buxoro tarixiga oid muhim manba hisoblanadi. Mazkur asar qo‘lyozmasining qimmatli nusxasi O‘zbekiston FA Sharqshunoslik institutida saqlanmoqda. Sharqshunos A. Mirzaevning fikricha, Binoiy (uning to‘liq ismi Ali ibn al-Muhammad al-Hiraviy) 857 (1453) yilda tug‘ilgan. Binoiyning zamondoshlari Navoiy, Bobur, Xondamir va boshqalar uning iste’dodi xususida juda yaxshi fikrlar bildirgan edi.

Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” asari ko‘plab olimlar, shu jumladan, Ye. G. Braun, K. G. Zaleman, A. N. Samoylovich, M. A. Sale, A. A. Semyonov, A. N. Bordirev, R. G. Muqminova, A. M. Mirzaev, S. K. Ibrohimov, B. A. Ahmedov va boshqalarning tadqiqotlarida keng foydalanilgan.

Muhammad Solihning she‘riy solnomasi (taxminan 911 hijriy, 1505 milodiy) yillarda yozilgan bo‘lib, Kamoliddin Binoiyning asariga mos keladi. Muhammad Soliq 1501 yildan to umrining oxirigacha Shayboniylarga xizmat qilgan va 941 (1534–1535) yilda Buxoroda vafot etgan. B. A. Ahmedovning yozishicha, Binoiyning “Shayboniynoma”siga nisbatan Muhammad Solih asarida quyidagi farqlar mavjud:

1. XX–XXIII boblar Qorako‘l, Qarshi va G‘uzordagi Shayboniyxonga qarshi qo‘zg‘olonlarga bag‘ishlangan.

2. Shayboniylarning Shohruxiya, O‘ratepa, Farg‘ona, Buxoro, Termiz va boshqa joylarga yurishlari aks etgan.

3. Shayboniylarning 1503–1505- yillardagi Xorazmga yurishlari yoritilgan.

4. Ushbu asardan ko‘chmanchi o‘zbek feodallari va lashkarlarining Markaziy Osiyoda qilgan beboshliklari, shuningdek, Shayboniylar tomonidan bosib olingan hududlardagi aholining og‘ir ahvoli haqidagi muhim ma‘lumotlar o‘rin olgan.

Muhammad Solihning “Shayboniynoma” asari kam nusxada saqlangan. Uning ikki nusxasi Vena kutubxonasi hamda LDD ilmiy kutubxonasining Sharq bo‘limida saqlanadi. Mazkur qo‘lyozmalarga asoslangan ikki nashri venger olimi X. Vamberining 1885 yildagi, P. M. Melioranskiyning 1908 yildagi nashrlari ham mavjud. “Shayboniynoma” shoir va filolog Nasrullo Davron tomonidan 1961 yilda o‘zbek tilida nashr etilgan.

O‘rta Osiyo, Qozog‘iston va qo‘shni mamlakatlarning XVI asrdagi tarixi bo‘yicha asosiy manbalardan yana biri “Sharafnomai Shohiy”dir. Asar Shayboniy Abdullaxon II ning topshirig‘i bilan 1584–1590 yillar orasida yozilgan. Muallif, zamon taqozosiga ko‘ra, asarda ma‘lum darajada hukmron tabaqaning maqsad va manfaatlarini ifoda qilishga harakat qilgan – xon va uning atrofidagi amaldorlarni boylar va no‘yonlarni ko‘klarga ko‘tarib maqtagan, mehnatkash xalqning ahvoli esa e‘tibordan chetda qolgan. Lekin, ushbu asar faktik materiallarga boy, voqealar ozmi-ko‘pmi ob‘ektiv yoritilgan, ayrim o‘rinlarda xonlar, sultonlar va amirlarning ba‘zi xislatlari hamda xarakteri ham ochib berilgan.

Xullas, “Sharafnomai Shohiy” yirik asar bo‘lib, uni tarixiy ahamiyati jihatidan Juvayniyning “Tarixi jahonkushoy” va Rashiddidinning “Jome‘ at-tavorix” asarlari

qatoriga qo'shsa arziydi. Ushbu asar haqida V. V. Velyaminov va akademik V. V. Bartoldlarning shogirdi L. A. Zinin, S. Mirzaev, M. A. Salohiddinov, N. Sayfiev, ingliz olimlari G. Yette va Ch. A. Storilar o'z fikrlarini bildirganlar.

Hofiz Tanish Buxoriyning ushbu asarida Movarounnahr va uning hududlari, shuningdek, janubiy Turkistonda XVI asrda istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qabilalari: *jaloir, nayman, qarluq, qipchoq, qatag'on, o'tarchi, beshyuz, shaqqoqi, qulon-oyoni, keront olchin, ming, bahrin, uyg'ur, qang'li, qo'ng'iroq, do'rmon, qo'shchi, mojoy, uyshun, chashmu, abru, bo'lachi, arg'im, yobu, kenagas, mang'it, tubai, nukuz, qiyot, boshqird* kabilar haqida ham muhim ma'lumotlar keltiriladi. "Sharafnomai Shohiy" tarixiy asar bo'lishi bilan birga, XV–XVI asrlarga xos badiiy asar hamdir.

XVI–XIX asr oxirlarida qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik, afg'on, Sharqiy Turkiston, Tibet xalqlari tarixiga oid asarlar

Qoraqalpoq xalqi tarixi tarixshunosligi. Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti masalasida XIX asr 80-yillaridan buyon qator tadqiqotchilar tomonidan turli xil fikrlar bildirilgan. Qoraqalpoq xalqining XVI–XIX asrlardagi tarixini bayon etar ekanmiz, XVI asrning ikkinchi yarmida No'g'ay xonligi uch qismga: "Olti ul" o'rdasi, Kichik o'rda va Katta o'rdaga bo'linib ketganligiga e'tibor qaratish kerak.

Ma'lumki, XVI asrning boshlarida no'g'aylar Volga va Yoyiq daryolari bo'ylariga bostirib kelgan jung'or (qalmoq)lar tomonidan tor-mor etilgan edi. Yaylovlaridan ajralgan no'g'aylar g'arbga, ya'ni Qrim tomonga ko'chib ketishga majbur bo'ladi. No'g'aylarning "Olti ul" ulusi tarkibiga kiruvchi qoraqalpoqlar esa Orol va Sirdaryo bo'ylariga kelib o'rtnashadi. Ushbu davrda qoraqalpoqlar goh Buxoro xonligi, goh Qozoq xonligiga tobe bo'lgan edi. Xususan, Muhammad Solih (taxminan 1455–1535 yillar)ning "Shayboniynoma" tarixiy dostoni ushbu davrni yorituvchi manbalardan biri bo'lib, unda Muhammad Shayboniyxonning hayoti va olib borgan urushlari haqida she'riy uslubda hikoya qilinadi.

Asarda qahramonning tug'ilganidan boshlab to 1505 yilgacha Dashti Qipchoq, Movarounnahr hamda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixidan baxs yuritiladi. Dostonda qo'shinlarning yovuzliklari, oddiy xalqning og'ir ahvoli, Qorako'l, Qarshi va G'uzorda Shayboniylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olonlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchraydi. Asarda qoraqalpoq yurtining geografik va etnografik ma'lumotlari ham atroflicha yoritiladi. "Shayboniynoma" asari 1505 yildan keyin yozilgan. Uning ikkita nodir qo'lyozmalari saqlanib qolgan bo'lib, ulardan biri Venada, ikkinchisi esa Sankt-Peterburg universiteti kutubxonasida saqlanadi. 1885 va 1908 yillarda kitobning to'liq matni va 1961–1980 yillarda kirill alifbosidagi tabdili chop etilgan.

Ushbu asarlar sirasiga Abulg'oz Bahodirxonning "Shajarayi turk va mo'g'ul" asarlarini ham kiritish mumkin. Asar 1664 yilda yozilgan, qisqacha muqaddima va 9 ta bobdan iborat. Muqaddimada asosan asarning yozilishi sabablari haqida gap boradi.

Asarning V bobi mavzuimizga taalluqli bo‘lib, Chig‘atoyxon va uning Movarounnahrda hukmronlik qilgan vorislari, VI bobda elxoniyalar, ya‘ni Eronda hukmronlik qilgan Chingiz avlodi, VII bobda Jo‘chixon va uning Dashti qipchoqda podshohlik qilgan avlodi, VIII bobda Shayboniyxon va uning Movarounnahr, Sibir va Qrimda hukmronlik qilgan farzandlari va nihoyat, IX bobda esa Shayboniyxonning 1511 yildan Xorazmda podshohlik qilgan avlodi bilan bog‘liq voqealar bayon etilgan.

Asarning I–VIII boblari umumlashtiruvchi xarakterga ega bo‘lib, Rashiduddin “Jome at-tavorix”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, shuningdek, yana 18 ta tarixiy asarlar asosida yaratilgan. Kitobning IX bobida Xorazmning 1512–1663 yillar oralig‘idagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng va atroflicha bayon qilinadi. Bundan tashqari, asarda Abulg‘oziy Bahodirxon zamonida obod bo‘lgan Urganch, Vazir, Tirsak, Yangi shahar, Buldumsoz, Bag‘dod, Kot, Durun, Qumkent, Mizdahkan, Dorug‘an ota, Boqirg‘on, Xos minora, Ism Mahmud Ota, Chilik kabi shaharlar, Amudaryo va daryo o‘zanining o‘zgarishi, xivalik turkmanlarning og‘ir ahvoli, XVI–XVII asrlarda Xiva xonligi bilan Buxoro o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar haqida ham qimmatli ma‘lumotlar uchraydi.

Abulg‘oziy Bahodirxon va uning “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” asari tez orada ilmiy jamoatchilikning diqqat-e‘tiborini qozondi. U XVIII asrdayoq nemis va fransuz (1726 y.), rus (1770 y.), ingliz (1780 y.) tillariga tarjima qilindi. O‘tgan asrda ushbu asar nemis (G. Ya. Ker), rus (Ya. O. Yarstev va G. S. Sablukov), fransuz (P. I. Demezson), turk (Ahmad Vefiq poshsho) tillariga tarjima qilindi. Asar 1897–1913- yillarda yana turk (tarjimon Rizo Nur) va 1935 yilda fors tillariga tarjima qilindi. Asarning G. S. Sablukov (1906 y) va P. I. Demezson (1871–1874 yy) tomonidan amalga oshirilgan nashrlari mukammal bo‘lib, muhim ilmiy qimmatga ega.

Abulg‘oziy Bahodirxon asarining xorijiy tillariga tarjima qilinishi va dunyo bo‘ylab tarqalishi borasida uni “Temur tuzuklari” va Zahiriddin Muhammad Boburning “Vaqoe” asari bilan qiyoslash mumkin. Ular turkiy tildagi tarixiy asarlarning juda katta ilmiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Mustaqillikdan so‘ng asar 1992 yilda “Cho‘lpon” nashriyotida qayta nashrdan chiqdi. Unga A‘zam O‘ktam muharrirlik qilib, B.Ahmedov tarixshunos sifatida o‘z fikr va mulohazalarini bildirgan edi.

Qoraqalpoqlarning ushbu davrdagi tarixini yoritishda dostonlar ham muhim ahamiyatga ega. Qoraqalpoq folklorining asosiy janri dostonlar bo‘lib, ular 4 ta tur (qahramonlik, lirik, ijtimoiy-maishiy va tarixiy)ga bo‘linadi. Ulardan eng keng tarqalgani “Alpamis” dostoni bo‘lib, “Edige’y”, “Qublon” va “Qirq qiz” dostonlari ham xalq orasida mashhur.

Qoraqalpoq tarixshunosligida adabiyotning ham muhim o‘rni bo‘lib, mumtoz adabiyotning yirik namoyondasi, shoir Jeyin Jirov (1730–1784)ning faoliyati alohida ahamiyatga ega. U o‘zining “Ulug‘ tog‘” va “Po‘sgan el” dostonlarida qoraqalpoqlarning Xorazmga ko‘chib kelish tarixini yozgan. Shoirning yana bir asari – “Xush bo‘ling, do‘stlar” she‘ri qoraqalpoqlarning Turkistondan ko‘chib kelishiga bag‘ishlangan. Boshqa

bir qoraqalpoq shoiri –Kunxo‘janing she‘rlarida o‘zi yashagan davrdagi xalq hayoti tasvirlangan.

“Firdavs ul-iqbol” (“Jannat bog‘i”) nomli Xorazm tarixi bo‘yicha yaratilgan shoh asarning ijodkorlari XVIII asrning so‘nggi choragi – XIX asrda o‘tgan yirik shoir, tarjimon va tarixnavis Sher Muhammad ibn Avazbiy Munis (1778–1829 yillar) va uning jiyani Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy (1809–1847 yillar)dir. Munis Xorazmning qadimda yirik shahar bo‘lgan Kat qishlog‘ida dunyoga kelgan, Xiva madrasalarida tahsil ko‘rgan, 1800 yildan boshlab xon saroyida sarkotib bo‘lib xizmat qilgan. U 1829 yilda 51 yoshida vafot etgan. Munis turli fanlar, xususan, adabiyot va tarixdan keng xabardor bo‘lgan yetuk olim va iste‘dodli shoir sifatida tarixda qoldi. U 1806 yilda Eltuzarxon (1804–1806 yillar)ning topshirig‘i bilan “Firdavs ul-iqbol” asarini yoza boshlaydi. Lekin, asar ayrim sabablarga ko‘ra, tugallanmay qolgan. Munis ajoyib xattot sifatida “Savodi ta‘lim” nomli maxsus risola yozgan. U iste‘dodli tarjimon ham bo‘lib, Muhammad Mirxondning “Ravzat us-safo” asarining birinchi jildini o‘zbek tiliga o‘g‘irgan edi.

Ogahiy ham asli Kat qishlog‘ida tug‘ilgan bo‘lib, Munisning jiyani va uning qo‘lida tarbiya topgan edi. Yaxshi o‘qib, turli fanlar, xususan, tarix va adabiyotni chuqur egallagan. Munisning vafoti (1829 y.)dan keyin saroyini tark etib, ota kasbi – miroblik bilan kun kechirgan. U 1874 yilda vafot etgan.

Ogahiy ham iste‘dodli shoir, yirik tarixnavis olim va mohir tarjimon sifatida shuhrat topdi. U tog‘asi Munisning qalamiga mansub “Firdavs ul-iqbol” asarini oxiriga yetkazdi. Bundan tashqari, “Riyozi ud-davla” (“Davlatning jannat bog‘i”), “Zubdat ut-tavorix” (“Tarixlar sarasi”), “Jome‘ ul-voqeoti sultoniyy” (“Culton voqealarining majmuasi”) va “Gulshan ud-davlat” (“Davlat gulshani”) kabi tarixga oid asarlarni ham yozgan.

Shuningdek, Ogahiy zabardast tarjimon sifatida 19 ta asarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan bo‘lib, ularning ichida Muhammad Mirxondning “Ravzat us-safo”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Nizomuddin Ahmad Hiraviyning “Tabaqoti Akbariy” kabi ulkan tarixiy asarlar ham bor.

Munis va Ogahiyning tarix sohasidagi eng katta ilmiy ishi “Firdavs ul-iqbol” asarining yaratilishi edi. Kitobda Xorazmning qadim zamonlardan to Qo‘ng‘irot sulolasidan chiqqan Olloqulixon (1825–1842 yy.) zamonigacha bo‘lgan tarixidan bahs yuritiladi. “Firdavs ul-iqbol” asari muqaddima va beshta bobdan iborat bo‘lib, 1806–1840- yillarda yozib tamomlangan. Asar muqaddimasida Eltuzarxon nomiga hamdu sano o‘qiladi, Munisning xon xizmatiga kirish sabablari bayon qilinadi va asar mundarijasi keltiriladi. Uchinchi bobda Bo‘rtajon va Chingizxon tarixi, mo‘g‘ullar imperiyasining Chingizxon zamonidan to Oltin O‘rda xoni Berdibek (1357–1361 yy.) davrigacha bo‘lgan tarixi bayon etilgan. To‘rtinchi bobda Xorazmning Shayboniylar davri (1511–1804 yillar)dagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilingan bo‘lsa, beshinchi bob Xiva xonligining 1804–1825- yillar oralig‘idagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o‘z ichiga oladi.

Munis va Ogahiyning mazkur asarining asosiy ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qariyb 300 yillik (1511–1825- yillar) tarixi yaxlit, xronologik tartibda bayon etilgan. Asar turli mavzudagi daliliy ma'lumotlarga nihoyatda boy. Kitobda Xorazm (Xiva xonligi)da istiqomat qilgan turkman, qoraqalpoq va qozoq xalqlari hamda ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, yer egaligi, soliq va jarimalar – xiroj, zakot, peshkash, tansuqot va hokazolar bayon qilingan.

Asarda shuningdek, o'n to'rt urug'ning tarqatib yuborilishi, 1714, 1722–1723, 1768 yillardagi ocharchilik va qahatchilik, Xorazm shaharlari – Urganch, Kat, Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Gandumkon, Hazorasp va Shahobodlarning umumiy ahvoli, turkman va o'zbeklarning etnik tarkibi, Xiva xonligining boshqa mamlakatlar, xususan, Eron, Buxoro xonligi hamda Rossiya bilan bo'lgan iqtisodiy va siyosiy munosabatlari xususida qimmatli ma'lumotlarni uchratish mumkin. "Firdavs ul-iqbol" asari tarixchilar tomonidan kam o'rganilgan bo'lib, uning qo'lyozma nusxalari O'zbekiston, Rossiya va boshqa mamlakatlar kutubxonalarida saqlanadi. Mustaqillik yillarida Sh. Vohidov muharrirligida ushbu asar o'zbek tiliga ham tarjima qilindi.

"Fathnoma" nomli tarixiy mavzudagi she'riy doston muallifi Mulla Shodiydir. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyotiga oid ma'lumotlar juda kam. Shayboniyxonning inisi Mahmud Sulton xizmatida bo'lganligi va uning topshirig'i bilan o'zining "Fathnoma" dostonini yozganligi, uni 1502 yilda tugatgan bo'lib, ayni shu davrda 55 yoshda bo'lganligi ma'lum, xolos.

"Fathnoma" tarixiy doston janrida yozilgan bo'lib, unda Shayboniyxon tug'ilgan payt (1451 yil)dan to Dashti Qipchoq o'zbeklari tomonidan Samarqandning istilo etilishi, so'nggi marta 1501 yilgacha bo'lgan asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar keng yoritilgan. Asarda Xorazm va uning Urganch, Vazir hamda Adoq singari shaharlari, Dashti Qipchoq aholisi, xususan, mang'itlarning turmush tarzi, shuningdek, Shayboniyxon askarlarining Turkiston, Andijon, Buxoro, Dabusiya va Qarshi viloyatlarini ishg'ol qilganliklari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Rossiya va MDHning boshqa mamlakatlarida "Fathnoma" dostonining beshta qo'lyozmasi mavjud. Bulardan ikkitasi Sankt-Peterburg davlat universiteti kutubxonasi, ikkitasi Dushanbe va bittasi O'zRFA Sharqshunoslik instituti (Inv.№5369)da saqlanadi. Toshkentdagi qo'lyozma juda ham noyob bo'lib, XVI asrda ko'chirilgan va unda turli mavzudagi 9 ta ajoyib miniatyura bilan bezatilgan.

Yurtimizning XV–XVI asrlardagi tarixini o'rganishda muhim qo'llanmalardan biri "Musaxxir al-bilod" ("Mamlakatlarni bo'ysundiruvchi") nomli asar bo'lib, uning muallifi Muhammadyor ibn Arab Qatag'ondir. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. Muallifning yozishicha, u XVI asrning ikkinchi yarmi – XVII asr boshlarida yashab o'tgan, Shayboniy Abdullaxon soniy va Ashtarxoniylardan Boqi Muhammadxon (1601–1605 yy)ning xizmatida bo'lgan.

K. G. Zaleman (1849–1916) "Musaxxir ul-bilod"ni Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy" asarini qisqartirilgan nusxasi, deb qayd etgan bo'lsa, ingliz

sharqshunosi Ch. A. Stori hamda “Cobranie vostochnyx rukopisey AN UzCCR” katalogini tuzuvchilari asarni “Tarixi Shayboniy” deb atagan. Sankt-Peterburglik olimi M. A. Salohitdinova “Musaxxir ul-bilod”ning mustaqil asar ekanligini aniqladi va asar hamda uning muallifi haqida qisqa ilmiy axborot e’lon qildi.

“Musaxxir ul-bilod” Shayboniylar sulolasini Abulxayrxondan boshlangan shajarasining bayoni bo’lib, 1610 yillar atrofida yozilgan. “Musaxxir ul-bilod” kam o’rganilgan, uning qo’lyozma nusxalari ham kam. Hozirgacha ushbu asarning faqat ikki qo’lyozma nusxasi ma’lum bo’lib, uning bitta nusxasi O’zRFA Sharqshunoslik instituti (Inv. №1505)da, ikkinchisi esa Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo’limida (Inv. № S.465) saqlanmoqda. Afsuski, ikkala nusxa ham to’liq emas. Dastlabki nusxada muqaddima va birinchi bobning katta qismi yetishmaydi, ikkinchi nusxaning esa eng kerakli, ya’ni V–VI mavjud emas.

Asarning I–IV boblarida XVI asr tarixiga oid manbalar, xususan, “Sharafnomayi shohiy”dek yirik asarlarni ham ma’lum darajada to’ldiruvchi va ularda bayon etilgan voqealarga aniqlik kirituvchi qimmatli ma’lumotlar ko’p. Shayboniyxon tomonidan 1507 yilda o’tkazilgan pul islohoti, Shayboniylar o’rtasida yuzaga kelgan kelishmovchiliklar va o’zaro nizolar, ularning sabablari, Shayboniylar bilan qozoq xonlari o’rtasidagi siyosiy munosabatlar, o’sha paytda Sirdaryo bo’ylarida yashagan qoraqalpoqlar, ularning XVI asrning oxiri – XVII asr boshlaridagi ahvoli, Toshkent, Turkiston, Sayram, Andijon va Axsiket kabi shaharlarning XVI asrning so’nggi choragidagi ijtimoiy-siyosiy hayoti haqidagi ma’lumotlar shular jumlasidandir.

Qoraqalpoqlar tarixini o’rganishda Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” (“Podshohlarga qo’llanma”) asari muhim qimmatga ega. Asar Buxoro xonligining XVII asrning 70–90- yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Buxoro bilan Xiva xonliklari o’rtasidagi siyosiy munosabatlarni o’rganishda katta ahamiyatga ega. Asarda o’zaro kurashlar, oliy martabali mansabdorlar o’rtasidagi poraxo’rlik, zulm va oddiy xalqning turmushi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Xoja Samandar Termiziyning asl ismi Muhammad Baqoxoja bo’lib, Nasaf (Qarshi) shahrida Mir Haydariy tariqati shayxlaridan biri oilasida dunyoga kelgan. Xoja Samandar Termiziy o’z davrining chuqur ma’lumotli kishilaridan biri bo’lgan. O’sha vaqtlarda yozilgan bir qator asarlar, jumladan, “Muzakkiri ahhob” va “Muhit at-tavorix”da keltirilgan ma’lumotlarga qaraganda, u yetuk shoir, yozuvchi va tarixchi olim bo’lgan, ilohiyot ilmini ham yaxshi bilgan, ko’p sayohat qilib, nazariy bilimlarini mustahkamlagan.

Hozirgi kungacha olimning ikkita asari yetib kelgan. Bulardan biri “Dastur ul-muluk” bo’lib, u 1695 yilda yozilgan bo’lsa, ikkinchisi “Anis ul-fuqaro” (“Faqirlar do’shti”) nomi bilan mashhur va u 1735 yilda yaratilgan. “Dastur ul-muluk”da qoraqalpoqlarning etnik tarkibi haqida ham muhim dalil va ma’lumotlar uchraydi.

Xiva xonligi davri tarixshunosligi shu kunga qadar maxsus tadqiqot ob’ekti sifatida alohida o’rganilmagan bo’lsa-da, ko’rib o’tilganidek, mahalliy tarixchilardan

Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix”, “Shohidi iqbol”, Muhammad Yusuf Bayoniyning “Shajarayi Xorazmshohiy”, “Xorazm tarixi” va Sayyid Homid To'ra Kamyobning “Tavorix ul-havoqin” kabi asarlari muammoga oid birlamchi manbalar sirasiga kiradi. Ular mualliflarning shaxsiy kuzatuvlari va guvohliklari asosida yozilganligi bilan qimmatlidir.

Sovet davrida ushbu yo'nalishdagi dastlabki tadqiqotlar P. P. Ivanov va M. Y. Yo'ldoshevga tegishli bo'lib, tadqiqotchilar Xiva xonlari arxivi hujjatlaridagi ma'lumotlarni o'rganganlar va nashr etganlar. Ushbu tadqiqotlarning so'zboshisida tarixshunoslik tahlili berilgan bo'lib, asarga hujjatlar, ularga berilgan izohlar va ko'rsatkichlar ham kiritilgan. B. V. Lunin rus sharqshunosligida O'rta Osiyo xonliklari tarixining o'rganilishi va rossiyalik tadqiqotchilar olib borgan izlanishlar natijalarini tahlil qilgan.

XX asrning 70- yillariga kelib, Xiva xonligining XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr 20- yillaridagi ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga oid masalalar umumlashma tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlarda o'z aksini topgan. Xususan, “Qadimgi Xorazm” deb nomlangan monografiyaning kirish qismida mavzu tarixshunosligining umumiy sharhi, shu jumladan, Xiva xonligining qo'ng'irotlar sulolasi davri ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining o'rganilish darajasi berilgan.

Shunga ko'ra, sovet tarixshunosligida Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olish masalasi XX asrning 20–30- yillarida “mutlaq jaholat”, 30–40- yillarda “qisman jaholat”, 1950- yillarning boshlarida “Rossiyaga qo'shib olinishi progressiv fakt bo'lgan edi”, deb talqin qilingan. Ushbu muammo bilan shug'ullangan olimlar “bosib olish” atamasini rad etgan holda, “o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shib olinishi” atamasini qo'llay boshlaganlar.

XX asrning 60–80- yillarining birinchi yarmiga kelib, tadqiqotlarning muammoviy doirasi kengaygan va Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotining ko'pgina masalalarini o'rganish kabi vazifalar qo'yilgan hamda ular bir qator tadqiqotlarda hal qilingan. 1980- yillarning ikkinchi yarmidan boshlab “ko'rsatma bilan ishlash” o'rniga tarixiylik tamoyilining tiklana borishi bilan, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni bosib olishi masalasi, davlatchilik tarixi, mustamlaka va sovet hokimiyati boshqaruv tizimi mohiyatini aniqlash kabi masalalarni o'rganishga e'tibor kuchaydi.

Umuman, sovet tarixshunosligida Rossiya imperiyasining Xiva xonligini bosib olishining bunday tarzda tahlil qilinishi “ma'naviy qolip”dan kelib chiqqan xususiyatlarga xos bo'lgan. Sobiq sovet tarixshunosligida Xiva xonligining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarining o'rganilishi bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, bu davrda qo'lyozma manbalarni o'rganish sohasidagi tadqiqotlar ozchilikni tashkil qilsa-da, arxiv hujjatlarini o'rganish, arxeologik va etnografik tadqiqotlar olib borish sohasida keng faoliyat yuritilgan.

Xiva tarixi manbalarini o'rganishda xorijlik sharqshunos Yu. Ye. Bregel tadqiqotlari muhim o'rin egallaydi. Tadqiqotchi Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarining

tanqidiy matnini nashr qildirgan. Asarning So‘zboshi qismida mavzu tarixshunosligi berilgan bo‘lib, muallif asarning qay darajada o‘rganilganligiga asosiy e‘tiborini qaratgan. Ushbu asarning ingliz tiliga tarjima qilinishi xorijiy tadqiqotchilarning ham undan foydalanishiga imkon yaratdi. Jumladan, ingliz tarixshunosligida Xiva xonligiga oid ma‘lumotlar hajmi kengayib, asarlar soni ko‘paydi.

Ushbu davrda faoliyat ko‘rsatgan M. Xoldsvort, Uiler, Allvortx, Rambaud, Krauset va boshqa tadqiqotchilar Xiva xonligi tarixi masalalariga ham o‘zlarining munosabatlarini bildirgan. Xorij tarixshunosligida Xiva xonligi masalalariga oid adabiyotlar nisbatan ozchilikni tashkil etsa-da, vaqt o‘tgan sari, ma‘lumotlar yig‘ildi va asarlar soni ortishi bilan matbuot sahifalarida chop etilgan lavhalar mazmuni ham boyib bordi.

XIX asrda yevropalik tadqiqotchilar tomonidan yozilgan asarlarning mazmuni asosan, mustamlakachilik kayfiyatida yozilgan bo‘lsa-da, ularda xonlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, davlat boshqaruvi va madaniyati kabi masalalar yoritilgan edi. XX–XXI asr boshlariga kelib, Yevropa va AQShda O‘rta Osiyo bilan maxsus shug‘ullanuvchi ilmiy tadqiqot institutlari hamda jamiyatlari ochildi. Natijada, xonlik tarixi, madaniyati, me‘moriy yodgorliklari, aholisi, xonlikda yuritilgan davlat hujjatlari, jumladan, xon yorliqlari va qozilik hujjatlari kabi masalalarni yorituvchi ko‘plab yangi nashrlar vujudga keldi. Ammo, ularda asosan, O‘rta Osiyoning umumiy tarixi berilib, xonliklarga alohida yondashuv kam uchraydi.

Mustaqillik davri tadqiqotchilari tomonidan Xiva xonligidagi ichki va tashqi savdo aloqalari, bozorlar, savdo rastalari hamda soliq tizimi haqidagi ma‘lumotlar qayd qilingan. Tadqiqotchi H. Ziyoev ichki savdo haqida yozish jarayonida XIX asrning 70-yillarida Xiva xonligining shahar va qishloqlarida haftada ikki marta bozor bo‘lishi, bundan tashqari, Xiva shahrining o‘zida 400 ta savdo do‘koni hamda karvonsaroyda 105 ta savdo rastasi mavjud bo‘lganini qayd etgan edi.

Mustaqillikdan keyin nashr qilingan bir qator to‘plamlarda Xiva xonligi tarixshunosligiga oid maqolalar mavjud. Jumladan, “O‘zbekistonda tarix fani: yutuqlar va rivojlanish muammolari” to‘plamida O. G. Pugovkina, U. A. Abdurasulov va M. U. Qayumovlar tomonidan Xiva xonligining Qo‘ng‘irotlar sulolasi tarixining tarixshunoslikdagi talqini, Rossiya tarixshunosligida Xivaga yurishning yoritilish masalalari yangicha yondashuvlar asosida yoritilgan.

Tadqiqotchi E. E. Karimovning Xiva qozilik hujjatlari va xon yorliqlari tavsifini o‘zida mujassamlashtirgan asariga doir muhim ma‘lumotlar mavjud.

Boshqa bir tadqiqotchi Q. Munirovning tadqiqotida Xiva xonligining XVIII–XX asrlar boshlaridagi tarixi, Ogahiy, Kamyob va Bayoniyning tarixiy asarlari mazmuni tahlil qilingan va ushbu asarlarning O‘rta Osiyo xalqlari tarixini o‘rganishdagi ahamiyati ko‘rsatilgan. Shuningdek, G‘. A. Ahmadjonovning tadqiqotlari mazmuni Rossiya imperiyasining Turkistondagi mustamlakachilik siyosati tarixi va tarixshunosligiga bag‘ishlangan bo‘lib, ushbu tadqiqotlar o‘rganilayotgan muammoni tahlil etishda nazariy

asos bo'la oladi. Qolaversa, Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlarga oid O. Qo'shjonov va N. Polvonovlarning hammualliflikdagi monografiyaning birinchi bobida Xiva xonligi tarixining so'nggi davri manbashunosligi va tarixshunosligi xususida so'z yuritilgan.

XIX–XX asrlar boshlaridagi Xiva xonligining tarixiga oid ma'lumotlar dissertatsion tadqiqotlardan ham keng o'rin olgan. Jumladan, O. Masalieva o'z e'tiborini Xiva xonligi tarixining XX asr xorijiy tarixshunosligida o'rganilishiga qaratgan bo'lsa, U. A. Abdurasulovning tadqiqotida Xiva xonligidagi yer-suv munosabatlari masalalarining o'rganilish darajasi ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Xiva xonligining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy ahvolining ayrim masalalariga oid asarlar hamda tadqiqotlar mavjudligiga qaramasdan, Xiva xonligining davlatchilik muammosi tarixshunoslik nuqtai nazaridan hozirga qadar yaxlit tahlil qilinmagan va ushbu tarixshunoslik yo'nalishida o'z yechimini kutayotgan muammolardan birini tashkil etadi.

O'zbekiston mustaqilligining ilk paytlaridanoq asl manbalarga tayangan holda, chuqur ilmiy tahlil, yaxlit bir konsepsiya asosida xalqning haqqoniy tarixini yaratish vazifasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Zero, tarixiy voqelikni haqqoniy va to'laqonli aks ettirishning zarur shartlaridan biri birlamchi manbalardan foydalanish va ularni ilmiy iste'molga kiritish hisoblanadi. Jumladan, Xiva xonligining qo'ng'irotlar sulolasi davri tarixini o'rganishda yozma ma'lumotlar muhim ahamiyatga ega. Qayd etish mumkinki, mustaqillik davri tadqiqotchilari tomonidan Xiva xonligi tarixining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy ahvoliga oid keng ma'lumotlar taqdim qilingan bo'lib, ularni o'rganish hamda tahlil qilish tarixshunoslar oldiga katta vazifa qo'yadi.

Muhammadrizo Ogahiyning “Zubdat ut-tavorix” asari Xiva xoni Rahimqulixon (1843–1846) saltanati voqealarini tasvirlaydi. Ushbu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismi Rahimqulixonning tug'ilishidan boshlanib, diniy, dunyoviy va harbiy ilmlarni egallashi, Hazorasp hokimi sifatidagi faoliyati hamda xonlik taxtiga chiqquniga qadar bo'lgan voqealarga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchi qismda esa xonning taxtga chiqqandan vafotigacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. Ushbu asar 2009 yilda Rashid Zohid muharrirligida nashr qilindi. Tadqiqotchi Nurboy Jabborov uni nashrga tayyorlab, asarni so'zboshi, lug'at, izoh va ko'rsatkichlar bilan ta'minlagan. Bu esa, tabdilning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Ogahiyning “Jome' ul-voqeoti sultoniy” (“Sulton voqaealarining majmuasi”) asarida 1846–1854- yillarda hukmronlik qilgan Muhammad Aminxon davri voqealari o'z aksini topgan. Bundan tashqari, asarning so'ngida Xiva xonlari Abdullaxon (1854) va Qutlug'murodxon (1855) davridagi voqealar ham yoritilgan. Xiva xoni Sayyid Muhammadxon zamoniga doir Ogahiyning “Gulshani davlat” (“Davlat gulshani”) asari esa, xonlikning 1856–1865- yillari voqealarini o'z ichiga oladi.

Ogahiydan so'ng Xorazm tarixi Muhammad Yusuf Bayoniy tomonidan davom ettirildi. Muallif “Shajarayi Xorazmshohiy” va “Xorazm tarixi” asarlarini yaratib,

tarixshunoslik fani rivojiga o‘zining munosib hissasini qo‘shdi. Bayoniyning Xiva xoni Asfandiyorxon topshirig‘iga binoan yozilgan “Shajarayi Xorazmshohiy” asari qadim zamonlardan to 1913–1914- yillargacha Xorazmda sodir bo‘lgan tarixiy voqealarni qamrab olgan. o‘zining xarakteri bilan ushbu asar Munis va Ogahiy tomonidan yozilgan tarixiy asarlarning xulosasi va davomi hisoblanadi.

Polvonniyoz Hoji Yusupov taklifiga binoan yozilgan “Xorazm tarixi” asari esa “Shajarayi Xorazmshohiy” asariga o‘xshaydi. Biroq, shuni ta’kidlash kerakki, “Shajarayi Xorazmshohiy” asari tarixiy asar bo‘lsa-da, voqealar adabiy uslubda bayon qilingan. “Xorazm tarixi” asari esa yozilish uslubi jihatidan undan farq qilib, xalqchil tilda yozilgan tarixiy asar hisoblanadi. Shuni ta’kidlash joizki, Bayoniyning asarlari xalqona tilda yozilganligi bilan xarakterlansa, Ogahiyning asarlarini o‘qish esa o‘quvchidan muayyan tayyorgarlikni talab qilib, eski o‘zbek yozuvini bilgan hamma tadqiqotchi ham bemalol o‘qiy olmaydi.

Chunki, Ogahiy arab va fors tillarida kam ishlatiladigan so‘zlarni ham faol so‘zlar qatorida bemalol qo‘llayvergan. Shu tufayli ushbu bo‘limda shu paytgacha kirill yozuviga qilingan tabdillar va ushbu mualliflarning asarlari haqida olib borilgan tadqiqotlar hamda imkon qadar mahalliy tarixchilar asarlarining qo‘lyozma nusxalaridan foydalanildi.

Shuningdek, Sayyid Homid To‘ra Kamyobdan bizga bitta she’riy devon, Xorazm tarixiga oid “Tavorix ul-havoqin”, “Muntaxab ul-voqeot” kabi tarixiy asarlari va XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Xorazmda yuz bergan tabiat o‘zgarishlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi esdaliklar yetib kelgan. Tadqiqotchilar D. Rahim va Sh. Laffasiylarning bergan guvohligiga ko‘ra, Sayyid Homid To‘ra Kamyob “To‘raxonim” nomli boshqa bir tarixiy asar ham yozgan. Ushbu asar Xiva xoni Muhammad Rahimxon II Feruzga ma’qul tushgan va undan bir necha nusxa ko‘chirilgan, lekin hozirga qadar uning asl qo‘lyozmasi topilmagan. Kamyobning ikkinchi tarixiy asari – “Muntaxab ul-voqeot” Feruz vafotidan so‘ng yakuniga yetgan. Shunday qilib, XIX–XX asrlar boshlarida yashagan va o‘z zamonasining ko‘zga ko‘ringan tarixchilari Ogahiy hamda Bayoniy tomonidan yozilgan tarixiy asarlar O‘rta Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini o‘rganishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xiva xonligi tarixshunosligi masalasi doirasida ushbu tahlilimiz qisman bo‘lsa-da, muammoni ochib berishga xizmat qiladi. Mahalliy mualliflarning tarixiy asarlari Xiva xonligi tarixini haqqoniy va ilmiy asosda o‘rganishda muhim manba hisoblanib, o‘z ahamiyatini saqlab kelmoqda. Sovet davrida arxiv hujjatlarini o‘rganish, arxeologik va etnografik tadqiqotlarni olib borish hamda qo‘lyozma manbalarni o‘rganish sohasida faoliyat olib borilgan. Keyinchalik mustaqillik davri tadqiqotchilarining ilmiy izlanishlarida Xiva xonligi tarixi va tarixshunosligi masalasi haqqoniy ochib berildi. Xonlik tarixshunosligini keng qamrovda amalga oshirish tarixshunoslar uchun muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotchi M. A. Salohitdinova 1971 yilda “Dastur ul-amal” asari yuzasidan tadqiqotlarni olib borib, uning forscha matni va zarur izohlar bilan ruscha tarjimasini nashr qildi. Mazkur asar mustaqillikdan so‘ng yana qaytadan tarixshunosligimizga tadqiq etiluvchi manba sifatida kirib keldi va uning o‘zbekcha nashri 1997 yilda Jabbor Esonov tomondan amalga oshirildi.

Mazkur asar qatorida turuvchi, yana bir qoraqalpoqlar tarixini yorituvchi manba XVIII asrda yashagan Mir Muhammad Amin Buxoriyning qalamiga mansub “Ubaydullanoma” asaridir. U o‘qimishli va fozil kishilardan bo‘lib, 1645 yilda tug‘ilgan, vafot etgan yili ma‘lum emas. Ashtarxoniylardan Subxonqulixon (1681–1702) va Ubaydullaxon (1702–1711 yy.) saroyida bosh munshiylik vazifasida xizmat qilgan. “Ubaydullanoma” asarining 10 dan ortiq qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib, asar yuzasidan sharqshunos A. A. Semyonov tadqiqot ishlari olib borgan va rus tiliga tarjima qilgan. 1957 yilda Toshkentda nashrdan chiqarilgan “Ubaydullanoma”da Buxoro xonligining 1702–1716 yillardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qilinadi. Asar 1716 yildan keyin yozilgan, muqaddima, xotima va 80 ta bobdan iborat.

Muqaddimada muallifning hol-ahvoli, ya‘ni Subxonqulixon hukmronligining so‘nggi yillarida xizmatdan chetlashtirilib, og‘ir ahvolga tushib qolganligi, Ubaydullaxon xizmatiga qabul qilinishi, Abdulazizxon va Subxonqulixon davrida Buxoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan. Asarning 1–80 boblarda Buxoro xonligining qariyb 10 yillik (1702–1711 yy.) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yoritilgan.

Muallif mazkur asarida katta yer egaligi, aholidan yig‘iladigan soliq va jarimalar, Buxoro xonligining ma‘muriy tuzilishi, tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar hamda uning ayrim sabablari kabi masalalarga keng o‘rin bergan. Asarda qoraqalpoqlarning geografik va etnografik ma‘lumotlari ham talaygina. Sharqshunos A. A. Semyonov bunday asarlar sirasiga “Tarixi kasira” yoki “Tarixi sayyid Roqim”, “Tarixi sayyid Roqim Samarqandiy” nomlari bilan mashhur bo‘lgan asarni ham kiritadi. Mazkur manbani Mulla Sharafuddin A‘lam yaratgan. U XVII asrning ikkinchi yarmi – XVIII asrning birinchi choragida yashagan shoir va tarixchi olimdir. V. R. Rozen va A. A. Semyonovlar keltirgan ma‘lumotlarga qaraganda, Mulla Sharafuddin A‘lam asli andijonlik bo‘lib, yoshlik paytida Samarqandga, otasi huzuriga kelib qolgan. Otasi – mullo Nuriddin xalq orasida oxund mulla Farhod nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Mulla Sharafuddin yoshligidan mehnatsevar va ilmga chanqoq bo‘lgan. Otasining yordami bilan yaxshi o‘qidi, turli ilmlarni egalladi va keng ma‘lumotli olim hamda shoir bo‘lib yetishdi. V. R. Rozen va A. A. Semyonovlarning tadqiqotlaridan ma‘lum bo‘lishicha, mulla Sharafuddin Samarqandning eng ma‘lumotli olimlaridan mulla Boqijon Buxoriyning xizmatida bo‘lgan, uning vafotidan keyin uning o‘rniga a‘lamlik vazifasiga o‘tirgan. Ba‘zi ma‘lumotlarga qaraganda, u qozilik mansabida ham turgan.

Olimning “Tarixi kasira” asari ham mashhur bo‘lib, unda tarixiy shaxslar va davlat arboblarning hayoti, mamlakatda bunyod etilgan katta binolar, usti yopiq bozor,

tim va hammomlar kabi inshootlar qurilishi hamda ularning sanalarga bag'ishlangan tarix-xronogrammlar majmuidan iboratdir. U Amir Temur tavalludi (1336 y.)dan to XVIII asrning o'rtalarigacha kechgan voqealarni o'z ichiga oladi.

A. A. Semyonov o'z tadqiqotlaridan kelib chiqib, Buxoro xonligi tarkibida bo'lgan qoraqalpoqlar xususida ma'lumot beruvchi yana bir manba "Tarixi Abulfayzxon" ekanligini qayd etadi. "Tarixi Abulfayzxon" asarini Ubaydullaxon (1702–1711 yy) va Abulfayzxon (1711–1747 yy.) saroyida xizmat qilgan munajjim, shoir hamda tarixchi olim Abdurahmon Davlat yozgan. Muallif ko'proq Abdurahmon Tole nomi bilan mashhur.

Mazkur asar hajm jihatdan kichik, 161 varaqdan iborat bo'lib, "Ubaydullanoma"ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711–1723- yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining iqtisodiy va siyosiy ahvoli zaiflashdi, ulus boshliqlari, ya'ni mahalliy hukmdorlarning mustaqillik uchun olib borgan harakati kuchaydi, ularning ayrimlari, masalan, Balx va Samarqand markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'yidilar. Farg'ona vodiysi XVIII asrning boshlari, aniqrog'i, 1709 yilda Ashtarxoniylar davlatidan ajralib chiqdi va o'lkada mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topdi, 1722 yilda Samarqand ham mustaqillik e'lon qildi va Rajabxon ismli kimsani xon qilib ko'tardilar (1722–1728 yillar). Mintaqada o'zaro urushlar boshlanib ketdi.

"Tarixi Abulfayzxon" asarida yuqoridagi masalalar keng yoritib berilgan. Bundan tashqari, asarda Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi va o'zbek xalqining o'sha yillardagi etnik tarkibi haqida ham ayrim diqqatga sazovor dalil hamda ma'lumotlar bor. "Tarixi Abulfayzxon"ning to'la ruscha tarjimasini, zarur izohlar bilan 1959 yilda A. A. Semyonov tomonidan Toshkentda nashr qilingan.

Qoraqalpolarning XVI–XVIII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti yoritilgan tarixiy asarlar, shuningdek, "Silsilat us-salotin"ni ham qo'shish mumkin. "Silsilat us-salotin" asarining muallifi Hoji Mir Muhammad Salimdir. Uning qo'lyozma nusxalari juda kamyob bo'lib, bir nusxasi Oksforddagi Bodli kutubxonasida 269-raqam bilan saqlanmoqda.

"Silsilat us-salotin" asari 1731 yilda yozilgan bo'lib, muqaddima va to'rt qismdan iborat. Muqaddimada asarning yozilishi haqida so'z boradi hamda muallifning 1711 yildan keyingi hayoti haqida ma'lumotlar keltiriladi. "Silsilat us-salotin"ning III–IV qismlari ahamiyatga ega bo'lib, Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekistonning XVI–XVIII asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon qilinadi.

Asarda Buxoro xonligining Eron, Hindiston va Qoshg'ar bilan bo'lgan aloqalari, xonlik hokimiyatining Shayboniylardan Ashtarxoniylar qo'liga o'tishining aniq tafsiloti, XVII asrda Balx va Badaxshon, shuningdek, Qoraqalpog'istonning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayoti to'liq aks etib, Shohjahonning Balx va Buxoro xonligi ichki ishlariga qurolli aralashuvi, Boburiylar qo'shinining Balx va unga tobe bo'lgan yerlarni

bosib olishi, Xorazmning XVI–XVII asrlardagi siyosiy ahvoli xususida boshqa manbalarda uchramaydigan qimmatli dalil va ma'lumotlar keltiriladi.

O'zbek va qoraqalpoq qavmlari, urug'lari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni haqida ma'lumot beruvchi asar "Tuhfat ul-xoniy" asaridir. "Tuhfat ul-xoniy" ("Xonning tuhfasini") yoki "Tarix Rahimxoniy", ((Muhammad) Rahimxon tarixi) asari Buxoro xonligining 1722–1782- yillardagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Ushbu asar Muhammad Vafoyi Karminagiy (1685–1769 yy.) qalamiga mansub.

"Tuhfat ul-xoniy" qofiyali nasr va saji usulida yozilgan, lekin voqealarning to'la hamda keng yoritilganligi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, geografik hamda etnik dalillarga boyligi bilan birinchi darajali manbalar qatorida turadi. Asar Buxoro xonligida XVIII asrning 20-yillaridagi iqtisodiy va siyosiy tanglik, ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikning kuchayishi hamda buning natijasida markaziy davlat boshqaruvining zaiflashuvi, mang'it hukmdorlarining uluslar va qabilalarni bo'ysundirish maqsadida olib borgan tinimsiz urushlari, buning oqibatida ko'plab shaharlar hamda qishloqlarning vayron qilinishi, xalq turmushining og'irlashib borishi va uning asosiy sabablarini aniqlashga yordam berishi mumkin bo'lgan daliliy ma'lumotlarga boy.

Asarda yana Ashtarxoniylar va Mang'itlar hukmronligi davridagi qo'shin tarkibi hamda davlat tuzilishi, 1722–1782- yillarda Buxoro xonligining Eron, Afg'oniston, Qozoq va Qo'qon xonliklari hamda Koshg'ar bilan olib borgan siyosiy munosabatlari haqidagi e'tiborga molik ma'lumotlar ham uchraydi.

"Tuhfat ul-xoniy" asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Masalan, faqat Sankt-Peterburg, O'zbekiston va Tojikiston kutubxonalarida uning 23 qo'lyozmasi mavjud. Asar biror-bir xorijiy tilga to'la tarjima qilinmagan, faqatgina uning kichik bir parchasi, ya'ni Muhammad Rahimxonning 1747 yilda Saraxs atrofida Eron qo'shinlari bilan to'qnashuvi voqealari rus tilida 1938 yilda e'lon qilingan, xolos.

XX asrning 50- yillarida A. A. Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, qaysidir sabablarga ko'ra, nashr etilmay qolgan va tarjima qo'lyozma yozma sifatida O'zRFA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan manbalardan biri bu – "Tarixi Amir Haydar" asaridir. Mazkur asar XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asrning birinchi yarmida yashagan buxorolik olimlarning ijodi mahsulidir. Kitobning noma'lum muharrir tomonidan qisqartirilgan nusxasi yetib kelgan bo'lib, qo'lyozma O'zRFA Sharqshunoslik institutida 1836- raqami ostida saqlanmoqda.

"Tarixi Amir Haydar" kichik hajmdagi asar, jami 96 varaqdan iborat, muhim tarixiy manbalar asosida yozilgan, Buxoro xonligining Ashtarxoniylar, shuningdek, asosan, Mang'itlar sulolasidan bo'lgan amir Haydar hukmronligi (1800–1826 yy.) davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixni o'z ichiga oladi. Asar 81 ta bobdan iborat. Uning 1–2 boblari Buxoro shahri tarixiga bag'ishlangan bo'lsa, 3–6 boblarida Ashtarxoniylar tarixi qisqacha bayon qilingan, 7–81 boblarida esa Buxoro amirligi amirzoda Haydarning tug'ilishidan to uning vafotigacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi. Asar O. D. Chexovich tomonidan rus tiliga tarjima qilingan.

Asarning tarjima qo‘lyozmasi O‘zRFA Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanayotgan, qoraqalpoqlarning Buxoro amirligida tutgan o‘rni xususida ma‘lumot beruvchi yana bir kitob “Fathnomayi sultoniyy” (“Sulton fathnomasi”)dir. Asar muallifi Mir Olim Buxoriy Amir Nasrulloh davri (1826–1860 yy.)da G‘uzor hokimi bo‘lgan Muhammad Olimbekning xizmatida bo‘lgan va kitobni uning topshirig‘i bilan yozgan.

“Fathnomayi sultoniyy” Amir Shohmurod (1785–1800 yy.) davridan to Amir Nasrulloxon hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida sodir bo‘lgan voqealarni o‘z ichiga oladi. Lekin, unda Shohmurod va Amir Haydar davrlari qisqacha, Nasrulloxon davri esa batafsil yoritilgan. Mazkur qo‘lyozma asarning birinchi jildi bo‘lib, ikkinchisi bizga ma‘lum bo‘lmagan sabablarga ko‘ra yozilmay qolgan.

Qoraqalpoqlarning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda Amir Doniyolning so‘nggi asari katta ilmiy ahamiyatga ega. “Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad” (“Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai ahvoli. Amir Doniyoldan to amir Abdulahadgacha”) asarining muallifi Ahmad Donish (“Ahmad Kalla” nomi bilan mashhur bo‘lgan), XIX asrning ko‘zga ko‘ringan mutafakkir shoiri, adib, olim va diplomatdir. U 1827 yilda Buxoroda tug‘ilgan. 1885 yilda amir Muzaffar vafotidan keyin u Buxoroga qaytib keldi va umrining qolgan qismini ilmiy faoliyat bilan kechirdi. Ahmad Donish 1897 yilda vafot etdi. U sermahsul ijodkor bo‘lib, ilohiyot, ilmi nujum, geografiya, adabiyot va tarixga oid 20 ga yaqin asar yozib qoldirdi. “Manozir ul-kavokib” (“Sayyoralarning manzaralari”), “Navodir ul-vaqoe” va “Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif” (1885 yildan keyin yozilgan) asarlari shular jumlasidandir.

Qoraqalpoqlarning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o‘rganishda “Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif” asari ham muhim manbadir. Uning qo‘lyozma nusxalari Toshkent, Samarqand, Buxoro va Dushanbe kutubxonalarida saqlanadi. Asarning matnini A. Mirzoev tadqiq etib, chop qilgan. 1960 yilda kitobning qisqartirilgan ruscha tarjimasi Dushanbeda nashr qilingan.

Qoraqalpoqlar tarixining turli jihatlarini o‘rganishda badiiy asarlar ham muhim ahamiyatga ega. Xususan, Ajiniyazning ijodi XIX asrda ijod qilgan qoraqalpoq shoirlari orasida yetakchi o‘rinni egallaydi. Uning asarlari alohida to‘plamlar sifatida qoraqalpoq, o‘zbek, qozoq va rus tillarida chop etilgan. Berdaq shoirning lirik, satirik, didaktik she‘rlari, tarixiy dostonlari diqqatga sazovor. Shuningdek, Otesh Alshinbay o‘g‘li (1828–1902), Qulmurot Qurbon o‘g‘li (1845–1926), Omar Sugirimbet o‘g‘li va boshqa shoirlarning she‘r hamda dostonlari qoraqalpoq adabiyoti tarixida munosib o‘rin egallaydi.

Yuqoridagi manbalardan shuni xulosa qilish mumkinki, bijanaklar negizida VIII–XVI asrlarda qoraqalpoq xalqi shakllandi. XVIII asrning birinchi choragida Eshimxon yetakchiligida qoraqalpoq xonligi tashkil topadi. 1811 yildan boshlab qoraqalpoqlar Xiva xonligiga qaram bo‘lgan. 1873 yilda Rossiya imperiyasining Xivaga yurishi, uni istilo qilishi va Gandimiyon shartnomasi tuzilishi natijasida Amudaryoning o‘ng sohilida

joylashgan qoraqalpoqlar hududi Rossiyaga qo‘shib olindi. Bu yerda Turkiston general-gubernatorligi Sirdaryo viloyatining Amudaryo bo‘limi tashkil etildi. Amudaryo bo‘limi 2 ta uchastkaga bo‘lindi: Petro-Aleksandrovsk qal‘asi markazi bo‘lgan Sho‘raxon uezdi (hozirgi To‘rtko‘l shahri) va markazi Chimboy bo‘lgan Chimboy uezdi.

Qozoq xalqining XVI–XIX asrlar tarixshunosligi. Qozoq xalqining XVI–XIX asrlardagi tarixini bayon etar ekanmiz, IX–X asrlarda hozirgi Qozog‘iston hududlarida qarluq, o‘g‘uz, pecheneg, qipchoq, kimak va boshqa qabilalar joylashganligi, XI–XII asrlarda ushbu mintaqada yashagan barcha qabilalarning birlashishiga turtki bo‘lganligi, XII asrda Qozog‘iston hududiga qoraxitoylar (kidanlar) bostirib kirganligi, ularning mahalliy turkiy aholi bilan aralashib ketganligi, XI–XV asrlarda Irtishdan Dunaygacha bo‘lgan Buyuk Yevroosiyo tekisligi, Qrimdan to Volga bo‘yidagi Buyuk Bulg‘oriyagacha arab va fors manbalarida “Poloves (qipchoq)lar dalasi” deb ataladigan qipchoq-poloveslar ko‘chib yurganligi, XVI–XVIII asrlarda turklar bir necha mustaqil etnoslarga bo‘linib ketgandan so‘ng qudratli turkiy qipchoq qabilasining katta qismi qozoq xalqi tarkibiga kirganligi to‘g‘risida eslatib o‘tish joiz.

Mazkur davrda yaratilgan manbalar, xususan, Mahmud ibn Valining “Bahr ul-asror”, Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriyning “Abdullanoma (Sharafnomayi shohiy)”, Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy”, Muhammadhakimxon to‘raning “Muntaxab at-tavorix: (Xo‘qand va Buxoro tarixi, sayohat va xotiralar)” Abulg‘oziy Bahodirxonning “Shajarayi turk”, Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” va Muhammad Avaz Marg‘iloniyning “Tarixi Aziziy” kabi asarlarda Turkiston xalqlarining XVI–XIX asrlardagi tarixiga bag‘ishlangan voqealar bayonini ko‘rish mumkin.

Bizga ma‘lumki, XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Qozoq xonligi vujudga kelgan va ushbu etnosning shakllanishi nihoyasiga yetgan edi. XVI asr boshlarida g‘arbga qaytib kelgan qozoq qabilalari Qozoq xonligiga birlashgan edi. Shu bilan qozoq elatining shakllanish jarayoni yakunlangan. Bu haqda sovet davrida ko‘plab adabiyotlar yaratildi. Xususan, M. X. Abuseitovanning “Kazaxskoe xanstvo vo vtoroy polovine XVI veka” asarida keltirilishicha, XV–XVI asrlarda qozoq xalqining tashkil topishi va rus markazlashgan davlatining mustahkamlanishi natijasida bevosita qozoq-rus aloqalari paydo bo‘la boshlaydi.

Ma‘lumki, Rossiya imperiyasi hukumati o‘sha davrdayoq qozoq xalqi bilan qiziqar, u haqda turli ma‘lumotlar to‘plar edi. Ushbu ma‘lumotlar Moskva buyruqlarida aks etgan bo‘lib, podsho devonxonasida saqlanar edi. Masalan, shoh arxivining 1574–1584- yillardagi ro‘yxatida “Qosim podsho davridagi kazak (qozoqlar)lar” kitobi va ro‘yxati 38-qutida saqlanganligi ko‘rsatilgan. O‘tkir Alievning “Qozog‘iston tarixi” kitobida Qozog‘istonning XIV–XVII asrlardagi tarixi batafsil bayon etiladi.

Xususan, unda yozilishicha, XIV–XV asrlarda Qozog‘iston hududi Chingizxon imperiyasi tarkibiga kirgandan so‘ng ulug‘ xon barcha yerlarning yagona egasi, deb ataldi. XIV asrda Oltin O‘rda, Oq O‘rda, Abulxayrxon xonligida va Temuriylar davrida

yerni shartli turda mukofot tarzida berish “sayirg‘al” deyilgan. Demak, qozoqlarda ham yer egaligining o‘ziga xos jihatlari mavjud bo‘lgan ekan.

M. S. Tursunovanning “Kazaxi Mang‘ishlaka vo vtoroy polovine XIX veka” asari ham ushbu davrni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unda XIX asrda Mang‘ishloqda yashagan qozoq xalqining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida ma’lumot beradi. Asarda yozilishicha, Mang‘ishloqdagi qozoqlar 1822 yilda Xiva xonligiga bo‘ysungan bo‘lib, 1830–1840- yillarda ularni Maya Anetev va mulla Kalbiy Karimkulov 10 ta biy yordamida boshqargan edi.

Umuman olganda, ushbu xonlik tarixiga bag‘ishlangan asarlarda qozoq hukmdorlari Kereyxondan to Abilayxongacha bo‘lgan davrdagi xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayoti haqida ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, XV–XVII asrlarda qozoqlar orasida tabiat kuchlariga sig‘inish kuchli bo‘lganligi, ularning yer va suvga sig‘inganligi haqida ham bilib olish mumkin.

Qirg‘iz xalqining XVI–XIX asrlardagi tarixshunosligi. Etnograf B. X. Karmishevaning “Qorategin qirg‘izlari” kitobi qirg‘izlarning etnografiyasiga bag‘ishlangan asar hisoblanadi. Ushbu kitobda qirg‘izlarning xo‘jaligi, qirg‘izlar va ularning xalq sifatida shakllanishiga oid ma’lumotlar keltirilganligi bilan qimmatli hisoblanadi. Asardan qirg‘iz xonligining vujudga kelishi va qo‘shni hududlar bilan aloqalariga doir ma’lumotlar ham o‘rin olgan. Asarda Qirg‘iz xonligi XVI asrda vujudga kelganligi, uning asoschisi afsonaviy Ahmadxon va uning shajarasi haqida so‘z boradi.

Mustafa Kalkanning “Etnicheskie svyazi kыргызskix i kazaxskix plemen vo vtoroy polovine XIV–XVI vv” asarida qozoq hamda qirg‘izlarning ayrim qabilalari va ular o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari haqida ma’lumotlar berilgan bo‘lsa, S. M. Abramzonning “Kirgizы i ix etnogeneticheskie i istoriko-kulturnye svyazi” asarida esa qirg‘izlarning kelib chiqishi va moddiy madaniyati tarixi masalalari keng yoritilgan. N. I. Grodekovning “Kirgizы i karakirgizы Сыр-Darinskoy oblasti” nomli qirg‘izlar etnografiyasiga bag‘ishlangan asarida ham ushbu etnosning kelib chiqish masalalariga oydinlik kiritilgan.

Qirg‘izlarning qozoq xonliklari tarkibida rivojlanishi. Cho‘qon Valixonov qozoq xalqining aytishuv va afsonalariga asoslangan holda qirg‘izlar tarixiga oid ma’lumotlarni ham yoritib bergan. U qozoq juzlarini XV–XVI asrlarda paydo bo‘lgan, deb hisoblaydi va qozoqlarni burutlar (qirg‘izlar) bilan aralastirib yuborgan Ritter hamda Georgi kabi mualliflarni qattiq tanqid qiladi. Ularning bu boradagi fikrlarini inkor qilib, “Katta, O‘rta va Kichik” qirg‘iz-qaysoq o‘rdalari bitta – “qozoq” xalqi ekanligini yozadi.

XV asrning ikkinchi yarmida Ahmadxon boshchiligida Qirg‘iz xonligi tashkil topdi. Uning tarkibiga Tyan-Shanda qolgan mo‘g‘ul-turk qabilalari ham kirgan edi. Mazkur davlat uzoq faoliyat ko‘rsatmasa-da, muhim oqibatlariga olib keldi – qipchoq-qirg‘iz qabilalarining birlashuvi va ularga mo‘g‘ul-turk qabilalarining qo‘shilishiga, ya’ni tarkibi unchalik o‘zgarmagan qirg‘iz xalqining birlashishiga sabab bo‘ldi. Shu tariqa,

Tyanshan bo‘ylab qipchoq-qirg‘iz qabilalarining tarqalishi jarayonida qirg‘iz xalqining shakllanishi sodir berdi. Irtish-Yenisey daryo oralig‘ida juda ko‘p turli xil: qirg‘iz, alachin, kuban, qipchoq hamda turkiy va mo‘g‘ul tilli qabilalar yashar va ularning birortasi ham xalq sifatida shakllanmagan edi. Ularni “O‘rmon xalqlari” (“Lesные народы”) deb ataganlar. Diqqatga sazovor jihati, ba‘zi bir qabilalar XIII asrda Tyanshanda boshqa qirg‘iz qabilalari bilan birga o‘z nomlarini saqlab qolganlar.

Muallif “qirg‘iz” atamasi etimologiyasi qadimgi turk sifat so‘zi “qirig” – “qizil”dan kelib chiqqan deb hisoblaydi. “Qirg‘iz” ushbu atamaning ko‘plikdagi ma‘nosi bo‘lib, mazkur termin ular (qirg‘izlar) yashagan hudud nomi bilan bog‘liq, xalqning nomi esa shu so‘zdan olingan. Yeniseybo‘yidagi Qirgun mamlakati (“Qizil mamlakat”) er.avv. I ming yillikdayoq mavjud edi. O‘sha paytda “Qirgut” atamasi paydo bo‘lgan, keyinchalik esa “qirg‘iz” atamasiga o‘zgargan. Yenisey va Ob daryolari oralig‘idagi mahalliy aholi hamda kelgindi qabilalarning etnik birlashuvi I ming yillikning o‘rtalarida shakllandi. Ushbu davrda qirg‘izlarda patriarxal-urug‘chilik tuzumining yemirilishi ro‘y bergan edi. Qirg‘izlarda hududiy-davlat birlashuvining paydo bo‘lishi VI–VII asrlarda qabilalararo jamoalar shakllanishining ma‘lum bir darajasini aks ettirar edi.

Xitoy manbalariga ko‘ra, X asrga kelib qimoq-qirg‘iz qabilalarining so‘nggi birlashuvi ro‘y berdi. XI–XII asrlarda ushbu qabilalar naymanlar tomonidan siqib chiqarildi. Qirg‘izlarning asosiy qismini bukara, charbalar tashkil qilgan (nisbatan ozgina mol-holga ega bo‘lgan kishilarni ana shunday deb ataganlar) bo‘lib, aholiga biylar bilan manaplar boshchilik qilgan.

Shuningdek, A. N. Atigaevaning qozoq xonligi tarixiga bag‘ishlangan asarida ham Qozoq xonligining vujudga kelish masalalari yoritilgan bo‘lsa, S. K. Kosanboev va A. K. Mirzomurodovlarning “XV–XIX asr oxirlarida qozoqlar to‘g‘risidagi tarixiy etnografik tadqiqotlar” asarida qozoq xalqi tarixi va etnografiyasi, qozoq hamda qirg‘izlarning o‘zaro aloqalari yoritilgan.

“Etnografiya i arxeologiya Sredney Azii” kitobida 1937–1938- yillarda olib borilgan arxeologik, etnografik va antropologik tadqiqotlar aks etgan. Ushbu asarda Markaziy Osiyo mintaqasidagi xalqlar tarixi haqida so‘z boradi.

O‘. Alievning “Qozog‘iston tarixi” kitobida qozoq xalqi tarixiga oid muhim ma‘lumotlar keltirilgan bo‘lib, ushbu asar orqali qozoq va qirg‘izlarning tarixan juda yaqinligi va o‘ziga xos jihatlarni ko‘rish mumkin. Shuni alohida qayd etish kerakki, ushbu tarixiy jarayonlarni talqin etishda afsonalarning o‘rni katta bo‘lgan.

“Manas” dostoni va undagi yoritilgan tarixiy voqealar. Qirg‘iz xalqi o‘z tarixi davomida ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan xalq ijodiyoti va madaniyati bilan bog‘liq bo‘lgan xazinani bugungi kungacha saqlab kelmoqda. Qirg‘iz xalq og‘zaki ijodida xalqning ko‘p asrlik yorqin tarixiy taqdiri va madaniyati, tabiatan shoirona qarashlari, ozodlikka intiluvchi va mardlik kabi xislatlarini ifodalangan. Xalq ijodiyoti orqali qirg‘izlarning qahramonliklari va go‘zal romantik kechinmalari yoritib berilgan.

Jumladan, qirg‘iz xalq og‘zaki ijodinng noyob namunasi bo‘lmish “Manas” epik asar bo‘lib, u dastlab XIX asrning 50- yillarida Cho‘qon Valixonov tomonidan yozib olingan va 1904 yilda rus tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan. “Manas”ning qisqartirilgan varianti V. V. Radlov tomonidan nemis tilida chop etilgan. Mazkur epos qirg‘iz folklorining barcha janrlarini o‘z ichiga qamrab olgan, ya‘ni afsona, qo‘shiq, ertak, aytishuv va masallardan iborat. “Manas”ning xalq ichida keng tarqalishida irchi (Ырчы)larning roli katta bo‘lib, ular “Manas”ni mashhur bo‘limlarini aytib, uni xalq orasida keng tarqatganlar. “Manas” aytuvchilar uni hech qanday musiqasiz ijro etganlar, tinglovchilar ko‘p bo‘lganda doston har xil ohang va suratda, imo-ishoralar bilan yetkazilgan. “Manas”dagi asosiy voqealar – afsonaviy qahramon Manasning Xitoy, Afg‘oniston va O‘rta Osiyo mamlakatlariga qilgan harbiy yurishlari bilan bog‘liq.

“Manas”da 9 ta asosiy qo‘shiq uzviy bo‘lib, ular Manasning tug‘ilishi va bolalik yillari, xon sifatida tanilishi, Qoshg‘ar xonligi va O‘rta Osiyo hududlariga qilgan yurishlaridan iborat. Mazkur doston Xitoy poytaxti (Beypin)ga yurish va Talas vodiysida Manasning o‘limi bilan yakunlanadi. Manasning qimmatini shundaki, unda tarixiy, etnografik, geografik va boshqa ma‘lumotlarni taqdim etgani bois qirg‘iz xalqi hayotining qomusi deb ham atash mumkin. Dostonda ijtimoiy-maishiy hayotga doir juda katta ma‘lumotlar – to‘ylarning tavsifi, dafn, xalq o‘yinlari va mashg‘ulotlari asosiy o‘rinni egallagan. Shu boisdan ham “Manas” qirg‘iz xalqi tarixi va etnografiyasiga oid bebaho manbadir.

Asar 3 qism (450 ming misra)dan iborat. Dostonda milliy turmushning barcha jihatlari keng ko‘lamda va teran aks etgan, shuning uchun ham atoqli yozuvchi Chingiz Aytmatov uni “qadimgi qirg‘iz ruhining sarbaland cho‘qqisi” deb atagan edi. Asarda, Baqay, Almambet, Qo‘shay, Sirg‘aq, Xonikey, Aloke, Chubaq, Semetey, Qo‘zqamanlar va Oychurek kabi har biri o‘ziga xos xarakterga ega bo‘lgan o‘nlab xilma-xil yetakchi obrazlar bor. Manas esa butun epos voqealari markazida turadigan bosh qahramondir. Asarda yuzlab personajlar ishtirok etishi, voqealar qariyb yuz yillik muddat ichida Osiyoning juda katta hududi – Uzoq Sharqdagi Amur daryosi bo‘ylaridan tortib Oltoy, Markaziy Osiyodagi voqealarni qamrab olgan. “Manas” nihoyatda keng ko‘lamga ega, u hajman nafaqat turkiy ellar folklori, shu bilan birga dunyodagi eng yirik doston ham hisoblanadi.

“Manas”ni o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Qozoq etnografi Ch. Ch. Valixonov, keyinroq V. V. Radlov “Manas”dan parchalarni ilk bor qog‘ozga tushirib, uning rus va nemis tillaridagi tarjimasini taqdim qilganlar. XX asrda ushbu epos S. O‘rozbekov, S. Qoralaev va boshqa oqinlar ijrosida yozib olingan. Hozirga qadar “Manas”ning 70 dan ortiq varianti yozib olingan. Shuningdek, asar V. V. Jirmunskiy, M. Avezov, R. Z. Qodirboeva va boshqa olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

“Manas”ning bolalar uchun tayyorlangan varianti tarjimasini 1995 yilda bosilib chiqqan bo‘lib, uning tarjimoni Tursunboy Adashboev Xalqaro “Manas” oltin medali

bilan taqdirlangan. 1995 yilda barcha turkiy tilli davlatlarda “Manas” eposining 1000 yilligi xalqaro miqyosda umumxalq bayrami sifatida keng nishonlandi.

Tojik xalqi tarixi tarixshunosligi. Tojik xalqi tarixiga oid “Haft iqlim” (“Etti iqlim”) asari geografik-biografik mazmunda bo‘lib, uning muallifi Amir Ahmad Roziydir. U asli Eronning Ray shahrida, badavlat va o‘qimishli xonadonda tavallud topgan. Amir Ahmad Roziy o‘z asarini 1594 yilda yozib tugallagan bo‘lib, unda VII asrdan to XVI asr oxirigacha yetti iqlim mamlakatlarida yashagan 1560 nafar yirik shayx, olim, yozuvchi, shoir va davlat arboblari haqida qisqa, lekin qimmatli ma’lumotlar berilgan. Muallif o‘zi yashagan davrgacha bo‘lgan masalalarni yoritishda “Suvar al-aqolim” (“Iqlimning ko‘rinishi”), “Masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlar orasidagi masofalar”) va “Tarixi Banokatiy” kabi asarlarga tayangan, lekin ulardan tanqidiy foydalangan, ularni yangi dalillar va ma’lumotlar bilan boyitgan.

Muallif shaharlar va mamlakatlarni tavsiflab, ularning geografik o‘rni, diqqatga sazovor joylari, osori atiqalari, aholisi va uning kundalik hayoti, mashg‘ulotlari hamda urf-odatlari, aholining umumiy soni va xo‘jaligiga oid qimmatli ma’lumotlar keltiradi. Masalan, muallifning bergan ma’lumotlariga ko‘ra, Chingizxon hujumidan avval Balxda 50 mingdan ortiq odam yashagan, XV–XVI asrlarda Toshkent atrofidagi tog‘larda temir, feruza va ohak konlari, Xo‘jandda feruza, Badaxshonda esa la‘l konlari ishlab turgan.

Shuningdek, ushbu etnos tarixiga “Nomayi olamoroyi Nodiriy” (“Nodirshohning olamga bezak bo‘luvchi tarixi”) asarining muallifi XVIII asrda yashagan marvlik mashhur tarixchi olim Muhammad Kozimdir. Asarda, jumladan, 1741–1742- yillarda Ko‘lob, Hisor, Shodmon, Badaxshon, Balx va boshqa viloyatlar xalqining katta yer egalari hamda chet el bosqinchilariga qarshi qo‘zg‘olonlari haqidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Sulton Muhammadning ”Majmu’ al-g‘aroyib” asari. ”Majmu’ al-g‘aroyib” ilm ahli orasida keng tarqalgan asar bo‘lib, uning hozirgacha saqlangan qo‘lyozmalari 80 dan ortiq. Xususan, “Abdullanoma” asari muallifi Hofiz Tanish Buxoriy, “Ajoyib at-tabaqot” kitobining musannifi mavlono Muhammad Tohir va XVII asrda yashagan Mahmud ibn Valilar shular jumlasidandir. Asarning ayniqsa, 3, 11, 12 va 18 boblari muhimdir. Ularning Buxoro, Balx, Tamg‘ach, Marv, Siyovush, Sog‘oniyon, Termiz, Tibat, Turkiston, Samarqand va Bulg‘or kabi yirik shaharlar, Murg‘ob, Vaxsh, Jayhun (Amudaryo), Ko‘hak (Zarafshon) va Chirchiq daryolari, dunyoda yuz bergan muhim voqealar, mashhur shayx, olim va hukmdorlar, Balx va Badaxshonning minerallarga boyligi haqidagi ma’lumotlari muhim ahamiyatga ega.

Mirza Salimbekning “Tarixi Salimiy” asari. Ushbu asarda Amir Muzaffar davrida Hisor, Ko‘lob, Baljuvon, Qorategin va Darvozda bo‘lgan xalq isyonlari, Buxoro-Qo‘qon va Buxoro-Rossiya munosabatlari, shuningdek, Buxoro amirligining XIX asrning ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli va ma’muriy tuzilishi haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud.

Ahmad Donishning ”Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif” asari. O‘rta

Osiyoning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy hayotini o'rganishda Ahmad Donishning "Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif" asari muhim ilmiy ahamiyatga ega. Kitobda so'zboshi, sayyoralarning inson taqdiridagi ahamiyati, din va uning jamiyatdagi o'rni to'g'risidagi fikrlardan keyin qisqa tarzda Amir Doniyolbiy (1758–1785 yy.), Amir Shohmurod (1785–1800 yy.), Amir Haydar va Amir Nasrulloxon hukmronligi yillarida sodir bo'lgan voqealar bayon qilingan.

Asarning katta va so'nggi qismi Amir Muzaffarga bag'ishlangan. Ushbu qismda Buxoro xonligining XIX asr ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy axvoli, shuningdek, Rossiya imperiyasi qo'shinlari tomonidan 1866 yilda Jizzax hamda 1868 yilda Samarqandning ishg'ol qilinishi voqealari batafsil bayon etilgan. "Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif" asarining qo'lyozma nusxalari Toshkent, Samarkand, Buxoro va Dushanbe kutubxonalarida mavjud. Asarning matni A. Mirzoev tomonidan chop etilgan bo'lib, 1960 yilda kitobning qisqartirilgan ruscha tarjimai Dushanbeda nashr qilingan.

Filipp Nazarovning "Esdaliklar"i. Rossiya imperiyasidan O'rta Osiyoga sayohat qilgan Filipp Nazarov o'z esdaliklarida mintaqa tarixi haqida qiziqarli ma'lumotlar yozib qoldirgan. Jumladan, Filipp Nazarov va uning hamrohlari Xo'jand shahrini ham borib ko'rgan. Xo'jand shahri haqida uning esdaliklarida quyidagi ma'lumotlar qayd etilgan: "Xo'jand hajm jihatdan Qo'qondan kichik emas. U Buxoro tomondan ba'zi yerlari nurab qolgan devor bilan, boshqa tomondan Sirdaryo bilan himoyalangan. Shahardan ariq va kanallar o'tkazilgan. Qo'qondagiga o'xshash korxonalar va hordiq chiqaradigan yerlari ko'p...".

Turkman xalqi tarixi tarixshunosligi. Turkman xalqining shakllanish jarayoni mo'g'ullar istilosidan keyingi davr (XV asrlar)da nihoyasiga yetgan. Ushbu davrda turkman etnosiga ayrim o'g'uz bo'lmagan turkiy qabilalar, jumladan, qipchoqlar ham qisman kelib qo'shilgan.

XV asr oxiri – XVI asr tarixchilari ushbu davr turkmanlari hayotini Ismoil Safaviy va Shayboniyxon o'rtasida 1510 yilda Marv yaqinida bo'lgan jang sababli tasvirlaydilar. Xususan, Muhammad Ja'far Hasan al-Moseviyning "Olam oroyi Safaviy" va "Olam oroyi shoh Ismoil" asari XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmidagi turkmanlar tarixini o'rganishdagi asosiy manba hisoblanadi. Unda XV–XVII asrlarda Eronda hukmronlik qilgan Safaviylar davlati va uning birinchi hukmdori shoh Ismoilning hayoti, ular bosib olgan hududlar haqidagi ma'lumotlar uchraydi. Xususan, unda, yozilishicha: "1512 yilda Shoh Ismoilning vaziri Najmi soniy Movarounnahrda hujum qiladi. Bu hujum natijasida u 15 ming odamni qirib yuboradi, hatto itlar va mushuklarni o'ldirishni buyuradi. 1514 yilga kelib turkmanlar Muhammad Zaman mirzo rahbarligida Shoh Ismoilga qarshi chiqadilar".

Bu haqdagi ba'zi bir ma'lumotlar Boburning "Boburnoma" asarida ham uchraydi. Ushbu asarda ham Ismoil Safaviy va Shayboniyxon o'rtasidagi urush voqealari, bundan tashqari, ushbu davrda Movarounnahr hamda Xurosonda yashagan xalqlar,

ularning hayoti haqidagi batafsil ma'lumotlar berilgan. Ushbu jang tafsilotlari Hofiz Tanish Buxoriyning "Abdullanoma" asarida ham aks etgan bo'lib, Shayboniylar va Safaviylar o'rtasidagi 1510 yilda Marv yaqinida bo'lib o'tgan urush, Xorazm va Xuroson haqidagi ma'lumotlar yoritilgan. Sharqshunos A. A. Semyonov asarni rus tiliga tarjima qildi va 1966 yilda ushbu asar bosmadan chiqdi. Mustaqillikdan keyin esa ushbu manbaning qadr-qimmatini nihoyatda yuqori ekanligini anglagan tarixchilar uni bir necha bor o'zbek tiliga tarjima qilib, nashrdan chiqardilar.

Keyinchalik Ismoil Safaviy va Shayboniyxon o'rasidagi urush tafsilotlari va turkmanlar hududi hamda uning aholisi haqidagi ba'zi bir ma'lumotlar Xondamirning "Habib us-siyar" asarida ham keltirgan. XV asr oxiri – XVI asrning birinchi yarmida turkmanlar tarixini o'rganishda ushbu manbaning o'rni beqiyosdir. Ushbu asarda ham Turkmaniston hududlarida bo'lib o'tgan Shayboniylar va Safaviylar o'rtasidagi urush voqealari bayon etiladi. Asar mintaqa xalqlari tarixiga oid muhim manba bo'lib, unda 1498 yildagi Samarqand qamali paytidagi shahar xalqining ayanchli ahvoli, 1512 yilda Safaviylar tomonidan Qarshi shahrida uyushtirilgan qirg'in-qatliom, 1514–1515- yillarda Xurosonda yuz bergan qahatchilik haqidagi ma'lumotlar aks etgan. Asar 1521–1524-yillarda yozilgan va muqaddima, xotima hamda uchta jilddan iborat. 2013 yilda ushbu asar yangi nashrda bosilib chiqdi.

Yuqoridagilardan tashqari, ushbu jang bilan bog'liq Marv hududi aholisi haqidagi ma'lumotlar Sharafxon Bidlisining "Sharafnoma" asarida keltirilgan. Fors tilidagi ushbu asar ham Old va O'rta Osiyoning XVI asr tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asar muallifi Bidlis shahrining kurdlardan bo'lgan rahbarining o'g'li, uning onasi esa turkmanlarning qizilboshlilardan bo'lgan rahbari Emirxonning qizi bo'lgan. Sharafxon ham keyinchalik Bidlisning amiriga aylanadi. Mazkur asarda Shayboniylar va Safaviylar o'rtasidagi aloqalar hamda XVI asrdagi turkman qabilalari hayoti haqidagi ma'lumotlar bor.

Bu kabi ma'lumotlar Budoq Qazvinining "Javohir-al-axbor" asarida ham uchraydi. Ushbu asar ham XVI asrdagi Safaviylar davlatining hayoti haqida ma'lumotlar beradi. Xususan, unda ham Shayboniyxonning 1510 yilda Marv yaqinidagi Ismoil bilan urushi voqealari tasvirlanadi va shu o'rinda ushbu hudud aholisining taqdiri haqida qiziqarli ma'lumotlar beriladi.

Qozi Ahmad Kumiyning "Xulosat at-tavorix" va Qozi Ahmad G'afforiyning "Tarixi jahonaro" asarlarida ham ushbu davr turkmanlar hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Masalan, Qozi Ahmad Kumiyning "Xulosat at-tavorix" kitobida ham Shayboniylar va Safaviylar o'rtasidagi Xurosondagi jang voqealari bayon qilingan. Muallif ushbu asarni yozishda Hasanbek Rumluning "Axsan at-tavorix" asaridan foydalangan. Qozi Ahmad G'afforiy ham o'z asarida asosiy e'tiborni ushbu jang tafsilotlariga qaratgan.

Shuningdek, Faridunbekning "Munshaot as-salotin" asarida Usmoniylar va Safaviylar o'rtasidagi yozishmalar haqida ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, unda

Chaldiran jangi haqida ham ma'lumotlar beriladi. Umuman olganda, ushbu manba ham turkman xalqining XVI asrdagi hayoti haqida ma'lumotlarni berishi bilan qimmatlidir.

Safaviylar va Shayboniyxon o'rtasidagi jang, ushbu jang oqibatida turkamanlar yashaydigan hududlardagi nochor ahvol Muhammad Solihning "Shayboniynoma" asarida ham uchraydi. Ushbu asardan Shayboniyxonning Urganch hamda turkmanlarning Adoq nomli qal'asini qamal qilishi haqida batafsil ma'lumotlar ham o'rin olgan. "Adoq qal'asini Chinso'fi boshchiligidagi turkmanlar qahramonlik bilan mudofaa etganlar. Qamal paytida Samarqand, Qarshi va boshqa shaharlarda bo'lganidek it, eshak va hatto odam so'yib yeyishga majbur bo'lganlar", – deb yozgan edi muallif o'z asarida. Ushbu asar 1961 yilda Toshkentda ilk bora nashr etildi.

Keyingi davrda ham turkmanlar hayoti bilan bog'liq voqealar va ularning kelib chiqishi haqida ma'lumotlar beruvchi asarlar yaratildi. Abulg'uzi Bahodirxonning "Shajarayi tarokima" asari ana shular jumlasidandir. X asr oxirlarida Sirdaryoning quyi oqimida yashovchi o'g'uzlarning katta gruppasi Somoniylarning ruxsati bilan Zarafshonning o'ng qirg'og'i bo'ylab ko'chib yuradi va ancha muddat Nurota hududida hayot kechiradi. Bu haqda Abulg'uzi shunday yozadi: "O'g'uz elindan podshoh bo'lg'on Qaniq urug'indin (turkmanlarning eng qadimiy va katta urug'laridan biri) Saljuqboy boshliq ko'b el ko'chub Sir yoqasinda Xo'jand sharina keldilar. Anda ko'p yillar o'lturub Nur viloyatiga bordilar. Anda yuz yil o'lturub, ko'chub Urganch bordilar. Urganchda o'lturo bilmay ko'chub Xuroson bordilar, taqi Marvdin Abulxong'och o'turdilar". Rus tadqiqotchisi A. Kononov ushbu asarning rus tilidagi nashrini tayyorladi.

XVI asrda yuzaga kelgan Xiva va Buxoro xonliklari turkmanlarni o'zlariga bo'ysindirishda doimiy ravishda bir-birovi bilan raqobat qilib turgan. Buning natijasida turkmanlar yashagan hududlar doimiy urush o'choqlariga aylanib, goh Buxoro xoni, goh Xiva xoni qo'lga o'tib turgan. Bu xonlarning hujumi, ayniqsa, XVII-XIX asrlarda nihoyatda ko'chayib, fojiali tus olgan va natijada turkmanlarni tez-tez ko'chib, joylarini o'zgartirib turishga majbur etgan. Bu haqda Abulg'uzi Bahodirxonning "Shajarayi turk", Shermuhammad Munisning "Firdavs ul-iqbol" va Ogahiyning "Shohidi iqbol" asarlarida batafsil ma'lumot berilgan. Turkmaniston va turkmanlarning XV asr oxiri – XVI asr birinchi yarmidagi hayoti haqida, shuningdek, Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohi, Munis va Ogahiyning asarlari ham muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Muhammad Kozimning "Nomeyi olam oroyi Nodiri" asarida ham turkmanlarning XVIII asr hayoti haqida ko'plab ma'lumotlar beriladi. Muallif 1720 yilda Marvda tug'ilgan. Uning asari asosida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Muhammad Kozim o'z asarini 1749–1750- yillar arafasida yoza boshlagan. Mikluxe Maklayning guvohlik berishicha, ushbu qo'lyozmaning birinchi jildi 1752–1753- yillarda yozib tugallangan. O. Amantiev o'z tadqiqotida ushbu asarni ilmiy jihatdan tavsiflab, uning Turkmaniston tarixi o'rganishdagi qimmatli manba ekanligini isbotlab bergan.

Afg'on xalqi tarixi tarixshunosligi. Hozirgi Afg'oniston hududida mazkur davrda yashagan xalqlar tarixiga bag'ishlangan adabiyot va ilmiy maqolalarni

tarixshunoslik nuqtai-nazaridan tahlil qilar ekanmiz, afg'on xalqi tarixiga ozmi-ko'pmi rus, ingliz, afg'on va hind olimlari murojaat qilganini ko'rish mumkin. Ushbu mavzu bo'yicha eng to'liq tadqiqotlardan biri rus olimi M. G. Aslanovga tegishli bo'lib, uning "Roshaniylar xalq harakati va uning XVI–XVII asrlar afg'on madaniyatiga ta'siri" asaridan Afg'onistondagi vaziyat, uning oqibatlari, madaniy hayotga ta'siri va harakatning yetuk siymolari haqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Muallifning fikricha, Boyazid Ansoriy va tomondorlarining maqsadi nafaqat o'z xalqining mustaqilligi uchun kurash, balki odamlar orasida mulkiy tenglikni o'rnatish bo'lgan.

M. G. Aslanov, bundan tashqari "Afg'oniston adabiyoti" va "Afg'onlar: til va ma'naviy madaniyat" nomli asarlarida ham ushbu mavzuga murojaat qilgan. Yana bir rus olimi I. M. Reysner o'zining "Afg'onlarda feodalizm va davlat ta'limining rivojlanishi" nomli asarida roshaniylar harakatiga to'xtalgan va ularning faoliyati hamda roshaniylarning XVIII asrdagi izdoshlari haqida qimmatli ma'lumotlarni keltirgan.

Bundan tashqari, Yu. V. Gankovskiy, V. M. Masson, V. A. Romodin va boshqa rus olimlari ham o'z asarlarida afg'on xalqi tarixiga murojaat qilgan. Rus olimlari A. S. Gerasimova va G. F. Girs hammuallifligida yaratilgan "Afg'oniston adabiyoti" nomli ilmiy asarda afg'on xalqi tarixi keng va aniq yoritib berilgan. Ushbu asarda XVIII asrda yashab, ijod qilgan roshaniylar adabiyot maktabining yetuk shoiri va harbiy yo'lboshchisi Xushxolxon Xattak haqida ham ma'lumotlar keltirilgan.

Ingliz olimlari J. Leyden va X. G. Ravertilar ham afg'on xalqi tarixi va adabiyotini o'rganish bo'yicha turli asarlar va ilmiy maqolalar yozganlar. X. G. Ravertining "Gulshani rox" ("Tog' guli") nomli majmuasida roshaniylarning yirik namoyondasi Mirzaxon Ansoriyning noyob qo'lyozma devonidan 19 ta she'r nashr qilingan.

Ushbu mavzu o'zbek olimlarining ham e'tiboridan chetda qolmagan. Filologiya fanlari doktori, professor A. M. Mannonov mazkur mavzuga doir "Roshaniylar adabiyoti", "Roshaniylar she'riyatining asosiy yo'nalishlari", "Boyazid Ansoriyning Xayr ul-bayoni", "XVI–XVIII asrlarda pushtu tilidagi roshaniylar adabiyot maktabi" nomli asarlar yozgan. Ushbu ilmiy asarlarda afg'onlar, xususan, roshaniylarning adabiy faoliyati to'liq va keng yoritilgan.

Roshaniylar harakati Afg'oniston, Pokiston hamda Hindiston olimlari tomonidan ham keng o'rganilgan. Bunga misol tariqasida Abdulhay Habibiy, Muhammad Shafi, A. A. S. Rizvi, M. M. Kaleem va Dharma Bhanu singari yozuvchi hamda tarixchilarning asarlarini keltirish mumkin.

Sharqiy Turkiston va Tibet xalqi tarixi tarixshunosligi. Bu haqda B. A. Litvinskiyning asari Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo tarixiga bag'ishlanib, unda ushbu mintaqalardagi xalqlar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli va madaniy hayoti haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

B. Ahmedovning "Markaziy Osiyo tarixiy manbalarining o'rta asrlarda O'rta Osiyo bilan Xitoy o'rtasidagi savdo, siyosiy va madaniy aloqalarni o'rganishdagi o'rni"

nomli asarida Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo-sotiq ishlari keng yoritib berilgan. Ushbu kitobda oqsoqollarning o'rni, Markaziy Osiyodan Xitoyga olib kelingan mahsulotlar va aksincha, Xitoydan Markaziy Osiyoga olib kelingan mahsulotlar nomi bayon qilingan.

Shuningdek, asarda mintaqa tarixiga oid ma'lumotlar ham talqin etilgan. Masalan, Qo'qon xonligi oqsoqoli Sharqiy Turkistonning Qashqar, Xo'ton, Yorkend, Oqsuv, Kuchor, Uchturfon va Yangihisor kabi shaharlarda yashagan musulmon musofirlarini nazorat qilish uchun alohida shahar oqsoqolini tayinlash vakolatiga ham ega bo'lgan. Jumladan, 1853–1855- yillardagi Qo'qon oqsoqoli Ne'mat dodxoh tomonidan 1853–1854- yillarda qo'qonlik qori Muhammad pakana Qashqarga, andijonlik Toshmuhammad Xo'tonga, Ismoilboy Uchturfonga shahar oqsoqoli etib tayinlangan. Qo'qon oqsoqoli ko'chmanchi qirg'iz-qozoq ovullaridagi elbegilarni ham tayinlagan. Tayinlangan har bir shahar oqsoqoli va elbegilar o'z navbatida ushbu mansablarni o'sha shahar yoki ovulning savdo-sotiqdagi ahamiyati va keladigan daromadga qarab ijaraga bergan.

Bundan tashqari, oqsoqol qishloqlarga mirshablar soliq yig'uvchi, devonbegilarni tayinlaydi. Oqsoqolning huzurida xon tomonidan tayinlangan va shuning uchun ham "xon dallol" deb ataluvchi dallol ham bo'lgan. Ushbu mansabdagilar muhojirlar bilan bo'ladigan savdo-sotiq ishlarida dallollik qilgani uchun, basharti bu savdo-sotiq yombu bilan bo'lsa, har yombudan uch tilla, agar oltin bilan bo'lsa, 1/10 ulushini olgan. Qashqardan chiqib ketayotgan karvondagi har bir ulovdan ikki tangadan boj olingan. Dallollar xazinaga yiliga 1200 dona fu – choy, ya'ni 3600 kumush pul to'lab turgan. Oqsoqollar manjurlar hukumatining Sharqiy Turkistondagi hokimlari bilan muzokara olib borish va shartnomalar tuzish kabi huquqlarga ega bo'lib, rasmiy hujjatlar eski o'zbek va uyg'ur tillarida rasmiylashtirgan.

M. Kutlukovning asarida ham Qo'qon va Sharqiy Turkistonning o'zaro aloqalari masalasi yoritilgan. Ushbu muallifning mavzuga oid barcha tadqiqotlarida nafaqat Xitoy, balki Sharqiy Turkiston va Markaziy Osiyo qo'lyozma asarlaridan ham keng foydalanilganligini kuzatish mumkin. Biroq, u ham Qo'qon va Xitoy o'rtasidagi siyosiy aloqalar masalasiga katta e'tibor berib, ikki hudud o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarini e'tibordan chetda qoldirgan.

Sh. Qo'ldoshevning "Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar (XVIII – XIX asrning o'rtalari)" nomli dissertatsiyasida Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkistonning o'zaro elchilik aloqalari muhim manbalarga asoslangan holda yoritib berilgan.

Ma'lumki, XVIII–XIX asrning 70- yillarida Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalari alohida fundamental tadqiqot sifatida o'rganilmagan. Aksariyat ilmiy adabiyot va tarixiy manbalarda Qo'qon xonligining Sharqiy Turkistonni o'z ta'sir doirasiga olish uchun doimiy ravishda Xitoy bilan urush harakatlarini olib borganligi qayd etilgan va Sharqiy Turkiston hududiga

egalik qilish masalasi ushbu ziddiyatli holatning asosiy sababi qilib ko'rsatilgan. Mazkur tadqiqotda, bildirilgan umumiy fikrlardan farqli o'laroq, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning mazmun-mohiyati aniqlashtirilib, o'zaro aloqalarning noizchil taraqqiyoti ko'rsatib berilgan.

S. V. Timchenkoning asarida keltirilishicha, Sarimsoqxo'janing uchinchi o'g'li Jahongirxo'ja Umarxondan manjurlarga qarshi kurashda harbiy ko'mak so'ragan, ammo Umarxon uning taklifini rad etgan. Shunga qaramay, Jahongirxo'ja Umarxondan yashirin ravishda xonlik aholisi orasidan o'zining maslakdoshlarini qidirib topgan. Ularning orasida Sharqiy Turkistondan kelgan muhojirlar ko'p edi. Shu bilan birga, 1820 yili u Oloyga borib, ko'chmanchi chorvador qirg'izlarning cho'nbag'ish qabilasi sardori Suronchi bilan ham til biriktirgan. Suronchining maqsadi Sharqiy Turkistondagi yaylovlardan foydalanish bo'lgan. Jahongirxo'ja ukasi Mahmudxon va o'z maslakdoshlari bilan birga Qashqarga qochib, u yerda qo'zg'olon ko'tarishga harakat qilgan. Ammo, ushbu harakat muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Suronchi manjur askarlari tomonidan qo'lga olingan va Jahongirxo'janing o'zi Qo'qonga qochib ulgurgan. Jahongirxo'ja Qo'qonda Umarxonning buyrug'i bilan qo'lga olinib, saroyda saqlangan. Umarxon vafot etib, taxtni egallagan o'g'li Muhammad Alixon (1822–1842) ham Jahongirxo'jani o'z saroyida saqlagan.

1822 yilda Farg'onada yuz bergan dahshatli zilzila tufayli u Oloyga qochib borgan va u yerda qirg'izlar bilan birga Qashqarga hujum qilishga tayyorgarlik ko'rgan. Shuningdek, u Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi qo'qonlik savdogarlar yordamida bu yerdagi musulmon aholi orasidan ham o'z muxlislarini topgan. Uning ushbu harakatlaridan ogoh bo'lgan manjurlar qo'shini Jahongirxo'ja turgan yerga ikki marta hujum qilgan. 1824 yilning qishida Jahongirxo'ja o'z maslakdoshlari bilan birga Qo'qon-Xitoy chegarasidagi qorovulxonalariga hujum qilib, bir necha manchjur askarlarini o'ldirgan. Nihoyat, 1826 yilning martida Jahongirxo'ja to'plagan ko'ngillilar guruhi chegaradan o'tib, Qashqar atrofini bosib olgan. U o'ziga hamroh bo'lgan Suronchining o'g'li Toyloq bilan birga hiyla ishlatib, 7 ming manjur askarlarini qurshab olib, qirib tashlagan. Ushbu jangdan so'ng faqatgina 20 ga yaqin manjur askari tirik qolib, Qashqarga yetib kelgan, xolos.

Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi tarixshunosligi

XIX asrning o'rtalaridan boshlab Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyo xonliklariga qarshi bosqinchilik harakatlarini faol va dadil olib bordi. Mahalliy mualliflar Rossiya imperiyasining mintaqaga istilochilik yurishlari haqida bir qator asarlar yaratganlar hamda ushbu bosqin tarixi va oqibatlariga oid muhim ma'lumotlarni yozib qoldirganlar.

Rus qo'shinlarining Qo'qon xonligiga dastlabki harbiy yurishlarini mahalliy o'lkashunos tarixchi Is'hoqxon To'raning "Tarixi Farg'ona" asarida batafsil tasvirlangan. U shunday yozgan edi: "1281 hijriyda Turkiston va Avliyo ota Rossiya tasarrufiga o'tdi.

Andin Chimkandg'a qasd etg'oni amirlashkarg'a eshitildi. Ho'qand askari bilan qish vaqtida Chimkandg'a keldi, unda Rusiya askari Turkistondan chiqqani yo'q ekan... Amirlashkar Turkistonga borib, urush qilmoqchi bo'lib Qo'qonga bordi. Turkistondan Rusiyaga hech pisand bo'lmay, ahamiyat bir oz soldat ila urushga kirdi".

1864 yilning oktyabrida rus qo'shinlari Toshkent shahriga dastlabki hujumni uyushtirdilar. Mana shu voqealar, keyinchalik Toshkentning bosib olinishi Mirza Olim Toshkandiyning "Tarixi Turkiston" va Muhammad Solih Toshkandiyning "Tarixi jadidayi Toshkand" asarlarida batafsil bayon qilingan.

Muarrax shahar ahli va sarbozlarining shaharni dushman hujumidan mudofaa qilganliklarini shunday tasvirlaydi: "Qo'shfarmonchi Qipchoq boshchiligidagi askarlar Qo'qon darvozasi, Mirzo Ahmad Qushbegi sarbozlari Qashqar darvozasi, orasidagi devor ustiga o'rnamshdilar. Mudofaaga barcha shahar aholisi o'tlanib, g'ariblar, fuqarolar, qariyalar, hatto ibodati namozdan ko'ra qo'limizdan kelgancha xizmat qilish yaxshi va savob deyishib, mujohidlarga va g'oziyarga suv hamda oziq-ovqat yetkazib turdilar".

Ruslarning 1864 yil oktyabridagi yurishi muvaffaqiyatsiz yakunlandi. Ularning keyingi harbiy yurishi 1865 yilning may oyida boshlandi. Toshkent mudofaasini tashkillashtirishda Alimqul sarkardaning xizmatlari katta bo'ldi. U 8 may kuni o'zining katta qo'shini bilan Qo'qondan Toshkentga yetib keldi. 1865 yil 9 may kuni ikki tomon kuchlari to'qnashdi. Jang kutilgandan ham og'ir va shiddatli kechdi. Ushbu voqealarni Mirza Olim Toshkandiy "Tarixi Turkiston" asarida quyidagicha tasvirlaydi: "Bir necha kundan keyin Rusiya askarlari Toshkand ustiga kelib, qaytadan Xo'qand darvozasidan hujum qila boshladilar. O'sha vaqtda Toshkand shahrining tamom atrofini aylantirib, bino qilingan qalin va baland qo'rg'on, tashqari atrofida zovur qazilgan va o'n ikki darvozasi bor edi".

Ushbu jangni o'z ko'zi bilan ko'rgan Muhammad Solih Toshkandiy "Tarixi jadidi Toshkand" nomli qo'lyozma asarida uni quyidagicha tasvirlaydi: "Butun osmonni tutun va chang qoplab oldi, nihoyat ruslar yaqindagi tepalik tomon chekinib, mudofaaga o'tishga majbur bo'ldilar. Qamalda yotgan shaharliklar buni ko'rib, juda quvondilar. Yetti yashar boladan tortib, yetmish yashar chollargacha g'alabani qutlab, sarbozlarga ovqat, sharbat, issiq non, mevalar keltirib turdilar. Lekin, o'rus qo'shinlari o'zlarini o'nglab, qayta hujumga o'tib, Toshkand qo'shinlarini orqaga chekintirdi".

Mualliflarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, dahshatli jang shunday qizib ketdiki, yeru ko'k larzaga keldi, butun osmon chang bilan qoplandi, odamlar qaerda-yu qurollar qaerda ekanligini ajratish mumkin bo'lmay qoldi. Nihoyat, toshkentliklar yengilib qocha boshladilar. Alimqulga o'q tegib, halok bo'ldi. Shahar ruslar tomonidan 15 iyunda deyarli egallab bo'lindi.

Toshkent ruslar tomonidan bosib olingach, Rossiya imeriyasining Turkiston masalasiga daxldor harbiy-siyosiy masalalarini hal qiladigan, rus qarorgohi xizmatini bajaruvchi makonga aylantirila boshlandi. Toshkent O'rta Osiyoni mustamlakaga

aylantirish hujumlarini ijro qiluvchi tayanch, harbiy-siyosiy ma'muriy markaz xizmatini bajardi.

Buxoro xonligining XIX asrning ikkinchi yarmi davri tarixi Mirzo Salimbekning asarlarida o'z aksini topdi. U so'nggi Buxoro amirlari davrida yuqori mansablarni egallagan va shu bois Buxoro amirlari shaxsini ulug'lashga intilgan. Muallif asosan, xonlik siyosiy hayotining tashqi jihatlarini yoritib, xalq hayotini ham tasvirlagan. Mirzo Salimbek o'z asarlarida XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya-Buxoro munosabatlariga to'xtalib o'tgan bo'lsa-da, bosqin davridagi mahalliy aholi ahvolini kam yoritgan. U Buxoro xonligiga qarashli, ruslar bosib olgan shaharlarni sanab o'tish bilan cheklangan.

Buxoro xonligining ko'rib chiqilayotgan davrdagi tarixi Mirzo Abdulaziz Somiyning asarida tasvirlangan. Asardan XIX asrning tarixiy voqealari, 1866–1868-yillardagi Rossiya-Buxoro urushi haqidagi batafsil ma'lumotlar, Samarqandga rus qo'shinlari hujumi oldidan Oqtepa qishlog'ida bo'lgan harbiy kengashga oid ma'lumotlar o'rin olgan. Somiy, boshqa zamondoshlariga qaraganda, ushbu davr voqealarini mufassalroq tasvirlagan. Muallif jamiyatdagi turli siyosiy guruhlarining faoliyati natijalarini bayon qiladi. Jumladan, u 1868 yil aprelda amir Samarqand begi qilib tayinlangan Sherali inoqning zulmiga qarshi xalq qo'zg'olonini mufassal yoritib bergan.

Ushbu asarni 1962 yilda rus olimasi L. M. Yepifanova forschadan tarjima qilib, nashr ettirgan. Mazkur olimasi haqli ravishda Buxoro amirligi mag'lubiyatining asosiy sababini amirlikning texnikaviy-iqtisodiy qo'loqligi bilan bog'lagan. Muallifning keltirishicha, Mirzo Somiyning ushbu asari kamchiliklardan ham xoli emas.

1873 yilda Xiva xonligi ham rus qo'shinlari tomonidan bosib olindi va sulh shartnoma tuzildi. Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi tarixining o'rganilishi masalasini yoritganda shunga ahamiyat berish kerakki, XX asrning 90-yillarigacha tarixshunoslikda, xususan sovet tarixchilarining asarlarida Markaziy Osiyoning Rossiya imperiyasiga "qo'shib olinishi" deb nomlab kelindi. Shuningdek, ushbu qo'shib olinishga progressiv hodisa sifatida ko'proq urg'u berildi. Rus armiyasining bosqinchilik yurishlari, ularga qarshi mahalliy aholining milliy ozodlik harakatlari ochiq-oydin bayon qilinmadi.

Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati tarixshunosligi

Rossiyaning mustamlakachilik davri tarixshunosligini uchga bo'lib o'rganish mumkin. Jumladan, Rossiya imperiyasi davri tarixshunosligi, sovet davri nashrlari hamda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar. Qayd etish kerakki, har bir davr tarixshunosligi o'zining yondashuvlari va mazmun-mohiyatiga ko'ra bir-biridan tubdan farq qiladi.

Rossiyaning O'rta Osiyoda yuritgan mustamlakachilik siyosati ularning boshqaruv tuzilishida yaqqol ko'rinadi. Turkistonning birinchi general-gubernatori fon Kaufman rus harbiylarining eng faol istilochi jandarmi graf D. Milyutinga 1876 yilda yo'llagan ma'ruzasida Rossiya va Angliya kabi nasroniylar davlatlarining Osiyodagi

maqsadi mushtarak ekanligini alohida ta'kidlab, "bu joyda bizning umumiy dushmanlarimiz –musulmonlik va yovvoyilikdir" deb, harbiy vazirdan qattiq siyosat o'tkazishda keng vakolatlar so'ragan.

Xuddi shunday siyosatni podshoning yaqin mulozimi, general-leytenantga teng unvondagi maxfiy maslahatchi F. Girs Turkiston o'lkasini boshqarish tartibi haqida tuzgan qonun loyihasida ham aks ettirgan edi. 1871 yilda rus mustamlakachiligining mohiyati va uning o'zga xalqlarni ruslashtirish siyosatining bosh yo'nalishiga to'xtalib, venger olimi Xerman Vamberi shunday deb yozgan edi: "Rusiya shiddat bilan o'smoqda, Buyuk Pyotr zamonida uning aholisi 15 mln. edi. Yekaterina taxtga chiqqan yili 25 mln bo'ldi. Aleksandr I o'lgan yili 58 mln. ga chiqdi, hozir (1871 y.) esa 77 mln bo'libdi. Nufusning bunday shiddat bilan ko'payishi ruslarda ko'p tug'ilish qobiliyatidan emas. Aksincha, ishg'ol etgan o'lkalardagi aholini tezkor ruslashtira olishlari bilan izohlanadi".

Rus mustamlaka hokimiyatining dabdabali ravishda e'lon qilgan "Turkiston aholisini harbiy xizmatdan ozod qilish haqida"gi "ehsoni"ni F. Girs g'oyat nozik ta'birda fosh qilgan edi. Turkiston tadqiqotchilari ana shu masalaga o'z vaqtida oydinlik kiritganliklarini eslash o'rinlidir. "Ilgari Turkistonda, – deb yozgan edi Ahmad Zakiy Validiy To'g'on, – eski odatga ko'ra askarlikka rag'bat va havas bo'lar edi. Hozir turkistonliklar askarlikdan ozod etilganliklari sababli asta-asta shijoatlari so'nib, bo'shshib ketdilar... Rusiya Osiyoda g'oyat uzoqni ko'zlovchi siyosat ketidan quvuvchi va bu keng qamrovli harakatlari hech qanday chek-chegara bilmagan, hirs va ishtahasi esa kun sayin oshib boruvchi imperialistik davlatdir. Rus millati ham buyuk davlatchilikka nihoyatda bog'langan, xususiy mulkka qarab qolmay, hukumat ko'rsatgan har qanday joyga, har qanday o'lkaga borib joylashishga chamadoni tayyor, harakatchan g'ayrati keladi. Rus millati bu harakatchanlik va g'ayratni alohida bir uddaburonlik deb biladi".

Mustamlakachi ma'muriyat o'lkani Rossiyaning xom-ashyo bazasiga aylantirishga jadallik bilan kirishdi. Sug'oriladigan joylarda paxtachilik va paxta yakka hokimligining o'sishi, hunarmand-kosibchilikning inqirozga yuz tuta borishi bilan dehqonlar keng ommasi, mayda hunarmandlar va shahar kambag'allarining boshqa tabaqalari ham qashshoqlashib bordilar. Natijada, XIX asrning 80- yillari oxiri – 90- yillarda xalq ommasining turmush tarzi keskin yomonlasha boshladi. Buni mahalliy tarixchi Ibrat o'zining "Farg'ona tarixi" asarida shunday tasvirlaydi: "Farg'onani suyi serob, havosi toza, mevasi pokiza, yerlari mahsuldor bo'lib, Rusiya davlatida bo'lgandan buyon necha daraja tijorat va ziroat ishlari murovvaj bo'lub, temir yo'llar inshosi vositasi bilan hamma ishlar oson bo'lub, dehqonlari aksariyatida paxta ziroati ilan rivojlanib, paxta tijorati bo'lak ishlardan rivojda bo'lib, muning foydasiga aldanub, ziroati milliylari – bug'doy, juvari, arpa ekmoq yo'q bo'lub, ovqatga sarf bo'ladurg'on donlarni ekishlarini eslaridan chiqarib, 1913 melodiya paxta ziroati va tijoratiga urungan kishilar qarz daryosiga g'arq bo'lganlarini mushohoda qilib, avqot ekmoqqa tushdilar, hatto hukumatdan avqot ekmok uchun necha marotabadan targ'ib bo'lsa ham, paxtani aqchasi

bularni avqot ekmoqdan qo‘ydi. Aks holda, avqotlarni hayvonot avqotini sotib olmoqqa majbur bo‘lganlari bularni yana eski ekunlari yaxshi ekanini bildurdi”.

Turkistonda mustamlakachilik tuzumini uzoq vaqt saqlab qolish uchun buyuk rus davlatchilik g‘oyasini amalga oshirishga kirishildi. Bu ishga rus ziyolilari ham safarbar etildilar.

Sovet davrida yaratilgan tarixiy asarlarda ushbu masalaga yana bir tomonlama yondoshish davom etdi. Ularda ko‘proq Turkiston qoloq feodalizm tuzumida yashab kelganligi, Rossiya tarkibiga qo‘shib olingach, bu “progressiv” ahamiyat kasb etganligi haqida ko‘proq gapirildi. Sovet davrida ruslashtirish siyosati, iqtisodiy qaramlik, paxta yakkahokimligi yanada kuchaytirildi. Ushbu imperiya mustamlakachilik siyosatining uzviy davomi edi. Faqat O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyin tarixshunosligimizda ushbu masala haqqoniy yoritila boshladi. Ayniqsa, ushbu holat “O‘zbekistonning yangi tarixi” kitobining 1-qismida, “Mustabid tuzumning O‘zbekiston milliy boyliklarini talash siyosati: tarix shohidligi va saboqlari (1865–1990- yillar)” (Toshkent, Sharq, 2000) kabi va boshqa o‘nlab tadqiqotlarda o‘z aksini topdi. Unda Rossiya imperiyasining Turkistonda yuritgan mustamlakachilik siyosati mohiyati aniq faktlar bilan yoritildi.

Tariximizning xolis yoritilishiga qariyb bir yarim asrdan so‘ng erishildi. Markaziy Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi va mustamlakachilik tuzumining o‘rnatilishi 1958 yildan to 1989 yilgacha bo‘lgan davrda xato talqin qilib kelindi. Rossiya qo‘shinlari xonliklarni “qo‘shib olgan”, degan mazmunda ko‘plab kitob, risola va maqola yozildi. Mustamlaka davri tarixi xolis va to‘liq, har tomonlama haqqoniy yoritib berilmadi.

Tarixiy adabiyotlarda Rossiya imperiyasi mustamlakachiligiga qarshi milliy-ozodlik kurashi masalalarining yoritilishi

Rossiya imperiyasining ijtimoiy va milliy mustamlaka zulmi o‘lka xalqlarining norozilik harakatlariga sabab bo‘ldi. O‘lka zabt etilgan, mintaqani qamrab olgan bir nechta xalq harakatlari bo‘lib o‘tdi.

Бундай кўзғолонларга 1892 йилдаги Туркистондаги “Вабо исёни”, 1898 йилдаги Андижондаги Дукчи Эшон кўзғолони, 1916 йилдаги Жиззах ва Туркистоннинг бошқа жойларидаги кўзғолонлар мисол бўлади.

1898 yilda Andijonning mingtara qishlog‘ida ko‘tarilgan “Dukchi eshoni” qo‘zg‘oloni milliy-ozodlik harakatlarining yorqin sahifalaridan biridir. Ushbu ozodlik harakati haqida bizga ma’lumot beruvchi tarixiy asarlardan biri Fozilbek Otabek o‘g‘lining “Dukchi eshon voqeasi” asari hisoblanadi. Fozilbek Otabek o‘g‘li (1879–1938) asli andijonlik, mashhur Otabek qozining ikkinchi o‘g‘li. Fozilbek dastlab rus-tuzem maktabida tahsil olgan, 1923 yilda esa Moskva qishloq xo‘jalik akademiyasini

bitirgan. Soʻngra Turkistonga qaytib, yangi paxta navlarini yetishtirish bilan shugʻullangan. U 1927 yilda “Dukchi eshon voqeasi” asarini nashr ettiradi.

Rossiya imperiyasi mustamlakachilik tuzumiga qarshi milliy ozodlik harakatlarining sovet davri tarixshunosligida yoritilishi

1916 yildagi xalq harakati haqida maʼlumotlar 1920- yillarda paydo boʻldi. Ushbu davrda tadqiqotchilar orasida 1916 yil qoʻzgʻolonining sabablari, xarakteri va unga baho berishda turlicha fikrlar mavjud edi. Davlat arboblari G. Broydo va T. Risqulovlarning taʼkidlashicha, imperiya maʼmuriyati ushbu qoʻzgʻolonni tayyorlab, shu orqali yangi bosqinchilik va zulmga bahona qidirgan. Ushbu fikrlar Shestakova va Ye. Fedorovalar tomonidan keskin tanqid qilingan. Ularning fikricha, imperiya hukumatiga ushbu qoʻzgʻolondan hech qanday foyda yoʻq edi.

1930- yillarda podsho arxividan 1916 yil qoʻzgʻoloniga oid qimmatli hujjat va materiallar eʼlon qilindi. 1932 yilda Markaziy Osiyo xalqlarining qoʻzgʻolonlari tarixiga oid hujjatlar toʻplami dunyo yuzini koʻrdi.

1916 yil qoʻzgʻoloni boʻyicha tarixchilar tomonidan juda koʻp ishlar qilingan boʻlib, keng koʻlamdagi arxiv materiallari, rasmiy hujjatlar, qoʻzgʻolon qatnashchilarining xotiralari tahlil qilingan va qator monografik asarlar yaratilgan.

1935 yilda Z. Kastelskaya ushbu qoʻzgʻolonga bagʻishlangan nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi. 1916 yil qoʻzgʻolonini tadqiq qilishda P. A. Kovalevning ham hissasi katta boʻldi. Unda Turkiston aholisining front ortiga mobilizatsiya (safarbarlik) qilinishi muammosi, mardikorlarning hayoti va qismati, shuningdek, rus burjuaziyasining mardikorlik va qoʻzgʻolonga munosabati masalalari tadqiq etilgan.

Markaziy Osiyoda XX boshlarida boshlangan ishchilar inqilobiy harakatining tarixini tadqiq etish 60- yillarda partiya organlari yoʻl-yoʻriqlari asosida davom ettirildi. Tadqiqotchilar Markaziy Osiyodagi sinfiy kurash Rossiya imperiyasidagi umumiy inqilobiy harakatning bir qismi ekanligini taʼkidlaydilar. Bunda burjua demokratik talablar bilan milliy-ozodlik harakati vazifalari uygʻunlashib ketgan edi. 1905–1907- yillarda Markaziy Osiyoda feodal burjua doiralarida millatparvarlik kayfiyatlari jonlanib, ular mehnatkashlarning milliy zulmdan ozod boʻlish yoʻlidagi harakatidan oʻz maqsadlari uchun intildilar.

Markaziy Osiyo xalq ommasi rus proletaratining shovinizmga nisbatan chiqisha olmaslik tuygʻusini doʻstona qabul qilib, 1905–1907- yillardagi inqilobda bevosita ishtirok etdilar. Tarixchilar oʻz asarlarida Markaziy Osiyoda markisistik mafkurani tarqatishda jonbozlik koʻrsatib, targʻibot-tashviqot ishlarini olib borgan rus inqilobchilari – V. D. Konyushin, A. R. Baxarev, M. R. Verdyanin va T. L. Ivanov kabi koʻplab oʻz hayotini Markaziy Osiyo bilan bogʻlagan inqilobchilarning katta xizmatlarini alohida taʼkidlashni unutmaganlar. Oʻsha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvol shuni taqozo etar edi.

Turkistonning bosib olinishi va Rossiya imperiyasi hukmronligi davriga (1865–1917 yy) oid sovet tarixshunosligida 1916 yil qoʻzgʻoloni – oʻlka xalqlari hayotining

1917 yildagi Oktyabr voqealari arafasidagi eng yorqin voqeani tadqiq etish va yoritishga alohida o‘rin ajratilgan. Tadqiqotchilar ushbu qo‘zg‘olon xalqning imperiya hukumati va burjuaziyaga qarshi inqilobiy kurashi bilan o‘lkadagi ozodlik harakatining qo‘shilishi natijasida vujudga kelganligi haqidagi xulosani yakdillik bilan olg‘a surganlar. Markaziy Osiyo tarixchilari ushbu murakkab ommaviy harakatning xususiyatlari va bosqichlari o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risida yagona bir fikrga kelgan. Yarim yildan ortiq davom etgan mazkur siyosiy harakat kattagina hududlarni qamrab olgan. Turli mintaqada turlicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar hukm surganligi bois qo‘zg‘olon hududlarda o‘ziga xos ko‘rinishda namoyon bo‘lgan edi.

1960- yillardagi ilmiy tadqiqotlarda jamiyatdagi mafkura tazyiqi ostida 1916 yildagi milliy-ozodlik harakati haqida “Bu isyon umumrossiya inqilobiy harakatining tarkibiy ajralmas qismi bo‘lib, Rossiya imperiyasining barcha xalqlarini fevral va oktyabr inqiloblari sari yetaklab boradi”, degan zo‘rma-zo‘raki xulosalar singdirildi.

Ammo, bu borada A. I. Sidorov kabi mualliflarning dadil chiqishlarini ham e’tirof etish zarur. U, jumladan, imperiyaning “... mustamlakachilik siyosati ayniqsa Rossiya imperiyasining chekka o‘lkalarida eng mudhish shaklida namoyon bo‘ldi, shubhasiz, bu qonuniy ravishda mustamlakachilikka qarshi xalqlarning g‘azabi va qarshiligini keltirib chiqardi”, degan fikrlarni qayd etgan edi.

1916 yildagi milliy-ozodlik harakatining 70 yilligi munosabati bilan “O‘zbekiston komunisti” (1986 yil, 7-son) va “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” (1986 yil, 7-son) jurnallarida X. Tursunov, M. Vahobov, S. Nomozov va D. Ziyoevaning maqolalari e‘lon qilindi. Ularda ushbu qo‘zg‘olonning tarixiy ahamiyati va ayrim muhim jihatlari ochib berilgan.

Shunga qaramay, sovet davrida yaratilgan asarlarda Turkiston xalqlarining milliy-ozodlik harakati bir tomonlama yoritildi va ular “reaksion qo‘zg‘olonlar” deb baholandi. Masalan, Dukchi eshon qo‘zg‘oloni o‘zining haqiqiy bahosini olmadi. Bu haqdagi kitob va maqolalar asosan, rus arxiv manbalariga asoslangan holda yozildi, ular tanqidiy qiyos qilinmadi, mualliflar sharq tillaridagi manbalardan juda kam foydalandilar.

1980- yillarning o‘rtalarigacha bo‘lgan sovet davri tarixshunosligida partiya va davlatning mafkuraviy talablari asosida 1916 yildagi milliy-ozodlik harakatining sabablari, mohiyati va oqibatlari o‘zining haqqoniy bahosini olmadi.

Milliy ozodlik xarakatining mustaqillik yillaridagi tarixshunosligi

Mustaqillik davrida, mafkuraviy-g‘oyaviy cheklashlar bartomon etilganidan so‘ng o‘lkamizda milliy-ozodlik harakatining ifodasi sifatida yuzaga kelgan 1916 yildagi xalq harakatiga xolisona yondashish va haqqoniy ilmiy baho berish imkoniyati yaratildi.

Professor N. I. Veselovskiyning bu boradagi bir mulohazasi diqqatga loyiq: “Biz bo‘ysundirilgan osiyoliklarga tinchlik, xotirjamlik, xavfsizlik berdik degan xayoldamiz. Ammo, bularning hammasidan yuqoriroq turuvchi ezgulik mavjud. Bu millat, milliylik

tuyg‘usi bo‘ysundirilgan musulmonlar ahvolini o‘zimizni ularning o‘rniga qo‘yibgina tushunish mumkin. Siyosiy o‘lim og‘ir, milliy jihatdan o‘lmoqlik esa undan ham og‘irroqdir. Bizning hukmronligimiz ostida xuddi shu milliylik tuyg‘usi tahqirlanmoqda. Millatni qandaydir boshqa xayrli ishlar bilan almashtirib bo‘lmaydi! Shunday ekan, bizning hukmronligimizga qarshi ko‘tarilishlar yuz bersa, ajablanish noo‘rin. Milliy masalaning shunday jihatlari borki, xalq to‘qmi-ochmi, boymi-yalang‘ochmi, ular baribir namoyon bo‘lar edi”.

Mustaqillikka erishgandan so‘nggina xalqlarning mustamlakachilikka qarshi kurashining qahramonona sahifalariga munosib baho berish uchun e‘tibor ajratilmoqda. Bu borada dastlabki ishlar 1989 yilda Toshkentda chop etilgan “O‘rta Osiyo va Qozog‘istonda XIX asrning ikkinchi yarmi – XX boshlaridagi ozodlik harakatini tarixi va tarixshunosligi: yakunlar, izlanishlar, tadqiqotlar istiqboli” kitobini, K. R. Nesipboevning “Chorizmning Qozog‘istonda olib borgan soliq siyosati (1867–1914 yy)” nomzodlik dissertatsiyasi (1988 yil)ni, H. Bobobekovning “Qo‘qon xonligidagi xalq harakatlari: ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillar” (Toshkent, 1990 yil) kitobini ko‘rsatish mumkin.

1994 yilda nashr etilgan N. A. Abdurahimovanning Turkistonda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik tizimiga bag‘ishlangan, H. J. Sodiqovning “Chorizmning Turkistondagi mustamlakachilik siyosati va XX asr boshlarida milliy ozodlik harakatlari” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyalarining yoqlanishini O‘zbekistonning eng yangi tarixi tarixshunosligida ro‘y bergan quvonarli voqea sifatida ta’kidlash zarur. Jumladan, H. Ziyovning “O‘zbek xonliklari chorizm asoratida”, “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash”, “O‘zbekiston mustamlaka va zulm iskanjasida”, Majid Hasaniyning “Turkiston bosqini” asarlari mustamlakachilik tizimining asl mohiyatini ochib berishga xizmat qildi.

1998 yilda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov bir guruh tarixchi olimlar bilan uchrashib, mustaqillik yillarida tarixga munosabat, yangi tarixni yaratish masalasiga alohida ahamiyat qaratish kerakligini uqtirdi va tarixchilar oldiga muhim vazifalar qo‘ydi. Shundan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida “Yangi tarix markazi” tashkil etildi. Qisqa muddat ichida “O‘zbekistonning yangi tarixi” asarining uchta tomi nashrdan chiqarildi. Ushbu kitobning 1- tomida Rossiyaning O‘rta Osiyoni bosib olishi va unga qarshi milliy ozodlik harakati yangicha nuqtai nazardan juda yaxshi bayon qilingan. Ushbu asar shu masala bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga juda ko‘p ishonchli ma’lumotlar bera oladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, Turkiston xalqlarining mustamlakachilik zulmiga qarshi olib borgan milliy-ozodlik kurashlari o‘zining haqiqiy bahosini oldi. Milliy qahramonlarning nomlari tiklandi, ularga oid arxiv materiallari, hujjatlar oshkor etildi, tarixiy va badiiy asarlar yaratildi. Haqiqat qaror topdi, tariximizdagi qora dog‘lar yuvildi. 2001 va keyingi yillarda Jizzax qo‘zg‘olonining 85 yilligi nishonlandi, joylarda ushbu sanaga bag‘ishlab turli tadbirlar o‘tkazildi.

1916 yil qo'zg'oloni tarixshunosligi masalasida D. Ziyoevaning ilmiy tadqiqotlari alohida e'tiborga loyiq. Jumladan, uning aynan ushbu masalaga bag'ishlangan tadqiqotida muammoga oid yangi nazariy yondashuvlar va ma'lumotlar aks etgan bo'lsa, J. Ismoilovning tadqiqotida esa yurtimiz hududidagi milliy-ozodlik harakatlari Farg'ona vodiysi misolida tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda milliy-ozodlik harakatlari tarixshunosligi masalalari ham atroflicha yoritilgan.

Sharqiy Turkiston xalqlari tarixi tarixshunosligi. Sharqiy Turkiston xalqlarining Rossiya imperiyasi hukmronligi davri tarixiga oid adabiyotlar orasida L. A. Chvirning asari muhim ahamiyatga ega. Unda yozilishicha, Qashqarda to'qilgan matoning 81%i O'rta Osiyoga yuborilgan. Garchi ipak va yarim ipak matolar Sharqiy Turkistonda ham ishlab chiqarilgan bo'lsa-da, ularning sifati uncha yuqori emas edi. "Qo'qon va Marg'ilon ipagi Kavkaz ipagidan sifat jihatidan past darajada tursa-da, ammo Qashqar va Xo'ton ipagidan yuqori turadi", – deb qayd etgan edi V. V. Velyaminov-Zernov.

Osim Boqiy o'g'lining "Uyg'urlar" asari ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda yozilishicha, 1845 yilda Sankt-Peterburgda tashkil etilgan "Rus podsholigi geografiya jamiyati"da jahon sivilizatsiyasining eng ko'hna o'choqlaridan biri Uyg'uristonni o'rganishga katta qiziqish uyg'ondi.

Uyg'urlar tarixini o'rganishni birinchi bo'lib qozoq xalqining donishmand farzandi Cho'qon Valixonov boshlab bergan edi. 1855 yilda P. P. Semyonov Cho'qon Valixonovga: "Jahon madaniyatining kaliti Torim vodiysiga ko'milgandir. Bu kalit qachon topilar ekan, dunyo madaniyatining siri shu vaqtda ochiladi", – deb ta'kidlagan edi. U so'zini davom ettirib: "Siz fanga ko'p xizmat ko'rsata olasiz, men bunga aminman... mendan keyingi qadamni siz qo'ysangiz qanday yaxshi bo'lar edi. Siz Qang'ariston (Uyg'uriston)ga, xuddi o'sha ko'p afsonalar to'qilgan sehrlik o'lkaga kirib borar edingiz. Men o'zimni sizning oldingizda juda aybdor hisoblayman. Siz juda yoshsiz. Men esa nihoyatda xatarli ishga rag'batlantirmoqdaman... Siz Qashg'arga faqat yashirin holda kirishingiz mumkin", – degan so'zlarni aytgan. Shundan so'ng Cho'qon Valixonovni savdo karvoniga qo'shib, Qashg'arga yubordi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov: "Har qanday millatning, har qanday xalqning tirikligini va parvozini ikki qanoti – tarix va tili ta'minlaydi", - degan fikrlarni bildirgan edi. Uyg'urlar uchun o'tmish tarixining haqiqati, qadimdan yashab kelgan tili bo'lsa kerak.

Alixonto'ra Sog'uniyning "Turkiston qayg'usi" asari 1966–1973- yillarda Toshkentda yozilgan. Asardagi XX asr voqealari real faktlarga asoslangan, chunki muallifning o'zi ushbu voqealarda bevosita ishtirok etgan edi. Kitobda XX asr boshlarida Sharqiy Turkistondagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, xalq harakatlari, hududning bolsheviklar tomonidan bosib olinish jarayonlari va mahalliy aholining sovet davlati siyosatiga munosabati masalalari yoritib berilgan.

Asarda shuningdek, Alixonto'ra Sog'uniyning faoliyati, tashkil topgan Sharqiy Turkiston Islom Respublikasi (ShTIR)ning faoliyati, uning SSSR bilan olib borgan aloqalari, shu bilan birga, Xitoy tomonidan Sharqiy Turkistonda olib borgan siyosat mohiyati yoritib berilgan.

M. Abdullaevning "Xitoy inqilobi tarixidan parchalar" asarida kommunistik jamiyatlarning mamlakat iqtisodiy-siyosiy hayotiga ta'siri, Xitoy sovet hukumatining madaniyat, maorif va sog'liqni saqlash sohasidagi ishlari, Xitoyning sovet rayonlarida yer masalasining hal qilinishi va soliq siyosati haqida ma'lumotlar berilgan.

Anvar Boytur va Xayriniso Sidiqning "Shinjondagi millatlar tarixi" asari ham muhim manba bo'lib, unda yozilishicha, Sharqiy Turkistondagi Qo'qon savdogarlaridan yig'ib olinadigan tushumlardan quruq qolgan Muhammad Alixon g'azablanishi tabiiy edi. Shuning uchun u 1830 yilda Buxoroda yashayotgan Jahongirxo'janing akasi Muhammad Yusufxo'jaga maktub yuborib, Sharqiy Turkistonda manjurlar hukmronligiga qarshi harakatini olib borishini so'ragan. Ushbu taklifga rozi bo'lgan Muhammad Yusufxo'ja elchi Hasan bilan birga Qo'qonga kelgan. Bundan xursand bo'lgan Muhammad Alixon xo'jani quchoq ochib kutib olgan va tezlik bilan qo'shin to'plash uchun xonlikning turli shahar va qishloqlariga o'z xabarchilarini yuborgan.

Qo'shin yurishi oldidan O'sh viloyatida to'rt kun dam olib, Ofoqxo'ja ruhiga atab xudoyi qilingan. Haqquli mingboshi va Muhammad Sharif otaliqlar boshchiligidagi ushbu qo'shin 4 kun yo'l yurib, Nog'arachaldi manziliga yetib kelgan. Ushbu qo'shin manjur qorovulxonasida joylashgan Mingyo'l manziliga hujum qilib, bir necha Xitoy askari o'ldirilgan. Keyingi kun Qo'qon askarlari 10 ming manjur askarlari bilan kurash olib borishiga to'g'ri kelgan. Yupolart, Qorong'ulik, Mingyo'l qorovulxonalarini bosib olgan Qo'qon askarlariga qarshi Zalbkia ismli Qashqar amboni o'z askarlarini yuborgan, ammo ushbu jo'natilgan qo'shin mag'lub bo'lgan. Shundan so'ng manjur askarlari Gulbog' qal'asiga kirib berkingan. Ushbu qal'ani Qo'qon askarlari uch oy qamal qilgan.

Shuningdek, D. A. Isievning "Uygurskoe gosudarstvo Yettishar" asarida yozilishicha, Xitoy (manjurlar) bilan muzokara olib borilib, Xitoyning Qo'qon xonligi va o'z navbatida Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston-Qashqarga daxl qilmasligi haqida shartnoma tuzilgan va ancha muddat xonlikda tinchlik o'rnatilgan. Ch. Valixanovning fikricha, ushbu bitim 1756 yilda imzolaniib, unga muvofiq, Qo'qon davlati xo'jalar boshchiligida uyg'urlarning manjurlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarishiga yo'l qo'ymasligi kerak edi. Uning fikrini tasdiqlab D. Isiev, manjurlar hukumati ushbu maqsad uchun Qo'qonga har yili 20 kumush yombi berib turganligini qayd etgan bo'lsa, rus manbalarida esa manjurlar tomoni 20 kumush emas, balki, 1000 kumush yombi to'lab turganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud.

Erdona davrida Qo'qon bilan manjurlar hukumati o'rtasidagi o'zaro tinchlik va do'stona aloqalardan ko'rinadiki, Qo'qon muarrixlari asarlarini tahlil etgan Sh. X. Vohidovning fikrlarida asos bor. Garchi, tinchlik bitimi imzolangan bo'lsa-da, xitoylik manjurlar hukumati jung'orlar bosib olgan Toshkent, Sayram, Suzoq va Turkiston

hududlarigacha o'z yerlarini kengaytirishni maqsad qilganlar. Bu haqda Ch. Valixanov, manjurlar elchilari 1762 yilda qozoqlarning O'rta yuz xoni Abdumambet va Sulton Ablayga imperator istagini bildirib, bahorda Turkiston va Samarqandga harbiy yurish qilmoqchi ekanligini e'lon qilganini qayd etgan. Buning uchun ular odamlar, otlar, ho'kizlar va qo'ylar ajratishini talab qilgan.

Erdona, O'ratepa va Xo'jand hokimi Fozilbiy hamda qirg'iz biylari buni bilib qolib, o'sha davrning kuchli hokimlaridan biri – Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh Durrioniya maktub yuborib, undan musulmonlar olamini munofiqlardan qutqarishni so'ragan. Ular o'zaro urush-janjallarni vaqtincha unutilib, Ahmadshoh boshchiligida ittifoq tuzadilar. Bu ittifoqning harakatlari natijasiz tugagan bo'lsa-da, manjurlar hukumatining niyatlarini amalga oshirishga chek qo'ygan.

Sovet davrida O'zbekistonda tarix fanining rivojlanishi.

20–30- yillardagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot tarixshunosligi

1917 yil Oktyabr to'ntarishidan so'ng Turkistonda ham sovetlarning mustabid tuzumi o'rnatildi. Ushbu tuzum to 1991 yil 31 avgustgacha O'zbekistonda hukmronlik qildi. Mazkur davrda O'zbekiston xalqlari mustaqillikni qo'lga kiritish uchun faol kurash olib bordilar. Ushbu kurashlarning barchasi sovet davlati tomonidan qonga botirildi, yo'q qilindi. Ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish bir tomonlama bo'lib, bularning barchasi Markaz manfaatlariga bo'ysundirildi, madaniyat esa sovet mafkurasiga xizmat qildi.


Ta'kidlash joizki, sobiq sovet davrida fanni rivojlantirishga harakat qilindi. Ko'plab oliy o'quv yurtlari tashkil etildi, oliy ma'lumotli tarixchilar tayorlashga e'tibor qaratildi. Turkiston Davlat universiteti, O'rta Osiyo Kommunistik universiteti, istpartlarda tarix fani bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi, tarixchi olimlar tayyorlandi. 1919 yilda Turkiston Xalq maorifi xalq komissarligi qoshida Arxiv ishlari bo'yicha markaziy boshqarma tashkil etildi va h.k. Lekin, ushbu kadrlarning hammasi markscha-lenincha ta'limot ruhida tarbiyalandi. Chunki, ular tarix fanining rivojlanishi va O'zbekistonning xolis tarixini yaratishga emas, avvalo, hukmron kommunistik mafkuraning mustahkamlashga xizmat qilishi kerak edi. To'g'ri, sovet hokimiyatining dastlabki davri (1920-yillar)da yaratilgan asarlarda O'zbekiston tarixiga oid tarixiy voqeliklar nisbatan xolisroq va haqiqatga yaqinroq tarzda yoritilgan. Biroq, 1920-yillarning oxiridan boshlab sotsializmning butun front bo'ylab hujumi boshlandi. Ushbu hujum tarix fanini ham chetlab o'tmadi. Endilikda sovet hukumatiga qarshi har qanday fikrlar qoralana boshlandi.

Sovet hukumatining mahalliy aholi xohish-irodasini hisobga olmay, zo'rlik bilan o'rnatilishi, ularning siyosiy huquqlarining paymol etilishi va o'ylamay o'tkazilgan iqtisodiy o'zgartirishlar natijasida Turkiston xalqlari sovet davlatiga qarshi milliy-ozodlik harakatiga ko'tarildilar. Ushbu harakat dastlab "shaykalar", "banditlar" harakati deb nomlangan bo'lsa, 1919 yilning o'rtalaridan "bosmachilik harakati" deb ataldi. Natijada, Turkiston xalqlarining mustaqillik uchun olib borgan kurashi "bosqinchilar kurashi" sifatida badnom qilindi. Mazkur tarixiy voqelikka yondashuv siyosiy va ijtimoiy vaziyat

taqozosi bilan 1980-yillarning ikkinchi yarmidan o‘zgara bordi va mustaqillik sharofati bilan o‘zining haqiqiy bahosini oldi. 1994 yil 15 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi FA Tarix institutidagi davra suhbatida u “istiqlolchilik harakati” deb nomlandi.

1918 yil fevralda Farg‘ona vodiysida boshlangan istiqlolchilik harakati to 30-yillarning o‘rtalarigacha, qariyb 20 yil davom etdi. Mana shu tarixiy voqeaga bag‘ishlangan ko‘plab tarixiy asarlar yaratildi, bir qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Lekin, sovet davrida u “bosmachilik harakati” sifatida, boylar, burjuaziya, ruhoniylar va chet el interventlarining xalq manfaatlariga qarshi bo‘lgan “aksilinqilobiy harakati” deb ta’riflandi.

Istiqlolchilik harakati sovet tarixshunosligi haqida gapirilar ekan, uni bir necha davrlarga bo‘lish maqsadga muvofiqdir. Chunki sovet davrida bu muammoga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lgan.



boshqalarning asar hamda maqolalarida harakat misolatini xolisroq va haqiqatga yaqinroq yoritilgan. Lekin, 1920- yillarning oxiridan boshlab istiqlolchilik harakat butunlay noto‘g‘ri talqin qilindi. Masalan, sovet tarixchilari P. Alekseenkov, D. Manjara va boshqalarning asarlari bunga yaqqol misoldir. Sovet tarixshunosligining ikkinchi davrida istiqlolchilik harakatiga bag‘ishlab ko‘plab tarixiy tadqiqotlar yaratilar ekan, ular ilmiyligi va faktik materiallarga boyligi jihatidan nihoyatda qimmatlidir. Lekin, ularda tarixiy jarayonlar butunlay buzib, faqat qora ranglarda tasvirlandi.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, Stalin shaxsiga sig‘inish oqibatlari tugatila boshlangandan so‘ng tarix fanida tarixiy voqealarni xolisroq yoritish imkoni yuzaga keldi. 1950- yillarning oxiri – 60- yillarning boshlarida yaratilgan istiqlolchilik harakati tarixiga oid asarlarda mazkur harakatning kelib chiqish sabablari, uni bostirishda yo‘l qo‘yilgan qirg‘inbarotlar o‘z aksini topdi. Buni A. Qo‘qonboev, A. I. Zevele, Sh. Shomadiev singari mualliflarning asarlarida ko‘rish mumkin. Biroq, 60-yillarning

o‘rtalariga bormay, yana oldingi holatga qaytildi va tarix yana buzib, talqin qilina boshlandi.

1980- yillarning o‘rtalarida boshlangan “Qayta qurish” siyosati natijasida oshkoralikka ruxsat berildi. Mahalliy olimlar shu davrda tariximizda mavjud “oq dog‘lar”, jumladan, sovetlarga qarshi qurolli kurash (istiqlolchilik harakati) tarixini tadqiq eta boshladilar. P. G. Kim, M. Hasanov, A. Akromov, I. Isoqov va boshqalar o‘z maqolalarida istiqolchilik harakatining haqqoniy tarixini yaratishga harakat qildilar. Sovetlarga qarshi qurolli kurashi (istiqlolchilik harakati) tarixi asosan, mustaqillik yillarida butunlay qayta yaratildi va o‘zining haqqoniy bahosini oldi.

1920–1930- yillarda sovet davlati va kommunistlar partiyasi O‘zbekistonda ham siyosiy, ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham madaniy sohada tub o‘zgartirishlarni amalga oshirib, sotsialistik tuzumning yashashi uchun asos yaratdilar. Buning uchun bir qator tadbirlar amalga oshirildi. O‘rta Osiyo Respublikalarida o‘tkazilgan “milliy-hududiy chegaralanish”, sanoat korxonalarini milliyashtirish, “Er-suv islohotlari”, “Hujum” kompaniyasi, qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati, alifboning ikki marta o‘zgartirilishi, “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” madaniyatni yaratish borasidagi ishlar shular jumlasidandir. Mazkur jarayonlarning har biri O‘zbekistonda sovet davrida amalga oshirilgan mash‘um voqealar bo‘lib, ular xalqimiz va Respublikamizni rivojlantirishga emas, balki O‘zbekistonni Markaz manfaatlariga bo‘ysundirishga xizmat qildi.

1920–1930- yillarda amalga oshirilgan ushbu tadbirlar haqida sobiq sovet davrida ko‘plab asarlar yaratildi va mazkur yangiliklar O‘zbekistonda sotsializmning g‘alabasiga o‘zbek xalqining buyuk yutuqlari sifatida baholandi.

O‘zbekistonning Ikkinchi jahon urushi yillaridagi va 50–80- yillar tarixi tarixshunosligi

Sovet ittifoqi ikkinchi jahon urushi girdobiga tortilgandan keyin O‘zbekistonda ham hamma narsa harbiy izga ko‘chirildi. O‘zbek xalqi urush boshlanishi bilan uning og‘ir oqibatlarini tushunib yetdi.

Urush butun mamlakat xo‘jaligi va hayotini tubdan o‘zgartirib yubordi. Harbiy vaziyat front orqasini mustahkamlash yuzasidan shoshilinch choralar ko‘rishni talab qildi. Front yaqinidagi shahar va qishloqlardan yuz minglab, sanoat korxonalarini, o‘quv yurtlari, ilmiy tashkilotlar va boshqa moddiy boyliklarni Sharqqa ko‘chirishi boshlandi. Kechagina qatag‘onlar, quloq qilishlar azobini tortgan O‘zbekiston xalqi front va front ortida katta jasoratlar ko‘rsatdi.

O‘rta Osiyo Respublikalari va Qozog‘istonga evakuatsiya qilingan 308 korxonaning 100 dan ortig‘i (“Lentekstilmash”, “Rostselmash”, “Krasniy Aksay”, Moskva “Elektrokabel”, “Pod‘emnik”, “Elektrastanok” zavodlari, V. P. Chkalov nomli aviatsiya zavodi, Kiev “Traxsignal” zavodi va boshqalar) O‘zbekistonga joylashtirildi hamda qisqa muddatda harbiy mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirildi.

Urush yillarida 1,5 milliondan ortiq o‘zbekistonlik fuqaro fashizmga qarshi o‘tli janglarda qatnashdi (1940 yilda Respublika aholisi 6,5 mln kishidan iborat edi). Ularning ko‘pchiligi mardlik namunalarini ko‘rsatib, jangovar orden va medallar bilan taqdirlandilar.

O‘zbekistonning beqiyos kuch va quvvatga ega bo‘lgan boy ma’naviy madaniyati urushning birinchi kunlaridanoq vahshiy fashizmga qarshi kurashga astoydil qo‘shildi. O‘zbek fani ahlining urush sharoitidagi izlanishlari, ilmiy tadqiqotlarining yo‘nalishlari front va xalq xo‘jaligi talabalari hamda manfaatlariga moslashtirildi, ularga rahbarlik qilish sobiq SSSR FAning O‘zbekiston filiali (O‘zFA) va keyinroq, 1943 yil 4 noyabrda uning asosida tashkil etilgan O‘zbekiston Fanlar akademiyasi zimmasiga tushdi. Ushbu Akademiyaning birinchi prezidenti etib T. N. Qori Niyoziy saylandi. Ijtimoiy fan vakillari – tarixchi, sharqshunos, adabiyotshunos, tilshunos va iqtisodchilar o‘z zimmalaridagi ma’suliyatni anglagan holda, gitlerchi bosqinchilarning vahshiylarcha siyosatini fosh qilish, unga qarshi kurashishga o‘z kuch va iqtidorlarini safarbar etdilar. Tarixchilar jahon taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shgan xalqimizning tarixini yorituvchi ikki jildli “O‘zbekiston xalqlari tarixi” ni yozdilar.

Urushning og‘ir sharoitlarida o‘zbek olimlarining ilmiy va amaliy ishlari front, aholi va g‘alaba uchun beqiyos ahamiyatga ega bo‘ldi, xalqimizning mehnat faoliyatiga kuch-quvvat bag‘ishladi. O‘zbekistonning urush yillaridagi tarixi sovet davri adabiyotlarida keng yoritildi. O‘zbekistonning ikkinchi jahon urushi yillaridagi tarixshunosligi haqida gapirilar ekan, unda ko‘proq front ortida xalqimizning ko‘rsatgan jasorati ko‘proq o‘rganilganligini alohida qayd etib o‘tish joiz.

Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng ushbu davr mavzusi va uni o‘rganish to‘xtab qolgani yo‘q. Ayniqsa, 1995 yilda G‘alabaning 50 yilligi Respublikamizda keng nishonlandi. Mana shu sanaga bag‘ishlab ushbu davrga bo‘lgan qiziqish va e’tibor kuchaydi, arxiv materiallari o‘rganildi. Shuningdek, eng katta ishlardan biri “Xotira” kitobining nashr etilishi bo‘ldi. Juda ko‘plab urushda bedarak ketganlar va jangdan qaytmaganlar aniqlandi. Urush va frontorti faxriylari e‘zozlandi, ularga katta hurmat ko‘rsatildi. Ko‘plab muzeylar yangidan-yangi eksponatlar bilan boyidi. Toshkentda va keyinroq viloyat markazlarida “Xotira” maydonlari tashkil etildi. 9 may Respublikamizda “Xotira va qadrlash kuni” bayrami mifatida nishonlana boshladi.


Urush tugashi bilan vaziyat o‘zgardi. O‘zbekiston iqtisodiyoti Ittifoqning yagona xalq xo‘jaligi majmui doirasida rivojlanib bordi. Markazdan turib boshqarish Respublika boyliklaridan metropoliya manfaatlarida foydalanishga imkon berdi. Sanoatni maqsadga muvofiq ravishda joylashtirishning zarur sharti xom-ashyoning yaqin bo‘lishi hisoblanadi. Respublikada xom-ashyo resurslari mo‘l bo‘lsa-da, ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar yo‘q edi. Paxtadan mahsulot ishlab chiqaruvchi ip-gazlama kombinatlari Rossiya markazida joylashgan edi. Bunday tartib mahalliy aholi manfaatiga zid bo‘lishiga qaramay, keladigan daromadning hammasi

Markazga tushar edi. Bunday muammolar millatlararo munosabatlarda keskinlikni yuzaga keltirdi.

Urush yillarida ziyolilar ma'lum bir erkinlik asosida ijod qilganliklari sezilgan edi. Lekin, urushdan keyin mustabid tuzumning o'zbek ziyoli ijodkorlarining ushbu erkinliklariga qarshi xuruji yanada avj oldi. Darhol "tegishli" choralar ko'rib, bir qancha qarorlar qabul qilindi. Ularda, jumladan, tarixchi, yozuvchi va boshqa ziyolilar "markscha-lenincha ilmiy tahlil qilish o'rniga, o'z xalqlarining feodal o'tmishini ulug'lab yubordilar", deb ko'rsatildi. Ushbu "kamchiliklar"ni tekshirish va to'g'ri baholash uchun O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi maxsus komissiya tuzdi. Komissiyaning fikricha, "haqiqatan ham" ayrim ijodkor ziyolilar partiyaning bosh yo'liga zid ravishda "inqilobgacha bo'lgan o'tmishni ulug'lashga, qadimiy madaniyat qarshisida qullarga tiz cho'kishga" yo'l qo'yganlar, degan tanqidlar kuzatildi.

Markazning dasturulamal hisoblangan hujjatlarida millatlar va elatlar teng huquqlidir, deb e'lon qilindi. Biroq, Ittifoqdagi har bir xalqning madaniyati "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" bo'lishi kerak, degan stalincha g'ayriilmiy nazariya shunday yo'l tutilishiga olib keldi. Ushbu nazariyaga ko'ra, asosan, baynaminal madaniyat rivojlanishi zarur edi.

Milliy madaniyatning rivojlanishi esa ikkinchi darajali masala hisoblanar edi. 1960-yillarning boshlaridan "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" madaniyat to'g'risidagi stalincha nazariya "madaniyatlarning gullab-yashnashi va bir-biriga yaqinlashuvi" to'g'risidagi yangi g'oya bilan almashtirildi. U amalda millatlar bir-biriga chatishib ketishi kerak, degan ma'noni anglatar edi. Ushbu davrda butun sobiq Ittifoqda bo'lgani kabi, O'zbekistonda ham jamiyat hayotidagi mavjud muammolar to'g'risida lom-mim deyilmadi. Aksincha, xalqlar "rivojlangan sotsializm" sharoitida yashayotganligi, ularning baxtiyor hayoti to'g'risida asarlar yaratildi. Bu esa, o'z navbatida, shu davrdagi haqqoniy tarixni o'rganish imkoniyatini cheklab qo'ydi.



Shubhasiz, mazkur ikki maktab namoyondalari metodologiyasi, ilmiy yondashuvi va g‘oyaviy qarashlarida namoyon bo‘lgan. Sovet davridagi ijtimoiy-gumanitar fanlar markscha-lenincha g‘oyalarga asoslangan va ular ko‘pincha, g‘arb olimlarini muammoga ob‘ektiv yondashmaslikda hamda tarixiy haqiqatni soxtalashtirishda ayblagan. Lekin, aslida tarixiy muammolarni yoritishda kompartiyaning g‘oyaviy bosimi ta‘sirida bo‘lgan sovet tarixshunosligi tarixiy jarayonlarni buzib, soxtalashtirib talqin qilganlar. Aynan qayta qurish yillarida O‘zbekiston tarixining tarixiy davrlari va ko‘pgina yo‘nalishlari qayta ko‘rib chiqildi. Natijada tarix fanida ustuvor bo‘lgan eski g‘oyalarga zarba sifatida “Bosmachilik harakati” – “Milliy ozodlik harakati”, “Oktyabr inqilobi” – Turkistonga eksport qilingan to‘ntarish, jadidchilik – milliy taraqqiyotparvarlik harakati, “Turkiston muxtoriyati” esa birinchi milliy davlatchilik qurilishiga urinish, deb baholandi. Ushbu ishlar haqiqiy tarixni o‘rganish borasida dastlabki katta qadam edi.

Mustaqillikdan keyin yaratilgan asarlar, ilmiy tadqiqotlarda ushbu davrning real tarixi yaratildi va yaratilmoqda. Masalan, K. Usmonov va boshqalar yaratgan “O‘zbekiston mustamlaka va mustaqillik yillarida” nomli asarda sobiq sovet davri, jumladan, 1950–1980- yillar tarixi qaytadan yaratildi. Shuningdek, “O‘zbekistonning yangi tarixi”ning ikkinchi tomida O‘zbekiston tarixining turli davrlariga bag‘ishlangan ko‘plab fundamental asarlar, ilmiy tadqiqotlarda ham xuddi mana shu davr ob‘ektiv ravishda yoritib berildi.

Xulosa qilib aytganda, sovet mustabid tuzumi davrida tarix fani har tomonlama rivojlandi, sovet davrida tarixga oid tomlab fundamental ishlar yaratildi. Biroq, ularning aksariyatida voqealıklar o‘zining xolis bahosini olmadi. Ushbu davr tarixi bugungi kunga kelib o‘zining haqqoniy bahosini olmoqda.

Markaziy Osiyodagi boshqa xalqlarning XX asr tarixi tarixshunosligi

Qoraqalpoq xalqi tarixi tarixshunosligi. Sovet davrida qoraqalpoqlar haqida ko‘plab kitoblar yozilgan bo‘lib, ularning deyarli hammasi o‘sha davr hukmron partiyaning talabi va mafkurasiga moslashtirilgan edi. Bunday kitoblar sirasiga M. P. Payzullaeva, M. M. Niyozova va G. Q. Matyoqubovalar tomonidan tuzilgan “Qoraqalpog‘iston ASSR matbuoti” nomli kitobini kiritish mumkin. Ushbu bibliografik ko‘rsatkichda 1917–1975- yillarda Qoraqalpog‘istonda nashr qilingan kitob, broshyura hamda davriy matbuot nashrlari tavsiflangan. Rus va o‘zbek tillaridagi ushbu ko‘rsatkichda keltirilgan ma’lumotlarda o‘z mafkurasini aks etganini yaqqol his qilish mumkin.

Umuman olganda, avtonom Respublikada o‘sha davrda nashr etilgan adabiyotlarda marksizm-leninizm g‘oyalari keng targ‘ib etilgan. Shuningdek, ateizمنى targ‘ib etuvchi bir qancha kitoblar haqida ma’lumotlar keltirilgan asarlar amalga oshirildi. Ularda, jumladan, dinga qarshi kurash, “diniy qoldiqlar va ularning ziyoni”, “diniy qoldiqlarni yengish”, “qurbon hayitining kelib chiqishi va uning ziyonlari” kabi masalalar talqin etildi.

P. G‘oipovning “Qoraqalpog‘istonda markscha-lenincha g‘oyalarning tantanasi” deb nomlangan asarida “Ilmiy dunyoqarashli, kommunizmning aktiv quruvchisi, sotsialistik Vatanning otashin vatanparvari bo‘lgan yangi kishini tarbiyalash – hozirgi sharoitda partiyaning eng muhim vazifalaridan biridir”, deb qayd etilgan. Shuningdek, asar haqida: “Mazkur tadqiqotning aktualigi shundaki, u markscha lenincha ta’limotning ilmiyligi va revolyusion-amaliy o‘zgartiruvchilik rolini inkor etayotgan, Sovet Sharq xalqlarining kommunistik qurilishda erishgan juda katta muvaffaqiyatlarini nazar-pisand qilmaslikka va kamsitishga urinayotgan oshkora va niqoblangan g‘oyaviy dushmanlarimizni fosh etish ishiga xizmat qiladi”, degan fikrlar qayd etilgan.

Asarda yozilishicha, qoraqalpoq xalqi ongiga markscha-lenincha ideologiyani singdirish va qaror toptirishda ovul Sovetlari, “Qo‘shchi” soyuzlari, kooperativ tashkilotlar va boshqalar katta rol o‘ynagan. Asarda Leninning Markaziy Rossiyada qurg‘oqchilik va hosilsizlik natijasida boshlangan qahatchilik munosabati bilan 1921 yil 2 oktyabrda qoraqalpoq xalqiga yuborgan “Orol dengizidagi ishchi va baliqchi o‘rtoqlarga” deb nomlangan murojaati keltirilgan. Muallifning qayd etishicha, “dohiy”ning nomasi qoraqalpog‘istonlik baliqchilarni ilhomlantirib yuborgan va ular o‘sha yili Rossiyaning markaziy rayonlariga 280 ming pud baliq jo‘natganlar.

Mazkur asarda keltirilishicha: “Qoraqalpog‘iston partiya tashkiloti Lenin ko‘rsatmalariga amal qilib, 1920 yil xalq maorifi bo‘limi huzurida savodsizlikni tugatish bo‘yicha favqulodda komissiya tashkil etdi, 1924 yilda esa “Yo‘qolsin, savodsizlik!” degan jamiyat tashkil topdi. Ana shu va boshqa choralar natijasida 1924/1925 o‘quv yilida Qoraqalpog‘istonda 45 ta umumiy ta’lim maktabi ishlagan edi”.

Muallifning qayd etishiga ko‘ra, 1925–1926- yillarda Respublikada 11 ta siyosiy savod maktablari ishlab, ularda 330 tinglovchi shug‘ullangan. Marksizm-leninizm ta‘limotini o‘rganuvchilarga o‘quv va metodik jihatdan yordam berish uchun 1932 yilda To‘rtko‘lda Respublikada birinchi partkabinet tashkil etilgan. 1939 yilga kelib esa bunday partkabinetlar soni 18 taga yetgan edi. Ularning xodimlari marksizm-leninizm asoslari bo‘yicha leksiylar, partiya tarixini o‘rganuvchilar bilan kengashlar, nazariy suhbatlar, konferensiyalar va kommunizm asoschilarining asarlari bo‘yicha konsultatsiyalar o‘tkazganlar. Kino, radio, kutubxona, klub, teatr, muzey va boshqa madaniy-oqartuv muassasalari ham marksizm-leninizmni keng yoyishning ta‘sirchan vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Umuman olganda, ushbu asarning asosiy mavzusi markscha-lenincha targ‘ibotdan iborat.

“Qoraqalpog‘iston ASSR Xo‘jayli rayon xalq kontroli komitetining xalq kontroli gruppalari va postlariga rahbarligi haqida” deb nomlangan kitobda partiya tashilotlarining o‘rni va roli masalalari ochib berilgan. Unga keltirilishicha, Xo‘jayli rayoni xalq kontroli komiteti bir yil ichida davlat plan va majburiyatlarining bajarilishi, ishlab chiqarish samaradorligi, bajarilayotgan ishlarning sifatini oshirish, rezervlarini aniqlash va ularni ishga solish, sotsialistik mulkning saqlanishi, davlat intizomi va sotsialistik qonunchilikni mustahkamlash kabi masalalariga oid 81 marotaba tekshirish o‘tkazgan. 1977 yilda komitet tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlarda grupp va postlarning 1800 dan ortiq a‘zosi qatnashgan. Asarda yozilishicha, Xo‘jayli rayonida 16 ta sanoat korxonasi, 29 ta qurilish, transport va aloqa tashkilotlari, 4 ta sovxoz, 8 ta kolxoz, o‘nlab maktab, savdo korxonalari, maishiy-madaniy va meditsina muassasalari ishlab turgan.

A. Rajabovning “Qoraqalpog‘iston SSRning davlat tuzilishi” deb nomlangan asarida Qoraqalpog‘iston ASSRning tashkil qilinishi, uning konstitutsiyasi, davlat hokimiyatining oliy va mahalliy organlari, sud va prokuratura tizimi haqidagi ma‘lumotlar yoritilgan. Asarda Oktyabr inqilobi ulug‘lanib, sovet tuzumining qoraqalpoq xalqi uchun “ahamiyati” ko‘rsatib berilgan.

Qoraqalpog‘iston tarixiga bag‘ishlangan boshqa bir asarda Qoraqalpog‘istonning qadimgi davridan to 1986 yilgacha bo‘lgan tarixi bayon etiladi. Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismda qadimgi davrlardan to 1917 yilgacha bo‘lgan voqealar yoritilsa, ikkinchi qismda esa 1917 yildan 1982 yilgacha bo‘lgan voqealar aks etgan. Unda, jumladan, Qoraqalpog‘istonda sotsialistik inqilobning g‘alabasi, xalq xo‘jaligining tiklanishi davri tarixi, ta‘lim tizimi, industrlashtirish va qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish, Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi tiklanish davri, sotsialistik jamiyatning keyingi rivoji, shuningdek, Qoraqalpog‘iston ASSRda madaniyat taraqqiyoti masalalari davr ruhida o‘z aksini topgan.

Qoraqalpolarga bag‘ishlangan yana bir asarda asosan, Qoraqalpog‘istonning Rossiya imperiyasi davri tarixi bayon etilgan bo‘lsa, sovet davri tarixi esa qisman, asar so‘nggida berilgan. Asarda yozilishicha, 1916–1917- yillarga kelib, Qoraqalpog‘istonda vaziyat juda og‘irlashib ketgan. Iqtisodiy inqiroz va ocharchilik tufayli xalq noroziligi

kuchaygan. Rossiyadagi Fevral burjua-demokratik inqilobi Qoraqalpog‘istondagi xalq ozodligi harakatiga turtki bo‘ldi. Fevral voqealari ta’siri natijasida Petro-Aleksandrovsk, ya’ni To‘rtko‘lda inqilobiy harakatlar kuchaygan. Bolshevik guruhlar boshchiligida soldat, ishchi va dehqonlar o‘rtasida aloqalar mustahkamlangan, inqilobiy targ‘ibotlar olib borilgan. Xullas, asarda Qoraqalpog‘istonda sovetlarning hokomiyat tepasiga kelishi tafsilotlari yoritib berilgan.

Hudud geografiyasiga bag‘ishlangan yana bir asarda Qoraqalpog‘iston cho‘llari haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan, Janubi-g‘arbiy Qizilqum, uning kelib chiqishi, tuproq tarkibi, Amudaryo va Zarafshon allyuvial hududlaridagi qumlar, Amudaryoning chap qirg‘og‘i, Jaman va janubiy hududlar qumlari haqidagi ma’lumotlar berilgan.

Shuningdek, asarda Qizilqum qumlarini xo‘jalik uchun ishlatish yo‘llari haqida ma’lumotlar mavjud. Asarda yozilishicha, Qoraqalpog‘istonning qumli yaylovlari shimoliy qumliklarning yaylovlariga nisbatan ancha foydali bo‘lib, undan deyarli butun yil mobaynida foydalanish mumkin. Qizilqumning sharqiy va shimoliy qumlari bilan solishtirganda, Qoraqalpog‘istonda tog‘li rayonlar bo‘lib, bu mavsumiy yem-xashaklardan foydalanish va yem-xashak tayyorlash uchun qulaydir. Shu bilan birga, tog‘ hududlarida suv bilan ta’minlanishning qulayligi chorvachilik xo‘jaligini to‘g‘ri tashkil etishga imkon beradi.

Qayd etilishicha, Amudaryo bo‘ylaridagi hududlarni ortiqcha suvlar bilan sug‘orish imkoni mavjudligi bu yerlarda intensiv chorvachilik va dehqonchilik xo‘jaliklarini tashkil qilish imkonini beradi. Asarda keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Oqtog‘ yonbag‘rlarida qorako‘lchilik sovxozi, Kuljuktog‘, Xalat, Jangildi, Toshquduq buloqlari yaqinida joylashgan O‘zSSRning katta qorako‘lchilik sovxozi hudud iqtisodiyoti uchun muhim ahamit kasb etgan.

Shuningdek, asarda cho‘l o‘simliklari va ularning xo‘jalikda ishlatilishi haqida ham ma’lumotlar beriladi. Muallifning fikricha, saksovullar kichik Qizilqumda kam ahamiyatga ega.

Navbatdagi asar “Karakalpakiya” deb nomlanadi. Unda Qoraqalpog‘iston hududi va Qizilqumdagi geobotanik qumliklari hamda ulardan foydalanish yo‘llari, Amudaryo deltasidagi o‘simlik dunyosi, Qizilqumdagi yem-xashak resurslari, Qoraqalpog‘istonning tuproqlari va ularning xo‘jalik xususiyatlari, Qoraqalpog‘istondagi suv-xo‘jalik masalalarini kompleks hal qilish, chorvachilikning istiqbollari, o‘rmonlar, Qoraqalpog‘istonda “Madaniy inqilob”, qoraqalpoqlar tarixini o‘rganish bo‘yicha materiallar, qoraqalpoq tilining o‘rganilishi, uning yangi orfografik qoidalari kabi masalalar yoritilgan.

Asarda savodsizlikka qarshi kurashish masalalari haqida ham ma’lumotlar mavjud. Maktabgacha ta’lim, xalq ta’limi, savodsizlikka qarshi kurash, Qoraqalpog‘istonda “Madaniy inqilob” kadrlari, nashrchilik va adabiyotning rivoji, milliy san‘at, lotin alifbosiga o‘tilishi va qoraqalpoq ayollarining ijtimoiy ahvoli haqida ma’lumotlar ham ushbu asardan o‘rin olgan.

Yana bir asarda Qoraqalpog‘iston hududi, aholisi, qishloq xo‘jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, o‘rmonchilik, baliqchilik xo‘jaligi, sanoati, transporti, aloqa yo‘llari, kommunal xo‘jalik, Nukusdagi bunyodkorlik ishlari, sog‘liqni saqlash, mehnat va kadrlar, kapital qurilish va Qoraqalpog‘istonning byudjeti haqidagi ma‘lumotlar mavjud. Qoraqalpog‘istonning hududi va aholisi haqidagi ma‘lumotlarda haydaladigan, o‘rmon, to‘qay, pichanzor va yaylov maydonlari gektar va foiz jihatdan ko‘rsatilgan. Qoraqalpog‘istondagi tumanlar aholisining soni, milliy tarkibi va mehnatga yaroqli aholi haqida ma‘lumotlar berilgan. Shuningdek, hudud transporti va uning turlari, pochta aloqalari hamda radio tarixi masalalari yoritilgan.

“Agrarnaya politika sovetkoy vlasti v Karakalpakii” asari 3 ta bobdan iborat bo‘lib, uning birinchi bobida Xiva xonligining qoraqalpoqlar yashaydigan hududlarida XIX arning ikkinchi yarmidan 1920 yilgacha bo‘lgan agrar munosabatlar haqida ma‘lumot beriladi. Ikkinchi bobda Amudaryo bo‘limida sovet hokimiyati o‘rnatilishi va mustahkamlanishi davridagi birinchi agrar tadbirlar, fuqarolar urushi va chet davlatlarning harbiy intervensiyasi davrida sovet hokimiyatining Amudaryo bo‘limi qishloq xo‘jaligida amalga oshirgan tadbirlari haqida ma‘lumotlar beriladi.

Uchinchi bob “Amudaryo oblastida agrar islohotlar” deb nomlanib, unda Amudaryo bo‘limida dehqon xo‘jaliklarining yer tuzish tadbirlari, “Qo‘shchi” ittifoqi va boshqa yirik dehqon tashkilotlarining viloyatdagi agrar islohotlarni amalga oshirishdagi o‘rni, sovet davlatining Amudaryo viloyatida dehqon xo‘jaligini tiklash uchun kurashi haqida ma‘lumotlar mavjuddir.

Navbatdagi asar Qoraqalpog‘istonning “rivojlangan sotsializm” davri tarixiga bag‘ishlangan. Unda Qoraqalpog‘istonda xalq xo‘jaligining rivojlanishi, Respublika mehnatkashlarining moddiy farovonligi va madaniy hayot darajasining o‘shishi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Qoraqalpog‘istondagi ishlab chiqarish kuchlariga bag‘ishlangan yana bir asarda avtonom Respublikasining tabiati, resurslari, sug‘orish tizimi, “sotsialistik” qishloq xo‘jaligining rivojlanishi, jumladan, ipakchilik, asalarichilik, qorako‘lchilik, yilqichilik va boshqa sohalarga oid ma‘lumotlar berilgan.

O‘zbekistonning mustaqillik yillaridagi iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayoti tarixshunosligi

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng haqqoniy tarixni o‘rganish, tarixiy asarlarni tahlil qilish va xolislik bilan yondashishga imkoniyat paydo bo‘ldi. Ayniqsa, tarix fanining rivojlanishida O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari muhim ahamiyatga egadir. Xususan, buning uchun “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asari muhim nazariy-metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Ushbu asarda Islom Karimov: “Sovetlar davrida yozilgan tarixni men tarix sanamayman. O‘zgalar yozib bergan tarixni o‘qishga mutlaqo qarshiman. Mustamlakachi o‘ziga qaram bo‘lgan xalq haqida qachon xolis, adolatli fikr aytgan? Ular bor kuch-g‘ayratlarini

Turkistonning o‘tmishini kamsitishga, bizni tariximizdan judo qilishga sarflaganlar”, – degan fikrlarni qayd etgan edi.

Shuningdek, Birinchi Prezidentimiz “O‘zbekiston; Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura” asarida: “SSSR parchalanib ketdi. 74 yil mobaynida O‘zbekiston taqdiri va ta‘minoti Ittifoq qo‘lida edi. Sovet ittifoqi bu yerdan mahsulot va xom-ashyoni olib ketib, bizga suv va havoday zarur narsalarni o‘z ko‘rsatmasi bilan keltirib berardi. Sodda qilib aytganda, paxta va boshqa boyliklarimiz olib ketilardi, don, shakar, yonilg‘i va boshqa xalq iste‘moli mollari, umuman, hayotimizga, iqtisodiyotimizga va xalq xo‘jaligimizga zarur bo‘lgan mahsulotlar olib kelinardi. Mana, birgina misol. Sobiq SSSR Kanada va Amerikadan har yili 40–50 million tonna g‘alla sotib olardi. Shuning hisobidan O‘zbekistonga ham ulush berardi. Ittifoq parchalanib ketganidan keyin biz yillik ehtiyojimizga etarli 6 million tonna g‘allani qayoqdan olib kelishni, qayoqdan valyuta topishni o‘ylab rosa sarson-sargardon bo‘ldik, – deb ta‘kidlagan edi.

I. A. Karimovning “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” asarida esa: “Biz taraqqiyotda asosan, o‘z kuchimizga tayanishga majburmiz. Shuning uchun eng muhim bazaviy tarmoqlarni birinchi navbatda rivojlantirish hayot taqozosidir. Bular jumlasiga neft va gaz sanoati, energetika, oltin qazib chiqarish va rangli metallurgiyaning boshqa tarmoqlari kiradi. Hozir biz zarur neftning 80 foizini chetdan tashib keltirishga majbur bo‘lyapmiz. Bundan tashqari, benzin va boshqa neft mahsulotlari ham Respublikaning tashqarisidan sotib olinyapti. Ularning narxlari muttasil oshib borayotganligi iqtisodiyotimizga og‘ir yuk bo‘lib tushmoqda. Ayni paytda esa, biz o‘zimizni neft va boshqa energetika resurslari bilan ta‘minlash imkoniyatiga egamiz. Bundan tashqari, mazkur tarmoqlarning keskin rivojlanishini ta‘minlash valyuta tushumlarini ko‘paytirishning ishonchli manbai, xorijiy sarmoyalarni jalb etish obekti ham bo‘la oladi. Eksport quvvatidan to‘la-to‘kis va mumkin qadar ko‘p foydalanish hamda uni rivojlantirish iqtisodiyotimizni mustahkamlashning g‘oyat muhim shartidir. O‘zbekiston Ittifoq tarkibida tashqi bozorga mustaqil chiqmasdi. Jahon savdosida qatnashmasdi. O‘zining iqtisodiy quvvatini etarlicha ishga tushira olmasdi. Shuning uchun bugungi kunda butun tashqi iqtisodiy faoliyatimizni tubdan isloh qilmoq zarur. Rivojlangan eksport quvvatisiz O‘zbekistonning kelajagi bo‘lmaydi. Eksport tarkibida chuqur o‘zgartirishlarni amalga oshirish lozim. Xom ashyoni eksport qilishdan ko‘ra, O‘zbekiston uchun ko‘proq naf keltiradigan yo‘nalishlarga o‘tish zarur. Bular jumlasiga yengil sanoatning, qayta ishlash sohalarining, mashinasozlikning ilm-fanga asoslangan tarmoqlari tayyor mahsulotlarini chet ellarga sotish, chet el turizmini rivojlantirish kiradi”, - deya ta‘kidlanadi.

Islom Karimovning “Ozod va obod Vatan erkin va farovonlik hayot pirovard maqsadimiz” asarida yozilishicha, Vatanimizning ko‘p ming yillik tarixi el-yurtimizni bosqinchi, yovuz kuchlardan himoya qilish, millatimizning erkinligi va or-nomusini asrash yo‘lidagi buyuk voqealarni, bu kurashlarda jasorat va mardlik ko‘rsatgan buyuk shaxslarning nomlarini asrlar davomida o‘zining yorqin xotirasida saqlab kelmoqda.

Jaloliddin Manguberdi - ona yurt himoyachisi, jasur sarkarda va davlat arbobi, xalqimizning Spitamen, Muqanna, Najmiddin Kubro, Amir Temur singari tarixda o'chmas iz qoldirgan milliy qahramonidir.

Jaloliddin Manguberdi bor-yo'g'i o'ttiz ikki yillik qisqa hayoti davomida el-u yurt uchun, xalq ozodligi uchun so'nmas xizmat qilishga ulgurgan ulug' ajdodimizdir. Aziz do'stlar! Jaloliddin Manguberdining beqiyos jasoratini anglash uchun, avvalo, u yashagan tarixiy davr, shu davrlarning mashaqqatli va beshafqat sahifalarini o'zimizda tasavvur qilib ko'raylik. Shu paytgacha hech qaysi davlat, hech qaysi el bas kelolmagan, Xitoy va bepoyon Sibir yerlaridan boshlab bugungi Kaspiy va Qora dengiz bo'ylarigacha bo'lgan o'lkalarni zabt etgan, yo'lida uchragan shahar-qishloqlarni yondirgan, dahshati o'zidan oldin etib, ne-ne shoh-u shahanshohlar, amir-u sultonlar, sarkardalar yuragiga vahima solgan Chingizxon lashkarining Xorazm ustiga balo-qazoday yopirilib kelayotganini ko'z oldingizga keltiring.

Bir tomondan, boy-badavlat, ikkinchi tomondan, parokanda bo'lib yotgan yurtimizning o'sha paytdagi ahvolini ham bir o'zingizga tasavvur qilib ko'ring. Chingizxon shunday bir mash'um kuch ediki, dunyodagi manaman degan qancha zotlar uning qarshisida tiz cho'kib, qulluq qilib yashashga tayyor edi. Muhammad Xorazmshoh atrofidagi ko'plab beklar ham yov qo'liga taslim bo'lishni afzal ko'rganlarida, Jaloliddin bu fikrga qarshi chiqib, o'zining beqiyos jasorati va qat'iyatini namoyon etdi. Shu paytgacha mag'lubiyatga uchramagan mo'g'ul lashkariga qarshi o'n bir yil muttasil jang qildi. Va g'animglarga shunday qaqshatqich zarbalar berdiki, hatto Chingizxondan makkor va beshafqat, dunyoning yarmini zabt etgan fotih ham unga tan berishga majbur bo'ldi. Aytinglar, aziz do'stlar, ana shunday qaltis vaziyatda o'zi kabi fidoyi, botir insonlarni jipslashtirib, Xorazm zaminini toptashga shay turgan yovuz dushmanga qarshi chiqish uchun odamda qanday jur'at, qanday yurak, qanday iroda, qanchalar baquvvat iymon-e'tiqod bo'lishi kerak?

Aytinglar, buning uchun insonda Vatanga muhabbat, el-u yurtga sadoqat, fidoyilik, ozodlikka intilish tuyg'usi nechog'li yuksak bo'lishi kerak? Qani, aytinglar, do'stlarim, qadrdonlarim, oldindan o'zining qurbon bo'lishini bila turib, lekin Vatan uchun, uning or-nomusi, uning tarixi va istiqboli uchun zimmasiga shunday og'ir qismatni olgan zotlarni tarixda ko'p uchratish mumkinmi? Aminman, bunday shijoatli va mard o'g'lonni dunyoga keltirgan, voyaga etkazgan xalq har qancha hurmat-yehtimomga, har qancha tasannolarga munosibdir.

Hurmatli mehmonlar! Qadrli do'stlar! Sulton Jaloliddin Manguberdi o'z elining baxtu saodati uchun hayot-mamot janglarida jon fido etdi. Lekin dunyoda hech qanday hayrli ish bejiz ketmaydi. Millat ruhi, odamzotning ozodlik sari intilishi abadiydir. Oradan bir asr o'tib, sohibqiron Amir Temur Jaloliddin Manguberdi boshlagan ozodlik kurashini yangi sharoit va ulkan miqyoslarda davom ettirdi. Ona yurtimizni bosqinchilardan xalos qilib, markazlashgan qudratli davlat barpo etdi.

Muhtaram jamoa! Jaloliddin Manguberding hayot yo‘lini tahlil qiladigan, o‘sha tarixiy voqealarga bugungi kun ko‘zi bilan qarab baho beradigan bo‘lsak, ular bizni mana shunday tabiiy va ibratli saboq-xulosalar chiqarishga undaydi. Birinchi xulosa shuki, hayot bor ekan, davlat, el-yurt bor ekan, shu erkin, osuda hayotni ko‘rolmaydigan, hasad va fitna bilan yashaydigan, zo‘ravonlik bilan o‘z hukmronligini o‘rnatishga, xalq tinchini buzishga urinadigan yovuz kuchlar hamisha bo‘ladi. Bu – hayot, bu – hayotning achchiq haqiqati. Uni hech kim inkor etolmaydi. Buni nafaqat o‘z tariximiz va hayotimizda, balki boshqa xalqlar tarixi va hayoti misolida ham ko‘rish mumkin”.

Darhaqiqat, gumanitar fanlar orasida tarix alohida nufuzga va ahamiyatga egadir. Birgina misol, tarix – agar unga tashqi siyosiy ta‘sir o‘tkazilsa biror bir xalq tarix sahnasidan olib tashlanishiga yoki yaratilishiga, tarixiy jarayonlarni manfaat yuzasidan o‘zgartirilishiga, ba‘zan siyosiy kurashlarni legitimlashtirishga, daliliy ma‘lumotlarni bir kuch manfaati uchun noto‘g‘ri talqin qilinishiga, haqqoniy tarix chetda qolib, hukmron quchning foydasi uchun hizmat qiladigan tarix yozilishiga va shu kabi yakuni ayanchli bo‘lgan oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Shu jihatdan, mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan imzolangan 2017 yil 17 fevraldagi “Fanlar Akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2789-sonli qarori ahamiyatlidir. Qarorga muvofiq, Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha Jamoatchilik kengashiga aylantirildi.

Kengashning asosiy vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi: O‘zbekistonning eng yangi tarixini zamonaviy nazariy-metodologik, fanlararo yondashuvlarga, tarixiylik va xolislik tamoyillariga asoslangan holda tizimli o‘rganishni tashkil etish, O‘zbekistonning eng yangi tarixi bo‘yicha dolzarb muammolarni ishlab chiqish, shuningdek, buyuk tarixiy-madaniy merosga ega bo‘lgan va jahon sivilizatsiyasining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan o‘zbek xalqining tarixiy o‘tmishi va bugungi kuniga baho berishda bir yoqlama yondashuvlar va aqidaparastlikka yo‘l qo‘ymaslik ishlarini muvofiqlashtirish va boshqalar.

O‘zbekiston o‘z siyosiy mustaqilligi va demokratik erkinligini qo‘lga kiritganidan so‘ng ushbu muhim mavzuni nafaqat batafsil tadqiq qilish, balki, ushbu masalalarni mahalliy tarixchilar tomonidan bitilgan eng birlamchi manbalar asosida o‘rganish, ertangi kun yo‘nalishlarini belgilash uchun katta imkoniyatlar vujudga keldi. D. A. Alimovning 3 jildidan iborat “Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka”, T. S. Saidqulovning “O‘rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar” asarlari ham tarixni tushunishda va o‘rganishida muhim adabiyotlar hisoblanadi.

Jumladan, T. S. Saidqulovning “O‘rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar” qo‘llanmasini yaratishda O‘zbekiston tarixiga oid asarlar, yozma manbalardan ijodiy foydalanildi. Ayni paytda jonajon tariximizni yaratishda

beg‘araz ilmiy xolislik, biror-bir mafkuraning ustuvorligiga sun‘iy yo‘l qo‘ymaslik va tariximizga insonparvarlik ko‘zi bilan qarash g‘oyasiga amal qilindi. Vatan tarixini o‘rganish va yoritishda uning davrlarini ilmiy asosda to‘g‘ri belgilash ham katta ahamiyatga ega. Ushbu kitobda sobiq marksizm-leninizm ta‘limotiga asoslangan formatsiyalarga bog‘lab o‘rganish o‘rniga yangicha sivilizatsion yondashuvga asoslangan metodologiya tamoyillariga amal qilishga harakat qilindi.

R. Shamsutdinov va Sh. Karimovlarning “Vatan tarixi” kitobi ham mustaqillik yillarida yaratilgan O‘zbekiston tarixini haqqoniy yorituvchi asarlar sirasiga kiradi. Ushbu kitob 3 qismdan tashkil topgan bo‘lib, uning 1-qismida yozilishicha, mamlakatimizda o‘tkazilayotgan nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy sohalaridagi islohotlardan ham asosiy ko‘zlangan maqsad, barcha o‘zgarishlarning natijasi va belgisi milliy valyuta, ya’ni so‘mimizni mustahkamlash, uni bosqichma-bosqich jahonning kuchli valyutalari bilan konvertatsiyalashga, ya’ni erkin almashuviga erishishdir. Ushbu sohada talay ishlar qilindi. Lekin, 1995 yilda shu masalani uzil-kesil hal qilish yili bo‘lishiga ishonaman. Respublikamiz do‘konlari va bozorlari tovarlar bilan to‘lib-toshagina milliy valyutamiz kuch-qudrat kasb etadi, obro‘-e‘tibor topadi. Yana bir bor ta’kidlamoqchiman: milliy valyutamiz mustahkam bo‘lsagina davlatimiz qudratli, obro‘li, hayotimiz farovon bo‘ladi! Men “davlat” so‘ziga alohida urg‘u berayotganim bejiz emas. Islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlari va aniq maqsadlarini belgilash, shu maqsadlarga erishish uchun tegishli sharoit, mexanizmlarni yaratish va amalga oshirish davlat zimmasiga tushadi.

Ватан тарихини қуйидаги катта даврларга бўлиш тавсия этилди:

Ибтидоий жамоа даври.

Ўзбекистон ҳудудидаги энг қадимги ва қадимги давлат тузилмалари.

Ўрта асрлар даври.

Туркистон Россия империяси босқини ва мустамлакачилиги даврида.

Ўзбекистон советлар ҳокимияти даврида.

Ўзбекистоннинг ўз мустақиллик ва тараққиёт йўли.

O'tish davrida xalqimizning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini muhofaza qilish, ularga tegishli yordam berish jarayoni islohotlarning ikkinchi bosqichida ham davom etadi. O'zlarimiz bir o'ylab ko'ringlar: islohotlardan maqsad nima? Yangi jamiyatimiz binosi avvalambor kim uchun qurilyapti? Albatta, xalqimiz uchun! Farzandlarimiz uchun! Odamlarimizning ahvol-ruhiyatidan xabardor bo'lib turaylik, bir-birimizga ko'maklashaylik. Mehr-oqibat, muruvvat bo'lmagan jamiyat halokatga mahkumdur.

Ushbu katta davrlarni o'z navbatida bir necha kichik davrlarga bo'lib o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston tarixini davrlashtirishda quyidagi omillarni e'tiborga olish joizdir:

“Yuqorida qayd etilgan har bir davr, – deb yozadi akademik Ahmadali Asqarov, – o'z navbatida bir necha tarixiy bosqichlardan iborat bo'lib, ular haqidagi tegishli tafsilotlar hamda ularning mazmun-mohiyati tarix fanida hozirgacha amal qilib kelinayotgan davrlashtirish prinsiplari bilan qiyosiy o'rganib chiqildi”.

1. Arxeologik va etnografik manba va materiallar, yozma manbalar –“Avesto”, mixxat, fors yozuvlari, qadimgi yunon, xitoy, hind, rim va vizantiya tarixchilarining asarlari.

2. Ulug' ajdodlarimiz — buyuk allomalar va dono mutafakkirlar, tarixchilar, shoirlar hamda yozuvchilar qoldirgan asarlar.

3. Turli hujjatxonalarda saqlanayotgan qo'lyozma asarlar, hujjatlar va ashyolar.

Mustaqillik yillarida o'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o'rganish ham muhim masalalardan biri edi. A. Asqarovning “O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi” asarida ushbu masalaga oydinlik kiritildi. Etnogenez masalasini o'rganish madaniyat tarixining umumiy muammolarini izohlash uchun muhim ahamiyatga molikdir. Markaziy Osiyo beshta mustaqil davlat: O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston, Qirgiziston va Turkmaniston hududlari kiradi. Ushbu mintaqada qadimgi yuksak madaniyat yaratgan xalqlar uzoq va murakkab tarixiy taraqqiyotni bosib o'tib, asrlar mobaynida bir-birlariga yaqin munosabatlarda bo'lganlar va yagona tarixiy-etnografik hududni tashkil etadilar. Markaziy Osiyo xalqlari turli tarixiy davrlarda har xil nomlar bilan atalib kelingan. Qadimgi Markaziy Osiyoga nafaqat hozirgi Markaziy Osiyo hududlari, ayni vaqtda Eronning shimoli-sharqiy, Afg'onistonning shimoliy hududlari ham kirgan. Miloddan avvalgi VI asrda ushbu hududlarda Eron podsholigi, IV asrda esa Iskandar Zulqarnayn boshliq yunon-makedon podsholigi hukm surgan. Miloddan avvalgi asrlarda ushbu hududlar Xorazm va Kang' davlatlari, keyinchalik esa Kushon podsholigi, Turk xoqonligi va Arab xalifaligi tarkibida bo'lgan. X–XI asrlarda qadimgi O'rta Osiyoda Somoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar davlatlari paydo bo'lgan. Birmuncha vaqt ushbu hududlar Qoraxoniylar hukmronligiga ham o'tgan.

Mustaqillik yillarida, shuningdek, O'zbekiston tarixiga bag'ishlangan 3 qismdan iborat “O'zbekiston tarixi” kitobi nashr etildi. Xususan, “O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida” deb nomlangan 2-qism jami 2 bo'lim va 6 bobdan tashkil

topgan bo‘lib, ularda Rossiyadagi Fevral inqilobi, Turkiston Muxtoriyati, BXSР va XXSR tarixi, 20-yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot, sovet davlati boshqaruvi, urush yillaridagi xalqimiz hayoti, mustabid tuzumning darz ketishi, mustaqillik yo‘lidagi harakatlar kabi masalalar bayon etilgan.

Asarda qayd etilishicha, Rossiya imperiyasi Turkiston o‘lkasida qattiqqo‘llik bilan mustamlakachilik zulmi siyosatini olib borgan bo‘lsa-da, tub yerli aholining tarixi, tili, dini, urf-odati, madaniyati kabilarga sovet davlatidek xuruj va tazyiq o‘tkazmagan edi. Sovetlar esa qisqa muddat ichida Turkiston xalqlarining milliy davlatchiligiga barham berdi, tarixidan mahrum qildi, dinini taqiqlab qo‘ydi, tiliga kishan soldi, madaniyat va ma‘naviyatini g‘orat qildi. Xullas, sovet davrida O‘rta Osiyoning yirik millatlaridan biri bo‘lgan o‘zbeklar millat sifatida halokat yoqasiga kelib qoldi.

B. A. Ahmedov ham mustaqillik yillarida tarix fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdi. Xususan, uning “O‘zbeklar ulusi” asari ham tarixni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. XV asrning 20- yillarida Dashti Qipchoqda ko‘chmanchi qabilalar o‘rtasida olib borilgan o‘zaro janglarda Abulxayrxon (1412–1468) boshchiligidagi Shayboniyar nomi ostida urug‘ tarix maydoniga chiqadi. Abulxayrxon 1428 yilda xon etib saylanadi va u qirq yil (1428–1468) davomida hukmronlik qildi. U Sirdaryoning quyi oqimida Sig‘noq, Oqqo‘rgon, Arko‘k, O‘zgan kabi shaharlarni egallab oldi va ushbu hududlardan turib doimo Movarounnahrda tahdid solib turdi.

Abulxayrxon vafot etgach (1468 y.), uning o‘rniga taxtga o‘tirgan o‘g‘li Haydarxon davrida Iboqxon, Jonibek, Gerayxon, mang‘it amirlaridan Yomqurchi va Muso Mirzolar Oltin O‘rda xoni Ahmadxon bilan ittifoq tuzib, Haydarxonga qarshi kurash olib borganlar va g‘alabaga erishganlar, Haydarxon esa qatl etilgan. Shunda shoh Budoqning o‘g‘illari Shayboniyxon va Mahmud Sultonni yaqin kishilari Ashtarxon xoni Qosimning saroyiga olib borib yashirganlar. Bundan xabar topgan sultonlar o‘z qurollarini Qosimga qarshi qaratganlar. Ammo, shahzoda Muhammad Shayboniy o‘z ukasi bilan qamal qilingan Ashtarxondan omon-esson chiqib, Dashti Qipchoqqa yetib kelgan. U XV asrning 80- yillarida bobosi Abulxayrxon birlashtirgan Dashti Qipchoq yerlarini birlashtirish va hokimiyatni qaytadan tiklash uchun kurash olib boradi. Ushbu kurashning dastlabki bosqichida temuriylar Shayboniyxonga katta yordam va madad bergan.

Mustaqillik yillarida yaratilgan muhim adabiyotlardan biri Qamariddin Usmonovning “O‘zbekiston tarixi” kitobidir. Mazkur asar mustaqil O‘zbekiston davlatining tashkil topishi, siyosiy islohotlar, fuqarolik jamiyati, O‘zbekistonning ma‘naviy-madaniy taraqqiyoti, O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi haqida batafsil ma‘lumot beradi.

H. Bobobekov, Sh. Karimov va M. Sodiqovlarning “Mustaqil O‘zbekiston tarixi” kitobi ham mustaqil O‘zbekiston tarixiga bag‘ishlangan, tarixiy voqealar xolislikka yondashgan holda ochib berilgan asarlardan biridir. Mazkur adabiyotda O‘zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishgan davridan keyingi voqealar aks etgan.

Shuningdek, Markaziy Osiyo Respublikalarining ichki va tashqi hayoti mustaqillik davri va jahon hamjamiyati bilan aloqlari to'g'risida ma'lumotlar ham uchraydi.

Mazkur qo'llanma mamlakatimiz tarixining 1917 yil fevral inqilobi, oktyabr to'ntarishi – sovetlar istibdodining o'rnatilishi davridan to 1991 yil 31 avgust – O'zbekiston Respublikasining mustaqil taraqqiyot yo'liga kirgan davriga qadar bo'lgan juda katta davrni o'z ichiga qamrab olgan. Mualliflar “Vatan tarixi” materiallarini yoritishda mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasini asosiy mezon qilib oldilar, ilmiylik, xolislik, tarixiylik, xronologik izchillik va tarix haqiqatining ustuvorligi kabi tamoyillarga mumkin qadar amal qilishga intildilar. Ana shu jihatdan mazkur kitob kommunistik mafkuraviylik asosida sovetlar hukmronligi davrida yaratilgan O'zbekiston tarixiga oid adabiyotlardan keskin farq qiladi.

R. Shamsutdinov va Sh. Karimovning “Vatan tarixi” (2-kitob) kitobi, shuningdek, istiqlolning dastlabki yillarida e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlardan akademik A. Asqarov bosh muharrirligida rus tilida nashr etilgan “O'zbekiston tarixi”. III jild (XVI – pervogo polovina XIX veka) kitobi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Unda so'nggi o'rta asrlardagi yozma manbalar va arxiv to'plamlaridan olingan aniq materiallarni hamda eng yangi adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida O'zbekistonning XVI–XIX asrlarning birinchi yarmidagi tarixi xalqlarning hayoti, turmushi, siyosiy voqealar, iqtisodiyot va madaniyat masalalari ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bevosita g'amxo'rliqi va e'tibori samarasi o'laroq, O'zbekiston tarixini fan sifatida rivojlantirish va uni o'qitishni zamon talablari asosida tashkil etish sohasida e'tiborga loyiq bir qator tadbirlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. 1996 yilda “O'zbekiston tarixini o'qitish va o'rganishning yagona konsepsiyasi” yaratildi va tarix ta'limi jarayonida qo'llanila boshlandi. Mazkur konsepsiya O'zbekiston tarixini fan sifatida o'qitishni yanada yaxshilashda muhim bosqich bo'ldi.

Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi va ularning o'zbek davlatchiligi tarixida tutgan katta nufuzini ko'rsatuvchi yangi adabiyotlardan professor H. Bobobekovning 1996 yilda “Fan” nashriyotida chop etilgan “Qo'qon tarixi” kitobini ko'rsatish mumkin. Bu boradagi eng so'nggi adabiyotlardan mualliflar jamoasi tomonidan yozilgan “O'zbek davlatchiligi tarixi” ham muhim ahamiyatga molikdir. O'zbek xonliklari tarixining yangicha talqinlari O'zbekiston milliy ensiklopediyasida ham berilgan bo'lib, undagi maqolalar ham ilmiy, ham ommabop xarakterga egadir.

Buxoro xonligi va Buxoro amirligi tarixi taniqli tarixshunos olim Hamid Ziyoev, Xiva xonligi tarixi tarix fanlari nomzodi, dotsent Ne'mat Polvonov, Qo'qon xonligi tarixi esa tarix fanlari doktori, professor Haydarbek Bobobekovlar tomonidan yozilgan. Ushbu maqolalar tarix fanining eng so'nggi yutuqlari va yangicha konsepsiya ruhida yozilgan.

Shu bilan birga tarix va tarixshunoslik tahlili amalga oshirilgan muhim tadqiqotlar Vatan tarixini chuqur bilish va o'rganish qaror qilgan har bir talabaning e'tiboridan chetda qolmasligi tabiiydir. Zero, ular boy o'tmishimiz, jo'shqin silsilalari

tizimidan iborat haqqoniy ilmiy manzarasini beruvchi bilim manbalaridir.

Shu narsa ayonki, xalq ta'limi tizimimiz, shu jumladan, tarix fanidan ta'lim berish yangilanish jarayonini boshdan kechirmoqdaki, bu hol O'zbekiston tarixidan darsliklar va o'quv qo'llanmalarni vaqti-vaqti bilan yangilab, boyitib va takomillashtirib turishni zarur qilib qo'yadi. Darhaqiqat, fan ta'limi samaradorligini oshirish manfaatlari, talabalarning ongida milliy istiqlol mafkurasi va uning eng muhim tamoyilini shakllantirish zaruriyati ana shu ishni amalga oshirishni taqozo etadi.

Buyuk Amir Temur tomonidan Oltin O'rdaga berilgan kuchli zarba bir vaqtlar qudratli bo'lgan davlatning zaiflashuvi va parchalanib ketishiga sabab bo'lgan asosiy omillardan biridir. Uning o'rniga Volganing o'rta va quyi oqimida Qozon va Ashtarxon hamda Turkiya hukmronligi ostidagi Qrim yarim orolida Qrim xonliklari vujudga keldi. O'z navbatida, Amir Temur vafotidan so'ng uning avlodlari o'rtasida o'zaro urushlar Amir Temur asos solgan buyuk saltanatning parchalanib ketishiga sabab bo'ldi va shimoldan kelgan ko'chmanchi qabilalarning bu yerlarni osonlikcha egallab olishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratdi.

Ma'lumki, Sirdaryoning yuqori oqimi va Tyan-Shan tog' tizmalarining Shimoliy yon bag'irlaridan Dnepr daryosining quyi oqimiga qadar yoyilgan dashtlar "Dashti Qipchoq" nomi bilan atalgan. "Dashti Qipchoq" atamasini XI asrda Nosir Xisrav qo'llagan edi. Dashti Qipchoq XI–XV asrlarga oid arab va fors manbalarida ham tilga olinadi. Dashti Qipchoq aholisi sharq manbalarida qipchoqlar, rus solnomalarida poloveslar, Vizantiya xronikalarida kumanlar, venger manbalarida esa kunlar deb atalgan. Dashti Qipchoq XIII asr boshlarida Chingizxon qo'shinlari tomonidan bosib olingach, tarixda Jo'ji ulusi nomi bilan atalgan Oltin O'rda davlati barpo etiladi. XIV asr boshlarida Jo'ji ulusi, ya'ni Oltin O'rda ikkiga bo'linib ketadi. XIV asrning 60-yillaridan Dashti Qipchoqning sharqiy qismi "O'zbeklar mamlakati", aholisi esa "o'zbeklar" deb atala boshlangan.

Tarixiy manbalarda Shayboniyxon o'z ukasi bilan bir necha marta Movarounnahr hukmdorlari va noiblari – Turkiston va O'tronni idora qilgan noib Muhammad Mazid Tarxon, Samarqand hokimi Ahmad Mirzolar huzurlariga kelganda yaxshi kutib olganliklari va homiylik qilganliklari ko'rsatiladi. Shayboniyxon bir necha vaqt Buxoroda ham yashagan va Dashti Qipchoqqa borib kelib turgan. Buxoroda bo'lganida Shayboniyxon ma'rifatdan saboq olgan, ilm va she'riyatni sevib o'rgangan. Sig'noq shahri (Qizil O'rdaga boradigan yo'ldagi Tumanariq degan sobiq pochta bekatiga 10 km yetmasdan joylashgan Sig'noq shahrining xarobalari hozir ham mavjud) Shayboniyxonga jangsiz taslim bo'lgan. Mang'it hokimi Muso-Mirzoning yordami evaziga Shayboniy qozoqlar xoni Burunduqxon (1481–1511)ni tor-mor qiladi. Ammo keyin o'zi qattiq zarbaga uchrab, Mang'ishloq yarim oroliga qochadi. Samarqand hokimi Ahmad Mirzo mo'g'ullarning tinimsiz qilib turgan hujumidan tinkasi qurib, Shayboniyxonga yordam so'rab murojaat qiladi. Shu bahona bilan Shayboniyxon Movarounnahrda ikki bosqichda, ya'ni, 1488–1499- yillarda birinchi marta, 1499–1507- yillarda ikkinchi marta yurishlar

qiladi. U birin-ketin O‘ror, Yassi (Turkiston), Buxoro, Samarqand hamda Farg‘ona hududlarini egallab oladi.

Temuriylar sulolasining nomini jahonga taratgan vakillaridan biri Zahiriddin Muhammad Boburdir. U 1483 yilda Andijonda tug‘ilgan. Bobur Mirzoning otasi – Umarshayx Mirzo (1451-1494) Farg‘ona viloyati hokimi, onasi Qutlug‘ Nigorxonim Mo‘g‘uliston xoni va Toshkent hokimi Yunusxonning qizi edi. 1469 yilda Sulton Abusayid vafotidan so‘ng temuriylar saltanati yana ikki qismga bo‘linib ketganligi tarixdan ma‘lum. Movarounnahrda Sulton Abusayid avlodlari navbat bilan hukmronlik qildi. Dastlab uning o‘g‘li Sulton Ahmad Mirzo (1469–1494), so‘ngra Sulton Mahmud Mirzo (1494–1498) va nihoyat Mahmudning o‘g‘li Sulton Ali Mirzo (1498–1500) mustaqil hukmronlik qiladilar. Farg‘onada Umarshayx hokimlik qilar edi.

Ushbu hukmdorlar orasida ayniqsa, Sulton Ahmad uquvsiz, sustkash bo‘lgan. Uning davrida siyosiy tarqoqlik va toj-u taxt uchun kurash avj olgan edi. 1494 yilda Sulton Ahmad Mirzo Mo‘g‘uliston xoni Sulton Mahmud o‘zaro ittifoq bo‘lib, lashkarlarini Farg‘onaga yuborgan bir paytda Umarshayx fojiali halok bo‘ladi. Bu davrda Bobur Mirzo endigina 12 yoshga to‘lgan edi. U valiahd sifatida taxtga o‘tiradi (1494 yil, iyun). Yosh va tajribasiz Bobur Mirzo yuqori tabaqa vakillari o‘rtasidagi siyosiy tarqoqlik kurashiga aralashishga majbur bo‘ladi. U ulug‘ sohibqiron bobosi davlatini birlashtirishni o‘zining ezgu niyati deb bilar edi. Ana shu ezgu maqsad bilan harakat qilgan Bobur Mirzo boshchiligidagi Andijon qo‘shinlari 1495–1496- yillarda Samarqandga ikki marta muvaffaqiyatsiz yurish qiladi. 1497 yil kuzida u Samarqand atrofidagi bir qancha joylarni va yetti oylik hamaldan so‘ng Samarqandni egallaydi, Boysung‘ur Qunduzga qochadi. Zahiriddin Bobur bobosi Amir Temurning rasmiy poytaxti Samarqandda bor yo‘g‘i yuz kungina hukmronlik qiladi, xolos. U tez orada Andijonga qaytishga majbur bo‘ladi.

Buni muarrixlar har xil sabablar bilan izohlaydi. Birinchi sababi, Samarqand uzoq vaqt qamal qilinganligi oqibatida shaharda oziq-ovqat tanqisligi kuchaygan. Ikkinchi sababi esa, Bobur Mirzoning yo‘qligidan foydalangan mahalliy hukmdorlar Andijonda qo‘zg‘olon ko‘taradilar va shaharni qo‘lga oladilar. Bobur Mirzo Andijondagi o‘zboshimcha beklarni tanobini tortib qo‘yish maqsadida Samarqanddan chiqib Andijon sari otlanadi. Samarqand yosh shahzoda xotirasida juda chuqur iz qoldiradi. Bu Bobur Mirzoning Movarounnahr poytaxtiga birinchi bor qadam qo‘yishi edi.

1498 yilda Buxoroda turgan temuriylardan bo‘lmish Sulton Ali Samarqandga kirib keladi. Uning ixtiyorida qurolli kuch yo‘q bo‘lib u amirlar qo‘lida shunchaki bir qo‘g‘irchoq edi, xolos. Mamlakatdagi bunday boshboshdoqlik, boshqaruv tizimining tez-tez bir qo‘ldan ikkinchi qo‘lga o‘tib turishi, xalqning og‘ir iqtisodiy ahvoli Movarounnahr tuprog‘idan temuriylarni surib chiqarishni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ygan boshqa bir turkiy qabila – Dashti Qipchoqdagi chorvador o‘zbek nomi bilan ataluvchi qavmlarning Muhammad Shayboniyxon boshchiligidagi bu hududlarni egallab olishlariga yordam berdi.

Muhammad Shayboniyxon 1500 yilda jangsiz Samarqandni egalladi. U shaharni talaydi, temuriy shahzodalarni qilichdan o'tkazadi, aholiga esa katta va og'ir soliqlar solinadi. Bu hol Samarqand shahri aholisining noroziligiga sabab bo'ladi. Natijada, ushbu noroziliklar qo'zg'olonga aylanib ketadi. Qo'zg'olonga Abulmakarim boshchilik qiladi. Shayboniyxon ushbu davrda Samarqandda 600 kishini qoldirib, o'zi Ko'li Malikda dam olayotgan edi. Shunda Samarqand shahri ahli 19 yoshli Bobur Mirzoni Samarqandga chorlab, shahar darvozalarini unga ochib berdilar. Shayboniyning Samarqand shahrida qoldirib ketgan 600 kishidan iborat askarlari qirib tashlandi.

Bobur Mirzo hukmdor etib ko'tariladi. Samarqand tumanlari, Qarshi, G'uzor hududlari ham Bobur Mirzo hukmronligini tan oldi. Samarqandda sodir bo'lgan voqealardan xabar topgan Muhammad Shayboniyxon Turkiston atroflaridan katta qo'shin to'plab yana Samarqand sari yurdi. Ushbu davrda Samarqandda og'ir vaziyat vujudga kelgan edi. Qurg'oqchilik tufayli shahar oziq-ovqat va yem-xashak tanqisligiga uchradi. Natijada, Bobur Mirzo lashkarlarining bir qismini tarqatib yuborishga majbur bo'ladi. U oz sonli qo'shin bilan qolgan edi. Bundan foydalangan Shayboniyxon hujum boshlaydi. Bobur Mirzo Kesh va Toshkentdan kelayotgan yordamchi kuchlarni kutmasdan, jangga kiradi. Zarafshon qirg'og'ida bo'lgan jangda Bobur Mirzo yengiladi va Samarqandda yashirinadi. Shayboniyxon Samarqandni uzoq vaqt qamal qiladi. Shaharda misli ko'rilmagan og'ir ahvol yuzaga keldi. Bobur Mirzo och-yalang'och qolgan Samarqandni yarim tunda tashlab, Toshkent tomon otladi. U tog'asi Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon huzuriga Samarqandni qaytarib olishda yordam so'rab boradi. Biroq, Muhammad Shayboniyxon Bobur Mirzo, Sulton Mahmudxonning birlashgan qo'shinlarini yengadi. Bobur Mirzo Mo'g'ulistonga qochishdan boshqa chora topa olmadi. Bu davrda Andijon ham Shayboniyklar tomonidan egallangan edi. Muhammad Shayboniyxon 1505 yilga kelib butun Movarounnahrni egallab bo'lib, Xurosonni qo'lga kiritish maqsadida tayyorgarlik ko'rayotgan edi.

Bobur Mirzo 1504–1507- yillarda Mo'g'uliston va Movarounnahr yerlarida quvg'inda yuradi, nihoyat oz sonli lashkar bilan Hisor tog'laridan oshib, Qobul shahrini egallaydi. U boshidan juda og'ir kunlarni o'tkazdi. Bobur Mirzoning qizi Gulbadanbegim (1523–1603) o'zining "Humoyunnoma" asarida bunday deb yozgan edi: "To'liq 11 yil davomida Movarounnahr o'lkasida, chig'atoy, temuriy va o'zbek sultonlari bilan shunday janglar va mudofaalar qiladilarki, ularning sanog'ini batafsil bayon qilishga qalam ojiz va nuqsonlidir. Oxirgi hamrohlari va qarindoshlari bo'lib, jami 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo'llarida tayoq bo'lgani holda beyarog', xudoga tavakkal qilib Badaxshon va Qobulga qarab yo'l oldilar".

Bobur Mirzo Afg'onistondagi tarqoq qabilalarni birlashtirdi. Qobuldan so'ng G'azna egallandi. Qobul Bobur Mirzo davlatining poytaxti edi. U 1508 yilda rasmiy suratda o'zini Afg'onistonning podshosi deb e'lon qiladi. Hatto Xuroson hukmdori Husayn Boyqaro Bobur Mirzo bilan birgalikda Muhammad Shayboniyxonga qarshi jangga o'tlanishga o'zaro kelishib olgan edi. Faqat Husayn Boyqaro Mirzoning 1506

yildagi kutilmagan bevaqt o‘limi ushbu rejaning amalga oshuviga imkon bermadi. Muhammad Shayboniyxon Movarounnahr so‘ng Xurosonni egallab, ushbu hududlarni temuriylardan tortib oldi.

R. Shamsutdinov va Sh. Karimovlarning “Vatan tarixi” asarining uchinchi kitobi 1997 yilda nashr etilgan “Vatan tarixi” (Birinchi kitob) o‘quv qo‘llanmasi va 2003 yilda nashr qilingan “Vatan tarixi” (XVI–XX asr boshlari) (Ikkinchi kitob)ning davomi bo‘lib, unda o‘zbek va jahon tarixshunosligining hozirgi bosqichdagi yutuqlariga hamda milliy istiqlol mafkurasi g‘oyalariga asoslangan holda O‘zbekistonning 1917 yil fevral inqilobidan to 1991 yil 31 avgust – O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligiga erishgan davriga qadar sodir bo‘lgan muhim tarixiy voqealari yoritilgan. Kitobda sovet mustamlakachiligining o‘rnatilishi va unga qarshi o‘lkamiz xalqlarining milliy-ozodlik kurashlari, O‘zbekistonning sovet rejimi sharoitidagi ahvoli, xalqning tortgan zahmatlari, ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki, sovetlar istibdodining kuchayishi va unga qarshi milliy uyg‘onish va uning bosqichlari, istiqlol uchun kurash keng ko‘lamdagi, xilma-xil hujjatli manbalar asosida aks ettirilgan. Kitobdan universitetlar, oliy o‘quv yurtlari tarix fakultetlari talabalari, shuningdek, keng kitobxonlar ommasi foydalanishlari mumkin.

Vatan tarixidan yaratilayotgan barcha ilmiy tadqiqotlar, o‘quv qo‘llanma, darsliklar, risola, maqola va boshqa o‘quv materiallari, tarix fanidan nomzodlik hamda doktorlik dissertatsiyalari uchun “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch” kabi asarlari asosiy dasturilamal, metodologik-nazariy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

“Vatan tarixi” kitobi ham xuddi ana shu asoslarda yaratildi. Unda O‘zbekiston yangi tarixining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lgan sovet mustamlakachiligi davri tarixi ham imkon boricha jahon va o‘zbek tarixshunosligining hozirgi taraqqiyoti bosqichi nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, eski, kommunistik siyosat va mafkura aqidalaridan tamomila xoli ravishda voqea-jarayonlar mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

“Tarix xotirasi, – deb ta’kidlagan edi Birinchi Prezident I. A. Karimov, – xalqning, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o‘zlikni anglash, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Tarix millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda. Axloqiy tarbiya va ibrat manbaiga aylanmoqda”.

Islom Karimov istiqlolimizga tashqari va ichkaridan mafkuraviy tahdid solayotgan vositalardan biri tariximizni soxtalashtirish hamda buzish ekaniga bir qancha bor alohida e’tibor qaratdi. Hozirgi kundagi mafkuraviy tahdidlardan biri – “bu o‘zbek millatining tarixini soxtalashtirish, turli xil g‘ayriilmiy talqinlar, siyosiy shiorlar bilan bizni tariximizdan, sharafli o‘tmishimizdan judo qilishga urinish tarzida namoyon bo‘lmoqda. Xorijdagi ba’zi bir siyosiy arboblardan va olimlarning da’volariga ko‘ra, alohida o‘zbek degan millat yo‘q emish, balki umumiy turkiy xalq bor emish. Shuning uchun o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, boshqird, tatar, uyg‘ur va hokazo tushunchalarga

barham berish kerak emish”. Bunday qarashlarga Islom Karimov munosib javob berib, har bir xalq kabi o‘zbek xalqining ham tarixi barqarorligini zo‘r kuch bilan ta’kidlab kelmoqda.

“Turkiston” gazetasi muxbirining savoliga javob berarkan, yo‘lboshchimiz shunday degan edilar: «Biz jahon maydonida kuni kecha paydo bo‘lgan xalq emasmiz. Bizning millatimiz, xalqimiz ko‘hna Xorazm zaminida “Avesto” paydo bo‘lgan zamonlardan buyon o‘z hayoti, o‘z madaniyati, o‘z tarixi bilan yashab keladi. O‘zbek millati O‘zbekxon nomidan tarqagan emas, balki O‘zbekxon o‘zbek millati nomini o‘ziga nom qilib olgan bo‘lsa ajab emas». Ayni vaqtda yo‘lboshchi o‘zbekning qadim tarixiy ildizlari turkiy xalqlar bilan bir ekanini, bu birlik til, din, urf-odat, qadriyatlar va madaniyatda namoyon bo‘lganini e’tirof etib, turkiy xalqlar bilan har tomonlama aloqalarni rivojlantirish tomondorimiz”, deb aytgan edi. “Lekin, – deb ko‘rsatadi I. A. Karimov, – biz o‘zimizni hamisha mustaqil millat – o‘zbek xalqi sifatida his etib kelganmiz va bu bilan faxrlanamiz. Bunga tarixiy, ilmiy, madaniy asoslarimiz bor. Bugun dunyo hamjamiyati bizning buyuk tariximiz va muvaffaqiyatimizni e’tirof etib, bugungi kunda bizni shu nom bilan taniydi va hurmat qiladi”.

Mazkur savol-javobda sovet davrida Vatanimiz tarixini o‘rganish, qariyb 75 yillik hayotimizni xolisona baholash, mushohada qilish bo‘yicha ham I. A. Karimov qator metodologik, nazariy, ilmiy g‘oyalarni ilgari surdi. Yangidan barpo etilgan “Xotira” maydoni xususida to‘xtalib, Islom Karimov ushbu maydon xalqimizni tarixiy xotira sifatida birlashtirishiga xizmat qilishini alohida ta’kidlab o‘tgan.

U o‘sha mustabid sovet tuzumi, “qattol zamon” taqozosi bilan xalqimiz o‘z davrida biri “qizil askar”, biri “bosmachi”, biri “quloq”, biri “komissar”, yana biri “mushtumzo‘r”, yana biri “yo‘qsul” deb guruhlariga ajratib tashlanganini qayd etib, sovet hukumati “bo‘lib tashlab, hukmronlik qilish” uchun eng makkor usullarni ishga solganini, bir millat vakillarini bir-biriga qarshi qayrab, adovat va nizo urug‘ini sochganini ham ko‘rsatib beradi. “Lekin, – deb aytgan edi u, – aslida ularning barchasi bitta xalq farzandlari, bir millat vakillari edi. Endi oradan shuncha yillar o‘tib ketgach, biz uchun na bosmachi, na qizil askar bor. Shu bois ota-bobolarimizga ana shunday ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz, balki ularning hayotini, ular yashagan davr mohiyatini to‘g‘ri tushunishga harakat qilishimiz lozim”.

I. A. Karimovning Toshkent viloyati kengashida so‘zlagan nutqida metodologik asoslardan muhimi bo‘lib xizmat qiladigan mana bu fikri ham g‘oyat qimmatli bo‘lgan edi: “Ona yurtimiz Turkistonga yov bostirib kelganda ham, “bosmachilik” degan uydirmalar chiqqan paytda ham, so‘nggi yillar davomida “O‘zbek ishi”, “paxta ishi” degan malomat va bo‘htonlar avj olgan, desantchilar kelib xonadonlarimizning boshiga yog‘ilgan balo-ofatlarning barchasining sababi va ildizini yurtimizda adolat mezoni buzilganidan ko‘rish kerak. O‘ylaymanki, qachonki shu ko‘z bilan tariximizning alamli sahifalariga to‘g‘ri baho va izoh bersak, ko‘p narsani joy-joyiga qo‘yishimiz mumkin. Shunday vazifani avvalambor olimlarimiz, tarixchilarimiz, adabiyotchilarimiz, el-

yurtimizning haqiqiy vatanparvarlari o‘z zimmasiga olishi darkor”. Bu kabi fikr-mulohazalar, metodologik, konseptual qarashlar ham ushbu “Vatan tarixi” kitobiga asos qilib olindi.

Mualliflar kitobni tayyorlashda o‘zlariga qadar matbuotda e‘lon qilingan O‘zbekiston tarixiga oid tarixiy-ilmiy, badiiy-publitsistik, ommabop asarlar va adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari materiallaridan mustaqillik va milliy istiqlol mafkurasi talablari asosida ijodiy foydalanganlar.

Ayniqsa, bu o‘rinda “O‘zbekistonning yangi tarixi. Ikkinchi kitob. O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida” fundamental ilmiy tadqiqot kitobidan keng va samarali foydalanildi. Ishni tayyorlash jarayonida O‘zbekiston davlat arxivi va uning viloyatlardagi bo‘limlari, Respublika Milliy xavfsizlik xizmati arxivlaridan mamlakatimiz tarixining tahlil qilinayotgan davriga oid yangi qo‘shimcha materiallar o‘rganilib, ilmiy-amaliy muomalaga kiritildi.

Bundan tashqari, mualliflar bir qator xorijiy mamlakatlarda – Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Qozog‘iston, AQSh, Turkiya, Angliya, Germaniya va Fransiyada nashr bo‘lgan vatanimiz tarixiga oid yangi manbalarni, arxiv hujjatlarini o‘rgandilar, xorijdagi vatandoshlar bilan jonli muloqotda bo‘lib, g‘oyat qimmatli materiallar bilan qaytdilar. Ushbu materiallar mazkur kitobga yangi mazmun va ruh baxsh etdi.

Albatta, “Vatan tarixi” asarida ba‘zi kamchiliklar va munozarali fikr-xulosalar bo‘lishi mumkin. Qo‘llanmaning birinchi bob 3-fasli, uchinchi bobining “Yosh xivaliklar” faoliyati, “Yosh buxoroliklar” harakati, “Yosh Buxoroliklar”dagi bo‘linish, Buxoro kompartiyasining tashkil etilishi, milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashgan siyosiy partiya va tashkilotlar faoliyatlarini yoritishda tarix fanlari nomzodi, dotsent Sotim Xolboevning materiallaridan foydalanildi. Unga ko‘ra, 1917 yil Oktyabr to‘ntarishi Turkiston xalqlari tarixida Rossiya mustamlakachiligining yangi davrini boshlab berdi. Bu davr sovetlar saltanati mustamlakachiligi davri bo‘lib, u to 1991 yil avgustga qadar davom etdi. Sovetlar davrida amalga oshirilgan “qizil saltanat” mustamlakachiligi siyosati Rossiya imperiyasi yurgizgan mustamlakachilik siyosatidan quyidagilar bilan farqlanadi.

Birinchidan, Rossiya imperiyasi mustamlakachilik, buyuk davlatchilik, millatchilik va shovinistik siyosatini hech kimdan, xalqdan, jahon afgor ommasidan yashirmasdan ochiq-oydin olib borgan, sovet davlati esa mustamlakachilik, shovinistik va “buyuk davlat shovinizmi” siyosatini riyokorona sur‘atda xaspo‘shlab, ayyorlik va tilyog‘lamalik bilan balandparvoz, havoyi va amalga oshmaydigan shiorlar va saroblar pardasiga o‘rab olib bordi. Masalan, “sovetlar davlati – umumxalq davlati”, “proletar internatsionalizmi va xalqlar do‘stligi”, “sotsializm va kommunizm g‘alabasi ishiga sadoqat”, “kompartiya – umumxalq firqasi”, “bir kishi hamma uchun, hamma bir kishi uchun!”, “Sovet xalqi – kishilarning yangi tarixiy birligi” kabi iboralar ana shular jumlasidandir.

Ikkinchidan, Rossiya imperiyasi ma‘lum ma‘noda mustamlakachilik,

bosqinchilik siyosatini yon-atrofiga qarab, xalqaro maydondagi vaziyatni hisobga olib, andak bo'lsa-da, ehtiyotkorlik bilan olib borgan edi. Zotan, Rossiya imperiyasi Buxoro amirligi va Xiva xonligini o'ziga qaram davlatga aylantirgan bo'lsa-da, ammo ularning siyosiy mustaqilligini batamom yo'q qilishga jur'at eta olmagan edi. Sovetlar esa Buxoro va Xiva davlati hududlarini dahshatli qirg'inlar evaziga bosib oldi va mustamlaka asoratiga soldi.

Taniqli etnograflar A. X. Doniyorov, O. Bo'riev va A. A. Ashirovlarning hammualliflikdagi "Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi" kitobi 9 ta bobdan iborat bo'lib, uning III bob 4-mavzusi o'zbeklarning an'anaviy moddiy madaniyatiga bag'ishlangan. Unda o'zbeklarning o'ziga xos turar-joylari, kiyimlari, taqinchoqlari, taomlari va ma'naviy hayoti haqida keng ma'lumotlar berilgan.

Ushbu adabiyotda bugungi mavzumizga oid bo'lgan, ya'ni o'zbeklarning qadimgi va bugungi turar-joylari, bezak-taqinchoqlari, ma'naviy va diniy hayoti, milliy taomlari va an'analari haqidagi ma'lumotlar mavjud. Jumladan, o'zbeklarning an'anaviy turar-joylari qadimdan o'ziga xos bo'lib, ular yashagan mintaqaning tabiiy-geografik sharoiti bilan bog'liq bo'lgan. Turar-joylar barpo etishda qurilish konstruksiyasi va uslubi, loyihasi va bezaklari bilan ajralib turgan, mustaqil va o'ziga xos Farg'ona, Buxoro, Xiva va Shahrisabz me'morchilik yo'nalishlari mashhur bo'lib kelgan. Barcha turarjoy va xo'jalik xonalarining oynalari ichkari tomonga qaratilgan. Hovli ikki qism: bolalar va ayollar uchun ichkari hovli hamda nomahram erkaklar va mehmonlar uchun mehmonxona tarzida hashamatli xonalardan iborat tashqari hovliga bo'lingan. Hunarmandlarning uylarida do'kon va shogirdlar yashaydigan xonalar ham tashqarida joylashgan. Eng ko'p tarqalgan ikki xonali uy variantlaridan biri sifatida dahliz va katta uydan iborat bo'lgan uylarni ko'rsatish mumkin. Bunday uy-joylar odatda, oldi ayvonli va ayvonsiz qilib qurilgan.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Sharq qo'lyozmalarini tadqiq etish instituti qachon tashkil etilgan?
2. Yurtimizning XV asr tarixiga oid manbalarni sanab bering.
3. Ushbu davr tadqiqotchilari haqida ma'lumot bering.
4. Sharqshunos A. A. Semyonov faoliyatini gapirib bering.
5. Turkman, tojik, qirg'iz, qozoq va qoraqalpoq tarixiga oid qanday asarlarni bilasiz?
6. Afg'on xalqi tarixi tarixshunosligi haqida ma'lumot bering.
7. Sharqiy Turkiston va Tibet xalqi tarixi tarixshunosligining asosiy jihatlarini yoritib bering.
8. Toshkent mudofaasini tashkil etgan Qo'qon sarkardasi kim edi?
9. "Tarixi Turkiston" va "Tarixi jadidayi Toshkand" asarlarining muallifini ko'rsating?

10. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan mahalliy tarixchilardan kimlarni bilasiz?

11. Turkistonning Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasida tarixshunoslikda oldingi va hozirgi nuqtai nazarni taqqoslab, o'z xulosangizni ayting.

12. O'rta Osiyoning Rossiya tomonidan bosib olinishi masalasining o'rganilishi va adabiyotlarda yoritilishiga baho bering.

13. Rossiyaning mustamlakachilik davri tarixshunosligini nechta davrga bo'lib o'rganiladi va ulardan har birining xususiyati nimadan iborat?

14. Rossiya imperiyasi aholisi sonining tez oshib borishi ruslashtirish siyosatining natijasi ekanligi haqida yozgan tarixchi kim?

15. Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatining O'zbekiston mustaqillik yillaridagi tarixshunosligiga baho bering.

16. Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida keltirilgan paxta yakkahokimligi va uning oqibatlarini haqidagi fikrlarni boshqa misollar orqali tushuntirib, asoslab bering.

17. "Dukchi eshon voqeasi" asarining muallifi kim?

18. 1916 yildagi milliy-ozodlik harakati tarixshunosligi masalasida hikoya qilib bering.

19. Milliy-ozodlik harakati tarixshunosligiga baho bering.

20. Milliy-ozodlik harakatining sovet davri tarixshunosligiga baho bering.

21. 1916 yil qo'zg'oloniga bag'ishlangan tarixiy asarlarga tavsif bering.

22. Is'hoqxon Ibratning "Farg'ona tarixi" asarida mustamlakachilik davri qanday aks etgan?

23. Mustaqillik yillarida milliy-ozodlik harakati tarixining adabiyotlarda aks etishi masalasini gapirib bering.

24. Milliy-ozodlik harakatining xarakterini tushuntirib bering.

25. Milliy ozodlik harakatlari va milliy istiqlol g'oyasi mushtarakligi nimada?

26. Turkistonda birinchi oliy o'quv yurti qachon tashkil etilgan?

27. Istiqlolchilik harakati tarixshunosligini qaysi davrlarga ajratib ko'rsatish mumkin?

28. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" madaniyat deganda nimani tushunasiz?

29. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi qachon tashkil etilgan hamda uning birinchi prezidenti kim edi?

30. Urush yillari davri tarixshunosligining sovet davrining boshqa davrlaridan farqli xususiyatlarini aytib bering.

31. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" madaniyat tushunchasining mohiyatini izohlab bering.

32. O'zbekistonning sovet davri tarixshunosligiga baho bering.

33. XX asr adabiyotlaridagi umumiylik nimada namoyon bo'ladi?

34. Xalqlar tarixini yozishga sovet mafkurasi qanchalik ta'sir qilgan?

35. Sovetlar tassarrufida bo‘lmagan xalqlar tarixiga oid adabiyotlarda farqlar bormi?
36. I. Karimov “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” nomli nutqini qaerda so‘zlagan edi?
37. Mustaqillik yillarida nashr etilgan tarixiy tadqiqotlarning o‘ziga xosligi nimada?
38. Mustaqillik yillarida tarixning qaysi jabhalari ko‘proq o‘rganilgan?
39. Qoraqalpog‘iston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari tarixiga oid eng muhim adabiyotlar haqida ma’lumot bering.
40. Mazkur davlatlarida amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot tarixshunosligi xususiyatlarini izohlang.
41. Qoraqalpog‘iston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston davlatlari tarixi tarixshunosligi haqida ma’lumot bering.
42. Mazkur davlatlarda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy hayot tarixshunosligi haqida nimalar bilasiz?

SEMINAR MASHG‘ULOTLARI MAVZULARI VA ULARNING REJALARI.

1- mavzu: TARIXSHUNOSLIK FANI, UNING VAZIFASI. ILK O`RTA ASRLARDA O`RTA OSIYODA TARIX FANI

REJA:

1. Tarixshunoslik fanining predmeti, manbalari, metodologiyasi va vazifalari.
2. Yunon tarixshunosligi. Musulmon tarixnavisligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
3. Ilk o‘rta asrlar tarixshunosligi. Tarixnavislik usuli.
 4. At-Tabariy va uning "Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi" asari.
 5. Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asari va uning tarixshunoslikdagi ahamiyati.

E‘tibor bering:

Kirish. Tarixshunoslikning tarix fani tarixini o‘rganishi. Tarixshunoslik tarixi. Tarixshunoslikning ma‘nosi. Tarixshunoslikning davrlanishi. Tarixshunoslikning tadqiqot usullari. Tarixshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.

Yunon tarixshunosligi. Geradot (mil.av. VI)ning "Tarix", Strabon (mil.av. 64-24 yy.) ning "Geografiya" asarlari. Fukidid. Birinchi ilmiy tarixiy asarlar. Musulmon tarixnavisligi. Musulmon tarixnavisligining ijtimoiy tafakkuri. XX asrda tarixshunoslik ilmi. Tarixshunoslik sektori, bo‘limi.

Ilk o‘rta asrlardagi tarixnavislik, uning rivoji va usullari. Eftaliylar, Turk xoqonligi. Turk xoqonligi to‘g‘risidagi tarixiy ma’lumotlar. Arablar istilosi. Inson faoliyatining barcha sohalarida islom dinining hukmronligi.

At-Tabariy (838-923 yy.) va uning "Tarix ar-rasul va-l-muluk" ("Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi") asari.

Narshaxiy (899-959 yy.) - dastlabki mahalliy tarixnavis olim va uning "Buxoro tarixi" nomli asari.

Adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik.- T.: O'zbekiston, 1993.
2. Saidqulov T. S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism). - T.: O'qituvchi, 1993.
3. Hamidov A. B. Arabskie rukopisi i arabskaya rukopisnaya traditsiya.- M.,1985.
4. Nuriddinov Z. G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi.- T., 1977.
5. Kamoliddinov Sh. S. Istoricheskaya geografiya yujnogo Sogda i Toxaristana po araboyazychnym istochnikam. IX- nachalo XIII vv.- T., 1990.
6. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 1991.
7. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 2001.
8. Abu Toxirxoja va boshqalar. Narshaxiyning "Buxoro tarixi".- T.: Kamalak, 1991.

2-mavzu: XII-XIV ASRLARDA O'RTA OSIYODA TARIX ILMINING RIVOJLANISHI. AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRI TARIXSHUNOSLIGI.

REJA:

1. Musulmon Uyg'onish davri haqidagi tarixiy adabiyotlar va uning O'rta Osiyodagi ta'siri.
2. Abulfazl Bayhaqiyning "Ma'sud tarixi" asari va uning tarixshunoslikdagi o'rni.
3. Rashididdinning "Jome' ut-tavorix" va "Yozishmalar" asarlari tarixshunosligi.
4. Amir Temur va uning zamonasi haqida O'rta Osiyo tarixshunosligi.
2. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asari tarixshunosligi.
3. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari va uning tarixshunoslikdagi ahamiyati.
4. Ulug'bek hayoti va faoliyatiga oid O'rta Osiyo tarixshunosligi.

E'tibor bering:

IX-XI asrlardagi arab sayyohlarining tarixiy-geografik asarlari. Musulmon uyg'onish davri. Dunyoviy va diniy bilimlar, ularning bir-biriga ta'siri.

Abu Rayhon Beruniy (973-1048 yy.) ning "Osor ul -boqiya", "Xronologiya", "Mashoxir Xvarizam", "Hindiston " asarlarida tarixiy ma'lumotlar to'plash va izohlash uslubi.

Tarixiy bilimlarning rivojlanishida yangi shakl, yangi mazmun. Beruniy asarlarining musulmon tarixshunosligidagi o'rni.

Abulfazl Bayhaqiy va uning tarixiy asarlarida voqealar bayoni usuli. Musulmon uygʻonish davri haqidagi tarixiy asarlar. "Renessanizm". A. Mets. «Musulmon uygʻonish davri». Rekendorf.

Mo'g'ullar bosqini davri tarixshunosligi. Rashididdinning "Jome' ut-tavorix" asari va uning manbalari, manbalarni yoritish uslubi. Asarda mo'g'ullar hukmronligi davrida O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti masalalari. Xitoy rohibi Chan Chun kundaligi. Qazviniyning (1281-1350yy.) "Tarixi guzida" asari va uning tarixiy bilimlar rivojidadagi ahamiyati. Ibn Battutaning sayohati. Otamalik Juvayniy.

Amir Temur davrida tarixiy bilimlar. Amir Temurning davlatchilik tarixini o'rganilishi. Amir Temur va uning zamonasi haqida O'rta Osiyo tarixshunosligi. "Temurnoma", "Temur tuzuklari" asarlari. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma", G'iyosiddin Alining "Ro'znomai G'azavoti Hindiston", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarlari va ularning tarixiy bilimlar rivojiga ta'siri. Ibn Arabshosh asari, Klavixov kundaligi. Abdurazzoq Samarqandiy (1413-1482) ning "Matlai sadayn va majmai bahrayn" asarida Amir Temur davri tarixining yoritilishi. Amir Temurning Evropa davlatlari bilan olib borgan diplomatik yozishmalari. Davlatshoh Samarqandiyning "Tazkirat ush-shuaro" asari. Amir Temur haqida bitilgan xorijiy mamlakatlar tarixchilarining asarlari. Temuriylar davrida tarixiy bilimlar. Xo'ja Ahror Valiyning (1404-1490) "Risolai Validiya" va Husayn Boyqaroning "Risola" asari. Tarixchi Xondamirning (1475-1535) "Xabib us-siyar" asarlarida tarixiy voqealarni yoritish uslubi. Temuriylar davri hozirgi davr tarixchilarning asarlarida. Temur va temuriylar davri tarixi muammolari.

Adabiyotlar:

1. Saidqulov T. S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism). - T.: O'qituvchi, 1993.
2. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 1991.
3. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar). - T.: O'qituvchi, 2001.
4. Axmedov B. Tarixdan saboqlar. - T.: O'qituvchi, 1994.
5. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. - T.: Yozuvchi, 1993.
6. Muhammadjonov A. A.Temur va temuriylar saltanati. - T., 1994 .
7. Boboev X. Amir Temur va temuriylar davrida qonunchilik. "Muloqot" jurnali, 1996.
8. Temurnoma.- T.: Cho'lpon, 1990.
9. Amir Temur o'gitlari.-T.: Navro'z, 1991.
10. Axmedov B. Amir Temur.- T.: Yozuvchi, 1995.
11. Cherevanskiy V. Amir Temur.- T.: Yozuvchi, 1993.
12. Temur Tuzuklari. A.Sog'uniy va X. Karomatov tarjimasini.- T., 1991.
13. Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma".- T., 1997.
14. Xolbekov M. Amir Temurning Yevropa qirollari bilan yozishmalari.- T., 1996.

3-mavzu: XVI-XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA O'RTA OSIYO TARIXSHUNOSLIGI. XIX – XX ASRNING BOSHLARIDA SHARQ VA O'RTA OSIYONING O'RGANILISHI.

REJA:

1. XVI-XVIII asr oxirlarida O'rta Osiyo haqidagi tarixiy-geografik asarlar.
2. O'rta Osiyo xalqlarining XVIII asr oxiri- XIX asrning birinchi yarmi tarixining tarixshunosligi. Tarixnavislarning asarlarida voqealar bayoni usullari.
3. O'rta Osiyoni o'rganish bo'yicha rus sharqshunosligining dastlabki qadami.
4. Rossiyada XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida sharqshunoslikning ahvoli va rivojlanish tarixidan.
5. XIX asr birinchi yarmida Rossiyada O'rta Osiyo va Sharqning o'rganilishi.

E'tibor bering:

XVI-XVIII asrlardagi tarixiy- geografik asarlarda O'rta Osiyo xalqlarining siyosiy-iqtisodiy hayoti. Abulg'ozzi Bahodirxon o'z davrining atoqli tarixchisi, uning "Shajarai turk" asarida tarixiy voqealarning yoritilishi, talqini. "Tarixi Abulxayrxoniy". Binoiy va Muhammad Solih asarlarida ko'chmanchi o'zbeklar davlati tarixining yoritilishi. Hofiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomai shohiy" asarida XVI asrda Markaziy Osiyo xalqlari tarixi muammolari. Siyosiy-tarqoqlik va feodal boshboshdoqlik davrida tarixiy bilimlar. Muhammad Bahodirxonning "Subhonqulixon" nomli kitobi. Buxoro va Qo'qon xonliklari tarixiga oid asarlar. Xiva tarixnavislari Munis va Ogahiyning "Firdavs ul-iqbol", "Riyozi ud-davla", "Gulshan ul-davla", "Shohidi iqbol" asarlarida Xiva xonligi, turkmanlar va qoraqalpoqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti masalalarining yoritilishi. Qo'qon xonligi tarixshunosligi. Fazliyning "Umarnoma", Muhammad Hakimxonning "Muntaxab ut- tavorix", Muhammad Solih Toshkandiy, Avaz Muhammad Attor Xo'qandiy, Cho'qan Valixonovlarning tarixiy asarlarida Qo'qon xonligi va qirg'izlar tarixi masalalarining yoritilishi. Ahmad Donish, Sadridin Ayniy, Abdurauf Fitratlarning tarixiy asarlari. Rus sharqshunosligida O'rta Osiyo xalqlari tarixi masalalarining yoritilishi. N.Ya. Bichurin, N.N.Grigor'ev, V.V. Bartol'd, A. Kun, N.I.Veselovskiy.

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olinishi tarixshunosligi masalasi. Mirza Salimbek, Mirza Abdulazim Somiy va uning "Tarixi salotini mang'itiya" asari. Toshkent himoyasi. Salohiddin Toshkandiy va "Temurnoma" asari. Mirza Olimning "Tarixi Turkiston" asari. "Mulla Alimqul jangnomasi". Ahmad Donishning "Risolai tarix" asari. O'rta Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng tarixiy o'lkashunoslik. N.V. Xanikov va "Buxoro xonligi tavsifi" asari. Rus olimlari tomonidan o'lkaning tabiati, tarixi va moddiy boyliklarini keng va sistemali o'rganilishi.

Adabiyotlar:

1. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 1991.
2. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 2001.
3. Axmedov B. Amir Temur.- T.: Yozuvchi, 1995.
4. Saidqulov T. S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism).- T.: O'qituvchi, 1993.
5. Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy. - T., 1999.

4-mavzu: O'ZBEKISTONNING XX ASR TARIXIGA OID MANBALAR. SOVET DAVRIDA O'RTA OSIYODA TARIX FANI.

REJA:

1. O'zbekistonning XX asr boshlaridagi tarixi tarixshunosligi.
2. O'zbekistonning 1917-1920 yillardagi tarixini yorituvchi manbalar.
3. XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmi – 50- yillarida O'zbekistonda tarix fani.
4. XX asrning 60-80 yillari o'rtalarida O'zbekistonda tarix fani taraqqiyoti.
5. Qayta qurish yillari (1986-1991 yillar)da ilm-fanda oshkoralik to'loqini. Tarixshunoslikda erkin fikrlash, xolislik.

E'tibor bering:

O'zbekistonning XX asr boshlaridagi tarixi (1917- yilgacha) yoritilgan manbalar. XX asrning keyingi yillari, aniqrog'i, 1917-yildan keyingi davr tarixi O'zbekistonda sho'rolar hukmronligi bilan bog'liq bo'lgan tarixiy manbalar. Rossiyadagi fevral inqilobi va Turkistondagi siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi materiallar. Statistik to'plamlar. Ish yuritish hujjatlari. Davriy matbuot materiallari.

Turkiston xalqlari tarixi tarixnavisligining buzilib borish jarayoni. Mahalliy ziyolilarga qarshi siyosiy hujum. Ikkinch jahon urushi yillarida O'zbekistonda tarix fani. O'zbekiston Fanlar Akademiyasining tashkil topishi.

1955-1985 yillarda O'zbekistonda tarix fani taraqqiyotining murakkab va turli bosqichlari. Qayta qurish siyosati. Ilm-fanda oshkoralik to'loqini. Tarixnavislikda erkin fikrlash. O'zbekiston tarixining soxtalashtirilgan va noto'g'ri tasvir etilib kelingan sahifalarini yangi tafakkur asosida talqin etishning boshlanishi.

Adabiyotlar:

1. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 1991.
2. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 2001.
3. Axmedov B. Amir Temur.- T.: Yozuvchi, 1995.
4. Saidqulov T. S. O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism).- T.: O'qituvchi, 1993.

**5-mavzu: MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA TARIX FANINING
RIVOJLANISHI. MUAMMOVIY TARIXSHUNOSLIK. OG'ZAKI TARIX.
ZAMONAVIY TARIXSHUNOSLIK VA ISTIQBOLDAGI VAZIFALAR.**

REJA:

1. Mustaqil O'zbekistonda tarix fani, uning taraqqiyotdagi yangi bosqichi.
2. Islom Karimov asarlari - mustaqil O'zbekiston tarixining ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari.
3. O'zbekiston xalqlari tarixi tarixshunosligi va jahon xalqlari tarixi tarixnavisligi.
4. Muammoviy tarixshunoslik tushunchasi.
5. Og'zaki tarix tushunchasi va uning tarixshunoslikdagi ahamiyati.
6. Zamonaviy tarixshunoslik va istiqboldagi vazifalar.

E'tibor bering:

Mustaqil O'zbekiston. Milliy qadriyatlarning qayta tiklanishi. Mustaqillik davrida tarix fani, uning vazifalari, yangi muammolar, yangicha fikrlash, yangicha uslubiy qoidalar, aniq ifoda. O'zbek davlatchiligi tarixi muammolari. Mustaqillik davrida chop etilgan tarixiy asarlar. Tarixshunoslikning rivoji. Tarixiy manbalarning tahlili. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish" to'g'risidagi qarori. O'zbekiston xalqlari tarixining dolzarb muammolari. Tarix fani rivojlanishining asosiy tamoyillari. Prezident I.A.Karimov asarlarida tarix fanining metodologiyasi. Mustaqillik va tarixiy tafakkur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I. A. Buyuk maqsad yo'lidan og'ishmaylik.- T.: O'zbekiston, 1993.
2. Karimov I. A. "O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari".- T.: O'zbekiston, 1995.
3. Temur tuzuklari. - T.: Fan, 1991.
4. Axmedov B. O'zbekiston xalqlari tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 1991.
5. Axmedov B. O'zbekiston tarixi manbalari (qadimgi zamon va o'rta asrlar).- T.: O'qituvchi, 2001.
6. Axmedov B. Amir Temur.- T.: Yozuvchi, 1995.
7. Temurnoma.- T.: Cho'lpon, 1990.
8. Amir Temur o'g'itlari.-T.: Navro'z, 1991.
9. Mo'minov I. Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli.- T., 1993.
10. Muhammadjonov A. Amir Temur va temuriylar saltanati.- T., 1994.
11. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur.- T.: Fan, 1994.
12. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. 1, 2- qismlar.- T., 1992.
13. Cherevanskiy V. Amir Temur.- T.: Yozuvchi, 1993.

14. Muhammad Ali. Sarbadorlar. 1 va 2-kitob.- T.: Gʻ. Gʻulom, 1992.

15. Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish toʻgʻrisida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi qarori. Xalq soʻzi, 1998 yil iyul.

2. Qoʻshimcha adabiyotlar.

1. Azimov E. Sohibqironning demokratik islohotlari. Ishonch gazetasi, 1996 yil, mart.
2. Akramxoʻjaev O. Amir Temur va sulton Boyazid. Fan va turmush jurnali, 1990 yil, 9-son.
3. Axmedov B. Amir Temurning davlatni idora etish siyosati. Muloqot jurnali, 1994 yil 5, 6-son.
4. Azamat Ziyo. Tuzuki Jahongiriy. Guliston jurnali, 1996 yil 4-son.
6. Begmatov A. Ochilmagan Amir Temur. Guliston jurnali, 1996 yil 4-son.
7. Boboev X. Amir Temur va temuriylar davrida qonunchilik. Muloqot jurnali, 1996 yil 3-son.
8. Jalilov S. Dunyoni titratgan jahongir. Xalq soʻzi gazetasi, 1993 yil, 68-son.
9. Shiltberger I. Sulton Boyazid va Amir Temur. Guliston jurnali, 1996 yil 11-son.
10. Moʻminov I. Amir Temur ibn Taragʻay Bahodir. Fan va turmush jurnali, 1990 yil 2-son.
11. Mannanov A. Sohibqiron va Yevropa. Ishonch gazetasi, 1996 yil, 18- iyun.
12. Madxamov A. Amir Temur harbiy sanʼati haqida. Turon tarixi jurnali, 1992 yil.
13. Norqulov N. Amir Temur sarkardalari. Maʼrifat gazetasi, 1996 yil 17-aprel.
14. Raxmatullaev O. Sohibqiron islohotlari. Namangan haqiqati gazetasi, 1996 yil mart.
15. Sobirov X. Amir Temurning iqtisodiy qarashlari. Muloqot jurnali, 1996 yil, 2-son.
16. Saidqulov T. S. Oʻrta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar. (1-qism).- T.: Oʻqituvchi, 1993.
17. Kamoliddinov Sh. S. Istoricheskaya geografiya yujnogo Sogda i Toxaristana po araboyazychnym istochnikam. IX- nachalo XIII vv.- T., 1990.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

“Manbashunoslik va tarixshunoslik” fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash va tarixshunoslikdagi amaliy masalalarni yechishda ko'nikma hosil qilish uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, mustaqil ish bajaradilar. Bunda ular qo'shimcha adabiyotlarni o'rganib hamda Internet saytlaridan foydalanib referatlar va ilmiy dokladlar tayyorlaydilar, amaliy mashg'ulot mavzusiga doir uy vazifalarini bajaradilar, ko'rgazmali qurollar va slaydlar tayyorlaydilar.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan manbashunoslik va tarixshunoslik fanining xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik;
- darslik va o'quv qo'llanmalari bo'yicha fan boblari va mavzularni o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bo'limlari yoki mavzulari ustida ishlash;
- talabalarning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlar va mavzularini chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslublaridan foydalangan o'quv mashg'ulotlari.

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini va mustaqil ta'limga belgilangan soat hajmini hisobga olgan holda quyidagi mavzulardan foydalanish tavsiya etiladi:

Manbashunoslikning fan sifatida rivojlanishi

Tarixiy, nazariy va amaliy manbashunoslik

Manbashunoslik sohasining boshqa fanlar bilan bog'liqligi

Yozma manbalarning asosiy xillari

Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar

Arab yozuvidagi turkiy yozma meros

Qo'lyozmalarning jahon bo'ylab tarqalish sabablari

O'zR FA Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozmalari xazinasini

Temuriylar saltanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar

10. O'rta Osiyo haqida XVII asrgacha yozilgan yevropa tillaridagi yozma ma'lumotlar
11. Turkiston general-gubernatorligi kantselyariyasi materiallari O'rta Osiyo tarixiga oid manba
12. O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti Islom Karimov asarlari mustaqil O'zbekiston tarixi bo'yicha asosiy manba
13. Avesto, Behistun, Persepoldagi yozuvlar- qadimgi epigrafika yodgorligi sifatida
14. Sharq qo'lyozmalari va ularning sivilizatsiya tarixidagi o'rni

15. XII-XIV asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid xotiralar muhim manba sifatida
16. Ilmiy tadqiqotlarning turlari
17. O'rta Osiyo xonliklari tarixi xorijiy tarixshunoslikda
18. XVI-XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo haqidagi tarixiy geografik tadqiqotlar
19. XIX-XX asrning boshlarida Rossiya olimlari tomonidan O'rta Osiyoning o'rganilishi
20. Mustaqillik yillarida O'zbek davlatchiligi tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarning olib borishi
21. Mustaqillik yillarida O'rta Osiyo xonliklari tarixining o'rganilishi
22. O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakultetining manbashunoslik va tarixshunoslikni rivojlantirishga qo'shgan hissasi
23. Mustaqillik yillarida Amir Temur va temuriylar davri tarixining tadqiq etilishi
24. Mustaqillik yillarida ilmiy nashrlarda O'zbekiston tarixining yoritilishi

GLOSSARIY



O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida	Izoh
Ayl	Ayl	Ayl	Amir Temur askariy qismlarining o'n nafarlik bo'linmasi.
Akkor	Akkor	Akkor	Koranda; qishloqning ziroatkor aholisi.
Amid ul mulk	Amid ul mulk	Amid ul mulk	davlat hujjatlari va elchilik aloqalari vaziri.
Amir	Povelitel	Sovereign	farmon beruvchi, boshliq, hokim, qo'shin boshlig'i, sarkarda, hukmdor.
Amirlik	Emirat	Amirate	musulmon mamlakatlarida amir tomonidan boshqarilgan mamlakat yoki viloyat.
Amir ul umar	Amir ul umar	Amir ul umaro	amirlar amiri, bosh amir, bosh hukmdor.

Animizm	Animizm	Animism	ruh va jonlarning mavjudligiga ishonish.
Ark	Krepost'	Stronghold	ichki qal'a, podshoning shahar ichidagi qo'rg'on saroyi, qarorgohi.
Arbob	Gorodskogo kvartala	Figure	Buxoro amirligida qishloq yoki shaharlarda mahalla boshlig'i, oqsoqol.
Arxeolog	Arxeolog	Archaeologist	arxeologiya mutaxassisi, arxeolog olim.
Arxeologiya	Arxeologiya	Archaeology	qadimdan qolgan, qadimiy yodgorliklar, qadimgi zamonlar haqidagi fan.
Arxiv	Arxiv	Archive	davlat yoki ayrim shaxslarga tegishli muhim qadimiy hujjatlarni saqlaydigan maxsus tashkilot.
Axriman	Axriman	Ahriman	zardushtiylik dinining zulmat, o'lim va qabihlik tangrisi.
Axuramazda	Axuramazda	Ahura-Mazda	zardushtiylik oliy tangrisi, xudosi.
Begar	Begar	Begar	jamoat ishlariga safarbar etish, hashar.
Bibliya	Bibliya	Bible	Tavrot, yahudiylar va xristiyanlarning muqaddas kitobi.
Biy	Biy	Biy	urug' va qabila oqsoqoli.
Boj	Poshlina	Duty	savdogarlardan olinadigan o'lpon, soliq, tovon.
Dorgoh	Dorgoh	Dorgoh	makon, dargoh, dunyoga keladigan va unga qaytadigan azaliy muqaddas maskan (joy).
Botmon	Batman	Battement	og'irlik o'lchovi (XII-XV asrlarda 20 kg ga teng bo'lgan).
Burong'or	Burongor	Burongor	qo'shinning o'ng tomoni.
Burg'u	Rog	Bugle	karnay.

But	Idol	Idol	but, sanam, yakkaxudolik dini kelib chiqquncha urug'chilik va qabilachilik davrida keng tarqalgan majusiylik.
Budun	Budun	Budun	chorvador aholi, qora bo'dun.
Vazir	Vizir'	Vizier	devonxona boshlig'i.
Valiy	Svyatoy	Holy	avliyo, aziz, ega, sohib.
Varvar	Varvar	Barbarian	yunonlar o'zlaridan boshqa barcha xalqlarga nisbatan «varvar» so'zini ishlatganlar.
Vaqf	Vakuf	Vaqf	musulmon mamlakatlaraing masjid, madrasa va boshqa diniy masalalarga qarashli bo'lgan yer
Vaqf noma	Vakufnaya gramota	Vaqf noma	vaqf yerlarini ixtiyoriy ravishda berilganligi yoki vasiyat qilinganligini tasdiqlovchi hujjat.
Darvish	Darvish	dervish	kambag'al, so'fiy, qalandar, faqir.
Darra	Tolstaya remennaya plet'	Darra	charm va qayishdan to'qilgan yo'g'on va og'ir zarb beruvchi qurol.
Darg'achi	Darugachi	Darg'achi	mo'g'ullarda chorva xo'jaligini idora qiluvchi boshliq.
Dahma	Grobnitsa	Burial vault	maqbara, yer osti va yer usti sag'anasi, qabr ustiga qo'yilgan yodgorlik.
Devonbegi	Divanbegi	Devonbegi	vazirlar mahkamasi bosh ma'muri.
Dehqon	Krestyanin	Peasant	“qishloq oqsoqoli”, ya'ni yirik yer egasi.
Dinor	Dinar	Dinar	oltin, tanga (bir misqol 4,8 gr ga teng bo'lgan).
Dovul	Burya	Storm	katta nog'ora.
Dorug'a	Gradonachal-nik	Governor	harbiy ma'mur.
Dudan	Dudang	Dudang	hosilning oltidan ikki hisobida olinadigan dehqonchilik

			solig'i.
Jayhun	Jayxun	Jayhun	Amudaryoning nomlaridan biri.
Jahongir	Zavoevatel'	Conqueror	jahonni oluvchi, jahonni bo'ysundiruvchi.
Jome masjidi	Sbornaya mechet	Combined team mosque	jamoat namozi o'qiladigan katta masjid.
Juvong'or	Juvongar	Juvong'or	qo'shinning so'l qanoti.
Juz'ya	Djizya	Juzya	islom dini qoidasiga ko'ra g'ayridinlardan olinadigan soliq.
Jo'ji ulusi	Juji Ulus	Jochi Ulus	Chingizxon saltanatining 1224 yildagi bo'linishida uning katta o'g'li Jo'chixonga tekkan ulus.
Zakot	Zyaket	Zakot	tozalash. 1. Musulmon mamlakatlarda aholi umumiy boyligining 1/40 miqdorida har yili olinadigan diniy soliq. 2. Musulmonlarda "Tozalovchi" diniy soliq bo'lib, bu haqda "Qur'on"da oyat ham mavjud.
Zindon	Temnitsa	Dungeon	qorong'ulik, o'tmishda yer ostidagi qamoqxona, yerto'la.
Zulqarnayn	Zulkarnayn	Zulkarnayn	Aleksandr (Aleksandr Makedonskiy) ning laqabi, ikki shoxli ma'nosida.
Ilekxon	Ilekhan	Ilekxon	Qoraxoniylar sulolasiga mansub bo'lgan kichik hukmdorning unvoni.
aruz	Aruz	Aruz	she'riyat.
Imom	Imam	Imam	1. Diniy oliy rahbar, hukmdor (xalifa. Yaman viloyatining boshqaruvchisi, turklarda sulton, forslarda Hazrati Alining avlodi), 2. Shialarning oliy boshlig'i. 3. To'rt asosli mazhabdan (hanafiylar, xanbaliylar, molikiylar va

			shofe'iyalar) biriga asos soluvchi: 4. Hamma musulmonlar yoki ular bir guruhining boshlig'i, ruhoni; 5 Namozda jamoatning oldida turib, namozni boshqaruvchi.
Rasul	Poslannik	Envoy	elchi, payg'ambar.
	Registan	Registan	o'rta asrlarda shaharning markaziy maydoni.
Riyoziyot	Riyoziyot	Riyoziyot	matematika.
Sayid	Sayid	Sayid	1. Muhammad payg'ambar avlodlarining faxriy unvoni. 2. Ba'zi musulmon mamlakatlarida hukmdor unvoni.
Saltanat	Gospodstvo	Supremacy	hokimiyat, sultonlik, podsholik, hukmronlik, imperiya.
Sohibqiron	Schastlivyy	Fortunate	askar, qo'shin, jahon egasi, jahongir.
Sulton	Sultan	Sultan	podshoh, hukmdor.
Sultonlik	Saltanat	Saltanat	tepasida sulton turgan davlat, sulton hokimiyati.
Sunniy	Sunnit	Sunniy	sunniy mazhabidagilar, sunnatga amal qiluvchi musulmonlar.
Suyurg'ol	Suyurgal	Suyurgal	oliy tabaqa zodagonlarga in'om qilingan yer-mulk.
Tavrot	Tora	Torah	besht kitob, yahudiylarning muqaddas besht kitobi, qadimgi vaziyat.
Tanob	Tanap	Tanap	er o'lchovi, 2-2,5 ming kv. m hajmdagi maydoni.
Tarxon	Tarxan	Tarxan	ozod etilgan. 1. O'rta asrlardagi feodalning unvoni. 2. Soliqlar to'lashdan ozod etilgan yer va mulklar. 3. O'zbek-turk urug'laridan birining nomi.

Taxt	Tron	Throne	muayyan balandlikda oʻrnatilgan serhasham, ziynatli tayanma kursi, podsho (monarx) oʻtiradigan joy, podsholik, saltanat.
Taxt vorisi	Naslednik prestola	Heir (successor) to the throne	valiahd, saltanat vorisi, toj-u taxt merosxoʻri, merosxoʻr shahzoda, boʻlajak hukmdor.
Toj	Korona	Crown	toj-taxt, saltanat, mustabid hokimiyat belgisi.
Totem	Totem	Totem	urugʻ yoki qabila ibtidosi, urugʻ asoschisi, ajdod, urugʻ jamoalari topinadigan hayvon, oʻsimlik yoki jism.
Totemizm	Totemizm	Totemism	totemlarga sigʻinish.
Tuman	Tuman	Mist	1. Oʻn minglik harbiy qism. 2. Uezd, rayon. 3. Oʻn ming. 4. Eron tilla puli.
Tuman ogʻasi	Tuman ogasi	Tuman ogasi	oʻn minglik askariy qism amiri, qoʻmondon.
Ulam	Ulema	Ulama	olimlar, musulmon davlatlarida qozilar, musulmon ruhoniylarining yuqori tabaqasi.
Ulus	Ulus	Ulus	el, harbiy-maʼmuriy oʻlka.
Ummat	Odnoy religii	Ummat	bir tilda soʻzlashuvchi kishilar, bir paygʻambarga tobe insonlar.
Ushur	Ushur	Ushur	hosildan 10 foiz hisobida olinadigan dehqonchilik soligʻi.
Xalifa	Xalif	Caliph	oʻrinbosar, xulafo - xalifalar.
Xandaq	Transheya	Trench	mudofaa inshooti.
Xattot	Kalligraf	Calligrapher	kitob va risolalar koʻchiruvchi kotib.
Xiroj	Xaradj	Xiroj	soliqning bir turi; hosilning 20-25 foizi hisobidan olinadigan qishloq xoʻjalik soligʻi.

Xonaqoh	Molel'nya	Xonakoh	masjid ibodatxonasi, g'aribxona, musofirxona.
Shayx	Sheyx	Sheikh	islom dinida oliy ruhoniylar vakili, diniy aqidalarni biluvchi, va'z-nasihat qiluvchi, ba'zan oliy, diniy o'quv yurti talabasi.
Shayxul-islom	Sheyx-ul'-islam	Shayxul-islam	din va islom ilmi peshvosi, islom dini oqsoqoli, diniy arbob.
Shahriston	Shaxristan	Shahristan	ichki shahar.
Etnogenez	Etnogenez	Etnogenez	xalq va elatning kelib chiqishi.

